TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

TURKMAN ZAMONAVIY ADABIYOTI ANTOLOGIYASI

99

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

TURKMAN ZAMONAVIY ADABIYOTI ANTOLOGIYASI

99

"O'ZBEKISTON"
TOSHKENT — 2022

UO'K 821.512.164-3
KBK 84(5Tur)
T 89

Tahrir hay'ati:

Xayriddin Sulton – hay'at raisi,
Ibrohim G'afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo'ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo'riboyev, G'ofur Eshmurodov, G'ayrat Bozorov,
G'ayrat Majid, Bahodir Karim, Rustam Musurmon,
Risolat Haydarova, Umid Hayitov

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi

Bahodir Karim

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a'zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat "Turkiy adabiyot durdonalari" deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g'oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo'lib O'zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko'lamli, salmoqli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O'zbekiston, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro'yobga chiqarilgan tashabbusi yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san'atga ko'rsatilayotgan ulkan g'amxo'rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so'z san'atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

ISBN 978-9943-8721-6-5
©"O'zbekiston" nashriyoti, 2022

NAZM-U NASR KO'RKI

Bobolarning hikmatli so'zlariga ko'ra, "Qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur". Badiiy ijod namunalari bir joyga jamlansa, zalvorli bir ma'naviy xazina bunyod bo'ladi. Muayyan bir shoir yoki adibning milliy adabiyot tarixida tutgan o'rni shu xazinaga qo'shgan javohirining qiymati, yog'dusi, ko'lami va sifati bilan belgilanadi.

Mabodo ma'lum bir xalqqa mansub ijod ahli yozgan asarlardan saralangan namunalar bir kitobga to'plansa, tabiiyki, o'sha milliy adabiyotning poetik tutumi, holati, adabiy siymolari, mavzulari ko'lami kabi qator qirralari ayonlashadi. Shu e'tibordan zamonaviy turkman milliy adabiyotining taraqqiyot tamoyillari, shoirlarining badiiy tafakkuri, dard-u alamlari, quvonch-u qayg'ulari xususidan xabar topmoq uchun ularning qalbiga quloq tutmoq lozim. Yaqin o'tgan va bugungi yangi asr zamonida ko'plab turkman shoirlari ijod qildi; bu jarayon hozirgi kunda ham davom etayotir. Adabiy xazina xirmoni katta. Xususan, XX asr turkman adabiyotiga xos ko'p qirralar tarixiy ildizlari tutash hamda bir-birlari bilan yaqin aloqalar o'rnatgan qardosh turkiy xalqlar adabiyoti bilan o'zaro o'xshash va ayni damda o'z milliy xususiyatiga ko'ra farqlanadi ham.

Zamonaviy turkman shoirlari she'riyatida Jayxun, Qoraqum, Ashxobod, Go'ro'g'li, G'irot, cho'l, tuya, qum, karvon, sahro singari bir qator individual obrazlar ko'p qo'llaniladi.

"Cho'lim
zarra-zarra
zar bo'lib yotar,
har zarra ichinda
Vatan tutdim men..."

Juda go'zal, shoirona, ohangli va, eng muhimi, benihoya inja misralar. Bunday misralar zimnida Zamin e'zozi bor, zarra — vosita, zar esa metafora.

"Belanchagim — sahrom mening" yoki "Men qoraqumlikman" deya faqat turkman shoirlarigina o'z kitoblarini nomlashi mumkin, menimcha. Zotan, Vatan tanlanmaydi, inson Vatan tuprog'ida tavallud topadi, ko'z ochadi, ulg'ayadi, istiqomat qiladi. Vatan — bu qismat. Vatanga mehr-muhabbat va sadoqat esa shoir yuragining shiddatli zarbalaridir. She'rdan har bir ijodkor inson yurak urishining aks sadosi eshitiladi. Inson qadri va martabasi hamisha ulug' tushuncha. Lekin shoir uchun "ham ulug'dir Qoraqumning havosi". Qoraqumdek bepoyonlik bo'ylab asrlar mobaynida mag'ribdan mashriqqa, mashriqdan mag'ribga qarab "qator-qator karvonlar o'tgan"i ayni haqiqat. Bu hayotiy, moddiy-ma'naviy robita bugun ham to'xtagan emas; turli shakl va ko'rinishlarda davom etmoqda.

"Otalar otining tuyog'i teggan, bepoyon sahrolar bizgadir meros" — poyonsiz, ko'z ilg'amas keng sahrolarning o'z go'zalligi bor. Faqat shu zaminga kindik qoni to'kilgan va o'sha muhit ichra yashagan odamgina bu go'zallikni his etadi, sog'inadi. Agar "sahroyi tuyg'ular larzona kelsa" bormi, insonning ko'ngil holati — o'zligi, mardligi, shijoati, sadoqati, do'stligi, saxovati o'zini namoyon qiladi. Ha, ha!

"Turkmanda nima bor?— demagin zinhor,
Ko'lankasi quyuq bog'-rog'lari bor.
Boshi oppoq sochli nuroniy bir chol —
Arslonli va sherli qir-tog'lari bor!"

Gul-u gulzorlar, bog'-u bo'stonlar, ulug'vor tog'lar — bular ham Vatan manzaralari. O'z ona tuprog'ini e'zozlagan, Vatan yuragiga talpingan va uni orasta saqlagan inson baxtlidir. "Ashxobod, Ashxobod, jonim Ashxobod, shonim Ashxobod" — shoir she'rida takror va takror keladi ayni muhtasham ma'vo vasfi bir parcha bunday:

"Barq urib yotganda ko'k bahor chog'i,
Yashil tun kiyinar firuza tog'i,
Oltin chashma yanglig' oqar bulog'i —
Shirin-sharbatlardan ichar Ashxobod..."

Turkman shoirlarining yuragiga ko'chgan, yuragidan she'riy misralarga o'tgan yurt poytaxti — go'zal Ashxobodning ta'rifi ham

o‘zgacha. Zero, bu ma’vo ishqobod va oshiqoboddir, jonobod va shonoboddir.

“Tong shabnami, ayni sahar palla sen,
Beshiklarda bayon bo‘lgan alla sen.
Muz qalbni eritgan o‘tli zarra sen,
Aziz ona tilim, mehribon tilim..”

Zamonaviy turkman shoirlari she’rlarida ona tili, ona Vatan, el-yurt, ona tuproq madhi ana shunday yuksak martabalarda mehr-muhabbat va mahorat bilan kuylanadi.

“Turkmanning boshlansa to‘yi-bazmi,
Davrada yangraydi Navoiy nazmi.
O‘zbek xonadoni to‘y boshlasa gar,
Unda Firog‘iyning so‘zi jaranglar.
Sevikli Jayxunning ikki dildori,
Ikki qardosh xalqning birdir bahori”.

Darhaqiqat, iste’dodli shoir ikki millat qardoshligini tarannum etib ta’kidlaganidek, Alisher Navoiy bilan Maxtumqulidek allomalarning izdoshlari Jayxunning ikki qirg‘og‘ida do‘st-u inoq istiqomat qiladi, bu ikki qardosh xalqning “birdir bahori” ham.

Shoirlarning qator she’riy misralarda o‘z ijodiga munosabati, adabiy-estetik nuqtayi nazarlari ham kuzatiladi. “She’r — nomusim va orim. Yo‘q bo‘lsa xaridorim, Qiyomat bu, qiyomat” — dunyoqarashi keng, ma’naviy olamga oshiq, badiiy so‘z ko‘rkini, ijod mas’uliyatini teran his etgan shoir shunday yozishi mumkin. “She’rimdan kimligim anglamas bo‘lsang, Senga ne yuz bilan ko‘rinay, inim?” yoki “She’rimdan ovozim eshitmas bo‘lsang, Borib ne yuz bilan gaplashay, inim?” degan cho‘ng tushunchani yozgan shoir nafaqat birovga, balki birinchi navbatda o‘zini o‘zi koyiydi, o‘ziga o‘zi hisobot va baho beradi. So‘zining va o‘zining qadri ustida fikr yuritib, o‘yga toladi. O‘zligini anglagan shoir shu zaylda balandlashadi. “Yaxshi so‘zlar jo‘shib chiqsin yurakdan” — muhimi ham shu, boshqasi bekor...

Birinchi bo‘limi zamonaviy turkman shoirlari she’rlaridan tarkib topgan ushbu majmua so‘zboshisida berilgan she’riy misol-

misralarning qaysi sahifalardan olinganini, muhtaram o'quvchi, mutolaa jarayonida kitobdan hech qiynalmay topadi, deb o'ylayman. Zero, zamonaviy turkman shoirlari she'riyatida bunday go'zal misralar juda ham ko'p[1].

Yana bir gap. Kitobning ikkinchi bo'limda zamonaviy turkman yozuvchilari hikoyalaridan namunalar taqdim etildi. Hikoyada inson obrazi namoyon bo'lishi va ibratga munosib voqealar esda qolish omili muallifning badiiy mahoratidan darak beradi. Hikoyalardagi soz-u suhbatga oshno Baxshi ko'nglidagi jo'shqin ishq, uloq chopayotgan yigit g'ururi-ori, kimsasiz sahroda qolib ketgan ikki odam qismati, haqqo'y inson bilan tuhmatchilar orasidagi zimdan olishuv jarayonlari tasvirlangan sahifalar o'quvchini befarq qoldirmaydi. Tomchida quyosh in'ikos etadi, naqliga ko'ra mazkur kitobda berilgan adiblarning hikoyalari turkman xalqining turmush tarzidan, ularga xos milliy urf-odatlar, mardona kayfiyatlar, umuminsoniy pafosga ega o'y-kechinmalardan kitobxonni xabardor qiladi, albatta.

Turkman shoirlari va adiblari ijodidan jamlangan bu asarlar o'zbek-turkman adabiy aloqalarining yana ham kengayishi uchun yordam beradi. Badiiy adabiyot odamni bilishga, qardosh millatlar qalbini anglashga, insonlararo his-tuyg'ular uyg'unligini teran tushunishga yordam berar ekan, demak, so'z san'ati o'zining muhtasham tarixiy missiyasini bugun ham beminnat bajarayotgan bo'ladi.

Aziz o'quvchi! Zamonaviy turkman shoirlarining she'rlarini va yozuvchilarining hikoyalarini o'qib zavqlanish, ushbu kitob vositasida nazm-u nasr ko'rkidan bahramand bo'lish saodati sizlarga qutlug' bo'lsin!

Bahodir Karim,
filologiya fanlari doktori, professor

---

[1] Kitobdagi she'rlar tarjimasi, shoirlar haqidagi ma'lumotlarning aksariyati Turkmanistonning Dosho'g'iz viloyati Dosho'g'iz tumani Toza-yormish qishlog'ida yashab ijod qilgan muallim, jurnalist va tarjimon Olim To'rayev (1945–2015) qalamiga mansub (nashrga tayyorlovchi izohi).



SHE'RLAR

OTA OTAJONOV

(1922–1989)

Ota Otajonov 1922-yili Mari viloyati Ko'kcha qishlog'ida tug'ilgan. Toshkent shahridagi pedagogika texnikumida, keyin Ashxobod pedagogika institutida, Moskvada tahsil oladi. Shoirning "Qadrli mehmon", "Odimma-odim", "Belanchagim-sahrom mening", "O'chma, o'chog'im", "Men siz sari borayapman" kabi kitoblari mashhur. U "Chaqmoq", "O'z tanishlaring", "Ahvoling qalay, Yaran?", "Taka qizi Tatyana" kabi romanlar muallifi hamdir.

Ota Otajonov A.S. Pushkin, M. Isakovskiy, A. Tvardovskiy va boshqalarning she'rlarini, dostonlarini, B. Polevoyning "Chin inson qissasi" asarini turkman tiliga tarjima qilgan.

TURKMANISTONIM MENING

Men sening shavkatli-shonli
Otingga oshiq, Vatan.
Men sening zafarli mehnat —
Shashtingga oshiq, Vatan.
Barakali neft-u gazli,
O'tingga oshiq, Vatan.
Nomdor o'lkam,
Dongdor o'lkam,
Turkmanistonim mening.
Qo'shig'imsan,
Orzuimsan,
Tilda dostonim mening.

Xushxabarli, ko'p salomli,
Men saharing oshig'i.
Yoshligim yodimga solar,
Men bahoring oshig'i.
Mehmon kelsa, menga ayon,
Ochiq uylar eshigi.
Oq yurakli,
Mo'l cho'rakli[1],
Turkmanistonim mening.
Gul mangizli[2],
Ko'k dengizli,
Bog'-u bo'stonim mening.

Bu jahonda hech bir balo,
Sendan ayro qilmasin.

[1] **Cho'rak** — non.

[2] **Mangiz** — ro'y, chehra.

Bosh uzra Yashil bayroq,
Hilpirasin, so‘lmasin!
Ishqing bilan yo‘g‘rilmagan
Bir misram ham bo‘lmasin.

O‘s yana, qurboningman-o,
Turkmanistonim mening.
Keragimsan,
Yuragimsan,
Jigarim-jonim mening.

YAKKA BO‘LIB YO‘L TOPGANDAN...

Sen otingni yakka chopma,
Yolg‘iz chopma, jiyanim.
Yakka bo‘lib yo‘l topgandan,
Yetti bo‘l-da, adash, hoy!
Ko‘ngli pokning yo‘li ochiq,
Cho‘lga chiqqin quvonib.
Senga cho‘lda chin yo‘ldoshing
Bo‘lar chashma yoki soy.

O‘TINNI YIG‘GANGA YOQDIR...

O‘tinni yig‘ganga yoqdir,
Molni egasiga boqdir.
Achchiqni yeb ko‘rmaganning
Bolni bilmasligi haqdir.

O‘tin qadrin sovqatganlar,
Horg‘inlikni yurgan bilar...
Elga qilgan yaxshiliging
Ikki hissa bo‘lib kelar.

CHOY BOSHIDA SUHBAT

Oq olma yesam deyman.
Ishla!
Ol ipak kiysam — deyman.
Ishla!
Bir pari sevsam — deyman.
Ishla!
Bo'lmasmi? Ey, sen..? — deyman.
Ishla!

Olamni ko'rsam — deyman.
Ishla!
Dengizda yuzsam — deyman.
Ishla!
Ol sharob suzsam — deyman.
Ishla!
Bir ash'or tuzsam — deyman.

To'xta, do'st! Tiling tishla!
Behuda so'z ne kerak...
To'g'ri, ash'or uchun ham,
Ixlosli ishlash kerak.
Ammo... ekib bo'lmaydi,
Uni ekkanday terak.

SO‘Z QADRI

Qog‘oz ila qalamga
Til bitsa-yu
Gapirsa,
Gohi bizga ginali,
Koyinardi, kuyardi:
— Kimdir tuyg‘usiz, totsiz,
So‘zni so‘zga ulasa,
Bizni badnom qilmasin,
Xor etmasin — deyardi.

SOYA

Ich-ichingga — kirsayamki bag‘ringga,
Nomard do‘st soyaga o‘xshash bir zotdir.
Tursayam quyoshli kuning jilmayib,
Bulut bosgan chog‘i u senga yotdir.
Qochar, g‘oyib bo‘lar, ko‘rinmas ko‘zga,
Asrlar guvohdir aytilgan so‘zga.

YOSHLIK YOZI

Faqat bir bor gullar yoshlikning yozi,
Va chalinar bir bor muhabbat sozi.
O‘shal yozni yozdek yozlay olmasang,
O‘shal sozni sozdek sozlay olmasang,
O‘zingdan ko‘r,
O‘zingdan ko‘r,
O‘zingdan.

Yoshlik yozi olovlidir, yoqtidir,
Qudratingni ko‘rsatishning vaqtidir,
Yoshligingda durdona ter to‘kmasang,
Hech bo‘lmasa, bitta daraxt ekmasang,
O‘zingdan ko‘r,
O‘zingdan ko‘r,
O‘zingdan.

Yoshlik yaxshi orzularing qanoti,
Qisqa umring takrorlanmas ziynati.
Qanotlanib kamolotga yetmasang,
O‘tilmagan manzillardan o‘tmasang,
O‘zingdan ko‘r,
O‘zingdan ko‘r,
O‘zingdan.

OLOV YOQDIM

Azizim, o‘t yoqdim yo‘l bo‘yida men,
Kel, o‘tir,
O‘taylik o‘choq boshiga.
Istasang,
Yurakdan suhbatlashaylik,
Olov yog‘du sochsin tegra-toshiga.

Yonmoqda,
Yonmoqda o‘chog‘im mening...
Do‘stim, harorati senga yetdimi?
Tashvish va charchoqdan soflanib taning,
Qalb toza xayolga botib ketdimi?

Xushnudman,
Qo‘shiqlar yangrataylik, kel,
Qo‘shiq ham isitar misoli otash.
Bizga buyuk ishlar qarashayotir,
Xayol haqiqatga aylanar, qardosh.

Yonmoqda,
Yonmoqda o‘chog‘im mening,
Lekin alangasi past erur bu dam...
Chala
Yonayotir,
So‘nar, kul bo‘lar,
Do‘stim, o‘tin tashlab turmasang sen ham.

TO‘RG‘AY QO‘SHIG‘I

Abgor qolganmisan qumda hech mahal?
Men esa — mashina bilan
Necha bor...
Sahro uzra
Najot kutganman mahtal —
Do‘zax azobiga bo‘lganman duchor.

O‘kiradi motor yarador sherdek.
Guvranar,
Jilishga qayta shaylanar...
Mashina joyida turaverar tek,
G‘ildiraklar esa
Nafsiz aylanar.

Barxanlar ummondek junbushga to‘lar,
Ko‘mar mashinani eshigi qadar.
Na oldga, na ortga qo‘zg‘alib bo‘lar,
Yuragingni zulmat chulg‘aydi battar.

Nogoh motor o‘char ustiga-ustak,
Qabr sukunati cho‘kar shu zahot.
Ko‘rinmas tirik jon. Birgina yuksak —
Yuksaklarda burgut qoqadi qanot.

Bu yorug‘ dunyoda,
Qilasan xayol,
Bu payt seni hech kim eslamas sira.
Faqat ko‘kda o‘sha burgut bemalol,
O‘lja topgan kabi
Yasar doira.

O‘ylaysan,
Qaniydi biron-bir cho‘pon,
Yoki konchi, uchrab qolsaydi shu dam...
Sukunat zalvori ortadi chandon,
Sarob misol eriy boshlar
Umid ham.

Banogoh fazoda yangrab ketar tor, —
Kenglik uzra to‘rg‘ay kuylab yuborar.
Jimit, migti qush u.
Entikma bekor,
U seni kulfatdan nahot qutqarar?

Biroq sho‘h jilg‘adek
Yangrar qo‘shiq boz
Va nufuz taralar g‘arib ma’voga.
Qo‘yasanki unga shunchalar ixlos,
Sig‘inmovding shundoq hatto Allohga.

Bilasanmi,
Qo‘shiq chorlaydi — olg‘a!
Insonsan, bir uyum temirmas, axir.
Kechgin gumonlardan,
Mo‘jiza kutma.
Shahdingdan
Chekina boshlagay taqdir.

QORA SEYITLIYEV

(1925–1971)

Qora Seyitliyev 1925-yilda Baxerden tumanining Garagan qishlog'ida tug'ilgan. Ashxobodda muallimlar texnikumida o'qiydi. So'ng Boku shahridagi Pedagogika institutida ta'lim oladi.

She'rlari 1938-yildan boshlab matbuotda chop qilina boshlaydi. Uning "Xayrlashuv", "Og'am chopar otini", "Ashxobod", "Ko'zlaring", "Yodgorlik", "Laylo", "Baliqchining qo'shig'i" kabi o'nlarcha she'r va qo'shiqlari ko'pchilikning e'tiborini qozonadi. "Hindiston gullari", "Kamol", "Nordon o't" kabi to'plamlari shoirning turli mamlakatlarga qilgan sayohat taassurotlari asosida yozilgan. Q. Seyitliyev "Jahon", "Kumush quti", "Cho'pon o'g'li", "Bog'bonning qizi", "Abadiy tiriklar" kabi dramatik asarlar muallifi hamdir.

Asarlari chet tillariga tarjima qilingan. Q. Seyitliyev 1971-yil 2-mayda vafot etgan.

QARDOSHLIK QO'SHIG'I

O'zbek eli, turkman eli qadimdan
Jayxun daryo sohilida barqaror.
O'zbek eli turkman eli qadimdan
Ikki qardosh, bir-biri-la do'st-u yor.
Ikki qardosh, bir-biri-la quvonar,
Ikki qardosh ikkisi ham baxtiyor.

Turkmanning boshlansa to'yi-bazmi,
Davrada yangraydi Navoiy nazmi.
O'zbek xonadoni to'y boshlasa gar,
Unda Firog'iyning so'zi jaranglar.
Sevikli Jayxunning ikki dildori,
Ikki qardosh xalqning birdir bahori.

ASHXOBOD

Barq urib yotganda ko'k bahor chog'i,
Yashil tun kiyinar firuza tog'i,
Oltin chashma yanglig' oqar bulog'i —
Shirin-sharbatlardan ichar Ashxobod,
Kundan kun kuch olib, bo'lmoqda obod.

Ashxobod, Ashxobod, jonim Ashxobod,
Vatanim, shuhratim, shonim Ashxobod.

Sevikli poytaxtim, shodlik chashmasi,
Yuraklar mash'ali, dillar nash'asi,
Go'zalsan misoli qiz karashmasi —
Guldek ko'ngillarni ochar Ashxobod,
Kundan kun kuch olib,
yashnar Ashxobod.

Ashxobod, Ashxobod, jonim Ashxobod,
Vatanim, shuhratim, shonim Ashxobod.

Erkin qanotim bor ko'kka yuksalsam,
Qoraqum gul yozar, nazarim solsam,
Buyuk baxt daryosi Jayxunda bo'lsam,
Yuzimga nurlarin sochar Ashxobod,
Kundan kun bahrimni ochar Ashxobod.

Ashxobod, Ashxobod, jonim Ashxobod,
Vatanim, shuhratim, shonim Ashxobod.

Suvlari shifobaxsh, quyoshi darmon,
Totmasang, doimo chekarsan armon,

Havosi xushta'bdir, eli mehribon,
Bizlarni yod etib, bo'lsangiz mehmon,
Kulib quchog'ini ochar Ashxobod
Boshingizdan gullar sochar Ashxobod.

Ashxobod, Ashxobod, jonim Ashxobod,
Vatanim, shuhratim, shonim Ashxobod.

YURAGIM SHUNDAY DEYDI

So'zlarning ichida bir shirin so'z bor,
Bebaho bu so'zning sevgidir oti.
Sevgi bilan dunyo yaralmish, dildor,
Yuraklar orzusi, ko'ngillar shodi.

Yuragim shunday deydi,
Yuragim shunday deydi.

Sozlarning ichida shirin sozi bor,
Bu sozning chin oti — oshiqning sozi.
Yuraklar toridan sho'x parvozi bor,
Dunyoni bezaydi uning ovozi.

Yuragim shunday deydi,
Yuragim shunday deydi.

Qizlarning ichida bir shirin qiz bor,
Beqiyos, go'zaldir — u qizning nozi.
Shu qiz sening baxting, der menga bahor,
Shu baxtdan hayotim umrbod rozi.

Yuragim shunday deydi,
Yuragim shunday deydi.

SEVGILIM

Oshiq bo‘lsang, olgin qo‘lga sozingni,
Ovozing tog‘lardan oshsin, sevgilim.
Bahor chog‘i baxt kanalin sohili,
Baxtimiz Jayxundek jo‘shsin, sevgilim.

Ahdimiz bahor edi, keldi gulbahor,
Cho‘lda gullolalar chiqdi, sevgilim.
Bizga baxt keltirgan safoli bahor
Ko‘ksimga tar g‘uncha taqdi, sevgilim.

Yoqamdan yoqangga taqsam g‘unchani,
Gullar uzra gul ochilar, sevgilim.
Yurak deydi: “Sodiq bo‘lsak va’daga,
Gulgun sharob mo‘l ichilar, sevgilim”.

Oshiq bo‘lsang, qo‘lga olgin sozingni,
Ovozing tog‘lardan oshsin, sevgilim.
Bahor chog‘i baxt kanalin sohili,
Baxtimiz Jayxundek jo‘shsin, sevgilim.

SENGA

Boqqa chiqib, sayron etsang,
Qarashadi gullar senga.
Kapalaklar qanotida,
Olib kelmish xollar senga.

Ovozim eshitdi olam,
Sen ham eshit endi, lolam.
Yor qo'shig'i jonga orom,
Olqish aylar ellar senga.

Yorim xabar ol yoringdan,
To'ymoq yo'qdir diydoringdan.
Tori yuragim toridan
Qalb zorini kuylar senga.

To'y kunida orolanib,
Chiqsang sayrga sollanib,
Yanoqda zulfing tovlanib,
Yarashar bu hollar senga.

Sen baxtiyor, men baxtiyor,
Oshiqlarga davra xumor.
Sen o'ynasang, men chalay tor,
Umrim fido yillar, senga.

ILHOM

Do‘stlarim qutladi, sen qayda qolding,
Kel, ey, ruhim ila o‘ynashgan, ilhom!
Bu ozod qalbimni ilk bor sen olding,
Tomirim qonida qaynashgan ilhom,
Kel, ey, ruhim ila o‘ynashgan ilhom.

Bugun maylisingga qadam qo‘ydim men,
Muborak qo‘lingda ko‘tar, sharob ber!
Har kun vatandagi shodlik — sevgingga,
Nozik tuyg‘u ila o‘zing javob ber,
Muborak qo‘lingda ko‘tar, sharob ber!

Shudir shoir ko‘nglim shirin tilagi:
Hech kimning bo‘lmasin sensiz yuragi.
Bu go‘zal hayotni his qilmasa kim,
Mening Vatanimda yo‘qdir keragi,
Hech kimning bo‘lmasin sensiz yuragi!

BERDINAZAR XUDOYNAZAROV

(1929–2001)

Turkmaniston xalq yozuvchisi, Maxtumquli nomidagi Xalqaro mukofot sohibi Berdinazar Xudoynazarov Yerbent tumanining Duvunli qudug'i hududida tug'ilgan.

1943–1944-yillarda ilk she'rlari matbuotda chop qilinadi. Turli davrlarda "Edebiyat ve sungat" gazetasi, "Sovet edebiyati" (hozirgi "Garagum") jurnalida ishlaydi.

Shoirning "Qizg'in sahro", "Davr tepasidagi odam", "Kurash maydoni", "Izquvarning ko'zlari", "Qumliklar", "Oqar suvning qo'shig'i" kabi asarlari mashhur. U dramaturg sifatida "Sinov yo'li", "Bahor nafasi", "Jasurlar", "Hashar haqida ballada" kabi sahna asarlarini yozdi.

Berdinazar Xudoynazarov 2001-yilda vafot etgan.

MUSTAQILLIK QO‘SHIG‘I

Mustaqillik degan nurona so‘zdan,
Ko‘ngillar yashnadi, larzonga keldi.
Qutlug‘, ey el-yurtim, bu yangi zamon,
Sening manfaating-foydangga keldi.

Yuraklar o‘rtandi kaj iqbollardan,
Bosib o‘tding, ko‘p mashaqqat yo‘llardan.
Mana, endi, uzoq-uzoq ellardan,
Vaslingni ko‘rmoqqa-diydorga keldi.

Diqqinafas qalblar kengaydi, biroz,
Masjidlar qurilib, o‘qilar namoz,
Saharda jaranglab ajib bir ovoz,
Uyga Qur’on degan durdona keldi.

Dalalar bezagi, ko‘ngil oromi,
Ko‘zni quvontirar hosil g‘arami.
Baraka va baxtning bo‘lib nishoni,
Oq bug‘doy yana-da maydonga keldi.

Hayotdan, diyordan ko‘nglingni xushlab,
Erklik dengizida suzgin qulochlab,
Yashna xalqim, taqdiringni olqishlab,
Davr saxovatli davronga keldi.

KECH BO'LAR

Odamning bir muhtoj narsasi xush so'z,
Xush so'z ayting, tepasiga toj bo'lar.
Tiriklik chog'ida siylang insonni,
Kim biladi, bir yildan so'ng kech bo'lar.

Yaxshiga yaxshi deng tirikligida,
Kerak joyda iliq so'z bir kuch bo'lar.
Albat so'nggi kunin kutib turmangiz,
Kim biladi, bir oydan so'ng kech bo'lar.

Yaxshi so'zlar jo'shib chiqsin yurakdan,
Yurakdan chiqmasa, bekor — hech bo'lar.
Qo'llayvering bir-birovni so'z bilan,
Kim biladi, haftadan so'ng kech bo'lar.

Qalbdan seving, olqish oling, odamlar,
Yaxshilarning ishlari rivoj bo'lar.
Ertaga topdirmas bugun ko'rganing,
Bugun seving, balki, ertang kech bo'lar.

Saxovatsiz umr quruq to'nkadir,
Bunday umr nihoyasi puch bo'lar.
Bir-birovni siylang imkon borida,
Yana bir soatdan, balki, kech bo'lar.

* * *

Jumla jahon boqdi bizga,
Go‘zallarning nozi bilan.
Sayroq qushlar qo‘ndi gulga,
Ajib qo‘shiq — sozi bilan.

Buloq jo‘shib jimirlaydi,
Ko‘hna Dunyo hech tinmaydi.
Namxush osmon gumburlaydi,
Yomg‘ir yog‘ar izi bilan.

Kechalarning bag‘ri iliq,
Subh orom berar to‘liq.
Lovullaydi Pendi cho‘li
Lolalarning cho‘g‘i bilan.

Peshanadan sochib terlar,
Chig‘lanadi qo‘riq yerlar.
Atir hidli tong-saharlar
Nur keltirar o‘zi bilan.

Tog‘da yengil tuman cho‘kdi,
Moviy osmon doyra qoqdi.
So‘ngra Dunyo sayrga chiqdi,
Bahor otlig‘ qizi bilan.

SABR

Kun chiqar, Oy chiqar o‘z vaqti bilan,
Vaqti kelganida pishar olmalar.
G‘alvali hayotda qisinma, qalbim,
Shoshilma, bari o‘z o‘rnida bo‘lar.

Bir hayotda ming tashvish-u qayg‘u bor,
Odamlarning qorasi bor, oqi bor.
Shukr, lekin barcha ishning cheki bor,
Shoshilma, bari o‘z o‘rnida bo‘lar.

Bug‘doyga suv ochsang, o‘tlar ham qonar,
Qarg‘a ham lochinga o‘xshasam deyar.
Novdalar chirisa, to‘nkalar qolar,
Shoshilma, bari o‘z o‘rnida bo‘lar.

Eshakning iziga tirkalgan tuya,
Nomusdan o‘larmish o‘z etin yeya...
Tuproq to‘zg‘ib ketar, yiqilmas qoya,
Shoshilma, bari o‘z o‘rnida bo‘lar.

Har doim ishlar ham bir tekis ketmas,
Boshing baland tutgil, fe’ling bo‘lsin past.
Shaxmat otlaridek qadding bo‘lsin rost,
Shoshilma, bari o‘z o‘rnida bo‘lar.

* * *

Bu ajib kun bir qo‘shiq
Yozmay yurish — jinoyat.
Ilhom, agar bor bo‘lsang,
Himoyat qil, himoyat!

Yo‘qsa, qolar armonim,
Biror narsa chiz, xonim.
Yozgandan yozmaganim
Yaxshimi yo, jamoat?

Maqsadmas gonorarim,
She’r — nomusim va orim.
Yo‘q bo‘lsa xaridorim,
Qiyomat bu, qiyomat.

Ezgu ishlardan darak
Berib, jo‘sh ursin yurak,
Tenglik, adolat kerak,
Insonga-chi, saxovat.

Umr bo‘yi, har damda,
Degum har bir qadamda:
Odam bo‘lsang, odamga
Qilmagin hech xiyonat.

Tuhmat etsang,
yo, tavba —
Barin olib hisobga,
Inson kelib insofga
Bersa yaxshi hisobot.

Dunyo tashvishi buyuk,
Goh og'irdir, goh suyuk,
Yuragingda og'ir yuk,
Talab qilar jasorat.

Odam, odam, ey odam,
Nomga loyiq bos qadam.
Orzu ushalsin har dam,
Sen sog' bo'l,
Men — salomat.

* * *

Ona tilim
Holing qanday sening,
Toblaring qanday?
Aziz ona tilim, mehribon tilim,
Kel, suhbat quraylik ochiqdan ochiq,
Aziz ona tilim, mehribon tilim.

Yuz mingta jilvadan bog‘langan dasta,
Shoirga she’rdirsan, gapxonga qissa.
Oq saharlar nuri kabi orasta,
Aziz ona tilim, mehribon tilim.

Sen mening zabonim,
sen mening nozim,
Yuragimdan qaynab oqqan ovozim.
Bobolardan meros qolgan yolg‘izim,
Aziz ona tilim, mehribon tilim.

Haloldan, halol sut emganning tili,
Ey insofning tili, ishonchning tili.
Tegmasin senga hech yomonning tili,
Aziz ona tilim, mehribon tilim.

Tong shabnami, ayni sahar palla sen,
Beshiklarda bayon bo‘lgan alla sen.
Muz qalbni eritgan o‘tli zarra sen,
Aziz ona tilim, mehribon tilim.

Eng og‘ir kunlarda, botganda o‘yga,
O‘z tilimda nolish qildim Xudoyga.

Seni xor aylasak botarmiz loyga,
Aziz ona tilim, mehribon tilim.

Sevdim, sevdim deya aytishga yotman,
Xor bo‘lsang yig‘larman, gullasang shodman.
Yashnayver, sen borsan, men ham hayotman,
Aziz ona tilim, mehribon tilim.

* * *

Bizni qo'llab shu kunlarga yetkazding,
Qodir Alloh o'zing yana madad ber.
Huzuringda qabul bo'lsin tilagim,
Kattalarga aql, yoshga odob ber.

Ishratim ochildi, yillarim oyim,
Aziyatdan yo'qdir qisilgan joyim.
Harna sendan uzoqmasman Xudoyim,
Kelar kunga yaxshiliklar qadab ber.

Nima yolg'on, ne ishlarning chinligi,
Kimning soddaligi, kimning shumligi.
Aniq bo'lib tursin kimning kimligi,
Oq qoraning orasiga sarhad ber.

Bu tuproqqa o'xsharman ko'p kerakka,
Keldim uni umrim bo'yi sevmakka.
Avval oxir to'g'ri so'zni demakka,
G'ayrat berding Alloh yana g'ayrat ber.

Kimdir kesak otdi ketdim yo'limga,
Taqdir unga duch aylasin fe'liga.
Maydalashib ketmasin deb elimga,
Har vaqt-har vaqt
Go'ro'g'liday chin mard ber.

Qudrat kerak manzillardan o'tgani,
Zurriyot kerak umring davom etgani.
Yetilmagan oq tonglarga yetgani,
Ortimizda qolganlarga muddat ber.

Ko‘ngillarga kenglik bersin qanoat,
Ko‘zimizdan g‘oyib bo‘lsin qabohat.
Ko‘ryapsan-ku, ko‘char dildan halovat,
Odamlarga sabr bilan toqat ber.

Kuch bersin issiqdan ingragan vaqtim,
Soyasinda lazzat olgan daraxtim.
Odamlar qadrini bilsinlar baxtning,
Baxtni bizga arzon berma, qimmat ber.

Qiynalsak-da ko‘kdan yo‘l soldi berim,
Yerdan ko‘tarilar hayo-yu sharm.
Baloni daf qilar bir sening eming,
Yigitga or, go‘zallarga uyat ber.

Yaxshi erga yaxshi bir yor nasibmas,
Bu chin, ammo aytish buni ajibmas.
Qora qoning to‘laligi hisobmas,
Chap ko‘krakka saxovat ber, qanot ber...

Singib ketsin ortda qolgan yog‘ishlar,
Endigingga saboq bo‘lsin yanglishlar.
Maysa bo‘lib turtib chiqsin olqishlar,
Rizq ro‘zimga barakat ber, himmat ber.

Yelda uchgan nam yomg‘irmas, sel emas,
U kim chorva cho‘mirlarga el emas.
Berar bo‘lsang bir ko‘rki yo‘q umrmas,
Olov kabi lovlab turgan qismat ber.

Martabadir ulug‘-ulug‘ shiorim,
Bir-u borim, ikki dunyo chirog‘im.
O‘z boshim o‘zimga yuk bo‘lgan chog‘im,
Boqiylikka ketmog‘imga ruxsat ber.

* * *

Xaloyiqlar umr yo‘li,
Mudom g‘adir-budurlidir.
Odam bordir biz kabidir,
Odam bordir qadrlidir.

Shahding ochar sabo yeli,
Yetkaz undan salomingni.
Bu ko‘k tog‘lar sof nafasli,
Daralari atirlidir.

Yo‘llar oshdim yona-yona,
Shukr Alloh o‘tdim sona.
Quruqlar ham bordir, ammo
El saxiy ham botirlidir.

Qator-qator karvon o‘tgan,
Kun ostida yayrab yotgan.
Bu Qoraqum nomli Vatan,
Olonglidir, adirlidir.

Dov-u bo‘ron izg‘ib yurgan,
Sahro menga bog‘i eram.
Bizni bu dunyoga bergan,
Biyobon cho‘l Xizrlidir.

* * *

Sut sutga o‘xshasin bola haqqiga,
Qaymog‘ini yalab yog‘ni ayirma.
Sahar turib quvonayin ekinga,
Ko‘k maysa yuzidan chiqni ayirma.

Donolarga bosh bo‘lmasin nodonlar,
Sarpo olsin qozonolgan yoronlar.
Bulbullar sayrasin oqargan tonglar,
Jahondan bu ajib chog‘ni ayirma.

Bulg‘anmasin o‘balarning chashmasi,
Yozlar kelib bog‘lar gullab-yashnasin.
Insonning qalbiga qirov tushmasin,
Yuraklardan mehr cho‘g‘ni ayirma.

Farzandiman ko‘ngli gulgun bahorning,
Ilohim bo‘y olsin sanchgan niholim.
Ota yurtim bu qadimiy Ahalning,
Manglayidan Kopetdog‘ni ayirma.

Kelganing ne davron sovrilar bo‘lsa,
Minnatsiz to‘ydirgin to‘ydirar bo‘lsang.
Xullas oramizdan ayirar bo‘lsang,
Qoralarni ayir oqni ayirma.

* * *

O‘zimning kimligim tanimoq bo‘lib,
Men tarixni quduq kabi qazarman.
Qalin-qalin kitoblarni ag‘darib,
Boshqa-boshqa dunyolarda kezarman.

O‘zimning kimligim bilmoqchi bo‘lib,
O‘rgandim otamni, og‘alarimni.
O‘zimning kimligim bilmoqchi bo‘lib,
O‘rgandim o‘zimning bolalarimni.

* * *

Egdirmoqchi bo‘ldik tabiatni biz,
Aslida bizgadir egilmoq joiz.
Qishga o‘xshamaydi endi qishimiz,
Ko‘p ham yozga o‘xshamaydi yozimiz.

Men uni rashk qildim ajoyib go‘zal,
Ayolga bo‘lgandek mahbub asira.
Unga ko‘p ko‘z boqsa qalbim o‘rtanar,
Ko‘p qo‘l tegaversa yoqmaydi sira.

* * *

Yana nima ishonmay,
Ishonmasdan bo'lmaydir.
Bir chimdimcha yaxshilik,
Har yomonda bo'lgaydir.

Shu chimdim yaxshilikni,
Ko'ra oling odamlar.

Yana bor bir haqiqat,
Harna ochsang orani,
Oq qushdan ham toparlar.
Bir chimdimcha qorani,

Shu chimdimcha qorani,
Ko'rmay qoling, odamlar.

* * *

Suvga oyoq suqdim,
Suzmoqlik qoldi.

Raqibim ma'lumdir,
O'zmoqlik qoldi.

Qanchalar qarz qildik,
Uzmoqlik qoldi.

Quduq joyi ma'lum,
Qozmoqlik qoldi.

Buyruq bor qaygadir,
Cho'zmoqlik qoldi.

Masalamiz tayyor,
Tuzmoqlik qoldi.

Yozuvchi ham bo'ldik,
Yozmoqlik qoldi.

* * *

Yangicha bir ma'no oldi ko'p narsa,
Ko'p narsaning yitdi avvalgi gashti.
Bir umrda mening ko'rgan qudratim,
Odam ko'z o'ngimda murakkablashdi.

Odam odamga do'st degan so'zga-ku,
Ming bir yerda mening ko'zlarim tushdi.
Harna shunday bo'lsin bo'lmay o'zgasi,
Ammo lekin odam murakkablashdi.

To'g'ri, uning o'sha avvalgi nomi,
To'g'ri, avvalgiday balanddir shashti.
Ammo u avvalgi odammas endi,
Odam ko'z o'ngimda murakkablashdi.

U juda ko'plarga yetkazib aql,
O'zidan boshqa bir zo'r sirni ochdi.
Ammo u avvalgi odammas endi,
Odam ko'z o'ngimda murakkablashdi.

Huv o'shal oy yillar so'kadi o'z bilganidek,
Zamona yangi bir oqimga kechdi.
Harna yaxshilikka— aytilganidek,
Odam ko'z o'ngimda murakkablashdi.

ESKINUSXA SHE'RLAR

Orzu hosil bo'larmi — yo'q,
Kim biladi balkim bo'lsin.
Avval boshdan aytar so'zim,
Baxt-iqboling osmon bo'lsin.

Faqat bahor emas turmush,
Sinovlari ayozli qish.
Past tushmagin olg'a tirish,
Tutgan shoxing mahkam bo'lsin.

Bo'lsin do'stga e'tiboring,
Soya solsin ekkan bog'ing.
Harna ojiz qolgan chog'ing,
Suyanmoqqa orqang bo'lsin.

Bosar yering berma g'amga,
Kez o'zingni yenga-yenga.
Sen elingga, eling senga,
Har fursatda darkor bo'lsin.

Kam bo'lmasin senda berim,
Shoxing bo'lsin quloch kerim.
Oxir ko'zni yumgan yering,
Ko'z ochgan shu o'lkang bo'lsin.

* * *

Bu umrimda ishim tushdi ko'plarga,
Aql oldim, iltimos-la yuzlandim.
Odamlarga bog'liq bo'lmagan bo'lsam,
Balki ular qadrini ham bilmasdim.

Odamlar men sizga aytaman olqish,
Men sizga misoli bog'langan arqon.
Shodligimni ulashmoqqa keraksiz,
Hasratim yengmoqqa keraksiz har on.

Salomlashdik ko'chalarda uchrashib,
Qo'l-qo'lni siqqanda iliydi yurak.
Yo'lga chiqsam kuzatmoqqa keraksiz,
Yo'limdan adashsam juda ham kerak.

Hurmatin saqlasin odam odamning,
Qolgani hech, qolgan bari bedarak.
Tirikmanki suyanmoqqa keraksiz,
O'lgan kunim esa undan-da kerak.

ODDIY HAQIQAT

Bu ayyomda senga buyuk demaslar,
Tog‘ning tepasiga chiqqaning bilan.
Inoning shoir ham bo‘lib bo‘lmaydi,
Faqat bir adabiy laqabing bilan,

Ovvoralar qilmay yaqin yoningni,
O‘zing topgin o‘z yo‘qotgan zotingni,
El— kun senga bermas polvon nomini,
O‘zingdan ojizni yiqqaning bilan.

Tog‘ bo‘lmasa hamki tog‘ gavdasi bor,
Baxshi emas ammo baland sasi bor,
Bo‘lolmassan sira Mahmud Esamboy,
Ovozingni qancha boqqaning bilan.

Asli kichik bo‘lsa bo‘lmas u ulkan,
Kim bor oydan kundan yil qilib bilgan,
Bo‘lmas el yuragin yilitib bir dam,
Yo‘l ustida tezak yoqqaning bilan.

Tosh boshingga tushar otsang osmona,
Ortingga boqib qo‘y ketsang old yona,
Karvonboshi bo‘lmas yetgan devona,
Bo‘yniga qo‘ng‘iroq taqqaning bilan.

Bir oqsog‘in elga bildirmas suruv,
Cho‘pon ahmoq bo‘lsa shu yomon yeri,
Qancha ixlos bilan to‘kmagin terni,
So‘qmoqda gul bitmas ekkaning bilan.

O‘GIT

Kelinim, senga aytdim,
Qizim, sen tushun.
Istasang yashinma,
Istasang yashin.

Dastur ham emas lek,
O‘z ishing bular,
Og‘zing yashmoqsiz[1] ham
Siylasang bo‘lar.

Vafoli bo‘lgin sen,
Borgan yeringga.
G‘ussasini chekish,
Qo‘shil to‘yiga.

U uy sovuq bo‘lsa,
Yilitmoq bo‘lgin.
U uy kichik bo‘lsa,
Kengaytmoq bo‘lgin.

Kelin degan kelin,
Bo‘lsa aqlli.
Butun uyga bo‘lar,
Kelin yoqimli.

Kelin degan kelin,
Bo‘lsa gar ayyor.
Bola usti bilan,
Erini qarg‘ar.

[1] **Yashmoq** — yangi tushgan kelinlarning og‘zini bekitib yuradigan ro‘moli.

Sen xizmatkor emas,
Qayin hukmdor.
Qayin sitamkormi,
Gapir haqqing bor.

Obro‘ degan gulni
Ayagin, qizim.
Tushumli bo‘lsin-da,
Oyog‘ing, qizim.

* * *

Ko‘nglim ochgan ajib olam,
Tog‘dan-tuzdan ayrilmasin.
Katta-kichik ishlar hech ham,
Ontdan, so‘zdan ayrilmasin.

Benomuslik qilgan yerim,
Yuvsin uni manglay terim.
Uyat bilan hayo, sharm,
Harna yuzdan ayrilmasin.

Nurli bo‘lsin inson baxti,
Oy quyoshdan yorug‘ ahdi.
Ota-ona, ayni vaqti,
O‘g‘il-qizdan ayrilmasin.

Boshimizda dunyo ishi,
Bo‘lsin har kim aql-u hushi.
Insonlikning mahak toshi,
Insof bizdan ayrilmasin.

MAXTUMQULI

Ancha uzoqlardan boqqan bo'lsang ham,
Ko'zing bu kundarda qidli sayrona.
Hayrona qoldirmoq mushkul zamonda,
She'rlaring o'qigan qolar hayrona.

Buyuk desam buyukdan ham tepada,
Donolardan o'n hissalik donosan.
O'z savoling bilan savol berayin,
Aytgin endi bundan boshqa nimasan?

Ikki yarim asr ko'rgan holingga,
Shunday davrga mos, shunday tozasan.
Qorong'u o'tmishning porloq yulduzi,
Zaminmisan, osmonmisan, nimasan?

Hali-hanuzlar ham oxirigacha,
O'qilmagan hikmat to'la nomasan.
Buni bilamiz, ha, buni bilamiz,
Zaminmisan, osmonmisan, nimasan?

O'z tilimga ega qilgan Azizim,
Seni o'qib sezdim so'zning kuchini.
Hasor bilan Sunt tog'ining ustinda,
Ko'ribsan sen dunyoning to'rt burchini.

She'rlaringning qudratiga tan berib.
Shunday buyuk bo'lganingga inondim.
Og'ir kunda turding mudom orqamda,
Dovdirasam yana senga tayandim.

Tog'-daryoga jon baxsh etgan tabiat,
Firog'iyni berding bizga, tashakkur.
Rahmat senga bu qadimiy tuproqda,
Yoydi bir el u orqali tafakkur.

KARIM QURBONNAFASOV

(1929–1988)

1929-yil Ko'ktepa tumanining Yilg'inli qishlog'ida tug'ilgan. Otasi Qurbonnafas og'aning san'atga mehr qo'yishi, oiladagi adabiy muhit uning she'riyatga qiziqishiga turtki bo'ldi. Shoirning "Kuchimning manbai", "Askar yarog'i", "She'rlar va poemalar", "Taymaz bobo", "Ota va o'g'il", "Qumdan topilgan yurak" kabi kitoblari mashhur. Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy g'azallarini turkman tiliga tarjima qilgan.

Unga 1967-yilda "Turkmaniston xalq shoiri" faxriy unvoni berilgan. Maxtumquli nomidagi Davlat mukofoti bilan ham taqdirlangan. 1988-yilda vafot etdi.

• SABOQ

Turmushning ajoyib saboqlari bor,
Ulardan ko'plari biz uchun ayon.
O'z aziz onangga vafo qilmasang,
Vatanga ham vafo qilmassan inon.

Turmushning ajoyib saboqlari bor,
Yanada bittasi biz uchun ayon.
O'z aziz do'stingga vafo qilmasang,
Dushmanga ham zarra bermassan ziyon.

Turmushning ajoyib saboqlari bor,
Ayondir biz uchun, yanada ayon.
Hayotda kimgadir foyda bermasang,
Ketsang ham hech kimsa topmaydi ziyon.

UMRIMGA PAND

Shoir, shoirliging chin bo'lsa agar,
So'nib yonib, yana so'nib, yonib ket.
Insonlik nomi-la aylasang safar,
Qora yerga cho'mib, chiqib, cho'mib ket.

Ham aql ber, ham elingdan aql ol,
Kitobdanmas qora yerdan naql ol.
Olganlaring nafasing-la yoqib ol,
So'ng yanada yer sutini emib ket.

Tog' yo'linda, cho'l yo'linda qanot bo'l,
Tog' yo'linda qayrilmagan po'lat bo'l.
Cho'l yo'linda o'rkach-o'rkach bulut bo'l,
Tashna ko'rsang dudog'ina tomib ket.

Yo'l og'irdir, ming yonilar, o'chilar,
Baxt yo'lida qiyin-qiyin ko'chilar.
Shamol bilan shoshar qulon, echkilar,
Sen ho'kizday yelga qarshi enib ket.

Baxt ulashsa uch boylikni ilki ol,
Yelib-chopib sog'lik bilan erkni ol.
Yana biri, qop-qop qilib kulgi ol,
So'ng topilar qolganlarin berib ket.

Do'st berilsa ber-ber deya shoshmagil,
Olganda ham haddingni bil, oshmagil.
Ber desa-chi, ko'zlaringdan boshlagil,
Birin ber-da, biri bilan ko'rib ket.

Xoh choriq kiy, xohi kovush, telpak kiy,
Farqi yo‘qdir, kiysang bo‘ldi erkakday.
Gursullab yur, shippillama shippakday,
Oyna qo‘njli etikdayin bo‘lib ket.

So‘rasang aytayin qiyomat qayda?
U erlar ayolga aylangan joyda!
Telpakda gap yo‘qdir, gap asli loyda,
Besh telpakni bir ro‘molga qo‘yib ket.

Go‘zallikni so‘r o‘pka-yu bag‘ringga,
Suyilsang suy, suyilmasang og‘rinma.
Sevgi ham she’r derlar, bag‘ri dog‘liga,
O‘z umringni otaṣhlarga yo‘yib ket.

Yengib yasha, oxirda yeng, boshda yeng,
Yozda yenggin, bahor-u kuz, qishda yeng.
Sevgida yeng, qayg‘uda yeng, ishda yeng,
Bir o‘g‘ildan yengilib, ham yengib ket.

Onam deding, bolam deya tiz cho‘kma,
Bir yig‘lading , qayg‘u ko‘rma, yosh to‘kma.
O‘z qo‘ling-la bolang uchun yer so‘kma,
Navbat bilan qora yerga singib ket.

Dunyoga kelmoqning navbati yaxshi,
Yana ketmoqning ham navbati yaxshi.
Men bitta narsada navbatga qarshi,
Istagan payt do‘st uyiga qo‘nib ket.

Eplasang ko‘pchilik ichiga qorish,
Tanishdan do‘st tutin, yotlardan tanish,
Jiguli ichidan izlama turmush,
Ko‘plik bilan avtobusga minib ket.

Ko‘paysin uyingda yurakdosh mehmon,
Yarmi ishchi bo‘lsin, yarmisi dehqon.

Olim ham, shoir ham kerak begumon,
To‘lib-toshib, chor tarafga yelib ket.

Shunday do‘stlar senda bo‘lsa jamuljam,
Yetarsan eng ulug‘ matlabingga ham,
Qadaming kengdan ur, to‘xtama bir dam,
Oldinni ko‘r, oldin bilan bo‘lib ket.

Tirikdirsan oldingda ming ishni ko‘r,
Mayli sakson, mayli to‘qson qishni ko‘r.
O‘limni qo‘y, hayot degan qushni ko‘r,
Daryo misol goh loylanib, tinib ket.

Yana bir gap maqtanmoqmas, pand emas,
Mozorimga tosh o‘rnatmoq shart emas,
Qora yerning ostida tosh qit emas,
Boqiylik shu, shu toshlarga singib ket.

QADR BELGISI

Yaxshi insonlarning qimmat-qadrini,
Yomonga uchramay bilmas emishsan.
Yildirimday bedovlarning qadrini,
Chamanga uchramay bilmas emishsan.

Yomon kitob, oz emasding avvalam,
Oz emassan, uchrayursan har qadam.
Yaxshining qadrini bilishimiz uchun,
Xudo bilsin, kerakdirsan bugun ham.

•

UN OSHI

Faqat bir qizdadir fikring, xayoling,
Osmonga boqsangda ko'rinadi u.
Kitobga qarasang fikr ila yoding,
Uning ismi barcha harfdan katta-ku.

Ishqida sarg'ayib bo'lding bechora,
Ha-ha, bechoraga aylanib qolding.
Ko'zlaring kichraydi endi na chora,
Go'zallik domiga boylanib qolding.

"Bolam, nima bo'ldi?", — javranar onang,
"Nima bo'ldi, bolam?", — so'raydi tinmay.
Tumovmi...nimami...shamollashmi yo...
Oshxonaga chopar ona indamay.

Bir choy ichim vaqt-ku o'tmasdan hali,
Bug'lanib keladi oldingga un osh.
Bag'ringga o'xshaydi qirmizi murchi,
Har bitta no'xati yurakka o'xshash.

Ishtaha yo'q bo'lsa yo'q bo'lsin, mayli,
Ona ko'ngli uchun yalanar oq jom.
Tuzaldim, onajon, oshing tufayli,
Bu oshga o'xshashi yo'qdir, onajon.

Quvonar, jilmayar, no'sh bo'lsin, bolam,
Yig'ilar, yuvilar tovog'-u qoshiq.
Ertasi javranding un osh bilan-a,
Bu darddan qutulib bilarmi oshiq.

Oqshom ham ovqatning uzilmas keti,
Yana sen qoshiqni olasan qo‘lga .
Ichida-chi, oppoq jo‘janing eti,
Bir kosa sho‘rvani kuzatding yo‘lga.

Yanada deydi u: “No‘sh bo‘lsin, bolam,
Dard qaytmasin”, — deydi pechga o‘t sola.
Ertasi javranding bu yopishgan dard,
Bosh berarmi bitta jo‘jaga ona.

Ertasi bilmadim, topibdi qaydan,
Eshikning oldida ma’raydi uloq.
Sen onangga uloq yedirar joyda,
U bo‘lsa o‘g‘liga yediradi, boq.

Yeyarsan, icharsan qaytmaydi bu dard,
Uyqusiz o‘tadi kecha ham yana.
Yana javranarsan ulog‘ingdan ham,
Bu dardga shifo yo‘q, shifo yo‘q, ona.

Osmonga bug‘ o‘rlar qora qozondan,
Ostingga to‘shag-u yostiq ham, ana.
Onangni quchoqlab deding, bu darddan,
Qutuldim, onajon, qutuldim, ona.

TURKMANNING

Jayxun bilan Bahri Xazar orasi,
Cho'l ustidan esar yeli turkmanning.
Maxtumquli

Jayxun bilan Bahri Xazar orasi,
Suv ustidan esar yeli turkmanning.
Qora tog'dan qaytib malla daryosi,
Qoraqumdan enar seli turkmanning.

Shimoli Urganchdir, janubi Etrak,
Sholi maydon-maydon yantoqdan ko'proq.
Bir qo'lida cho'kich birida o'roq,
Bu kun qudrat bo'ldi qo'li turkmanning.

Go'zallari ol-u yashil kiyarlar,
Yigitlari suydirarlar suyarlar.
Qarilari men yigitman deyarlar,
Qadimdir tug'ilgan yili turkmanning.

Yer yuzida bir ajoyib tong otar,
Tong nurlari yer yuzigan teng yetar.
Kunchiqar baxshisin tingla kunbotar,
Tinglagudek, bilsang tili turkmanning.

* * *

Qum ham o‘zi uchun hosil bermaydi,
O‘zi uchun emas suvning ham taxti.
Bulut o‘z-o‘zini yuvintirmaydi,
O‘zigamas kunning nur to‘la jahdi.
Barchasining yagonadir qayg‘usi,
Bir-birining baxti.

Barchalari oshiq biri-biriga,
Birisi suv berar, ikkinchisi nur.
Bittasi gul ochsa birisi jo‘shib,
Gullarning ustidan sepalanyotir.

Birisi artsa gar yaproq namini,
O‘zgasi shu namdan yasaydi bulut.
Va yana shu namdan yasalgan bulut,
Tog‘dan pastga sho‘ng‘ir bir daryo bo‘lib.

Va yana daryodan bulutdir paydo,
Va yana bulutni yoyadi shamol.
Hammasi yig‘ilar hamrohlar kabi,
Berar bir biriga jam bo‘lib kamol.
Sen hamisha bu birlikdan misol ol,
Va hamisha ular uchun bo‘l misol.
Inson.

* * *

Ko‘chamizdan o‘tib borar odamlar,
Birlari shodiyon, birlari g‘amgin.
Nimaga shodiyon? Ne uchun g‘amgin?
Bilging kelsa hamki so‘ramoq qiyin.

So‘ramoq darkormi, kerakmi bilmoq,
Birovning qalb siri nimangga kerak.
Tug‘ilish, o‘lish bor... ammo dunyoda,
Sabablarga to‘la bo‘lar har yurak.

Ko‘chamizdan o‘tib borar odamlar,
Birlari shodiyon birlari g‘amgin.
Ammo shod g‘amlanib, g‘amli shodlanib,
Bu hol teskarisi bo‘lmog‘i mumkin.

Deylik, sababini so‘rading ham xo‘sh,
Bilgil shoirlikka da’vogar bo‘lsang.
Avval yaxshilikka yaxshiliging qo‘sh,
So‘ngra mumkin qancha qalaming yo‘nsang.

* * *

Istagan manzilga yetmog‘ing uchun,
Qancha ajib yo‘llar bo‘lsa dunyoda.
Shuncha ham og‘ishmay ketmog‘ing uchun,
O‘rganib o‘tarlik so‘qmoq ziyoda.

Manzillarni uchib o‘tmog‘ing uchun,
Qancha mumkinchilik bo‘lsa havoda.
Shuncha ham ularni poy-u piyoda,
Kechmoq uchun zarurat bor dunyoda.

* * *

Tenglashtirib ko‘rdim ikki chanoqni,
Sig‘di bir chanoqqa bir chanoq ayron.
Yashasin, bor bo‘lsin boshning chanog‘i,
Ichida ming xayol aylaydi sayron.

Tenglashtirib ko‘rdim ikki dasturxon,
Dasturxonga dasturxonlik sig‘di non.
Yashasin, ko‘ngilday ulug‘ dasturxon,
Sig‘di tegrasiga mingtacha mehmon.

Tenglashtirib ko‘rdim ikki nuqtani,
Bir nuqtaga bir nuqtalik son sig‘di.
Yashasin, yashasin qaroq nuqtasi,
Bir nuqta ichiga yer, osmon sig‘di.

* * *

Hayot haqda fikr qilsang,
O‘lim gina qilmog‘i bor.
O‘lim haqda fikr qilsang,
Hayot gina qilmog‘i bor.

Mana senga kerak bo‘lsa,
Ikki nafar o‘pkalagich.
O‘pkalat sen yuqorgini,
O‘pkalasin erta-yu kech.

TO‘RT QILIQ

Manmanlik bu yomon qiliq deydilar,
Battarroq desang ham so‘zlaringdir rost.
Ammo hech manmanlik qilmayman deya,
Egilib yurmoq ham yaxshimasdir, do‘st.

Ezmalik bu yomon qiliq deydilar,
Battarroq desang ham so‘zlaringdir rost.
Ammo hech ezmalik qilmayman deya,
Lol bo‘lib yurmoq ham yaxshimasdir, do‘st.

Laganbardor bo‘lmoq yomon deydilar,
Battarroq desang ham so‘zlaringdir rost.
Ammo qomatimni egmayman deya,
Kekkayib yurmoq ham yaxshimasdir, do‘st.

Dangasalik yomon qiliq deydilar,
Battarroq desang ham so‘zlaringdir rost.
Ammo dangasalik qilmayman deya,
Nafs uchun yelmoq ham yaxshimasdir, do‘st.

Boshqa ham qanchadir yomon qiliqlar,
Ularning ko‘pligi rostlardan-da rost.
Ammo har bandimda bir so‘z almashlab,
Ezmalab turmoq ham yaxshimasdir, do‘st.

BOSH AYLANMA

Eshikning oldida o'tirib mana,
Nabiralarga aql o'rgatar ena.
U yoqqa aylansang boshing aylanar,
Bu yoqqa aylansang tuzalar yana.

Bolalar haqda bu aytganing ena,
Kattalarga aql bergin birgina.
Shon-shuhratdan boshi aylangan odam,
Qayonga aylansa tuzalar yana?

Farqi yo'qdir, o'g'lim, shuhratdan bo'lsin,
Va yo boshqa biron qudratdan, ana
Burab teskariga avval yeriga,
Keltirib bilsang gar tuzalar yana.

SHOIRGA

Shoir ham yalang‘och kelar dunyoga,
So‘ngra unga ko‘ylak kerak, to‘n kerak.
U ham elga o‘xshab emar, yig‘laydi
So‘ngra unga ovqat kerak, non kerak.

U ham o‘ynar el o‘ynagan yerinda,
Ammo nedir unga eldan ko‘p kerak.
Unga osmon kerâk, unga yer kerak,
Unga qum, tog‘ kerak, okean kerak.

Faqat kitob, o‘qish unga oz bo‘lar,
Unga o‘qish bilan to‘qish ham kerak.
Tarvuz kabi bir kallaning ichida,
Ham ishchi, ham olim, ham dehqon kerak.

Ham qari bo‘lsin u, ham yosh bo‘lsin u,
Ikkisin bir joyga keltirgan kerak.
Hali o‘smir payti komil bo‘lsin u,
Komillik paytida o‘smirlik kerak.

Bulardan boshqa-da yana ikki hol,
Ularsiz mumkinmas, juda ham kerak.
Bittasi ulkandir, bittasi kichik,
Ko‘ngil kichik, yurak kattakon kerak.

* * *

Juda yaxshi narsa so‘zni qizg‘anmoq,
Qizg‘onchlikni so‘nggi haddiga yetkaz.
Yuz sahifa yozma, bitta sahifa,
Bir sahfa o‘rniga yarim satr yoz.
Shu yarim sahfani (qo‘lingdan kelsa),
Qisib-qisib bitta harf qilsang soz.

Uddalay olsang gar undanda o‘tkaz,
Ammo o‘sha so‘zni qizg‘onmoqlikning
Fikrni qizg‘onmoq emasligiga
Aqlingni yetkaz.

NOTANISH TARJIMONGA XAT

Kelgil Moskvaga yuzing bir ko'ray
Deyarsan. Kattakon, kattakon rahmat!
Ammo bir so'zim bor mening o'zim kim?
She'rimdan kimligim anglamas bo'lsang,
Senga ne yuz bilan ko'rinay, inim?

Kelgin Moskvaga ovozing tinglay
Deyarsan. Unga ham kattakon rahmat!
Ammo bir so'zim bor mening o'zim kim?
She'rimdan ovozim eshitmas bo'lsang,
Borib ne yuz bilan gaplashay, inim?

•

SUT

Shoir qancha yosh bo'lsa agar,
O'z o'ziga bahosi katta.
Komillikka aylagach safar,
Sal pastroqqa tushar, albatta.
Yoshlik qaynab turgan sutdan-da ortiq
Komillik qatiq.

Ammo maromida qaynamay toshmoq,
Sut uchun xavflidir, xatarlidir bot.
Qozoningdan toshib, o'ting so'ndirsang,
Qani unda qatiq, qani unda o't?

GILAMCHI JUVONGA

Sening kasbing qiyinligi ayondir,
Balki har tuguning ajib bir she'rdir.
Lekin bir narsani anglamas shoir,
Qancha komillashsang sengadir oson.
Qancha komillashsam men uchun og'ir.

XUDO BILSIN

Yaxshi-yaxshi odamlarning qadrini,
Yomona duch kelmay bilib bo'lmaydi.
Yildirimdek bedovlarning qadrini,
Chamanga duch kelmay bilib bo'lmaydi.

Yomon kitob oz emasding avval ham,
Tokchalarda yetarliksan jamuljam.
Yaxshining qadrini bilmoqlik uchun,
Xudo bilsin kerakdirsan bugun ham.

ADABIY FORMALAR VA JANRLAR HAQIDAGI SHE'RLARDAN

1. RUBOIY

Ruboiylar, ey ruboiylar,
Uch oyoqli bitta qo'lli og'alar.
Sizning ko'nglingizga tegmasa bo'ldi,
Yangi paydo bo'lgan Umar og'alar.

Ruboiylar, biz ruboiylar,
Sakkiz yuz, to'qqiz yuz yoshli og'alar.
Ammo hanuz bola hisoblab,
Goho o'ylanadi Umar og'alar.

Ruboiylar, siz ruboiylar,
Uch oyoqli bitta qo'lli og'alar.
Sakkiz yuz,
to'qqiz yuz yoshli bo'lsangiz,
Qachon sizning soqolingiz oqarar?

Ruboiylar, biz ruboiylar,
Uch oyoqli bitta qo'lli og'alar.
Bizning soqolimiz oqargunicha,
Suyagingiz, soqolingiz oqarar.

2. ROMAN

— Roman ota sening ahvoling qalay?
— O'g'ilginam, vaznim mening anchadir.
— Yaxshi-da, otajon vazn bo'lsa gar.
— Qani shu vazngа mazmunim bo'lsa.

3. DRAMA

Eshigingdan ketgan ko‘pdir kelgan oz,
Qani ayt-chi holing nechuk drama?
Kelgan ko‘p ichimga kirib bilgan oz,
Qo‘ygin, do‘stim, ahvolimni so‘rama.

4. TRAGEDIYA

Yurtimizda tug‘ilgandan o‘lgan oz,
Ahvoling ne aytgin tragediya?
To‘g‘ri aytding, tug‘ilgandan o‘lgan oz,
Ammo ko‘pdir hamon tragediya.
Meni yozmoqlikka jur’atingiz yo‘q,
Fikrimcha bu katta tragediya.

5. POVEST

Ko‘rayapman xursand holda kezarsan,
Kim u xursand? Qorning sening to‘p kabi.
To‘p kabi qorindan Xudo saqlasin,
U nima deganing? Nima bu da’vo?
Tashim rezin mening ichim ham havo.

6. TANQID

— Salom Tanqid, ey botir,
Sen ham bormi?
— Bordirman.
— Nega bunday yotibsan?
— Oh turishga zordirman,
Ko‘tarmoqqa o‘g‘lim yo‘q,
Erkalashga qizim yo‘q,
Nomim bor-u, o‘zim yo‘q,
Suvim bor-u, tuzim yo‘q.

KENGLIK

Men dengizni suydim, dengiz ham meni...
Bag‘rida olisga olib ketadi.
Biroq suzib borib, sal xato qilsam,
Bilaman, u meni aniq yutadi.

Men u qizni suydim, u qiz ham meni...
Unga so‘z saralab, gaplar bichaman.
Ammo to‘rt-besh karra so‘zda adashsam,
U meni kechirar, qasam ichaman.

Qirg‘oqlari olis, hatto ko‘z yetmas,
Ey, sen — Qora dengiz, dunyoday kengsan.
Biroq yana-yana kengroq bo‘lishni
O‘sha nozik nihol qizdan o‘rgansang...

SAPAR O'RAYEV

(1932)

1932-yili Dosho'g'iz viloyatining Taxta tumanida tug'ilgan. Dosho'g'izdagi pedagogika bilim yurtida, so'ngra pedagogika institutida o'qiydi.

Shoirning turli yillarda nashr qilingan "Sevgi sharbati", "Oshiqlar qo'shig'i", "Ashxobodning oshiqlari", "Qiz yuragi", "Ko'zlarim seni izlaydi", "Oqtepalik Oyjamol", "Mening tuyg'u olamimda", "Taklifnoma", "Kashtalar", "Sevgi so'nmas o't ekan" kabi she'rlar, dostonlar to'plamlari mashhur.

Rasul Hamzatov, Maksim Tank, Abay Qo'nonboyev va boshqa shoirlarning she'rlarini turkman tiliga o'girgan.

"Turkmaniston xalq yozuvchisi", "Hurmatli el oqsoqoli" kabi unvonlar bilan taqdirlangan. Maxtumquli nomidagi xalqaro mukofot sohibi.

MENING ELIM

Tushunishmak kelar tarix bag'ridan,
Mening elim avval shunga uygan el.
Keyin madad tilab, buyuk Tangridan,
Bilagida bor kuchini tuygan el.

Hamma narsa mehr bilan qaralgan,
Mangulikka, yaxshilikka yaralgan,
Yomonga ham yaxshi javob berolgan,
Mehr borin o'z qalbiga quygan el.

Quyosh nuri yuz nuridan pastdadir,
So'zlarida hikmat dasta-dastadir.
Bor sevgisi bir muloyim sasdadir,
Mening elim o'z lafzini suygan el.

O'tsizlarga olov berar o'choqdan,
Ixlos etsa po'stin tikar po'choqdan.
Do'st-yoriga joy berib u quchoqdan,
Yonsa yonib, kuysa birga kuygan el.

O'tdan issiq ko'rar inson yuzini,
Qorachiqda saqlar dala— tuzini.
Zarur payti bo'lsa bitta uzumi,
Mehmon uchun dasturxonga qo'ygan el.

SHOIRMAS

Sayrar chog‘i tilib-tilib bag‘rini,
Lolga do‘ngan shoir, aslo shoirmas.
El, gul bilan qarshi olgan davrini,
Yerga ko‘mgan shoir, aslo shoirmas.

It hurdi, o‘tdi-da karvonlar qator,
Chin shoir har kuni tong bo‘lib otar.
Ne boshlar bo‘lganda quyoshday botar,
Ko‘zni yumgan shoir, aslo shoirmas.

Zulmatdan kun bo‘lib chiqar chog‘ida,
Haq bir kun nohaqni yiqar chog‘ida,
Kam kelsa, yomg‘irdek yog‘ar chog‘ida,
Yog‘may, tingan shoir, aslo shoirmas.

Ko‘zin tikib o‘zgalarning poyiga,
Bulg‘ansa kimningdir otgan loyiga,
Tarozu tortilsa, og‘ir joyiga
O‘tib, mingan shoir, aslo shoirmas.

Qalbidagi shubha muzin eritmay,
Katta eldan ilhom olib yaratmay,
Nokasni ters qilib, elni qaratmay,
Yashab bilgan shoir, aslo shoirmas.

HAQQIM YO‘Q

G‘aflat uyqusidan uyg‘ondi diyor,
Mening uni ko‘rmaslikka haqqim yo‘q.
Ko‘z ochib, tirsakka tayandi diyor,
Unga mehr bermaslikka haqqim yo‘q.

Kezsakda sog‘inib, dilni ta’sirlab,
Mustaqillik kuttirdi-ku asrlab.
To‘qson birning kuz oyinda posirlab,
Keldi. *Quchoq kermaslikka* haqqim yo‘q.

Necha yil aylandi u haqda fikr,
Necha — necha dono aylagan zikr.
Mana, yetib keldi, endi ming shukr,
Unga boshim egmaslikka haqqim yo‘q.

Tangrim uzoq etsin uning yoshini,
Qo‘rg‘on qilsin tegrasini, doshini.
Yarashtirib ko‘zi bilan qoshini,
She’r-u g‘azal bitmaslikka haqqim yo‘q.

TO‘RTLIKLAR

Shoirning bilgani dunyo bilgani,
Shoir hech sirini yashirmas eldan.
Shoir so‘zlarining bo‘lmas yolg‘oni,
Shu sabab so‘zlari kuchlidir seldan.

* * *

Bog‘dan olgan bir tup niholing bilan,
Yaratib bilarsan tengsiz, katta bog‘.
Ammo tog‘dan olgan bir bo‘lak toshing,
Hech qachon, hech qachon bo‘la olmas tog‘.

* * *

Qish qurigan daraxt bilinar yozda,
Uchganda bilinar qanotsiz g‘oz-da.
G‘oz qanotsiz qolib, daraxt qurisa,
Malham topib bo‘lmas, malhamli yoz-da.

NURI BAYRAMOV[1]

(1933–1993)

Nuri Bayramov 1933-yili Turkmanistonning Marv viloyatida tug'ilgan.

Shoir, yozuvchi va tarjimon. Turkmaniston davlat universitetining filologiya fakultetini tamomlagan (1957).

Filologiya fanlari nomzodi. Pushkin va Lermontov asarlarini turkmanchaga tarjima qilgan.

* * *

— Nuri Bayram, nima so'zlaysan?
— Odamlarning yuragini.
— Nuri Bayram, nima izlaysan?
— Odamlikning daragini.

— Nuri Bayram, qaylardan kelmoqdasan?
— Odamlarning orasidan.
— Nuri Bayram, kimlardan bezovtasan?
— Odamlarning olasidan...

[1] Nuri Bayramov she'rlarini Tursun Ibrohimov, Mirpo'lat Mirzo tarjima qilgan.

TONG SHAMOLIN OVOZI

Mening burchim: huvullab,
G'unchalarni gul etmoq.
Sening burching: shu gulni
Olqab, shodumon etmoq.
Burchim: nav-nihollarni
Silab-siypab uzatmoq.
Sening esa: bog'larning
Tinchligini kuzatmoq.
Burchim mening: har sahar
Yerning holin so'ramoq.
Sening burching: Vatanning
Yuzini pok asramoq.

* * *

O'g'limdan so'rayman:
— Qanday tush ko'rasan?
U deydi: — Tushimda
Ot chopib yuraman.
Qizimdan so'rayman:
— Nima tush ko'rasan?
U deydi: — Tushimda
Gul terib yuraman.
Kaminaning esa
Doimiy tushi:
Otamning urushga
Ot surib borishi...

HAMAL CHAQMOQLARI

Tinglayman men butun shuurim bilan
Hamal yellarining mayin kuylashin.
Osmonlarga osib tashlaydi bu dam,
Bahor bulutlarni — uvada loshin.

Ko'klamning hididan tuyub kuch-quvvat —
Bog'imda ishlayman, g'ussadan yiroq.
Ishlarkan, eshitib qolaman bir payt —
Bo'g'iq gumburlar ilk momaqaldiroq.

Nogahon bulutlar misli elakdan
Quygandek quyadi nurdek shaffof suv.
"Yog'aver, yog'aver, yomg'ir, yomg'irjon!" —
Birdan bola-baqra ko'tarar qiy-chuv.

Ufqda kamalak tovlanar chunon,
Yerdan qo'ziqorin bodraydi biram.
"Yog'aver, yog'aver, yomg'ir, yomg'irjon!" —
Go'dakka aylangum — men qari odam.

Ey bahor, yomg'iring quygin, quyaver.
Oq bug'lar taratib rohatlansin yer.
Hech narsa, hech narsa o'zgarmabdi, eh.
Bari bolaligim paytidagidek.
Yomg'ir, ey yomg'irjon, to'xtama bir dam.
Kelding sen naq mening
Bolaligimdan!

* * *

Yana entiktirar bog‘larni javzo,
Yana eriy boshlar yuksak tog‘da qor,
Va jo‘shqin suvlardan
Ko‘pirib daryo,
O‘zanlar daf’atan kelib qolar tor.

Uni jilovlab ko‘r — gar eplay bilsang,
Birdan orolchaga tashlanib qoldi.
Uchragani uchun
Yo‘lida xarsang,
U alamin jajji oroldan oldi.

Ey daryo, oshiqma,
O‘ylagin bir zum,
Jahldan aqlingni yo‘qotib qo‘yma,
Yaratgan eding-ku uni sen o‘zing,
Tegrasidan, axir, oqarding o‘ynab.

O‘zing keltirganding unga qum-tuproq
Va o‘zing o‘stirding chechaklar rangin.
Buncha hovliqasan,
Bir zum tinglab boq, —
Qushlar sayrar unda, eshityapsanmi?

RAIMBOY SOBIROV

(1933)

1933-yilda tug'ilgan. Dosho'g'iz shahrida istiqomat qiladi. 1955-yilda Toshkent Davlat chet tillar institutining fransuz tili fakultetini bitirgan.

Turkman va o'zbek tillarida ijod qiladi. "Paxtakor" tuman gazetasida, so'ngra "Do'stlik bayrog'i" viloyat gazetasida ishlagan.

R. Sobirov "Yumaloq dunyo", "Girdobdan sohilga", "Sirli maqomlar", "Insof", "Dunyoning siri" qissalari, "Qiz amali", "Kutilmagan jazo", "Azroilning hazili" kabi sahna asarlari muallifi.

TO‘RTLIKLAR

Hayotda shodlig-u ham azob bordir,
Oldingda gunoh-u ham savob bordir,
Qaysisi ustuvor, o‘zingga bog‘liq,
Bilki, poyonida sarhisob bordir.

* * *

Derlar, kelar bir kun oxirzamona,
Odamzot nasli-chun bu bir afsona,
Lekin har kishining zamon oxiri,
Kelgusi muqarrar to‘lsa paymona.

* * *

Odamlar tilagi azal adolat,
Adolat bo‘lmasa, barchasi g‘alat.
Teng sochar zaminga quyosh shu’lasin,
Ul shu’la tushmasa yer bo‘lar barbod.

* * *

Riyokorga qilsang turfa yaxshilik,
Uyg‘onmas qalbida bir tuyg‘u iliq.
Qora tosh ustida o‘smas ekan gul,
Bag‘ri toshdan kutma hargiz xush qiliq.

* * *

Dunyoga ko‘z tikma, u gavjum bozor,
Sovrilar bir damda, bo‘lma umidvor.
Qanoat — boylikdir, nafs — gadolik,
Mol yiqqan o‘ziga orttirar ozor.

* * *

Ko‘ngil bir gulshandir, yetmasa ozor,
Shirin so‘z bilan u doim lolazor.
Gulzorni toptashdir ko‘ngilga tegmoq,
Derlar: dilozordan Xudo ham bezor.

QAQABOY ILYOSOV

(1936–2000)

1936-yili Dosho'g'iz viloyati Bo'ldimsoz tumanida tug'ilgan. Maxtumquli nomidagi Turkman davlat universitetida o'qigan.

Turli yillarda shoirning "Dehqon xarakteri", "Qishloq yo'llari", "Oshiqman", "Buloq", "Ajoyib damlar", "Mangu guzar" she'riy kitoblari nashr qilingan. "Turkmaniston xalq yozuvchisi" (1993), "Hurmatli el oqsoqoli" (1999) sanaladi. 2000-yilda vafot etgan.

SAKKIZLIKLAR

— Sen nima istaysan suygan xalqingdan?
— O'zi malham topsin, o'zi tig' ursin.
— Nima kutayapsan aziz do'stingdan?
— Mendan olganingni qaytarib tursin.

— Nima qilsang sendan xalq bo'lar rozi?
— Og'ir yuk ko'tarsam, og'ir yuk ursam.
— Qay mahal do'st ko'ngli suv ichar sendan?
— Undan olganimni qaytarib tursam.

* * *

Suv oqar. Yer qonar. Urug‘ ham unar,
So‘nmas umid chaqnar xayolda, sarda.
Bu ajib aylanish shunday bardavom,
Odam odam bilan uchrashgan yerda.

Ko‘zlab qoyalarni bulutni titgan,
“Buyuklik — tog‘ baxti” — qo‘yishar aytib.
Biroq qoyalar ham qayrilib boqar,
Odam odam bilan uchrashgan payti.

* * *

Shamol og‘ochlarning shoxlarin tarab,
Ko‘mko‘k yaproqlarning yonog‘in siypar.
Yana bir bor yerdan tiklanmoq istab,
Shamolga osilar qaqshagan cho‘p — char.

Qarang, bu gul Hayot naqadar shirin,
Qarang, bu gul Hayot buncha qo‘l yetmas!?
Cho‘p — charning shamolga yalinishlari,
Yolvorishi ko‘zim oldidan ketmas.

* * *

Oqar yop ila yo‘l emakdosh, do‘g‘on,
Biridan suv oqar, biridan umr.
Tashnani qondirmoq suvning maqsadi,
Umrgayam berilmish shundayin amr.

Suv yopga enganda “shog‘”lab saslanar,
Odam tug‘ilganda yo‘llanar bo‘zlab.
Yop bir kun top tashlar, bir kun mavjlanar,
Yo‘l ham goh qisqarar, goh ketar uzab.

* * *

Toshdan sizib chiqqan chashma suviga,
Inson og‘zin bosar kelganda horib.
Qo‘chovushlab ichar qora musibat,
Chiqqan ko‘zyoshini — suyakni yorib.

Toshni yorib chiqqan chashma suviga,
Lablaringni bosib deganda — “ey, jon!”
Osha qonib, nafsing tiymayin, tag‘in,
Qora musibatga uchrama, inson.

* * *

Ariq qaz, Arnadan olib sog‘asin,
Yer sug‘or, urug‘ sep, guliga qarash.
Qiynasa yer... arazlatgan yor bilan
Yarashganing kabi, yer bilan yarash.

Va yashil dalani dalaga ula,
Faqat chamanlanib yotsin tevarak,
Ishon do‘stim menga, sen ishon menga,
Gullar orasida pok bo‘lar yurak.

BAXT

Sen baxti bekamsan, sahroyi yigit,
Bahor tonglaridek umringga bir boq.
Har guli bir ko‘ngil chirog‘i misol,
Ayt, qayda, azizim, yaylov bor, bundoq.

Yuki kun nuridan chashmalar — soylar,
Ko‘rganlar qalbida uyg‘otar Quyosh.
Bunday ajiblikka eltmagan qari
Enam aytgan ertak, bo‘lmasam adash.

O‘lchab turar falak ustivorligin,
Azamat teraklar osmonni bo‘ylab.
Yelga shivirlagan yaproqlarmasmi,
Meni shoir qilgan, hislarim o‘ynab.

Sen baxtli yigitsan, qalbi quyoshli,
Olamga beadad nuring sochar payt...
Har guli bir ko‘ngil chirog‘i misol,
Qayda bor, azizim, bunday yaylov, ayt!

NOZIK ONNATIYEVA

(1937–2008)

Mari viloyatining Vakilbozor tumanida tug'ilgan. Mari shahridagi xotin-qizlar pedagogika institutida o'qigan. Shoiraning "Shokila" degan ilk she'riy to'plami 1964-yilda nashr qilinadi.

Shoiraning "Yodgor", "Muhabbatli suhbatlar", "Kuz orzulari", "Baxmal lolalar", "Umr karvoni", "Yangi tuqqan Oy" kabi to'plamlari mashhur.

She'rlari chet tillariga tarjima qilingan.

2008-yilda vafot etgan.

•

VATAN

Sen mening iqbolim,
Sen mening dunyom,
Yuraklar quvonchi, shu'lali, Vatan!
Senga mehrin bergan maqsadga yetar,
Muqaddassan,
Ka'ba, qiblali, Vatan!

Duldulning, G'irotning izi sendadir,
Alvon-alvon gulli yozi sendadir,
Go'zal jononlarning nozi sendadir,
Moviy osmonlari jiloli, Vatan!

Senga xizmat qilgan topgusi hurmat,
Bog'-rog'laring erur chinakam jannat.
Qarang, bu naqadar ajoyib davlat,
Sening bag'ring huzur, ziyoli, Vatan.

Na darkor ovozing chiqarib sevmoq,
Oqshomlaring ajib, subhlaring qaymoq,
Baxt erur "Men sening farzanding" demoq,
Gavhar qoshli, naqshin jig'ali, Vatan.

Buyuk yuksalishlar ayyoming ajib,
Keksaygan tog'laring tumani ajib,
Hohlagan insonga sayroning ajib,
Farzandlaring tili sanoli, Vatan.

KELADI

Ko'ngil berib yuragini to'kkanga,
Xonumoning baxsh etging keladi.
Seni o'z qalbiga yaqin bilganga,
Malham so'zlaringni aytging keladi.

Do'sting, qardoshingni siyla har qachon,
Bo'lsin desang ular senga mehribon.
Ulardan azizroq yo'qdir hech inson,
E'zozlab manglayga surtging keladi.

Haqiqiy do'st erur lazzatli qaymoq,
Uni kerak doim qalbingdan suymoq.
El-yurtning dardiga yaramoq, kuymoq
Farzandlik burching deb aytgim keladi.

Tushunib falakning turfa o'yiniga,
Uddalar ishingni olgin bo'yningga.
O'shanda topganing yarar to'yingga,
Uyingda betashvish yotging keladi.

AJIB

Dunyoni lol etar san'ating sening,
Sayroq bulbullaring ovozi ajib.
Gul bahoring qiyosi yo'q jahonda,
Osmonda qushlarning parvozi ajib.

Qizlaring Layliga o'xshar sevganda,
Yarashar rayhongul libos kiyganda,
Naqshin bezaklarni taqib yurganda
Sevgan yigitiga qiz nozi ajib.

Parimisol, ohu ko'zlar boqishi,
Sumsulani qoshi uzra taqishi.
Ularning har damda olgan olqishi,
Ovozga aylangan kuy-sozi ajib.

Sarvqad qizlaring sevgi yoshida,
Go'zal dilbarlarning ko'ngil xushida,
Ajib his-tuyg'ular bordir boshida,
Ular karashmasi ham nozi ajib.

To'lqinlar yangratar jarangdor ovoz,
Va Oftob nurini taratgani soz.
Tantana chog'ida xalqimga peshvoz
Qo'shiq aytgan yoshlar ovozi ajib.

YOMG‘IR YOG‘SA

Yomg‘ir yog‘sa, derazangni ochib qo‘y,
Yomg‘irga aylanib borishim mumkin.
Bahorda qalb hujrangni ochib qo‘y,
Naqshga aylanib borishim mumkin.

Ustingdan yo‘l solsa sargardon shamol,
Shamolga aylanib borishim mumkin.
O‘zing ham sezarsan borganim mahal,
Ovozga aylanib borishim mumkin.

Eh, bilib bo‘larmi oydin kechalar,
Inson tuyg‘ulari juda tejalar.
Qalbingda bir tuyg‘u jo‘sh ursa agar,
Qanotimni qushday kerishim mumkin.

Jala quysa, o‘tkazma ul lahzani,
Go‘zallikka to‘lsin ko‘ngling maskani.
Ilhoming qushlari rom etsa mani,
Senga yana ko‘ngil berishim mumkin.

QURBONNAZAR EZIZOV

(1940–1975)

1940-yilda Buzmeyin qishlog'ida (hozirgi Obodon shahri) tug'ilgan. Maxtumquli nomidagi Turkman davlat universitetida o'qigan.

Turli yillarda nashr qilingan "Ishonch", "Yer-u osmon orasida", "Kuz" kabi to'plamlari mashhur. Uning "Bola va dengiz", "Qizil otryad haqida ballada" to'plamlari bolalar uchun mo'ljallangan.

Turkmanistonning Maxtumquli nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan.

She'rlari rus, ozarboyjon va ingliz tillariga o'girilgan.

SEVING MENI...

Seving meni — yurak ishqni sog'inar,
Shunchalar sog'inar — yo'qdir poyoni.
Birgina insonga yetgulik sevgi,
Menga bas, qadrdon har lahza, oni.

Menga darkor emas u-bu narsalar,
Qo'lingizni ko'ksingizga qo'yingiz.
Sizga sevgi ila talpingan yurak,
So'zlarimga loqayd bo'lmay sevingiz.

Seving meni — butun borlig'im ila,
Mehr ila yo'llar tortdim siz tomon.
Yakka o'zing sevib yursang hamisha,
Qalbga og'ir botar dardlari yomon.

Seving meni — sizning sodiq qulingiz,
So'ngra mendan sizga qolar bir ulush.
Men sizga shunday bir sarpolar yopay,
Shohlarning qo'lidan kelmas bu yumush.

SO‘Z

So‘zning og‘irligin o‘lchamas tonna,
O‘lchamas kuchini million kilovat.
So‘z — yalang‘och tuyg‘uga qirmizi bir to‘n,
So‘z kimga-tarsaki,
Kimlargadir baxt.

Jahonda eng buyuk *shifobaxshdir u*,
Shodligimiz unda jamuljam.
Jahonda eng buyuk jafo uniki,
Hasratimiz unda mujassam.

So‘z u g‘azab ila chiqqan yashindir,
So‘z jonon nozidir, dur, gavhar qoshing.
Bilmasang, u so‘nayotgan yulduzing,
Bilsang — lovvullagan nurli quyoshing.

TUPROG'IM

Sening tuzing yedim, noningni yedim,
Qalloblik qilmadim, xudoga shukur.
Gohi ko'kka uchdim, goh ko'kdan indim,
Biroq yo'qolmadim, xudoga shukur.

Birinchi so'zimni sendan boshladim,
Tuzingning hurmati, yolg'on yozmadim.
Faqat sening qishing ila qishladim,
Sening ila o'tdi quvnoq yozlarim.

Yo'qotganim — bag'ringda men yo'qotdim,
Topganlarim — bari sendan topdim men.
Sen tufayli aql kirib qalbimga,
Shodlik, quvonch ummonida oqdim men.

Huv qoyaning etagida o'rnashgan
Bog'ning yonboshidan tobutli kechdim.
Yana bir kun, ko'kdan tarqalgach tuman,
O'sha bog' ichinda sharob ham ichdim.

Qayga borsam, mening ila bo'lding sen,
O'ylasam, sen — mening vujudim ekan.
O'zga elning gullaridan afzaldir,
Oyog'imda sen qoldirgan iz-tikon.

Minnatdorlik so'zim shul erur mening:
Yo'llaring oq bo'lsin, uzoqqa ketsin.
Mangulik uyquga ketsam bir kuni
Sening bag'ring menga muyassar etsin.

* * *

Men o‘zimga do‘st izladim yoshlikdan,
Go‘zal yigitlarni sayladim takror.
Biroq: “Eng yaxshisin izlab toparman”
Deya, barisidan kechganim ham bor.

Men o‘zimga yor izladim yoshlikdan,
Go‘zallardan sir-asrorim gizladim.
“Yo‘q, mening ishq-sevgim o‘zgacharoqdir”
Deya, go‘zallarning shohin izladim.

Nihoyat sevgisiz va do‘stsiz qoldim,
Shundoq yashamoqlik aslida mushkul.
Lek shu yigitlarning bittasi do‘stim,
Qizlarning biriga tushgandir ishqim.

ORZU

Ummonlar tomchidan yig'ilar ekan,
Tomchiga aylanib qolsam men agar, —
Tashnani axtarib topsaydim, degan
Tashvish bilan yashar edim muqarrar.

Daraxtga aylanib qolsam gar bog'da,
Har bahor yozardim g'ujg'on-g'uj yaproq,
Qoshimdan yo'lovchi o'tgani chog'da,
Unga soya-salqin beray deb ko'proq.

Maboda hududsiz koinot aro,
Yulduzga aylanib qolsam, begumon,
Miltillab yonardim umid-la tanho —
Yetib kelar deya yerliklar qachon.

AYRILIQ FASLI

Yaproq bog‘dan uchmasa,
Kuzning ko‘rki ne bo‘lsin.
O‘tlar rangi o‘chmasa,
Kuzning ko‘rki ne bo‘lsin.

Kun sovuq nur sochmasa,
Yerga tuman tushmasa.
G‘ozlar yig‘lab o‘tmasa,
Kuzning ko‘rki ne bo‘lsin.

Eski o‘ylar ko‘mmasa,
Tuproq ko‘zin yummasa.
Bu ayroliq bo‘lmasa,
Kuzning ko‘rki ne bo‘lsin.

KUZ KECHASI

Botmaydi ko‘ngilga kuzning shamoli,
Qish kelishin suyunchilaydi noyabr.
Namozgargi uzun soya misoli,
Kechalar ham ko‘p uzayib boradir.

Boshing suqmoq uchun teshik topmasdan,
Qanday o‘tkazarsan so‘ngsiz kechani.
Yo kayvoning bilan bedor, yotmasdan,
Sanash kerakmikin kuzda jo‘jani.

Na eshik qoqilar, na-da derazang,
Havoning avzoyi yuzing tutgaydir.
Shunday kunlar, agar mendan so‘rasang,
Sen birovni, birov seni kutgaydir.

O‘ttiz uch yosh dilga ming bir g‘am solar,
Sovuq yel tutgaydir dala, bog‘, ko‘chang.
Bu shunday bo‘libdir, shunday ham bo‘lar,
Kunlaring qisqarib, uzayar kechang.

* * *

Sevdim kuz faslini,
Sariqligini,
Ko‘nglimga xush yoqar uning past fe’li.
O‘lim bilan hayot oralig‘ini,
O‘lchaydigan yaproq shoxdadir hali.

Ammo mana,
Sovuq shamol esmoqda,
Shunda birdan o‘z shoxidan tonar u.
Havolanib uchar, o‘ynar tovlanib,
Kaptar kabi ko‘kka o‘zin solar u.

Shundoq qaro yerga yetdim-yetdimda,
Birdan yana ko‘tarilar samoga.
O‘jar bola kabi turmas haddinda,
Ajalning oldida kelmas omona.

Ajalini olmaydigan bo‘yniga,
O‘yinlari bir ajoyib ko‘rinar.
Hayron qolib bu antiqa o‘yinga,
Qish ham endi sal orqaga surilar.

YURAK

Menga bering o'n yurak, o'nta alomat yurak,
O'ntasin har birida bir sir bo'lmog'i kerak.
Bittasi bilan sevay bepoyon osmonimni,
Biri bilan dunyoni, biri bilan insonni.
Biri sevdirsin elni, biri onaizorni.
Qolgan beshtasi bilan mahv etayin dushmanni, —
Deb do'stimga bu haqda so'z ochayotsam asta,
Yurak bezovtalanib, deydi ko'krak qafasda:
— Nechun senga o'n yurak? Kerak ne uchun, nechun?!
Istasang, bitta o'zim beray o'n yurak kuchin.
Siz juvonmi, yo yigit, yo bir nuroniy banda,
Boshga og'ir ish tushsa, qattiq sevib qolsangiz,
O'n yurakka aslo joy topolmassiz bir tanda!
Nechunkim, tor qafasda o'n yurak bo'lolmas jam.
Ammo yo'rig'ini siz topolsangiz, ishoning,
Bir yurak toshin bosar ming bitta yurakning ham!

SHOIR YURAGI

Sen agar gul eksang, gul unar yerdan
Va gar tikan eksang, ko'rasan tikan.
Ushbu maqol meros ota-bobodan,
"Yerga nima eksang, shuni o'rasan".

Shoir yuragi ham tuproq misoli,
Biroq boshqacharoq maqsad elagi.
Sen unga mix qadab, sochsang-da, og'u,
Faqat gul undirar shoir yuragi.

KUZ KO‘RKI

Yerga yaproq tushmasa,
Kuzning ko‘rki na bo‘lg‘ay.
O‘tloq rangi o‘chmasa,
Kuzning ko‘rki na bo‘lg‘ay.

Quyoshdan nur ketmasa,
Yerga tuman tushmasa,
G‘ozlar yig‘lab uchmasa,
Kuzning ko‘rki na bo‘lg‘ay.

Yoz shovqini tinmasa,
Tuproq “ko‘zin yummasa”,
Shu go‘zallik bo‘lmasa,
Kuzning ko‘rki na bo‘lg‘ay.

RASSOM BOLA

Chizdi bola tog‘ shaklin, odamzodga o‘xshadi,
Chizdi bola bog‘ rasmin, odamzodga o‘xshadi.
Chizdi bola kun bo‘yi dengiz rasmin, gul rasmin,
Odamzodga o‘xshab, ajab, bari turardi vazmin.

Ertasi kun rasm darsi,
Mahkam qisib tishlarin,
Navbat bilan har bir bola,
Ko‘rsatdi o‘z ishlarin.
Ustoz dedi: —O‘tir, bola,
Daftaringga ne chekding?
Kun ham — odam,
Gul ham — odam...
Ko‘rsatyapsan ne hunar?!
Muallima ko‘p g‘ijindi:
— Seniki shu bir xillik:
Kun ham odamga mengzar,
Gul ham odamga mengzar!

Havo esa juda issiq,
Lek shamol boshin silar,
Qaytar bola o‘z uyiga,
Daftarida “ikki”lar.

Ko‘kda quyosh misli odam:
“Chekma g‘am, bola”, deydi.
Peshvoz chiqib gul-lola ham:
“Chekma g‘am, bola”, deydi.

Ertasi kun bobo quyosh,
Chiqar ufqni yorib.
Bola uning rasmin chizar,
Odamlarga o‘xshatib.

SEVGI

(Sonetlar guldastasi)

1

Umrning og'ochidan uchmoqda kunlar,
Kunlar umring elagida elanar.
Ortga do'nmoq istar dalli ko'ngillar,
Har bir kunda bir kun yashab o'tilar.

Har kimning kechmishdan bir armoni bor,
Mening esa kuyib ketgandir bag'rim.
Sening ruhing menga berar kuch-mador,
Ruhimni tanamga qaytarding, sarvim.

Yo'limizning ayro tushgani uchun,
Bo'zlama. Yaratgan xush ko'rmas sira.
Urushdan sog' qaytish dushvor-u qiyin,
Undan ham yomoni qonli xotira.

Beomon xotira — g'am-alam titroq,
Tuproqni quchganday za'faron yaproq.

2

Tuproqni quchganday za'faron yaproq,
Mahzun xotiralar aylar dilim band.
Mangu hijron sabab zirqirar yurak,
Og'riq yodim bilan quraman suhbat.

Boshqalarday yorga duch kelmasman bot,
Dilda qo'r olsa ham sog'inch-orziqish.
Umrimga esh bo'lib o'lmas muhabbat,
Tuyaman ruhimda ma'yus hapriqish.

Ichimga jim yutib g‘ussa-qayg‘uni,
So‘radim men seni yotdan, tanishdan.
Erta-kechda eng sof shaffof tuyg‘uni,
Asrab qola oldim bevaqt so‘nishdan.

Yo‘llar yanglig‘ uzun muncha bu kunlar,
Yo‘llarda uchrashar shaydo ko‘ngillar.

3

Yo‘llarda uchrashar shaydo ko‘ngillar,
Vokzal. Front. Oq qor olmish alvon tus.
Anqir o‘lim hidi, o, jallod kunlar,
Biroq men negadir tirikman hanuz.

Tong chog‘i umrimga yasaldi yakun,
O‘ldim. So‘ng qarasam, tirikman yana.
Kun botar chog‘ida otildim u kun,
O‘ldim. So‘ng qarasam, tirikman yana.

Vasling orzusida qalbim bo‘ldi band,
Sen do‘stga mehrimsan, sen yovga qahrim.
O‘limga ming karra bera oldim pand,
Dunyoda borliging uchun, ey, sarvim.

Qadamda duch kelar ajal-u sirtmoq,
Yo‘llar ayro tushar, boshlanar firoq.

4

Yo‘llar ayro tushar, boshlanar firoq,
O‘zi-chi, miq etmay oshadi dovon.
Taqdir hukmi ekan — vasli diydoring,
To qiyomat qadar — ushalmas armon.

Sanqiyman uzun tun qorong‘usida,
O‘ylab seni. Bedor tonglarim otar.

Adashgan yo'lovching qiyofasida,
Muhabbating kelib eshigim chertar.

Aqlim raso bo'lib angladim shuni,
Barcha orzularing tugal ushalmas.
Butlab bo'lmagandek kemtik dunyoni,
Mukammal baxtga ham erishib bo'lmas.

Har bir kuning sinov: goh baxt, goh zavol.
Oshiqqa bu kunlar odatiy bir hol.

5

Oshiqqa bu kunlar odatiy bir hol,
Goh quvonch, goh qayg'u —
O'tar bir xilda.
Arifmetikaga o'xshash ehtimol,
Birini yozasan, ikkisi dilda.

•

Sevgim shunday buyuk sohibi qudrat,
Mayli, sen muzga do'n, ammo olov shahd,
Eritar qalbingni o'tkazmay fursat,
Ham ato qiladi senga mangu baxt.

Bir qarasam, senga yetmaydi qo'lim,
Bir boqsam yonimda turibsan, alhol.
Bir o'zingga yulduz ozday sevgilim,
Ammo ikkimizga yetar bemalol.

Xotiralar mahzun, g'ussalar mahzun,
Ishq o'ti qalbimni quchar kun sayin.

6

Ishq o'ti qalbimni quchar kun sayin,
Bu tuyg'u — bahorning ilk oyi — hamal.
Oshiqlar sipqorar muhabbat mayin,
Ko'klam ishq ahliga sirli bir a'mol.

Ilohiy bir tuyg‘u ko‘ngilda nogoh,
Uyg‘onib yangilar hayot tarzini.
Tushunar chiroyga timsol doim moh,
Tinglar u shikasta gullar arzini.

Oshiq yigit bilan so‘zlashmoq mushkul,
Uning o‘y-xayoli yer go‘zalida.
Takrorlar tun-kun bir ismni nuqul,
Muqaddas duoday qo‘ymay tilidan.

Ishqdan dil yonmasa, bari puch xayol,
Oshiqlar qurmasa, suhbat-u visol.

7

Oshiqlar qurmasa, suhbat-u visol,
Bir ummonga oqqan yanglig‘ qo‘sh daryo,
Yo‘qsa, oshiqlarga zulmatdir dunyo,
Shabnam sho‘r tuproqda bo‘lganday uvol.

Men seni axtarib kezaman jahon,
Umidvor ko‘z tikib shom-u saharga.
Seni bu shahardan topmasam shu on,
Otlanaman shoshib o‘zga shaharga.

Siyoh tunda savol alomatiday,
Chiqadi osmonga oyning o‘rog‘i.
Olisda yulduzlar ko‘z qisar atay,
Uyg‘onar ko‘ksimda yodim titrog‘i.

Yuraklar olmasa ishqdan ulush-poy,
Chiqmog‘i dargumon ko‘kda quyosh, oy.

8

Chiqmog‘i dargumon ko‘kda quyosh, oy,
Yor, deya oshiqlar o‘rtasa bag‘ir,

Hadeb faryod chekmoq, solmoq dod-u voy,
Nahotki, birgina chora shu axir.

Sevgi hasrat emas,yurakda ungan
Mangu zavol bilmas yam-yashil daraxt.
Men sevgimni baland ko'targum chunon,
Nurli tole bo'lib silar boshim baxt.

Men o'larman. O'qiladi janozam.
(Noilojmiz — tabiatning amri bu.)
Sevgim kelib aza ochar subhidam,
Har kelishi uzaytirar umrimni.

Sevgim har kun yig'lar qabrimni quchib,
Bo'zarar tun, asta yulduzlar o'chib.

9

Bo'zarar tun, asta yulduzlar o'chib,
Suvlangan olmaday oppoq tong otar,
Aylanib borliqni achomlab-quchib,
Quyosh taftin yerga qo'shqo'llab tutar.

Sen mening baxtimmi yo mening qayg'um,
Baxtimmi, qayg'ummi, kim ayta olar.
Ovoz ber, ovoz ber, ey, mening sevgim,
Madhing bo'lsin bugun eng sara so'zlar.

Men sensiz baxtiyor yashadim, nahot,
Rosti, bunday baxtdan zerikdim-hordim.
Seni topsam, baxt shahrida bo'lib shod,
G'am shahrini baxtga ko'mib tashlardim.

Shunda beshak baxtim bo'lardi butun,
Xo'rozlar qichqirar, to'zg'ir qora tun.

10

Xo‘rozlar qichqirar, to‘zg‘ir qora tun,
Boshlanar yangi kun quvonch, tashvishi.
Men g‘azal yozarman, quvonib har kun,
Go‘yo toleyi but eng baxtli kishi.

O‘tarman dengizdan, olov qa’ridan,
Shaffof suv, otash taft qalbimga ulgi.
Oshiqlik mardlikdir, yuksak baridan,
Mardona yashashni o‘rgatdi sevgi.

Yo‘lim to‘sdi mening qancha to‘siqlar,
Opichlab g‘ussamni oshdim ulardan.
Balki omadlidir ko‘ngli o‘ksiklar,
Sevgan yori bilan qovushganlardan.

O‘ylang, bu dunyoda bari jamuljam,
Yurar o‘ksik qalblar, omadlilar ham.

11

Yurar o‘ksik qalblar, omadlilar ham,
Bu dunyoi dundan dilda ming xohish.
Qovushganlar bir yostiqqa jo mudom.
So‘qqaboshga kamdir butun bir bolish.

Bugun xayolimni parday to‘zg‘itib,
Bir qiz o‘tdi. Angladim sir-tilsimni.
Zo‘rg‘a tilim tiydim, senga mengzatib,
Sal qoldi-ya, aytishimga ismingni.

Qulog‘ingga sasim yetdimi, tamom,
O‘t tutashib yondiradi ichingni.
Ammo ko‘ngling bo‘lsin mendan xotirjam,
Zarracha buzmasman sening tinchingni.

Qalbing tinch. Baxtingni qutlamoq uchun,
Qo‘r tashlab mastona chiqib kelar Kun.

12

Qo‘r tashlab mastona chiqib kelar Kun,
Quvonch, qayg‘ularin ichiga yutib,
Kunning ham sen-mendek bag‘ri to‘la xun,
Yashar yorug‘lik deb, o‘zin ovutib.

O‘zi ham men kabi sargashta oshiq,
Yo‘qotgan tinchini, kezar darbadar.
Har kuni u beshta qit’ani oshib,
Izlaydi yorini — qayda deb Qamar.

Ammo o‘ksik qalblar olar undan taft,
Garchi Oy, deb bedor kutar tonglarni.
Lek bag‘ri kengligi biz uchun ibrat,
Ko‘nglini butlashga sho‘r manglaylarning.

Ajab damlar, dilbar hislar tal’ati,
Sevilmoq — qismatning zo‘r marhamati.

13

Sevilmoq — qismatning zo‘r marhamati,
Chekinar beomon taqdir anduhi.
Erta-kech pok qalbda ishq shafoati,
Bois orta boshlar ko‘ngil shukuhi.

Muhabbatdan tuydim qalbimda poklik,
G‘urur toji boshim ko‘kka yetkazdi.
Sensiz taqdirdagi yolg‘izlik-toqlik,
Men sho‘rlikka faqat g‘ussa tutqazdi.

Sening g‘ussang bilan qoldim alamda,
Sening g‘ussang bilan toleyim kemtik.
Sevgi-qayg‘u baqamtidir olamda,
Shundan beri menga armondir shodlik.

Qurimas dunyoda sevgi daraxti,
Ana shu — Insonning eng ulkan baxti.

14

Ana shu — Insonning eng ulkan baxti,
Sevgi tubanlikka yo'l bermas sira.
Siz shunday bir seving, shunday seviling,
Yulduzlar ham rashkdan tortsinlar xira.

Sevgi yer yuzidan qirsin batamom,
Barcha pastkashlig-u xiyonatlarni.
Ega bo'lib qalbga Muhabbat mudom,
Sochsin ezgulikni, diyonatlarni.

Aytib ado qilolmagan bo'zlaring,
Bedor tunlar izi — yonoqda xoling.
Hanuz yo'llarimga intiq ko'zlaring,
Shu mening kechmishim ham istiqbolim.

Otmoqda oppoq tong chekinar tunlar,
Umring og'ochidan uchmoqda kunlar.

MAGISTRAL

(Katta yo'l)

Umring og'ochidan uchmoqda kunlar,
Tuproqni quchganday za'faron yaproq.
Yo'llarda uchrashar shaydo ko'ngillar,
Yo'llar ayro tushar, boshlanar firoq.

Oshiqqa bu kunlar odatiy bir hol,
Ishq o'ti qalbimni quchar kun sayin,
Oshiqlar qurmasa suhbat-u visol,
Chiqmog'i dargumon quyosh-u oyning.

Bo'zarar tun, asta yulduzlar o'chib,
Xo'rozlar qichqirar to'zg'ir qora tun,
Yurar o'ksik qalblar, omadlilar ham,
Qo'r tashlab mastona chiqib kelar Kun.

Sevilmoq — qismatning zo'r marhamati,
Ana shu — insonning eng ulkan baxti...

ANNAGELDI OG'ABOYEV

(1940)

Zamonaviy turkman adabiyotning yorqin namoyandalaridan biri. O'nlab she'riy va tarjima kitoblar muallifi. Adabiyot sohasidagi xizmatlari uchun bir qator davlat mukofotlari bilan taqdirlangan.

* * *

Shoirni shoirga qarshi qo'ymanglar,
Shoirni shoirlar yoniga qo'ying!
El-u yurt boshiga g'am kelar bo'lsa,
Shoirni shu balo oldiga qo'ying!

Shoirni shoirga qarshi qo'ymanglar,
Shoirni shoirning o'rnida tuting!
Shoirlar ko'ksini changallagan payt,
Shu nozik yurakning dodiga yeting!

Shoirni shoirga qarshi qo'ymanglar,
Shoirlarning barin bir ko'zda ko'ring.
Bajara olsangiz, shoir oldida,
Qo'lingiz qovshirib, xizmatda turing!

CHO‘PLAMALAR TURKUMIDAN

Tong otgandan chug‘urlashib, uyg‘onib,
Qushlar hayot haqda suhbat ochdilar.
Avval qishloq keksalarin uyg‘otib,
So‘ngra uchdilar...

* * *

Nafas sanaguncha xastaxonada,
Nafas tinsa yaxshi ustaxonada!

* * *

Shukur, shoirlarga sen go‘r qazmading...
She’rin o‘g‘irlading Rasul Hamzatning!

* * *

Bir qarasam — sen she’riyat dushmani!
Bir qarasam — she’r do‘stiman, dermisan?
So‘zingdan, o‘zingdan topmadim ma’ni, —
Ikki jahon ovvorasi senmisan?

GO‘ZAL SHOG‘ULIYEVA

(1940)

1940-yilning 11-avgustida Mari viloyatining Murg‘ob tumanida tug‘ilgan.

Saidiy nomidagi pedagogika institutida o‘qigan. Shoiraning “Bo‘xcham” nomli ilk she’riy to‘plami 1971-yilda chop qilingan. “Bu yillar”, “Men qoraqumlikman”, “Uzoqlarda nigohim”, “Sevgi maqomi” kabi to‘plamlari mashhur. “Kun chiqadigan yerda”, “Chiroyli ovoz”, “Bir boshga tobe elim”, “Yuksalish zamonasi” singari poemalar yozgan.

Ijod sohasida erishgan yutuqlari uchun ko‘pgina davlat mukofotlariga ham sazovor bo‘lgan.

KECHIRGIN, YURAK

Kechirgin sen meni,
Kechirgin, yurak,
Men keza olmadim seni yig'latmay.
Qilich olib himoyangga chiqsam-da,
Asrolmadim butun bag'ring tig'latmay.

Sevdim, yurak,
Seni telbavor sevdim.
Borlig'ing chulg'adi xayolim butkul.
Talashdim tim qora kechalar bilan,
Ingrashingga chidamay tun-kun.

•

Sevdim, yurak,
Seni telbavor sevdim,
O'tdim-ketdim sira parvo qilmasdan.
Qizig'i shul erur, neligin sezmay,
O'tarkan odamzod haddin bilmasdan.

Sevdim, yurak,
Seni telbavor sevdim,
Bir narsa yigiting torttirdi faryod.
Tark etdim o'shanda dunyo qizig'in,
Ko'zlarimga ilmay o'zga bir xilqat.

Kechirgin sen meni,
Kechirgin, yurak,
Men keza olmadim seni yig'latmay.
Qilich olib himoyangga chiqsam-da,
Asralmadim butun bag'ring tig'latmay.

SOG‘INDIM

Anglasa ko‘z baland-u pastni,
So‘zlasang, tinitar nafasni.
Farqini bilmayin har kasni,
Mardi-maydonni sog‘indim.

Azob tortadir qo‘limdan,
She’r ham ketmadi yo‘limdan.
Tortib bag‘ri jigarimdan,
Ayrilgan jonni sog‘indim.

Umrning bor chegarasi,
Hech kimning yo‘qdir qolasi.
G‘amgin ko‘ngilning shifosi,
Ajib gulzorni sog‘indim.

Yechishmoqqa umr ipin,
Tortishmoqqa og‘ir yukin,
Yelka emas, qalbga yukun,
Dildosh dononi sog‘indim.

Farzand to‘ldi quchog‘imga,
Maral derlar ajabimga.
Qut-baraka o‘chog‘imga
Bosh bo‘lar xonni sog‘indim.

Yaqinlikka yot yaxshidir,
Qarindosh umr naqshidir.
Misralarim hayotbaxshdir,
Ma’noli sonni sog‘indim.

Go‘zal qolmas havasidan,
Qo‘rqmas taqdir hamlasidan.
G‘olib chiqar hammasidan,
She’riy ummonni sog‘indim.

YOZ MENGA

Oy, Quyosh-u yulduzingga boqqanim,
Gulzor, dala,
bahor menga,
yoz menga.
Yaylovingda kuy-qo'shig'ing aytganim,
So'zlar menga,
qo'shiq menga,
soz menga.
Jo'shqin daryolarda suzib, oqqanim,
To'lqin menga,
yolqin menga,
sol menga.
Jon — jigarning hislariga yoqqanim,
Sevgi menga,
gina menga,
noz menga.
Jasoratim tog'lar osha ko'rsatgum,
Lafz menga,
nomus menga,
fe'l menga.
Shular bo'lsa, barcha boylik mendadir,
Jayxun menga,
jahon menga,
el menga.

QO‘YMAGIN DODGA MENI

Tangrim, qiya boqmagin.
Panoh bo‘lgin, saqlagin.
Bardosh yetmas, yoqmagin
Begunoh, o‘tga meni.

Sinading, sindirding ko‘p,
Yig‘ladim, tindirding ko‘p.
“Ketganlar qo‘sh diydam” deb,
Qo‘yma faryodga meni.

Bahoringga ziynatim,
Yaylovingga xizmatim,
Bo‘lsa biroz himmatim,
Almashma zotga meni.

She’rning azobin bildim,
Ming o‘lib, ming tirildim.
Shul Vatan, elim debon,
Olgin sen yodga meni.

Adolat keldi sardan,
Ko‘tardim boshni yerdan.
Endi tortolmas gardan,
Qo‘ymagin dodga meni.

Umr qisqa, safar oz,
Yakun topar bahor, yoz.
Obro‘yimda eltsin soz,
So‘nggi hayotga meni.

"SEVGI YO'Q" DEDINGMI?

"Sevgi yo'q" dedingmi?
Yo'qmi u?
Asli borligiga inonmadingmi?
Dunyo tomiridan oqqan daryoda
Mo'jiza ko'rmadingmi,
Kuch ko'rmadingmi?!

Unda men ne uchun bezanib yurdim,
Kerakmasmi sochlarimni taramoq?
Yashamoq kerakmi,
Kerakmi umr,
Bo'lmasa ne darkor huzurbaxsh quchoq?!

Seni deb yashadim,
Seni deb keldim.
Sen bo'lmasang, tatimaydi keng jahon.
Terakka o'xshardi bu tikka qomat,
Sen bo'lmasang, yonoqlar jilosiz har on.

Hazilmas,
Bunda umr haqda gap borar,
Unda aks etadi olam tashvishi.
Bir-birovga bog'lanib qushlar misoli,
Parvozlari baland,
Yo'qdir qo'nishi.

"Sevgi yo'q" dedingmi,
Yo'qmi u?
Asli borligiga inonmadingmi?
Dunyo tomirida oqqan daryoda
Mo'jiza ko'rmadingmi,
Kuch ko'rmadingmi?!

BOQIB KEL

Ko‘zlardagi ishqimga,
Jonim, boqib-boqib kel!
Aylanayin jo‘shqinga,
Daryo bo‘lib oqib kel!

Asal yanglig‘ tilimdir,
Sochim tushar belimga.
Sevgi o‘ti shirindir,
Yonayin, yor, yoqib kel!

Ezilsang, ezilarman,
Kulsang, men ham kularman,
Ko‘kda yulduzlar chaman,
Bo‘ynimga, yor, taqib kel!

Asal yanglig‘ tilimdir,
Sochim tushar belimga.
Sevgim o‘ti shirindir,
Yonayin, yor, yoqib kel!

OMONDURDI ANNADURDIYEV

(1941–2021)

Omondurdi Annadurdiyev 1941-yilda Mari viloyatining Mari tumanidagi Mulkamanshoh qishlog'ida tug'ilgan. Charjyev shahridagi pedagogika institutida o'qigan. Turli gazeta va juarnallarda, Turkmaniston televideniyesida ishlagan. She'rlari ko'plab xorij tillariga tarjima qilingan.

Shoir she'rlarini Matnazar Abdulhakim, Yo'ldosh Eshbek kabi shoirlar o'zbek tilga tarjima qilgan.

* * *

O'n kallali kungaboqar,
Yo unga, yo bunga boqar.
Bir kallali kungaboqar,
Yo yerga, yo kunga boqar.

O'n kallali kungaboqar,
O'n kallasi ko'kka tegar.
Bir kallali kungaboqar,
Yolg'izlikdan boshin egar.

O'n kallali kungaboqar,
Puch bo'ladi, yo'q bo'ladi.
Bir kallali kungaboqar,
Mag'zi uning... to'q bo'ladi!

* * *

Dengiz ko‘kka sapchir.
Yuragimga ul
Bahaybat to‘lqinlar tilamoqchimi.
Dengiz ko‘kka sapchir.
To‘lg‘anar guvlab.
Osmondagi oyni
Silamoqchimi...

* * *

Kulardik
Qah-qahlar otib...
Shundan beri
O‘tdi,
Xudo bilsin,
Necha yuz oylar...
Ot bo‘lay deb kishnab kechganidek
Yildirim toylar.

* * *

Qog‘oz suvga botsa
Bo‘kib qolmasmi,
Saqlab biladirmi
O‘z ohorini.

Yigit saqlagaymi o‘z bahorini
Dili bo‘lsa dog‘liq?..
Qog‘oziga bòg‘liq,
Yigitiga bog‘liq.

OLMAXON

Assalomu alaykum, yoqimtoy, jajjim,
Kaftimga chiqibsan, quvnoq oshno, san.
Termilib turibsan ko‘zlarimga jim,
Balki suhbatimga mening tashnasan.

O‘qib beray desam g‘azallarim xom,
Ming so‘zim bir ma’ni mag‘zin chaqmaydi.
Mag‘zi to‘q yong‘oqqa o‘chsan, Olmaxon,
Mening puch she’rlarim senga yoqmaydi.

* * *

Sevgi yo‘q deydilar...
Yo‘qdir u, balkim,
Ishq bog‘idan gullar termaganlarda.

Sevgi yo‘q deydilar...
Yo‘qdir u, balkim,
Yurak olib,
Yurak bermaganlarda.

Sevgi yo‘qdir,
Ahddan qaytganlar uchun,
Sevgi yo‘qdir,
Yo‘q deb aytganlar uchun.

TO‘RTLIKLAR

Otam aytgan: “O‘zni zo‘r, chapdast tuting,
Balandni baland-u, pastni past tuting”,
El sizga farroshlik mansabin bersa,
Supurgini doim muqaddas tuting.

* * *

Bu gullarning arosinda o‘larman,
Qaro ko‘zing qarosinda o‘larman.
Dilingni men yaro etdim o‘rinsiz,
Dilingning men yarosinda o‘larman.

* * *

Sensan yuragimning sehri, faxri ham,
Sensan yuragimning mehri, qahri ham,
Faqat asalimas asalarining,
Jonga darmon, axir, nishi, zahri ham.

* * *

G‘ijjak bir poklandi, nay bir poklandi,
Yillar bir poklandi, oy bir poklandi,
To‘yga kirib kelding, ohuko‘z dildor,
Davra bir poklandi, to‘y bir poklandi.

* * *

Demayman, yurakning dog‘i tinglanmas,
Lek qalbning qalbaki ohi tiklanmas.
Bulbul navo qilgan sokin ma’vo bu,
Bundan hech bir zog‘ning “qog‘i” tiklanmas.

* * *

Kimlar ko‘rdi, kimlar ko‘rmadi, ketdi,
Xayolga ming ma’ni o‘rnadi-ketdi.
Tog‘im! O‘z qa’ringdan kovlangan temir
Tesha bo‘lib yuzing tirnadi-ketdi

MUNCHOQLAR TIZIMI

Termalar

Ko‘z bo‘lmasang, kuyarman,
Qosh bo‘lmasang, kuyarman,
Tor yo‘lda, tor ko‘chada,
Duch bo‘lmasang, kuyarman.

* * *

Tog‘da qorni izladim,
Bog‘da norni izladim.
Dardga dardni qo‘shmoqqa,
Dardli yorni ko‘zladim.

* * *

Ishqim yozdim yaproqqa,
Yaproq yo‘li yeldadir,
Yelib-yelib yaproqlar,
Sevgim senga eltadir.

* * *

Botmadi kun vaqtida,
Chiqmadi oy vaqtida.
Kelmading, dod, vaqtida,
Kelmading, voy, vaqtida.

* * *

U qiz zimdan boqadi,
Ko‘zimdan yosh oqadi.
Bir yigitni tanlay deb,
Ming yigitni yoqadi.

* * *

Baxtda yor hissasi bor,
Er boshin g'ussasi bor.
Bir misra g'azalimning,
Ming misra qissasi bor.

* * *

Shoir bo'ling demayman,
Ishim anduh, mung mening.
Kulganim gar bir bo'lsa,
Yig'laganim ming mening.

* * *

Bir lo'li qiz qo'llarimni silaydi:
"Laureat yo'li senga bo'g'ilar.
Bezovta bo'lmagil, bo'lma xomtama,
Laureat baxtli ayoldan tug'ilar".

Bir lo'li qiz qo'llarimni silaydi:
"Baxt keltirmas tutgan bu o'n so'mliging.
Halak bo'lma tanish-bilish axtarib,
Hali-veri chiqmaydi ko'p to'mliging".

Bir lo'li qiz ko'llarimni silaydi:
"Sen injiqsan, bordir senga ko'p jazo.
Bittasini eshit: hech bo'lolmaysan,
Yozuvchilar uyushmasiga a'zo".

Ey, lo'li qiz, qo'llarimni silayver,
Nahot menga hamma eshik yopilar.
Ey, lo'li qiz, qo'llarimni silayver,
Aytganingdan boshqa baxt ham topilar.

Ey, lo'li qiz, qo'llarimni silayver,
Tez-tez to'sib chiqib turgil yo'limdan.
Eng katta baxt, asli, go'zal lo'li qiz,
Ushlab turganingdir mening qo'limdan!..

* * *

1

Men yo‘l o‘g‘li emas, men yo‘l otasi,
Bu yangi ovulga yo‘l cho‘zib keldim.
Kelgan bu ishimning yo‘qdir xatosi,
Oyda ikki bora qo‘l cho‘zib keldim.
Turnalar mung‘ayib boqqan yo‘llarda,
Jayron yelib, chaqin chaqqan yo‘llarda,
Ulovlar sel bo‘lib oqqan yo‘llarda,
Hijronning ustidan men g‘olib keldim.

Lolalar yarashgan yo‘l mening ko‘nglim,
Ming-ming chechaklarga to‘l, mening ko‘nglim,
Hech yoqqa bormasang, so‘l, mening ko‘nglim,
Men yo‘l olib keldim, yo‘l solib keldim.
Qorachig‘im cho‘lga xol qilib keldim,
Tilimni hayratdan lol qilib keldim.

2

Yengil ish,
og‘ir ish,
qora ish,
oq ish...
Yo‘q-yo‘q, bunday bo‘lmas,
asli biroq ish.
Ishni bunday desang
olam torayar.
yengil qilgan ishing og‘iri
boshqaga tushar.
Bir oq ishdan
butun olam qorayar...

3

Men yo‘lchi bo‘lmasam,
Kim bo‘lar edim?..
Cho‘lda ohularni o‘tlatib yurgan,
Kiyikcho‘pon bo‘lar edim.
Cho‘lda ohularni o‘tlatib yurgan,
Suyuk cho‘pon bo‘lar edim.

* * *

Narigi sohildan qardosh qichqirdi:
"Kel, qardosh, men seni sog'indim".
Qayiq minib borgim keldi qoshiga,
Qayiq axtardim.

Narigi sohildan qardosh qichqirdi:
"Kel, qardosh, men seni sog'indim".
Kema haydab borgim keldi qoshiga,
Kema izladim.

Narigi sohildan qardosh qichqirdi:
"Kel, qardosh, men seni sog'indim".
Sovg'a-salom bilan bormoqchi bo'ldim,
Sarpolar qidirdim.

Nihoyat yo'l oldim,
Ketdim.
Tiriklikda diydor ko'rishmoqchi bo'lib,
O'limiga yetdim.

Suzib borsam bo'lmasmidi,
Sho'ng'ib borsam bo'lmasmidi.
Yasan-tusanlarga balo bormi edi,
Do'stim mahobatga zormi edi,
To'ng'ib borsam bo'lmasmidi.

Narigi sohildan qardosh qichqirdi...

* * *

Kelsin dushman,
Gunohidan o‘tdim men.
Kelsin do‘stlar,
Juda intiq kutdim men.
Cho‘lim
Zarra-zarra
Zar bo‘lib yotar,
Har zarra ichinda
Vatan tutdim men.

* * *

Aldamaganim uchun
Yolg‘iz qolaman,
Aldanmaganim uchun
Yolg‘iz qolaman.
O‘ksib... tolganim uchun
Yolg‘iz qolaman,
Cho‘kib qolganim uchun
Yolg‘iz qolaman.
Yolg‘iz qolaman!
Qog‘ozim, kechir.
Yolg‘iz qolaman!
Qalamim, kechir.
Yolg‘iz qolaman!
Ovozim, kechir.
Yolg‘iz qolaman!
Alamim, kechir.
Kechiringiz meni, do‘stlarim!

BALIG'IM

Agarda daryoning suvi pasaysa,
Bu ahvolni sezar,
Sezar ekan baliqlar.
Suv boshiga
Suzar ekan baliqlar.
Sen bilan bilinsin
Bu dunyoda
Borlig'im,
Sen sezdingmi,
Sen suzdingmi,
Suv boshiga, balig'im?

•

BU GULLAR ORASIDA

Nechun jo'shmay kezasan,
Bu gullar orasida?
O'z baxtingni sezasan,
Bu gullar orasida.
Yig'lash qiyin,
Kulmoq dahshat.
Dahshatlikni
Bilmoq dahshat.
Maqsadim — boqiy qolmoq,
Bu gullar orasida.

BU DUNYODA

Bu dunyoda nelar ko‘rdim, to‘zmadik,
Chidadim qabohat va g‘iybatlarga.
Biroq qushning uyasini buzmadik.

IKKI

Chiroqni o‘chirdik
Ikki qo‘l bilan,
Xayrli tun dedik,
Ikki til bilan.
Choyshabimiz ikki,
Yostig‘imiz ham.
Men bilmay qoldimmi...
Ko‘nglimda alam,
Go‘yoki ikkiga
bo‘lingan tanam.
Hatto uyimizning havosi ikki,
Dunyoda eng ayanch,
Eng dahshatli raqam,
Balki,
Ikkidir,
Ikki...

HAYOTGA MUHABBAT

Go‘zal dunyo
Kelganimga baxtiyor...

...Do‘stlar, o‘z bag‘rimni
Etdim yarador —
O‘ylandim,
G‘am chekdim,
Dili poraman.
Go‘zal dunyo
Kelganimga baxtiyor!
Ketmayman...
Ketmayman...
Baxtga boraman!

XOTIRA

Qahringni aytmoqqa,
Juft qilich qosh bor,
Zahringni to‘kmoqqa,
Ko‘zingda yosh bor.

Bahor kelganini,
Bildirdi bulbul.
Qo‘lingda bulbulga,
Atalgan tosh bor!

* * *

Oh, kimlarni
kuldirmadi
bu safo,
Oh kimlarni
o'ldirmadi
bu safo.
Yolg'izmasman,
sen bor axir,
jahonda!
Sen bor axir!
Sen bor axir!
Bevafo!

SEN BAHORIM BO‘LIB KEL

Bo‘sh kechgan fursatimga
Sen qahhorim bo‘lib kel.
Qanot kerak dardimga —
Shod shaharim bo‘lib kel.

Turna ketdi — dog‘ladi,
Yolg‘iz yurak dodladi,
Yo‘limni qish bog‘ladi,
Pok bahorim bo‘lib kel.

Sog‘ yaproqlar to‘nibdi,
Dilbarsiz kim unibdi,
Zulmat sachrab, tomibdi,
Oq saharim bo‘lib kel.

Umidim katta sendan —
Qomati sarvga tengdan,
Tonsam azizim — eldan,
Oh... zaharim bo‘lib kel!

AHMED MAMMEDOV

(1942–2022)

1942-yilning 7-fevralida Dosho'g'iz viloyatining Oqtepa tumanida tug'ilgan.

Maxtumquli nomidagi Turkman davlat universitetida o'qigan. Turkmaniston Fanlar akademiyasi Maxtumquli nomidagi Til va adabiyot institutida ishlagan.

Adabiyotshunos sifatida bir qator ilmiy asarlar yozgan. "To'fon farzandi", "Bir yurak torlari", "Go'zal qizlar", "Ko'ngil guzarim", "She'rlar guldastasi", "Qizil shamol" , "Alanga", "Kunduz surati", "Yulduzli ko'l" kabi she'riy kitoblari nashr qilingan. She'rlari turkman, rus, o'zbek, qozoq, eston, qoraqalpoq va ozarbayjon tillariga o'girilgan.

Hamid Olimjon, Uyg'un, Sobir Abdulla, Zulfiya, Mirpo'lat Mirzo, Sirojiddin Sayyid she'rlarini turkman tiliga tarjima qilgan.

TURKMANISTON

Qo'lga olsam qalamimni yozmoq istab she'r-u doston,
Qalb to'ridan sado kelar: "Bir guliston — Turkmaniston".

Xizr ko'rgan yaylovlarim dilginamni yashnatadir,
Turfa rangda jilolangan bog'-u bo'ston — Turkmaniston!

Yozgi bug'doy, kuzgi bug'doy to'lqinlanar ummon yanglig',
Boshoqlari ko'z quvonchi, sunbuliston — Turkmaniston!

Bolalarning quvnoq sasi, qiz-juvonlar qahqahasi,
Go'yo deysiz bu yurt, so'zsiz, bulbuliston — Turkmaniston!

Kopettog'ga borgan chog'im ko'nglim tog'dek yuksalgusi,
Qalbimga kir, bahor yeli, fasli nayson — Turkmaniston!

Bedov chopmas, uchar illo, qanotlangan qushlar yanglig',
Yuraklarga berar g'urur, gul-guliston — Turkmaniston!

Tani-joni bir chulg'anmish shoiri Ahmad bilan,
Oshig'-u ma'shuq go'yo, gul-guliston — Turkmaniston!

BOR

Turkmanda nima bor?— demagin zinhor,
Ko'lankasi quyuq bog'-rog'lari bor.

Boshi oppoq sochli nuroniy bir chol —
Arslonli va sherli qir-tog'lari bor!

Qo'rqut, Dali Dumbul ham Solir Qozon,
Go'ro'g'lidek kabi mardonlari bor!

Yurak mavjlarini esga solguvchi,
To'lqinlanib oqar daryolari bor!

G'iroti, tuyasi, cheksiz sahrosi,
Ming dardning davosi — dutorlari bor!

Paxtasi, nefti, gazi, bug'doyi,
Olimi, shoiri — zargarlari bor!

El o'g'risiz bo'lmas, cho'llar bo'risiz —
Oz bo'lsa-da, xullas, murdorlari bor!

Sulton Sanjar, Bayramxon-u Qovshutxon
Kabi donolari, sardorlari bor!

Boymi yo kambag'al, telbami, dono?! —
Ahmadning Quyoshdan sarpolari bor!

VATAN DEBON...

Bir nozanin ishqida mag‘rurona yursam, bas,
Yonib-kuyib yo‘linda, oxir bir kun kulsam, bas!

Urug‘ sochib tuproqqa, ixlosimga yarasha,
Mehnat qilib, ter to‘kib, hosilini olsam, bas!

Og‘ir dardga yo‘liqib, shifo topsam o‘zgadan,
Uning mushkul kunida madadkori bo‘lsam, bas!

Go‘zallikka to‘ymas ko‘z, el-u kunim go‘zaldir,
El-yurt uchun qalbimni misralarga solsam, bas!

Qayda bo‘lsam, farqi yo‘q, judo bo‘lsam hayotdan,
Vatanimni e’zozlab, Vatan deya o‘lsam, bas!

HAQIQATMI?

Bir-birovga so‘z berdik — so‘zlaring haqiqatmi?
Hamda kular yuz berdik — yuzlaring haqiqatmi?

Ikki yuzli, uch yuzli, o‘n yuzli odamlar bor,
So‘z lazzati tuzdadir — tuzlaring haqiqatmi?

Dunyo bugun shundayin turfa rang-la bezandi,
Ko‘ksing uzra qo‘sha oy-nozlaring haqiqatmi?

Chin bo‘lsa gar gaplaring, yoqsa yoqsin dardlaring,
O‘z ko‘zidan joy bergan ko‘zlaring haqiqatmi?

Go‘yo telba bo‘lgandir olam-jahon ishqimdan,
Ishq yo‘lida qoldirgan izlaring haqiqatmi?

Sevgi sinovda so‘nar, so‘nsa so‘nsin, baribir,
O‘tsin mening qishlarim, yozlarim haqiqatmi?

DEDING – DEDIM

Deding: "Gullar ajoyib". Shul zahot dedim manam:
"Ming bora ajoyibsan sen o'sha gullardanam".

Deding: "Bu yuksak tog'lar yemrilar kelganda sel",
Dedim: "Yuraklar amri qudratli sellardanam".

Deding: "Bunchalar mayin navbahor shabbodasi",
Dedim: "Sen mayinroqsan yoqimli yellardanam".

Deding: "Mening qo'llarim lolalar tutsin mudom",
Dedim: "Tutsaydi shul qo'l gul bergan qo'llardanam".

•

AYLANAY

Go‘zal, charos ko‘zlaring bor,
ko‘zlaringdan aylanay.
Shirin-shakar so‘zlaring bor,
so‘zlaringdan aylanay!
Ol yonog‘ing ko‘z quvonchi —
yonoqlar gul noridir,
Nigohlarim poygohingda —
izlaringdan aylanay!
Zulflaring o‘rimlari
oshirar havasimni,
Tovon-to‘piq, bel-bo‘yin —
bo‘ylaringdan aylanay!
Ming bora nazar tashlab,
bir nuqsoning ko‘rmadim,
Bir g‘amli qalb boyligi —
nozlaringdan aylanay!

Jilmayib, bemor etarsan,
sen shundayin sahro ko‘ngil,
Qish bu chog‘-bo‘ston quchoq —
yozlaringdan aylanay!
Tushga kirib tovlanarsan —
go‘yoki sehrli mor,
Sarvdek qomating-la
bozlaringdan aylanay!
Go‘zal deb aytmasdilar
yo‘q bo‘lsaki ko‘rmoq ziyod,
Jannatiy ko‘rki muqaddas —
tuzlaringdan aylanay!
Sabr-u qarordan ayrilgan,
ol bu Ahmad jonini,
Sensiz ul joning na darkor? —
o‘zlaringdan aylanay!

INONDIM

Sen mendan o'pkalabsan, sevganingga inondim,
Ginalidan ta'ma qil, deganingga inondim.

Go'zal qizning ginasi go'zal bo'lur aslida,
Go'zallikka mehringni berganingga inondim.

O'z-o'zimdan ezilib, kezib yurdim, ajabo,
Pinhon ko'nglim talvasin sezganingga inondim.

Diydalarim ashkidan yaralgan dengiz — qalbga,
Chuchuk suvli daryodek quyganingga inondim.

•

"Ket" debon azm etasan, gohi men bechoraga,
El-kundan uyalibon quvganingga inondim.

Shoh qasridan ziyoda ko'shki ayvon senda bor,
Yurak otlig' ul ko'shki ayvoningga inondim.

Shukr Alloh, boshginam ko'kka yetmishdir, bois:
Sening ham "Ahmad!" debon kuyganingga inondim.

SENING ISHQINGMI?

Kun botib samoda oy ham ko'rindi,
Bu— sening ishqingmi, sening ishqingmi?
Gullar xushbo'y iforini taratdi,
Bu— sening ishqingmi, sening ishqingmi?

Yaproqlar bir-birin o'par shivirlab,
Tomchilar ohista berishadi lab.
Buloqlar tirqirar yoqimli kuylab,
Bu— sening ishqingmi, sening ishqingmi?

Ellar sayilgohga qo'yib ishtiyoq,
Bog'larga borishar shodon va quvnoq.
Aslida go'zallik bo'larkan shundoq,
Bu— sening ishqingmi, sening ishqingmi?

Biri birlariga ko'z qisib, jo'shib,
Yulduzlar o'zaro maftun-u oshiq.
Nogoh bizdan beizn yopildi eshik,
Bu— sening ishqingmi, sening ishqingmi?

Chiroq o'chdi...aslida bo'lmadi yomon,
Bag'rimga bosdim men gulim shu zamon.
O'tdek lovullaydi yuragim hamon,
Bu— sening ishqingmi, sening ishqingmi?

Ahmad seni qaymoq, yog' aylab sevdi,
Ko'ngil mulkidagi bog' aylab sevdi.
Ta'rifingni so'nmas cho'g' aylab sevdi,
Bil, mening ishqimni, mening ishqimni.

QAQABOY QURBONMURODOV

(1945)

1945-yilda Murg'ob tumanida tug'ilgan. Maxtumquli nomidagi Turkman davlat universitetida, so'ngra Moskvadagi M. Gorkiy nomidagi adabiyot institutining aspiranturasida o'qigan.

O'ttizdan ortiq she'riy kitoblari nashr qilingan. Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Gulchehra Jo'rayeva, Oydin Hojiyeva she'rlarini turkman tiliga o'girgan.

Filologiya fanlari nomzodi, Berdi Kerboboyev nomidagi mukofot sovrindori.

YASHAYMAN

Bilib qo'ygan yaxshi kimning kimligin,
Bilasizmi, qanday — nechuk yashayman?
Donolar durdona pand — nasihatin
Ma'nosin o'zimcha chaqib yashayman.

Kezmadim gerdayib yo halimsirab,
Olmadi ko'nglimni shumliklar o'rab,
O'zim bilganimcha boshimni qo'rab,
Kunda ming bir yonib — o'chib yashayman.

Choshga — chosh degayman, gardiga gard ham,
Yetgan kas yo'q shuhrat izidan hech dam,
Hech kimdan emasman ortiq yoki kam,
Ruhim baland, ko'nglim ochiq yashayman.

O'zgaga nur solmas o'zi yonmagan,
Elga naf bermagay eldan olmagan,
Ixlosim singmagan, terim tommagan,
Xarom — xarishlardan qochib yashayman.

Tashvish ko'p. Bariga parvo qilmayin,
Mayda-chuydalarga asir bo'lmayin,
Bo'sh misra bitishni ko'zga ilmayin,
Ilhom bodasidan ichib yashayman.

Yaxshini qo'llashda ikki poy bo'lib,
Hamrohim hamisha xayol — o'y bo'lib,
Bir so'zli, g'ururli Qaqaboy bo'lib,
Neki bor yangidan ochib yashayman.

DILBAR

Sevdim seni, nozli dilbar,
Qo'yni bahor, yozli dilbar,
Azoblaysan buncha, avval,
Yoqqanlaring ozmi, dilbar?

Sezmading vafoni, dilbar,
Ko'rmadim safoni, dilbar,
Bu yoniq yuraklarga,
Bir chora topali, dilbar.

Vaqt kelar — kechar, dilbar,
Yaproq banddan ko'char, dilbar.
Qalbimizda ishq daraxti
Qachon gulun ochar, dilbar?

Ishq yo'li keng yo tor, dilbar,
Oz emas xavf-xatar, dilbar,
Oshiq yigit ahvolini,
Qilma bundan battar, dilbar.

Qalbim aylab dog'li, dilbar,
Kezsang, ko'ngling chog'mi, dilbar?
Bu savollar javoblari,
Faqat senga bog'li, dilbar.

TO'RTLIKLAR

Orzularim naqshlab bu juvon ko'ngilda men,
Yashayapman tashvishi boshdan oshgan kunda men.
Agar qalbimga ko'ra tole muyassar qilsa,
Zig'ircha uyalmasman kelajak oldida men.

* * *

Goh qishlog'im sog'insam,
goh shahrimga bandi men,
Ulardan birin tanlay olurmanmi endi men?
Ul biri mehr koni, suyanchig'im ul biri,
Ikki onaning kamol topdirgan farzandi men.

* * *

Kimlar sal-pal zotga or qilib yurar,
Kimlar gavhar, durni xor qilib yurar,
Kimlar bor aqlini yana peshlarkan,
Kimlar ahmoqlikni kor qilib yurar.

* * *

Yigitning oqko'ngil, harbobi yaxshi,
Yashashga yurtimning Murg'obi yaxshi.
Fikr — o'yim bayon qilarga ixcham,
Quyulgan saqqodek ruboiy yaxshi.

BAHORGUL KARIMOVA

(1945)

1945-yil Karki (hozirgi Otamurod) tumanining Govak qishlog'ida tug'ilgan. Shoiraning "Ona mehri", "Dunyo tabassumi", "Ko'ngil", "Umr o'ylari", "Ishq daftari" kabi kitoblari nashr qilingan. Ko'plab she'rlariga kuylar bastalangan.

"Vatanga bo'lgan sevgisi uchun" medaliga sazovor bo'lgan.

ULUG'LIK

Ona tuproq ulug' ne'mat chashmasi,
Shakli quyosh-dasturxonda nonimiz.
Hayotning boshidir bu tuproq bu yer,
To'ydirar, kiydirar, saqlar jonimiz.

Suvlarning qudrati buyukdir juda,
Suvdir tabiatga jon baxsh aylagan.
Ma'ni bormi suv bo'lmagan tuproqda,
Suv hayotdir borliqni naqsh aylagan.

Ona Vatan buyuk — unda jam mudom,
Asrlarga tengdosh umr ma'nisi.
yer yuzida eng suyukli narsaning,
Vatanga teng bo'lmas bari-barisi.

Inson martabasi ulug'dir bizda,
Ham ulug'dir Qoraqumning havosi.
Turkmanning ko'ksini ko'kka ko'targan,
Ulug' qavmimizning tilak-duosi.

TILGA KELDI

Yaxshilikdir, g‘am-g‘ussalar yo‘q bo‘lsa,
Qorning och bo‘lmasa, ko‘zing to‘q bo‘lsa.
Qora nafsing emas, insof ko‘p bo‘lsa,
Hamisha shod bo‘lsang, ishing xo‘p bo‘lsa,
Qahratonda o‘chog‘ingda o‘t bo‘lsa.

Odob ikromingni saqlasang asl,
O‘g‘il-qiz quvonsa shudir yoz fasl.
Ko‘ngling gulzorlarda yurganday bo‘lar,
Ham dunyo shodlanib turganday bo‘lar.
Ota yurtim mana shunday borlidir,
Bundan ulug‘ baxt degani bormidir?!

QIZIMAN

Dunyo ko'z oldimda hamisha go'zal,
Fasllar bahori yoziman, yozi.
Ota-bobom boshlagan bu turmushda,
Ko'ngillar naqshining o'ziman, o'zi.

Osmon gumbir-gumbir qoqar dovulin,
Bulutlar dur qilib to'kar hovirin.
Tinglang g'unchalarning shovir-shovirin,
O'shal gulg'unchaning noziman, nozi.

Kun chiqib ko'rkini ko'z-ko'zlar maydon,
Go'zallik libosin kiyibdi har yon.
Osuda zaminim gul ila rayhon,
Turnasi o'rdagi g'oziman, g'ozi.

Olg'a bosdim qaytmam aslo yo'limdan,
Vatan bayrog'ini qo'ymay qo'limdan.
To'ylarning ovozi o'ng-u so'limdan,
Yangragan maqomi soziman, sozi.

Charog'on o'lkamda ko'payar oshiq,
O'tmishi donolik, kelgusi yoshlik.
O'zgarishi o'sishlarga bog'lashiq,
Baxtli zamonaning qiziman, qizi.

DAVRONA TUSHDI

Zamonlar aylandi baxtli turkmanning,
Nurli qorachig'i ummona tushdi.
Dalalari bo'ston, cho'li gulzorlik,
Yo'llari ezgulik farmona tushdi.

Endi o'z turmushin qo'shiq, soz etar,
Osuda kunlarin qo'ynin yoz etar.
G'ayrati, shiddati bir ovoz etar,
Nurlari hattoki osmona tushdi.

Hech kim unga tengmas saxt-u sumbatda,
Bizda odam martabasi qimmatda.
Neft-gazda, madaniyatda, san'atda,
Bugun shon-shuhrati har yona tushdi.

Turkman olqish aytar Orqatog'ina,
Yurakdan quvongan shamchirog'ina.
O'lkamiz o'xshaydi Eram bog'ina,
Elim shunday ajib davrona tushdi.

QURBONNIYOZ TOSHQIN

(1948)

Ko'hna Urganch shahrida tug'ilgan. O'ttizga yaqin kitoblari nashr qilingan. Takuboku, F. Tyutchev, A. Blok, E. Vohidov, A. Oripov va boshqa bir qator shoirlarning asarlarini turkman tiliga tarjima qilgan.

Mullanafas nomidagi adabiy mukofot sovrindori.

"OTA, YAXSHİ KO'RAR EDINGIZ..."

Ota, yaxshi ko'rar edingiz biram,
Maxtumquli Qorli aytimlarini.
Endi ul aytimlar yodga soladir,
Baxshi haqda xalqning aytganlarini.

"Radioni o'ylab topgan odamni,
El-yurti siylasin, hamma siylasin!..
Har gal men bir yashab qolaman, undan
Eshitganda Maxtumquli Qorlining.

Dast qoqib boshlasa...
Go'ro'g'libekning,
Bedov oti — G'iri tushar yodingga,
Zuhra-Tohir zori tushar yodingga,
Kechmishlarning bari tushar yodingga!..

Usiz o'tmas edi eng ulkan to'ylar,
Zo'r edi-da bu baxshining san'ati.
Fashist bilan bo'lgan urush yillari,
El-yurt ichra oshib ketdi shuhrati.

Dushmani ham tan olardi ovozin,
Soz-san'atning olmas bir jahoni yo'q.
Bitta misol: shu baxshiga shogird bo'p
Yurganlarning Xiva yoqda soni yo'q..."

Ota, sizlar yaxshi ko'rar edingiz,
Maxtumquli Qorli aytimlarini,
Mana, sizni yodlab, eslab turibman,
Baxshi haqda xalqning aytganlarini.

UCH YUZ OLTMISH AVLIYO

Boshimizdan shunday kunlar ham o'tdiki,
Ko'hna Urganchdagi "360 avliyo"
qabristonini o'z nomi bilan aytolmas edik...

Alloh amri ila yangi davr indi,
Erkin yozay, ixtiyorim bor endi.
Sizlar bilan qilay iftixor endi,
Sizlar uchun so'zlar topay xush kalom —
Uch yuz oltmish avliyom!

Ko'rgulikning ko'pi o'tdi boshimdan,
Shukur aylay, ko'l to'lsa-da yoshimdan.
Uch kun so'zim chiqmas edi ichimdan,
Ismingizdir tilda sano bul ayyom, —
Uch yuz oltmish avliyom!

Otam faqir dil-yurakdan tuyardi,
Qudratingiz qulog'imga quyardi,
U sizni "ikkinchi Ka'bam" deyardi,
Qiyin kunda ko'mak tilardi mudom,
Uch yuz oltmish avliyom!

Yashasam ham bugun o'zga shaharda,
Uzoqmasman, yaqindirman ko'p marta,
Dunyo meni g'amga ko'msa agarda,
Sizga sig'inib, sizga bag'ishlay duom,
Uch yuz oltmish avliyom!

Avliyoli elning men ham bir o'g'li,
Pok bo'lsin deyman-da el-yurtning fe'li,
Qayda yursam, boshim silar Haq qo'li,
Siz qo'llaysiz, xotirjamman men tamom,
Uch yuz oltmish avliyom!

Ko‘rar ko‘zga qadim yodgorlikdir bu,
Meros qolgan qadriyatlar axir bu,
Bari ilohiydan noyob, nodir bu —
Qutlug‘, sirli, aziz, tabarruk dunyom,
Uch yuz oltmish avliyom!

* * *

Erkka ega bo‘ldim — el sabab bo‘ldi,
Dardga duchor bo‘ldim — til sabab bo‘ldi.
Bor ekan har zotning vaqti, makoni,
Yorga sevikli bo‘ldim — gul sabab bo‘ldi.

* * *

Yaxshi ko‘zlar uchun makon — go‘zallik,
Ham yovuzlar uchun paykon — go‘zallik.
Go‘zallikka qul qilsalar, qiynalmam,
Ilhomga tuganmas do‘kon — go‘zallik.

TIRKESH SODIQOV

(1948)

Maxtumquli nomidagi Turkman davlat universitetida o'qigan. Turli yillarda Ko'hna Urganch tumanining "Oq oltin", Dosho'g'iz viloyatining "Dashoguz xabarlari", "Edebiyat ve sungat" gazetalari, "Yashlik" ("Юность"), "Garagum" jurnallari tahririyatlarida, Turkmaniston radiosida, "Turkmenistan" nashriyotida ishladi.

"Sening xatlaring", "Tuzning bahosi", "Majnuntol", "Sevmaslik mumkin emas" kabi she'riy to'plamlari nashr qilingan. She'rlari rus, belarus, ukrain va turk tillariga tarjima qilingan.

Turkmaniston Fanlar akademiyasi Maxtumquli nomidagi Til va adabiyot institutida, Turkmaniston Fanlar akademiyasida, Maxtumquli nomidagi Turkman davlat universtitetida ishlagan.

VATAN

Kamoliga yetdi zehnim, badanim,
Oraladim dala-chelingni, Vatan.
Meros qolgan pandin olib padarim,
Yorog'ga almashdim belimni, Vatan.

Bag'ringda yonimga yondoshmas g'ussa,
Mangulik shuhrating ayladim nusxa,
Kecha-bugun besh-u erta o'n hissa,
Sevdim seni, sevdim elimni, Vatan.

Muqaddas nomingdir qalbimga naqsh,
Nur bo'lib yog'arman, istasang yog'ish,
Sening baxting uchun qilurman baxsh,
Yoshlikning tug'yonli selini, Vatan.

Tepkilamoq istab aziz tuprog'im,
Qaysi jangboz qoqsa urush dafragin,
Tayyorman to'sishga kerib ko'kragim,
Chanalgan yorog'ning nilini, Vatan.

Bu go'zal ko'rnishni qo'ramoq uchun,
Bu go'zal turmushni qo'ramoq uchun,
Buyuk yuksalishni qo'ramoq uchun,
Mahkamroq bog'ladim belimni, Vatan.

MEROS

Otam moshin meros qoldirmadi, yo‘q,
Yo pishgan karbichdan qurilgan hovli.
U bir dehqon odam,
Dehqonning o‘g‘li.

Otam boylik meros qoldirmadi, yo‘q,
Pul qo‘ymadi oltin-kumush, zar bilan.
Yarim pudlik bel tutqazib qo‘limga,
“Tillash, — dedi, — tuproq bilan, yer bilan”.

“Eldan ortiq bo‘layin deb urinma,
Mayda havaslardan bo‘lgin dedi,— sof”.
Hamda uch narsani qoldirdi meros:
El-kunga muhabbat,
Qanoat,
Insof!

Otam shuhrat meros qoldirmadi, yo‘q,
Biroq qalbga ko‘p zot quyib ketdi u.
O‘zida yo‘g‘ini qaydan yo‘ndirsin,
O‘zida borini qo‘yib ketdi u.

Bizga otalardan qolgan narsa ko‘p,
Munosib farzandmiz — ular davomi.
Padarlar meros deb qoldirgan bizga,
Musaffo osmon-u ochiq havoni.

Otalar otining tuyog‘i teggan,
Bepoyon sahrolar bizgadir meros.

Qizlar darasiga kelib gul yig‘gan,
Tog‘lar-u daryolar bizgadir meros...

“Menga katta meros qoldirmabsan” deb,
Behuda gap aytdim,
Kechir,
Bu — xato!
Axir, shu qoldirgan zotlaringga teng,
Boylikning bo‘lishi mumkinmi, ota!

AYOLLARGA ORZULARIM

Borliqqa o'zingiz baxsh etgan chiroy,
Siz bilan so'limdir bahorlar, yozlar.
Istayman, eng yaxshi orzular aytay,
Sizning sha'ningizga,
Kelinlar,
Qizlar!

Xo'sh, neni orzulay Sizga, atayin?
Turfa-turfa, ular, sig'mas olamga...
Men sizga o'shani orzu qilayin —
Neni orzulagan bo'lsam onamga.

Bu umrimda qancha shodligim bo'lsa,
Siz sherik,
Siz sabab ular — borimga...
Men sizga o'shani orzu qilaman —
Neni orzulagan bo'lsam yorimga.

Bo'lgandir tepamda qanotin kergan,
Lek u tug'ishgandek yaqinmi dilga!
Men sizga o'shani orzu qilaman —
Neni orzulagan bo'lsam singlimga.

Inson umri shirin-shavqli bir to'ydir,
Siz mengzab turibsiz qo'shiq-soziga,
Men sizga o'shani orzulay — ota,
Neni orzulagan bo'lsa qiziga.

Borliqqa o'zingiz baxsh etgan chiroy,
Siz tufayli so'lim bahorlar, yozlar...
Istayman, eng yaxshi orzular aytay,
Sizning sha'ningizga,
Kelinlar, qizlar!

SENING XATLARING

Bugun xat keltirdi yana pochtalyon,
Qishloqdagi qo'shnimizning qizidan.
Go'yo, maktub emas, baxt bergan kabi,
Qarab qoldim pochtalyonning izidan.

Kutmagan shodlikdan to'lqinlanib, ham
Sabrim chidamayin o'qiyman ochib.
"Qalaysan, shaharga o'rganishdingmi?
Ketvarding-a qishloqdan qochib!

Imtihonlar ko'pmi, yaqinlashdimi,
Topshiryapsizlarmi "besh"likka, nuqul?
Biz ham ishlayapmiz, boxabardirsan,
Terimda bahsdoshim o'sha Sarigul.

Qishloqda u qadar yangilik ham yo'q,
Xolamlar ketishdi shaharga ko'chib.
Bu yerda ob-havo namliroq biroz,
U yoqda havoning avzoyi nechuk?

Eslaysanmi maktab yillarimizni,
U kunlarni, alhol, unutdingmi, yo?
Mayli, qayda bo'lsang,
sog' bo'l, omon kez,
Senga salomatlik tilovchi: "Dunyo..."

...Mana, yana o'sha eski hangoma,
Xo'sh, nimaga kerak havoning holi?!
Bu gal ham, qarang-a, avvalgidayin,
Javobsiz qolibdi to'yning savoli.

Netay, xat yozaman xatingga ko‘ra,
Tag‘in, men zoriqib xatni kutaman.
Yo‘q, faqat xatnimas, menga yo‘llanar,
Xush so‘zing — u buyuk baxtni kutaman.

...Mana, yana sendan kelibdi maktub,
Yuragim hapriqa o‘qiyman ochib.
Eh...tag‘in o‘sha gap: “Qalay, Ashxobod,
Qishloq iliqqina, osmon ham ochiq...”

OTAMUROD OTABOYEV

(1948)

Mari viloyatining Ko'kcha qishlog'ida tavallud topgan. Shoirning "Diyorim", "Seni sevmasam agar", "Quyoshning chiqishi", "Osmon qadar teran", "Qumsoat" singari yigirmadan ziyod she'riy to'plamlari nashr qilingan. Adabiyot sohasidagi xizmatlari uchun bir qator mukofotlar bilan taqdirlangan.

Muqaddas Qur'oni karimni D. Karimov bilan birga turkman tiliga o'girdi. Jahon adabiyotining taniqli shoirlari — A.S. Pushkin, M.Y. Lermontov, S.A. Yesenin, J. Bayron, I.V. Gyote, F. Shiller, R. Kiprin, T. Shevchenko, R. Hamzatov va boshqa o'nlarcha shoirlarning she'rlarini tarjima qildi.

Shoir rus adabiyotini targ'ib qilishdagi xizmatlari uchun Rossiya Federatsiyasi Yozuvchilar uyushmasining "Yeseninning oltin medali" mukofotiga ham sazovor bo'ldi.

SHE'RIYAT

She'riyat —sohibjamol qiz,
Men seni sevib ketarman.
Sensiz men qolarman yolg'iz,
Ishqingda kuyib ketarman.

Sevib, bulbul kabi sayrab,
Ta'rifingga so'zlar saylab,
Aylanib-o'rgilib, yayrab,
Ko'nglimni to'kib ketarman.

She'riyat —sensan bir pari,
Shoirlarning qalb dardlari.
Sen meni qo'ymassan nari,
Men seni qo'yib ketarman.

BIZNING ELDA

Bahor kelgach, lolalarning,
Jomiga sharob quyarlar.
Bizning elda ko'ngillarning,
Shodligin oldda qo'yarlar.

Ortiqliging, kamligingni,
Jipsliging — jamligingni,
Nimaliging, kimligingni,
Ko'zingga qarab, tuyarlar.

Aldov, hiyla-yolg'oni yo'q,
Bo'lsa-da, ko'p qolgani yo'q.
Dilbarlarning yonog'i cho'g',
Yigitlar yonib-kuyarlar.

To'ylari bor qiziq-qiziq,
Xayolingni olar o'zi.
Qizlari kiyar qirmizi,
Kelinlar yashil kiyarlar.

Kuy-qo'shig'i lazzatlidir,
Bedovlari xizmatdadir.
Mehmon kelsa, izzatdadir,
Poyiga jonliq so'yarlar.

Tip-tiniq suvlar oqarlar,
Uylari qator-qatorlar.
Ko'p-ko'p ishlab, oz yotarlar,
Oz so'zlashib, oz yeyarlar.

Yaxshi kishi topar hurmat,
O‘tganlar qilinmas g‘iybat.
Bo‘lsang hamki olihimmat,
“Yana-da soz bo‘l!“ deyarlar.

Ko‘rinar yuz-ko‘zing elda,
Bilinar har so‘zing elda.
Shoir bo‘lsang bizning elda,
She’ring o‘qib, so‘ng suyarlar.

SEN NE UCHUN

Sen ne uchun she’r yozasan, parizod?
Sening o‘zing qo‘shiq, shirin bir ovoz.
Sen ne uchun she’r yozasan, parizod?
Erkimga qo‘ymaydi meni shu savol.

Men-ku yonib, she’riy satrlarimni
Senga yoqmoq uchun yozaman.
Senga yoqib bo‘lgach, salgina fursat
Ishq dardidan qutulmoq-chun yozaman.

Sen ne uchun she’r yozasan, parizod?

XOTIRA YOZUVCHIGA QO'LLANMA

Men oldin ketsam-u, sen so'ngga qolib,
Men haqda xotira yozar bo'lsang gar,
Jahonda bir mening mehrimga qonib,
To'ymay ketdi chin oshig'im — vafodor,
Deya yozgin xotirangning boshida.
"Faqat meni, meni sevib o'tdi", de.
"Hur-parilar bo'lsa hamki qoshida,
Mening ishqim bilan yonib ketdi", de.
"O'pib-quchdi" deyish shart ham emasdir,
Yozib yurma ishqning pinhon ishidan.
"Sevgan chog'i go'yo majnun telbadek,
Meni sevib, ketdi degin hushidan.
Bo'lmasa meningdek go'zal juvonni
Sevarmidi, oq sochidan uyalmay?
Men haqda ko'p she'rlar yozdi — quvondi,
Lekin ta'rifimni tugata olmay
O'tdi degin, ko'hna dunyodan yonib,
Juda mahkam yopishardi qalamga,
Tanildi bir mening madhimni yozib" —
Desang, so'zing hargiz chiqmas yolg'onga.
"Ganj-xazina bo'lmasa-da qo'lida
Xush so'zga boy edi" deb so'zing jamla.
Esingdan chiqmasin, yozgin so'ngida
"Chin shoir edi u" degan bir jumla.

TURKMANCHA QO'SHIQ

Sen olib ket bu qo'shiqni yoningda,
Ketsang uzoq-uzoq manzilga bundan.
Har dam yoring tushgan kabi yodingga,
Mudom dam olishing kabi men bilan.

Ushbu qo'shiq — yuragimning aksidir,
Shunda mening qayg'um, shodligim, dardim.
Bu qo'shiq — qalbimning cho'ng havasidir,
Men unga bor ixlosimni singdirdim.

Bunda hech boylikka almashlamasday,
Qumlarning armoni, g'ussasi bordir.
Bunda insonlarga qutlug' havasday,
Muqaddas xonadon qissasi bordir.

Bu qo'shiqda aziz o'lka javzosi,
Ham xalqimning qizg'in qoni oqqandir.
Bu qo'shiqda onalarning ixlosi,
Sening ketgan yo'llaringga boqqandir.

U mashaqqat kunda sening yo'ldoshing,
Quvvat berar, g'alabangga kuch berar.
Qay manzilda agar aylansa boshing,
Yana o'z yurtingga haydab keltirar.

VATANNI TUSHUNMOQ

Vatan, sening nima ekanligingni
Bola payt otamdan so'rab tushundim.
Ey qo'yni lolazor, ona makonim,
Senga, olovingni kovlab tushundim.

Vatanim, dunyoda sha'ning ulug' deb,
Qo'yningda ulg'aydim non-tuzingni yeb,
El tinchini dedim tinchligim sezib,
Ham sening baxtingni ko'rib tushundim.

Vatan, sening qo'shiqlaring tingladim,
Bu sevgini dengizlarga mengzadim,
Bor sevgimni bir o'zingga tengladim,
Bu fe'limni turib-turib tushundim.

Sevdim daryo, dala, maysa, tomirni,
Yodga solib Go'ro'g'lini, Keymirni,
Bir kun bo'lsa kiyib askar kiymini,
Men senga, men seni asrab tushundim.

OG'AGELDI OLLONAZAROV

(1948)

1948-yilda Taxtabozor tumanining Murg'ob qishlog'ida tug'ilgan. O'rta maktabni tugatgach, Maridagi pedagogika bilim yurtida o'qigan.

Moskvadagi Maksim Gorkiy nomli Oliy adabiyot institutida tahsil olgan. "Turkmenistan" nashriyotida, Turkmaniston Yozuvchilar uyushmasi, Turkman davlat kitob palatasida ishlagan.

Uning "A" yozaman", "Ot g'ayrati", "Uch mo'ylovli kapitan", "Ertaklar", "Quvnoq alifbo", "Cho'lning dengiz kunlari" kabi bolalarga atalgan, shuningdek "Yettita don", "Nor yuki", "Manzil", "Sevgi onlari", "Yo'ldan kelgan xat", "G'irot havolasi", "Qalbimga va olisga sayohat", "O'choq" kabi kitoblari nashr qilingan.

O. Ollonazarov asarlari jahonning turli tillariga tarjima qilingan.

SANOQ

Poda qaytar qishloqqa oqshom,
Sigirlarning qorinlari mesh.
Barmoq bukib sanay boshlayman:
Bir, ikki, uch, to'rt... to'rt, besh...
Olti, yetti, sakkiz deyman-u,
Adashaman sanoqdan shu tob.
Sakkizdan so'ng necha keladi?
Eslay olmay bo'laman xunob.
Hoy, sigirlar, shoshmay turinglar,
Shamoldayin uyga yelaman.
Qolganingiz qanday sanashni
Oyimlardan so'rab kelaman.

UKAM TUSH KO'RGAN EMISH

Ukam tushini so'zlab,
Lol qoldirdi hammani.
So'zladi qanday qilib
Yengganin akulani.
Oyimning ko'zlarini
Shu payt qopladi qo'rquv.
"Oh!" deb yubordi singlim,
Yuragi etgancha "shuv".
— Ishonmayman! — dedim-da,
Chiqib ketdim ko'chaga.
Oldi-qochdi gaplarga
Ishonay axir nega?
Shundoqqina yonimda
Uxlagan edi ukam.
Rost bo'lganda, bu tushni,
Ko'rgan bo'lardim men ham.

QARG'ANING O'TINCHI

Boshqa jonzot — qushlardan
Bilmayman, qayerim kam?
Ulardek oq tuxumni,
Yorib chiqqanman men ham.
Ba'zida turli-tuman
Xayollarga boraman —
Kim aytadi nega men,
Ko'mir kabi qoraman?

KA'BA SULTONMURODOVA

(1950)

Dosho'g'iz viloyati Gubadog' tumanidagi Gubadog' qishlog'ida tug'ilgan. Turkman davlat universitetida o'qigan. Matbuot sohasida ishlab keladi.

VATAN

Bahoring yoqimli, qishlaring malham,
Qorako'z ohular, qushlaring — ilhom,
Ko'nglim dutor aylab chalsam bir maqom —
Ul maqom seniki, seniki, Vatan!

Quvonsang quvonib, qiynalsang, dilxun,
Sovqotsang, o't bo'lib qizdirgum kun-tun,
Qonim siyoh aylab yaratgan butun,
Dostonim seniki, seniki, Vatan!

Ko'nglim orom olar ishingga ketsam,
G'ayrat-shijoat-la sinovdan o'tsam,
Tomrim tolasidan gilam to'qisam,
Ul gilam seniki, seniki, Vatan!

Qalbda g'urur shuhratingdan, shoningdan,
Quvonch oldim Sultoningdan, Xoningdan,
Eling uchun kech desalar joningdan —
Bu jonim seniki, seniki, Vatan!

MENING ELIM EDI

Baland boshi etaklarga egilgan,
Kamsitilgan, mag'rur beli bukilgan,
Bag'irlarga tuz sepilib tilingan,
Mening turkmanim-u mening elim edi.

G'ururi toptalgan, shoni olingan,
Gilami, bedavi, to'ni olingan,
Ona zabon, boylik, koni olingan,
Mening turkmanim-u mening elim edi.

Chordog'li Chandibel yurti olingan,
Go'ro'g'lidek jasur mardi olingan.
Bedav ruhiga jilov solingan,
Mening turkmanim-u mening elim edi.

Gumbazlari, binolari olingan,
Duolari, sanolari olingan,
Orasiga noahillik solingan,
Mening turkmanim-u mening elim edi.

Go'zal umrin turkman eliga bog'lab,
Jig'alibek otin parvozga chog'lab,
Buyuk sardorlarin yashagan xohlab,
Mening turkmanim-u mening elim edi.

YANA BAHOR KELDI

Yana bahor keldi, lolazor bahor,
Qushlarni qarshilab chayqalar tollar.
Bog'imizda qurilgan uy — inlarga
Qaytib kelmish xush ovozli bulbullar.

Bahoroyim, tashrifing bir o'zgacha,
Gul uforli qadamlaring go'zaldir.
Majnuntollar doston bo'lsa tillarda,
Qaymoq yanglig' o'rik guling g'azaldir.

Sayrga chiqdi go'zal sohibjamollar,
Diydasida muhabbatning sehri bor.
Keksalar ham avvalgidan boshqacha,
Yuragida ilk ishq o'ti barqaror.

NAVRO‘Z KELGANDA

Qalbga ilhom berar sarin yellari,
Turfa ovoz ila sayrar tillari,
Qut-baraka — tog‘dan ingan sellari,
Bu aziz diyorga Navro‘z kelganda.

Yigitlar mardona quvnoq ko‘rinar,
Qizlar nigohlari chaqnoq ko‘rinar,
Odamlar anchayin xushvaqt ko‘rinar,
Bu aziz diyorga Navro‘z kelganda.

Gul kashtali sahrolarim — tuzlarim,
Ko‘kda parvoz aylar o‘rdak-g‘ozlarim,
Ta’rifiga ojiz erur so‘zlarim,
Bu aziz diyorga Navro‘z kelganda.

OLQISH

Dunyoga keldim-u ochmasdan ko'zim,
Kindik qonlarimda jo bo'lding o'zing,
Tomringga qonim baxsh aylamayinmi,
Vatan?!

Bulbulgo'yo qushing oshiq Hamroning,
Ko'zin saqlagandek saqlasang jonim,
Jonimni joningga boylamayinmi,
Vatan?!

So'zlariga ishq yo'g'rilgan jahonim —
She'rlar ato etding obro'yim-shonim,
Madhingni to abad so'ylamayinmi,
Vatan?!

ILHOM

Borlig'im jumboq, sen javobimmiding,
Guvohimmi va yo savobimmiding,
Erkimni sindirgan tavofimmiding,
Nimasan, nimasan, nimasan, ilhom?!

Kelding, dutor yanglig' ovoz ayladim,
Go'zal dunyolarga parvoz ayladim,
Nochor boshim senga hamroz ayladim,
Nimasan, nimasan, nimasan, ilhom?!

Ayol boshim uzra sochib nurlaring,
Berding menga taqdirini hurlarning,
Senikidir bor bisotim — durlarim,
Nimasan, nimasan, nimasan, ilhom?!

Maqsadimmisan, yo xush o'yimmisan,
Farzandim, og'aynim, teng — toyimmisan,
Izimdan qolmading, toleyimmisan,
Nimasan, nimasan, nimasan, ilhom?!

Sen sayyoddek diydaboning quribsan,
Oyoqdanmas, naq yurakdan uribsan,
Asiringman, xizmatingda turibman,
Nimasan, nimasan, nimasan, ilhom?!

MIVE TUVAQBOYEVA

(1952)

Dosho'g'iz viloyati, Bo'ldimsoz tumani Quvonch Otaboyev nomidagi qishloqda tavallud topdi.

Mive Tuvaqboyevaning "Sahro qizi" (1981), "Belanchak" (1986), "Non ta'mi" (1991) kabi she'riy to'plamlari va bir qancha ilmiy-publitsistik asarlari chop etilgan.

VATANIM

Oltin dalalaring peshonang teri,
Oltinqo'l dehqonlar undirgan zari,
Bog'-u bo'ston — cho'li, yaylovi, yeri,
Ko'zim qarochig'i, mening Vatanim.

Sahro-yu cho'llaring bag'ri keng,
cheksiz,
Yosh yigit-qizlaring ijodkor tengsiz.
Donolaring aytgan hikmatli har so'z,
Yuraklar quvonchi, mening Vatanim.

Ota-bobolaring qoldirgan meros,
Asrlardan sado berar-gulduros.
Bugun Uyg'onishlar davri bizga xos,
Istiqlol ishonchi, aziz Vatanim.

Shod-quvnoq bolalar borar maktabga,
Kattalar hurmatda, kichik izzatda.
Istiqlolga umid etgan, albatta,
Ko'ngillar sultoni, aziz Vatanim.

Keksalari dono, aziz, muhtaram,
Duogo‘y onalar mehribon biram.
Uyg‘onish — xalq yo‘li,
bunda ko‘p karam,
El-u yurt tayanchi, aziz Vatanim.

Ma’rifat shoh yo‘li — turkmanga ayon,
El o‘g‘li — Prezident tayanchim, qoyam.
Do‘stlarga qo‘l berib, dadil boraman,
Turkmanning faxrisan, aziz Vatanim.

ODAMLAR ORASIDA

Dengizlar achchig'in, chuchugin totgan,
Chorloqlar misoli suyagi qotgan,
Men insonman ezgulik-la baxt topgan,
Odamlar orasida.

Gohi o'tgan kunlar xatosin sezdim,
O'zimcha yashadim, o'zimcha kezdim.
Ma'nosin izladim har dono so'zning,
Odamlar orasida.

Betaqlid yashadim hayot yo'limda,
Suyanib yashadim aziz elimga,
Baxt topdim yaxshi niyat — fe'lim-la,
Odamlar orasida.

Goho qayg'u chekdim, qalbim poralab,
Yashamadim nopoklarni soyalab,
Vatan, sening tuzing yedim halollab,
Odamlar orasida.

El-yurt shodligini ko'rib yuksaldim,
Taqdirda ne bo'lsa, men uni oldim,
Halollik, poklikning qadrin biloldim,
Odamlar orasida.

Yuksaklarda bilib oddiy martabam,
Ojizlarga qo'lim berib ketarman,
Hali manzil uzoq, ko'p yo'l o'tarman,
Odamlar orasida.

Kimlar otar bo'ldi aldov halqasin,
Kimlar madad berdi, Tangri yalqasin,
Bayroq qilib yashang inson sarposin,
Odamlar orasida.

SUBH YELLARI

Kunchiqar o'radi alvon ro'molin,
Osmon yerga naqd ayladi jamolin.
Lovullaydi tong yulduzi, hilolim,
To'xtatsang-chi uni, subh yellari.

Tarqalgandi endi qishning tumani,
Erta bahor olib kelding turnani.
Sening kuying tinchlantirar ummonni,
Maqomlaring malham, subh yellari.

Majnuntollar egib turar boshlarin,
Tinchin buzib sho'x-sho'x qaldirg'ochlarni,
Silab-siypalaysan *sunbul sochlarni*,
E'zozlab esaver, subh yellari.

Hukmron kechaga yasalib yakun,
Qaylarga yo'qoldi yulduz to'la tun?
Quchog'ingga olib borliqni butun,
Uyqudan uyg'otgin, subh yellari.

Men o'z taqdirimdan norozimasman,
Gullarni hidladim, ishqida mastman.
Salom yo'lladim men ezgu ixlosdan,
Yetkazing salomim, subh yellari.

Oppoq tongda sayroq qushlar ovozin,
Jonga lazzat, shifobaxsh havosin,
Qalbga quyib, jo'shdir ilhom daryosin,
Sen mening orzuyim, subh yellari.

Ko'rib kunchiqarning alvon shafag'in,
Esladim hayotning bergan sabog'in.
Men sevgan yigitga sensan choparim,
Yoshligim va sevgim, subh yellari.

QALBIMDA BAHOR

Yana yuragimda jo'sh urdi bahor,
Diydalarda chirpinganda dengizlar.
Sevgi xumoridan chaqinlar chaqar,
Majnuntollar shivirlashgan chog' — kezlar.

Jilolanib bahor kelgach zaminga,
Erib bitdi qattiq tuyg'u toshlari.
Mayin shamol, sen bog'larni ardoqla,
Hamda olib kelgin oppoq qushlarni.

Navbahorda ushalganda orzuyim,
Xayollarim oq bulbullar yonida.
Nish urgan maysalar, kulgan iqboli,
Ishqim ko'rdim g'unchalarning labida.

Eh, erkatoy shamol, shifobaxsh shamol,
Avvalgidek o'ynasang chi sochlarim.
Umrim bahorini takrorlab, qushlar,
Ovoziga jo'r bo'lishga boshlagum.

Yomg'ir yog'ar, ko'chalarda raqs aylar,
Bu yomg'irmi, yo muhabbat maqomi?!
Osmon yerga sevgisini baxsh aylar,
Insonga o'rgatib ahd-u vafoni.

MAMATNAZAR BOBONAZAROV

(1954)

Dosho'g'iz viloyati Ilonli (hozirgi Gurbonsulton eje) tumanidagi "Qizil taqir" qishlog'ida tug'ilgan. Turkman davlat universitetida, so'ngra Toshkent oliy partiya maktabida o'qigan. Matbuot sohasida ishlagan. Uning "Oshiq Oydin", "Gullar dengizi", "Ojizlik qilma, ko'nglim" kabi kitoblari bosilgan.

ILTIMOS

Chashma engandayin bo'lsin ko'nglima,
Menga "Go'ro'g'li"ni o'qib ber, o'g'lim.
Odam o'g'li mard deb tog'ga yukunar,
Menga "Go'ro'g'li"ni o'qib ber, o'g'lim.

Umrlar, davronlar parda-pardadir,
Vatan qoningdadir, nomus sardadir.
G'ayrati qoyada, ko'ngli yerdadir,
Menga "Go'ro'g'li"ni o'qib ber, o'g'lim.

Adashmish, albatta, xom sut emgandir,
Lekin marddir, boshin egib kelgandir,
Ko'ngil mumiyosi, eldan bo'lgandir,
Menga "Go'ro'g'li"ni o'qib ber, o'g'lim.

Turkmanning quvonchi, xayoli-yodi,
Qishlarda mardona qo'rabdir yozi,
Dushmanga qilich-u sirdoshga sozi,
Menga "Go'ro'g'li"ni o'qib ber, o'g'lim.

Tong turib, kech yotdim, surdim davronni,
Yozim yoz bo'lsin deb urdim javlonni,
Qaddiga keltirsin qari gavdamni,
Menga "Go'ro'g'li"ni o'qib ber, o'g'lim.

ISHLAYLIK

Ishlaylik,
Bu yerlar siypalanganday,
Et — qoniga kirsin, asliga qaytsin.
Ko'ngliga nur inib, kiftin yozganday,
Sumbatli kelbati — bastiga qaytsin.

Ishlaylik,
Ustida qaldirg'och qo'yib,
To'rg'aylar sayrashgan maydonlar ichra.
Bo'lsin bog'larimiz nomiga loyiq,
Yaxshimiz yashasin rayhonlar ichra.

Ishlaylik,
Tomrimiz yayrasin, o'ssin,
Dunyoda teng yo'qdir halol teringga.
Qalbi cho'ng ayollar quvonsin so'zsiz,
Po'latdek toblangan erkaklariga.

Ishlaylik,
Aslimiz mehnatkash yo'qsil,
Yo'g'imiz borlansin, ortsin borimiz.
Ishning bizdan boshqa xo'stori yo'qdir,
Ish bizning jonajon xovandarimiz.

Ishlaylik,
U qalbga qanoat berar,
Ishlaylik — olganing ilk saboq bo'lsin!
Asli biz tuproqdek chiroylikdirmiz,
Tuprog'imiz bizdan ham zeboroq bo'lsin!

SHUKUR BAXSHI

Huzuringga keldim hukmirovon sho,
Belashkar, betillo-bir qora boshim.
Ista dushmanim de, mehmonim de, yo,
Yelkamdagi dutor — bor yarashig'im.

Otim bor-orqalar do'stim, keragim,
Dutorim elimning yuragi yoniq.
Shum tole boshimni egsa, suyagin,
Bir siqim tuprog'im eritar, aniq.

Dunyo juda qari jilva qilardan,
Hamda jon qotilgan to'yilmasdayin.
Etagimga boshim solib keldim man,
U boshqa etakka solinmasdayin.

SEVGI

Uzum g'o'rasiga inibdi shira,
Yuragim yoqimli mazaga moyil.
Aytilmay shirin so'z qolmabdi sira,
Men esa, takrorlab, qolaman qoyil.

Juvon ko'zlaringdan mehr oqqanday,
Quruq yog'ochda ham qo'shiq bor hatto.
Yer yuzida qolgan bir so'z aytilmay,
Hanuzgacha to.

KUZGI TUYG'ULAR

Bog'lar yonadir to'yingda,
Tilla munchoq oq bo'yinda,
Og'ochmi hu... yop bo'yinda,
Ulkan sariq gulmikan, yo?..

Qadding o'yga botgan kelin,
Ona misol ochiq qo'ling,
To'plagani sarin yelning,
Kuzgi quyuq bolmikan, yo?..

Ko'ngli yarim, nozikbadan,
Shoxchalarni egib ketgan,
Bu boshimga tegib ketgan,
Yaproqmikan,
Qo'lmikan, yo?..

Yana bulut tizim-tizim,
Ezil ko'nglim, shubha-muzim,
Bu yig'lagan senmi, kuzim,
Yo, ulmikan,
Ulmikan, yo?..

TOL

Qushlar ovozlanar shiydam egnida,
O'nglay olsa ular ra'yini yiqmas.
Odamlarga o'xshashlik bor ko'nglida,
Yaxshi-yomonliklar yodidan chiqmas.

Uzoqdan ko'rinar qora bir tusda,
Borlig'ida asli namoyon manga.
Tebranib qo'yadi gohida asta,
Mengzab kuydan sarxush bo'lgan turkmanga.

ANNATUVOQ QAQAYEVA

(1961)

1961-yilning 9-aprelida Dosho'g'iz viloyati Ko'hna Urganch shahrida tug'ilgan. Ashxobodda madaniy-oqartuv texnikumida o'qigan. Uning "O'zga baxt istamam", "Odobnoma", "Ruhiravon" kabi she'riy to'plamlari nashr qilingan. Turkmanistonning Maxtumquli nomidagi Yoshlar mukofoti sohibasi.

O'ZGA BAXT ISTAMAM...

Elim dardi yuragimda cho'g'lansa,
O'z dardim tortishga vaqt istamam.
Sahroyi tuyg'ular larzona kelsa,
Shohlik,
xonlik,
beklik,
taxt istamam!
Keltirmasam yurt boshiga malomat,
Bir yig'lab turganni qilsam himoyat,
Mayli, qo'psin boshim uzra qiyomat,
El baxtidan o'zga baxt istamam!.

DALAM

Xushbo'y ifor sochar gullar,
Erkalanib esar yellar,
To'y libosin kiygan ellar,
Sening ziynatingmi, dalam.

Ishq mayini ichib ketsam,
Aql-hushdan kechib ketsam,
Arsh-a'loga uchib ketsam,
Singan qanotimmi, dalam.

ISKANDARNING VASIYATI

(Rivoyat)

Ko'p kishvarni zabun qilgan Iskandar,
Ajal tepasida solganda soya,
Dedi, qavmin yig'ib, to'xtatib janglar:
"Mening ham umrimga yetdi nihoya.

Endi bir vasiyat qilayin menam,
Odam qutilmagay qismatdan-o'tdan.
Bexos to'lgan kuni mening paymonam,
Ikki qo'lim chiqib tursin tobutdan!

Beayov qon kechib, zulm aylab elga,
To'plagan bo'lsam-da behad ganj-boylik,
Qo'llarimga qarab, so'nggi manzilga,
Bo'sh ketib borishim ko'rsin xaloyiq!.."

NASIHAT

Chin yo‘lga tushdingmi — qaytma izingga,
Orzu shamchirog‘i so‘nib qolmasin.
Tog‘-u daradan o‘t qarab ko‘zingga,
Qismat boshginangga o‘yin solmasin.

Haq ishlardan ilhomlansin insoniyat,
Bor boylikka qanoat qil, to‘ygin sen.
El sirini fosh aylama, pinhon tut,
Sirin bermas mahak toshi bo‘lgin sen.

Bilgin, bu dunyoga kelmading sayla,
Ochni to‘q qil,
Dardli dardin daf ayla.
Yomondan qoch,
Savob ishni ko‘p ayla,
Qo‘y, dunyomiz badfe’llardin to‘lmasin!

INTIZOR BO‘LAR

Ko‘rganga tosh otib, elni bezdirgan,
Bir kuni xush so‘zga intizor bo‘lar.
Niyati yomonlar olar jazosin,
Qilmishi o‘ziga dard-ozor bo‘lar.

Yaxshisin yashirib, elga yoymagan,
O‘zgani o‘zidan ustun tuymagan,
Insonlik qadrini baland qo‘ymagan,
El-kunning mehriga, beshak, zor bo‘lar.

Azasida yig‘lab, tortganlar zorin,
Xalqiga baxsh aylab qo‘lida borin,
Xizmatida tursa el-yurt, diyorin,
Martabasi baland, baxti yor bo‘lar.

YURAK ISTAR

Madad bersang qadr bilmas nokasga,
Paytin topib izginangdan tosh otar,
Tuzoq qo'yib tuhmat-g'iybat gaplardan,
Sening qadam bosishingni "fosh" etar.

O'rgimchakdek yomon niyatda o'rib,
Fe'liga tunlarning qorasin berib,
Asta-asta yerning ostidan yurib,
Eshik tinglab qora ko'nglin "xush" etar.

Ilhom jo'shsa, bu — ko'ngilning shodligi,
Yurak istar har narsadan pokligi,
Xo'rozlar qichqirsa — tonglar sofligi,
Eshak hangrab yomonlikka duch etar.

VATAN HAQIDA IKKI SHE'R

1

Yurtim boshi yetdi ko'kka,
Dastin berib sinmas erkka,
Sohib erur tengsiz ko'rkka,
Ko'z tegmasin, ko'z tegmasin!

Shamoliga boqib turdim,
Avvalidan aziz ko'rdim,
Turkmaniston — go'zal yurtim,
Ko'z tegmasin, ko'z tegmasin!

Imorati qavat-qavat,
Chiroyidan ko'ngillar shod,
Oq binolar saf-saf, obod,
Ko'z tegmasin, ko'z tegmasin!

Minglab-minglab tonna g'alla,
Oq paxtaning taxti, illo,
Ko'zdan, tildan asra, Ollo,
Ko'z tegmasin, ko'z tegmasin!

Bolajonlar quvnoq, shodon,
Izin uzmay kelur mehmon,
To'ylar to'yga ulangan on,
Ko'z tegmasin, ko'z tegmasin!

2

Turmushimiz borho xushtob,
Odamlarning ishi shitob,
Baxt mayini qo'chovushlab,
Azizlikdan azizlanar!

Madhin aylab sayrar tilim,
Ochilgandir umid gulim,
Turkmaniston-ulus-elim
Azizlikdan azizlanar!

Mehring qo'zg'ab kunning dami,
Zarga do'nib zarra qumi,
Ko'rkam turmush jamuljami,
Azizlikdan azizlanar!

Minnatdorlik hissi yonib,
Yashamoqqa ishq uyg'onib,
Shonli kunlar shirinlanib,
Azizlikdan azizlanar!

Ko'ngillar rag'bati bilan,
Dardlilik shiddati bilan,
Buyuk Vatan toti bilan,
Azizlikdan azizlanar!

O‘ZINGDAN BOSHLA

Ich-ichingdan pishib uzun kechalar,
Ayta olmayotgan so‘zingdan boshla,
Faqat pokdomon dil quvnar shunchalar,
Haq-u nohaq yegan tuzingdan boshla,

Bir-birovga yuklab nohaq gunohni,
G‘amga mahkum etmay ota-onani,
Qo‘shiqqa chulg‘amoq bo‘lsang dunyoni,
Esdan chiqayozgan sozingdan boshla!

Hayot qizil gulday gullasin desang,
Sen ham o‘z hissangni qo‘shishga kelsang,
O‘g‘lingni qalinsiz uylamoq bo‘lsang,
Xolajon, avval o‘z qizingdan boshla.

Bilgil, har narsada bordir bir hisob,
Endi sen qayoqqa ketyapsan tezob?
Seni quvib yetar adolat, insof,
Ta’lim sabog‘in ham o‘zingdan boshla!

O‘RAZMUROT MURODOV

(1974)

Shoir va tarjimon O‘razmurot Murodov 1974-yili Ashxobod shahrida tug‘ilgan. Maxtumquli nomidagi turkman davlat universitetida o‘qigan.

“Nasil” gazetasida ishlaydi. Shoirning qator she’rlari turi xorij tillariga tarjima qilingan.

Xosiyat Rustamovaning “Kundaliklar”ini turkman tiliga tarjima qilgan.

“Ketar bo‘ldim, xush qol, go‘zal Sherg‘ozi”
Maxtumquli Firog‘iy

•

Firog‘iyning oyoq izi — bir marjon,
Yuraversam, toparmanmi — og‘ir g‘am?!
Yaqin borsam, sado berar, ingrar jon,
Behalovat mening yetim qovurg‘am.

Kubro kabi Ko‘hna Urganch boshiga,
Agar chiqsam, ko‘rinarmi Sherg‘ozi?
Sasim qo‘shib darveshlar ko‘z yoshiga,
O‘yin tushsam, kim duogo‘y — kim qozi?

Go‘yo Sharqdan chiqqan oyjamol misol,
O‘tirarsan gumbazlarni erkalab.
Sahar payti esgan bamisli shamol,
Uzuq-yuluq saslar kelar ertalab.

Yoki o‘ylab topib fitna-fasodni,
To‘siq qo‘yarlarmi?

Havas haqiqatga
Evrilarmi yo?
Har tungi zikrda
"Hu-Haq"ni emas, "Xiva" so'zini aytib,
Ko'kka uchsam o'ng qo'limni ko'tarib,
Chap qo'limni qo'yib tursam yerga men.
Marjon taqib tomiriga dimimning,
Tasbeh aytsam, topilarmi daragi?

Yo qo'shilib arg'imchoq turnalarga,
"Qiy-quv" demay, "Xiva-a" deya chaqirsam,
Qo'nish uchun joy bormikan yoninda,
Yo'l berarmi anav soqchi askarlar?!

Hassa sudrab borsam — darvesh tayog'in,
Yurakdagi g'am-g'ussani aytishga,
Pir bormi,
Sherg'ozi,
Uning oyog'in,
Tavof qilajakman
Ustoz pir bormi?

KITOB DUNYOSI

Qo'limda Kitob bor
Muqaddas Kalom,
Oyatlar tartibi inju misoli.
(Bir joyga borilsa, berilar salom,
Shudir yangi uyga kirganning holi).

Ochaman, birinchi ingan so'z — "O'qi!"
Bosh uchimda turar bir dunyo kitob.
Yer qozig'i tog'lar emas, yo'q, yo'q, ul
Kitoblardir, xor bo'lsa, dunyo — xarob.

Habasdir kitobni xorlamoq, yoqmoq,
Jallodlar, kitobni osmang dora-da.
(Boshimda fikr bor kitoblar haqda,
Kitobda fikr bor boshlar borada).

Tushunarli tilda ming-ming asarlar,
Bo'sh turgan joy uchun tilmochlar kerak..
(Tinchlik bormi menga bu dardisardan?!)
Nari surib qo'ysam, yurmasa yurak.

Yana o'nlab tilni bilish uqubin,
Joylashtirsam naq yuragim yoninda.
Kechalari garov qo'yib uyquni.
O'n tilda o'qisam, qolsa yodimda.

Ishonmadim tilmochlarga mutlaqo,
Zamonga mos so'zlar tanlar atayin.
Yamoq solib, chizib-buzib, ustidan,
Kuladilar, haqiqat shu — aytayin.

Qo‘limda kitob bor,
O‘qilgan avval,
Yopilar ustimga darvesh jandasi,
Tinglasam, eshitilar go‘yo g‘alayon.
Bazmchilar, shayton, arvoh-jin sasi.

“Jinlar bazmi”ning asl nusxasin
O‘qib ko‘rish uchun, o‘zbek tilini
O‘rganaman, bu kitob juda g‘ussali —
Ey she’riyat, ey qissalar, so‘zlang o‘limni.

O‘qib, jinlar fe’lin anglay boshladim,
Nima edi, ya’ni Xiva, Buxoro —
Yuzin burib sizga, qismatdoshlarim,
Duosin yo‘lladi bittar fuqaro.

Men ammo dunyoda — dalixonada,
Kitoblardan shifo topdim ruhga ham.
Bizni xalos etdi g‘amdan orada,
Xabar bergan shudir, zotan, Nuhga ham.

Qo‘limda Kitob bor, oxirgi sura —
“Odamlar”, jinlar o‘yini — boqarsan,
Kitobni o‘qisang so‘nggi kungacha,
So‘ng bo‘yningga tumor etib taqarsan.

Ikki dunyo eshigiga osmoq-chun,
Kerak bo‘lsa sig‘ar, Yuqoriga yo,
U Kitobni — joylashmagan osmonga,
Joylab ikki so‘zni: “O‘qing, odamlar!”

Deb yozardim men minglarcha tilda,
Bo‘ynimda tumor bor tillodan mana,
Ikki so‘z mazmuni, yuragim, tingla!
U: “O‘qing, odamlar!”
U: “O‘qi, inson!”

* * *

"Tagor"ga bosh qo'yib yotsang,
Bengalcha bo'lsa tushlaring.
Xayolni osmondan ossang,
Yetsa Haqqa tashvishlaring.

Bu telbavor istagingni,
Bir zum zanjirband aylasang.
Uxlasang, boylab jag'ingni,
Uyg'onsang, ho'ngrab yig'lasang.

O'zida arabcha yig'lasang,
Turib Haqning dargohida.
Voz•kechsang barcha so'zlardan,
Tushunsa U nigohingdan.

Kitobchamga qo'yib boshim,
Hamda Tagorning tomiga.
Tilagim — arabcha oshim,
Ketaman o'yqu domiga.



HIKOYALAR

BEKI SAYTAQOV

(1914–1979)

Beki Saytaqov Dosho'g'iz viloyatining Taxta tumanidagi Badirkent qishlog'ida tug'iladi. Ijodini she'r yozish bilan boshlaydi. U "Mudom tayyor" gazetasi, "Sovet adabiyoti" (hozirgi "Qoraqum") jurnali va boshqa matbuot nashrlarida ishlagan. "Kurash", "Aqjagul" hikoyalari yozuvchining ilk asarlari sanaladi. Adibning "Tug'ishganlar", "Badirkent" nomli asarlari mashhur. Yozuvchi "Bekmurod Durdiyev", "Birinchi kun", "Suxanning uylanishi", "Qora ilon", "Chuval Baxshi", "Bola Baxshi", "Takabbur qiz", "Eng so'nggi kurash" kabi qator hikoya, qissa va romanlari yozdi. U V. Panovaning "Yo'lovchilar", O. Goncharning "Bayroq ko'taruvchilar" romanlarini, T. Shevchenkoning "Kambag'al ayol", Y. Petrovning "Mehribon ona" dostonlarini, Alisher Navoiyning o'nlab g'azallarini turkman tiliga o'girgan.

BOLA BAXSHI

Qamishli quduq

Ot suvning isini olib pishqirdi. Qaychidek quloqlarini dikkaytirdi-da, kallasini o'ngga o'girib, jilovini tortqilay boshladi. Yo'l chekkasidagi qamishzor orqasidan quduq devorlariga urila-urila yuqori tortilayotgan chelakning ovozi eshitildi.

Otliq nozikdan kelgan o'n sakkiz yashar ko'rkam yigit edi. Uning oyog'ida oq piyma, boshida junlari tog'oradagi suv misoli to'lqinlanib yotgan qora telpak, egnida o'ziga nihoyatda yarashgan po'stin bor edi. U olis safarga otlangan jangchi qurolini yelkasiga osgan kabi dutorini yelkasiga tashlab olgan edi. Yigitni bir ko'rgan odamning uni yana ko'rgisi kelardi. Yuqorida aytib o'tilganidek,

yigit xushro'y yuzli, kelishgangina edi. Qirraburun, lablari yupqa ham nihoyatda bejirim. Ko'rkam yuzi doim kulimsirab turganga o'xshardi. Yugan tutgan barmoqlari uzun-uzun va chiroyli edi. Bu yigitcha, o'zining endigina o'n sakkiz yoshga to'lgan bo'lishiga qaramay, ahli xorazm orasida Bola Baxshi deb nom taratib ulgurgan edi. Uning asl ismini bilgan odamlar barmoq bilan sanarli edi. Bola Baxshi o'n yoshidan boshlab Xidir Baxshining etagidan tutdi. Qo'shiq va soz san'ati hamda suhbatini o'zida kamarbasta qilgan keksa Xidir Baxshi hech nimaga e'tibor bermaydigan inson edi. U qo'shiq, soz va san'atdan boshqa kasb, o'zidan bo'lak baxshi bor degan fikrni xayoliga ham keltirmasdi.

Keksa baxshi bir kuni keng turkman qumtepalari, sahrolari orasidan chorlangan to'yga ketayotib, ot ustida shunday fikrga keldi: "O'lchab berilgan umrning ko'pi ketib ozi qoldi. Men ham bir kuni bu dunyodan o'tarman. Lekin men o'zimdagi qo'l yetmas noyob san'atni kimga qoldirib ketishim kerak? Uni men faqat Bola Baxshiga qoldirishim kerak. Bu bola juda ixlosli o'smirga o'xshaydi. Qo'li chaqqon, ovozi ham yoqimli. Balki bir necha yillardan so'ng "suvora"ni aytganda, eshitganlar unga: "Xidir Baxshining xuddi o'zi bo'lib ayt!" deb xohish etarlar. Bu ham menga qo'l yetmas haykal, yodgorlik bo'lar. U mening foniy dunyoda qoldirib ketgan izim bo'lar..."

Shu kundan boshlab, Xidir Baxshi Bola Baxshiga butun e'tiborini bera boshladi. Bola Baxshi o'n beshga chiqqanda, kun botgandan kechaning yarmigacha qo'shiq aytadigan bo'ldi. Uning yonboshida tog'ning bir bo'lagi kabi bo'lib, ichidan xirgoyi qilib o'tirgan Xidir Baxshi avvallari uning dutorini sozlashda, qo'shiqlarning ayrim baytlarini esga olishga yordam berardi. Avjga chiqqan joylarda sasini mayin qilib, Bola Baxshiga jo'r bo'lardi. Biroq yosh o'g'lonning ixlosiga, uquviga, kundan kun kamolotga yetib borayotganiga qarab boshi osmonga yetardi. Xidir Baxshi vafotidan ikki kun oldin Bola Baxshini huzuriga chaqirdi.

— O'g'lim, mening kunim bitganga o'xshaydi. O'g'il o'rnida o'g'il, qiz o'rnida qizim bor. Lekin barcha hunarimni sen olib qolyapsan. Xudoyim, peshonang oq bo'lsin, yo'ling ochiq bo'lsin. Omin... Mana... O'g'lim, shunday qilib senga oq fotiha berdim.

Ammo bir topshirig'im bor. Puldor, boy kishining uyida yaxshi aytib, kambag'al, g'aribnikida ko'ngilsiz ashula aytma. Qaytanga, agar o'ng'ara olsang, teskarisini qil. Qolgan kam-ko'st joylarini g'ijjakchi tuzatadi. Uning odamlar bilan doimo qo'rs muomalada bo'lib, hech narsadan ko'ngli to'lmay yurganiga e'tibor berma. U o'z hunarining ustasi, o'zi yomon odam emas.

Ana shu voqeadan keyin bir necha yil o'tdi. Ustozi vafotidan so'ng el orasida qo'shiq aytishdan Bola Baxshi tortinib yurdi. Biroq ustozining xotirasiga, ruhlarining shod bo'lishi uchun qo'shiqni maromi va me'yoriga yetkazib aytish kerak degan niyatni ko'ngliga tugdi. Hech qayerdan yordam kelmasligiga amin bo'lib, bor kuchini beliga, qo'liga va ovoziga berdi. Uni olib ham chiqdi. Endilikda uning tovushiga, soz chalishiga, o'z kasbining ustasi ekaniga shak keltiradigan odam qolmadi, hisob.

Baxshilar, xususan, el sevgan qo'shiqchi baxshilar o'z uylariga mehmon singari kelib ketadilar. Ularning butun vaqti el orasida o'tadi. Bola Baxshi bundan to'rt kun burun uzoqdagi qishloqlarning biriga olib ketilgan edi. Hozir esa u o'sha joydan qaytib kelayotgandi.

Otning betoqatlanayotganini ko'rib, Bola Baxshi jilovni tortdi-da, orqasiga o'girildi.

— Yoshulli, otlar suvsiraganga o'xshaydi. Keyin, yo'limiz ham uzoq. Keling, otlarni sug'oraylik-da, ichgan suvlarini bo'yinlariga chiqmas qilib, choptirib ketaylik.

Orqadan kelayotgan otliq oltmish yoshdan oshgan, rapida yuzli, cho'qqi soqol, novcha kishi bo'lib, U hozir yo'rg'a otning ustida xuddi tikka turib kelayotgan chavandozga o'xshar edi. U odam g'ijjakchi edi.

Uning tovushi yo'g'on va xirillab chiqdi:

— Mayli, o'g'lim, unday bo'lsa quduqqa yura qol.

Besh-o'n qadam yurishgandan keying o'ng tomondagi qamishzor tugab, Bola Baxshi otining jilovini oldlaridagi quduqqa tomon burdi. Otning yurishi tezlashdi. Suvliqni tortqilay boshladi. Bola Baxshi to quduqning boshiga kelguncha oti bilan ovora bo'lib, tevarak-atrofiga qaramadi. Ot tumshug'ining yarmini suvga to'la novaga bosishi bilan otdan tushdi. Shundan keyingina quduqning

boshiga nazar tashladi. Uning ko'zlari qamashib ketdi. Ko'ziga bir narsa o'n bo'lib ko'rindi. U ko'zlarini ochib-yumib, yana o'sha tomonga diqqat bilan qaradi. Bu safar Bola Baxshining ko'ziga quduqning boshida qizil gullardan yasalgan guldasta ko'rindi. Bu nima bo'ldi ekan-a? Qishning o'rtasida ham guldasta bo'lar ekanda! So'ng cho'ntagidan dastro'molchasini olib, yuz-ko'zlarini artdi. Shundan so'ng boyagi guldasta uzun bo'yli, chiroyli bir qizga aylandi-qoldi.

Bola Baxshining og'zi ochilib qoldi. O'n yasharligidan boshlab uning bormagan qishlog'i, ko'rmagan odami yo'q edi, desa mubolag'a bo'lmas. Ammo u ko'rib turgan parivashga hech qachon duch kelmagan edi. Ko'rgan, eshitgan go'zalliklarning bir joyga jamlangan nuqtasining ustidan hech mahal chiqmagan edi. "Ofarin, senga!" deb, Bola Baxshi qo'lini belbog'iga tiqdi. Qiz esa unga qiya boqib, barmog'ini tishladi. Uning taqimiga tushib turgan yo'g'on, uzun sochlari boshi engashgan tomonga to'lqin kabi tushib ketdi. Ustidagi ko'k movutdan bezak berib tikilgan to'ni Bola Baxshining ko'ziga har xil rangda jilvalanib ko'rindi. Bola Baxshi boshidanoq ojizlik qildi. Qizga tikka qarab, ko'zdan kechira olmadi. Lekin bir muddat vaqt o'tgach, voqeani butunlay o'zgartirib yuborgan bir hodisa yuz berdi. Baxshi qizning ham yer ostidan uni kuzatayotganini payqab qoldi. Qizning shahlo ko'zlarining tikilishlari baxshining yuragidan o'q bo'lib o'tdi. Uning chala yarim harakatlangan kipriklari, qalin qora qoshlari Bola Baxshiga qarab hujum qilganday tuyuldi. Asli yigitga dalda bo'lgan narsalar ham shu bo'ldi. U bor kuchini bir joyga jamlab, qizga boshqatdan qaradi. Qiz ustini qor bosib yotgan maydondagi quduq boshida ko'karib turgan bir tup atirgulga o'xshardi.

Yigit nima bo'lsa-da, bir narsa deyishi kerak edi. Gap-so'zsiz quduq boshida jim turish noqulay edi. U novni ko'zdan kechirar ekan:

— Hoy chelagingni bersang otlarni sug'orar edik. Novni bo'shatishibdi, — dedi.

Qiz bir kulimsiradi-da, oldidagi to'la chelakni yigitga tomon surib:

— Oling, keragingiz chelak bo'lsin... — dedi.

Bola Baxshi chelakni qanday qilib olganini, uning suvini novga qanday qilib to'kkanini ham bilmadi. Ammo bir damda novni suvga to'ldirdi. Keyin chelakni ham to'ldirib, qizning oldiga qo'ydi.

Qiz kuldi:

— O'zim to'ldirardim. Ozorga qo'ydim sizni, — dedi.

Bu so'zning ohangi yigitning o'ng nozik tomirlarigacha yetib, uni bir xil ko'yga solib qo'ydi. Ushbu so'zlar pistasimon lablarning orasidan mehrga yo'g'rilib chiqdi. Agar yigit umri yetgancha shu so'zlarni o'sha ohangda tinglab o'tkazishi kerak bo'lsa, unga rozi bo'lardi. Biroq barcha narsaning boshi va oxiri bo'lgani singari, bu ajoyib daqiqalarning ham intihosi keldi. Kunchiqardagi, atrofi baland daraxtlar bilan o'ralgan uyning oldida tashvishli harakat boshlandi. Qiz uni ko'rib, lablarini bir tishladi-da, chelagini ko'tarib, o'sha uy tomon ketdi. U og'ir qadamlar tashlar ekan, bir narsasini yo'qotganday orqasiga o'girilib, yana bir marta Bola Baxshiga qaradi. Bola Baxshi ham undan ko'zini uzolmay, uzoq vaqt uning izidan qarab qoldi. So'ngra otiga mindi. G'ijjakchi ham ashula va musiqaning piri Oshiq Oydin kabi uning izidan tushdi.

Bola Baxshi ancha vaqtgacha o'ziga kela olmadi. Uning aqli-hushi, yuragi, butun vujudi chelakli qizning iziga tushib ketgan edi. "Uning boqishlari! Bu qizning noz-karashmasi dengiz suvi singari behisob bo'lishi kerak. Shu nozlar, o'sha nazarlar kimga nasib qilar ekan?! Qaysi baxtli inson shu noz-u nazarlarning egasi bo'larkan? Hoy, peshonasi sho'r!" deb yigit manglayiga bir shapatiladi-da, egarga qiyshiq o'tirib, orqasiga o'girildi:

— Oqsoqol, boyagi qiz kimning farzandi bo'lishi mumkin? Men-ku, tanimadim, balki siz bilarsiz?

G'ijjakchi go'yo birov eshitib qolmasin deganday ehtiyotlik bilan ikki tomoniga qarab oldi va sekingina dedi:

— Boyagi qiz, hov anovi daraxtzor bilan o'ralgan uy egasi Qudratilla boyning qizi bo'lishi kerak. Qudratilla boy degani shunday bir insofsiz odamki, qo'lidan kelsa, el ustiga tushib turgan Xudoning nurini ham tushirmasam deydi. Odam o'ldirish, yo'qotish ularga pashsha, chivin o'ldirish va yo'qotishday gap. O'g'illari talonchilik, bosqinchilik bilan shug'ullanishadi. Qum ichida qanchadan qancha karvonlarni talashmagan ular. Xullas, o'g'lim, dush-

maning shular bo'lmasin! Hozirgi qiz uning yolg'iz qizi. Otini Tursunoy deydilar. Uni, eshitishimcha, yaqin orada erga berishmoqchi. Katta to'y bo'lishi kutilyapti. Baxshisi ham sen bo'lasan. Anchadan beri yurt ichida shunday gurung bor...

Bu xabar Bola Baxshini g'am botqog'iga botirdi. Uning chiroyli, bejirim peshonasi egarning qoshiga tegay-tegay deb ketardi. Men ham, u qiz ham bir-birimizni tanimaymiz. Lekin qarashlarining ma'nosi boshqacha edi. U ich-ichidan va mehr bilan menga boqdi. Men bu qarashlardan "men senikiman" degan ma'noni angladim. Bu nazarlarning boshqacha ma'nosi bo'lishi mumkin emas. Eh, uning bilan yana bir marta uchrashib bo'lsa edi.

Bola Baxshi yana orqasiga qayrildi:

— Yoshulli, qiz haddan tashqari go'zal ekan. U ojiza kimga nasib qilar ekan-a?! Yoki Qovunning shirinini chiyabo'ri yeydi deganlariday bo'larmikin?

G'ijjakchi o'g'lonning bu so'zlaridan ko'p ma'no chiqardi. Yigitning yuragidagi sirlarini Qur'on oyatlarini o'qiganday o'qidi. Bu masalada o'zining o'ng mehribon odamiga hech qanday yordam qilolmasligiga keksa g'ijjakchi juda achindi. Boshini og'ir chayqab:

— Bu shirin qovunni yeydigan odam chiyabo'ridan ham iflos, — dedi.

Baxshi ko'ksiga xanjar urilganday, tezlik bilan boshini suhbatdoshiga tomon burdi:

— Kim u?

Keksa g'ijjakchi og'ir o'yga toldi. Men baxshining jo'shib turgan ko'nglini hozir bosib tashlashim kerak. Bo'lmasa undan qarashilmagan har narsani kutish mumkin. Qudratilla bilan tortishgan o'zing bo'lma, ey Xudoyim...

— Tursunoyni olmoqchi bo'lgan odam Qudratillaboydan past odam emas. U ham kalla kesishni ish hisoblamaydigan razil, ablah kishi. O'g'lim, Xudo degin. Senga ham atalgani bordir. Xudoning peshonangga yozganidan qutulib bo'lmas. Shukur qil.

Bola Baxshi g'ijjakchining so'zlariga yaxshi-yomon hech qanday javob bermadi. Qiz meni tanigan bo'lishi kerak. Bo'lmasa bunday nazar bilan boqmasdi. Nima bo'lsa bo'ldi deb, otli-yarog'li

uning izidan tushsammikin? Otimga mingashtirib, Axalga yoki Eron-Afg'oniston tomonlarga bosh olib ketsammikin?! Ashula aytib oyog'imga yiqsam, bor erk-huquqini qo'limga olsam, men o'ylaganlarimdan qaytmasdim. Lekin qizning yuragidagini bilib bo'lmaydi. Balki bu qiz meni mazaxlash uchun bugun ko'ngil to-rimni chertib ko'rgandir? Balki chini bilan shundaydir. Yana kim biladi? Bularni yolg'iz Xudodan boshqa biladigan yo'q. U ham qo'l yetmas baland joyda. Unga arzing, oh-u nolang yetib borishi gumon. Qani, ko'raylik-chi? Oxiri nima bilan tamom bo'lar ekan?..

Bola Baxshi uylariga kelganda, besh-olti kundan beri o'zining kelishiga qarab o'tirgan turli odamlarni ko'rdi. Ularning biri Ko-pettog'dan, yana biri Ko'hna Urganchdan, boshqa birlari Qizil-cha qal'a, Ko'ktepa, Axal, Seraxs kabi uzoq manzillardan kelgan kishilar edi. Ular Bola Baxshining o'z to'ylarida ashula, doston aytishlarini istab kelgan edilar. Bola Baxshining esa o'y-fikrlari to'y-tomoshada emas edi.

Qiz yuragining bayoni

Uzun bo'yli, peshonasi keng, dumaloq oq yuzli Tursunoy Bola Baxshining otini quduqqa tomon burganidayoq tanidi. Qiz uni qishloqlarida bo'lgan to'ylarda ashula aytganida bir necha bor ko'rgan edi. Tengdosh dugonalari bilan qorong'i joyda o'tirib, er-kak kishilarga ko'rinmay, Bola Baxshi aytgan ashulalarni tinglagandi. Tursunoy uni ilk bor ko'rgan va ashulasini eshitgan vaqt-dan boshlab o'z yuragiga joylagan edi. Yuragiga kashtalab tikkan u surat vaqt o'tishi bilan unniqmay, balki uning ranglari yanada tiniqlashgan va o'tkirlashgan edi. Unga go'yo kundan kun jon kira-yotganga o'xshardi.

Tursunoy ruhi baland, shoirtabiat bir qiz edi. U otasi ko'zining oq-u qorasi edi. Uning o'zidan katta uchta akasi bor edi. Shu tufayli ham u katta uyning erkatoyi edi. Uning aytgani aytgan, degani de-gan edi. Uyda hech kim, hech vaqt Tursunoyning ra'yini qaytargan emas. Qizning o'zi ham qizlik chegarasidan chiqqan emasdi. Shu sababli ham xonadon sohiblari undan xotirjam edilar.

Uning boshqa qishloq qizlaridan go'zallikda, so'zamollikda, odamiylikda qanday farq qilishini kishi bir qarashda bilishi qiyin edi. Biroq u o'z dugonalariga hech ham o'xshamasdi. Uning qilgan ishlari, aytgan so'zlari, dugonalariga bergan maslahatlari ham o'ziga yarashardi va hamisha to'g'ri bo'lib chiqardi. U shoira ham edi. Ko'p alla qo'shiqlarini o'zi ijod qilib, o'zi ijro etgan. Ularni kuylaganda dugonalari sehrlanib qolardi. Ashula eshitish, doston tinglash uning eng yaxshi ko'rgan orzusi edi. Bu istak Tursunoyda Bola Baxshini ilk marotaba tinglagan kundan boshlab yana ham avj olgandi. O'sha kechasi Tursunoy doston boshlagunga qadar Bola Baxshini yaxshilab kuzatdi. O'rta yerda, baland uyulib yonayotgan olov boshida oydan bo'linib tushganday o'tirgan bu kelishgan yigit shoirona ko'ngilli qizning aql-hushini olgandi. Bola Baxshining dutor ustida o'ynagan barmoqlari uzun va chiroyli edi. Junlari suv kabi to'lqinlanib turgan qora telpagi bu yigitni ertaklar olamidan chiqib kelganga o'xshatardi.

Uning qo'shiq aytishi qizni butunlay asir qildi. Qiz ham ashula eshitardi, ham keksalarning suhbatlariga quloq solardi: Xidir Baxshidan ham o'zibdi. Ha-da, shogird ustasidan o'zmasa, hunar yo'qolar emish deyishar edi, bu rost gap ekan...

Vaqt bo'ldi. Bola Baxshi odamlarga qarab, dedi:

— Yurtdoshlarim, qaysi dostonni aytay?

— O'zingga ma'qulini ayt, Baxshi!

— Menga farqi yo'q.

— Unda Go'ro'g'lining Xirmon Dalisini ayt!

— Mana senga Xirmon Dali! — deb Bola Baxshi doston aytishni boshladi.

Tun yarmidan o'tib, doston o'rtalariga yetganda qizning yuragida, avvalo, noma'lum, so'ng aniq bir tuyg'u paydo bo'ldi. Qiz bu ajoyib yigitga, shirali, baland ovozli, tengi bo'lmagan Bola Baxshiga oshiq bo'ldi. Endi u yangi dunyoning eshigini ochgan zaifaga o'xshardi. Qizning oyoq olishi yengillashdi. Har tarafidan bahaybat qanotlar o'sib chiqqanday bo'ldi.

U shu darajaga yetdiki, hatto Bola Baxshini Xirmon Dalidan ham qizg'ana boshladi. Bu tuyg'uning qayerdan kelganiga, qanday yo'l bilan yuragini egallab olganiga qizning o'zi ham tushunolmay

qoldi. Keyinroq u buning sababini qidirib, oxiriga yetishni ham istamadi. Chunki endi bu o'ylar ortiqcha edi. Qiz oshiq edi. Bu tuyg'uni o'tkir bir tig' bilan ham ajratib tashlash mumkin emasdi. Qiz taqdirga tan berdi.

O'sha kechadan buyon yarim yildan ortiqroq vaqt o'tdi. Bu tuyg'u shu vaqtlar ichida bahor daryosi singari qirg'og'iga ulkan to'lqinlar kabi urildi. Bu to'lqinlar borgan sari kuchaydi. Qiz o'tirishga joy topolmay, o'z yog'iga o'zi qovurilardi. Bola Baxshi shundan keyin ham bu qishloqda ikki marta ashula aytdi. Ularning ikkalasiga ham Tursunoy qatnashdi. Xilvatroq joyda o'tirib dugonalari bilan ashula, doston eshitdi. Keyingi safar uylariga qaytib borayotganlarida tengdoshlari unga: "Sen juda ma'yus bo'lib qoldingmi?" deyishdi. Qiz ularga: "Hech ham", — deb javob berdi, xolos. Ammo o'sha vaqtda uning ichini it tirnar edi. Uning ahvoli parishon edi. U hamma narsadan bexabar, axir. Mening ahvolimdan uning xabari yo'q. Bilganida ham uning qo'lidan nima kelardi? Men boshqa odamning quchog'iga kirmayman. Uning bilan ahvolimiz shunday bo'lsa... Tursunoy shunday deb, kalavaning uchuni butunlay yo'qotdi. Qiz o'zi tushgan o'pqondan chiqadigan ilinj izlardi. Eng kichik ilinjlar ham undan qochardi.

Mana, hamma narsaning ustiga-ustak bugungi uchrashuv. Avvalo, qiz bu uchrashuvni yaxshilikka yo'ydi. U quduqning boshiga kelgan zahoti o'zicha: Eh, shu payt Bola Baxshi otini sug'orishga kelsa edi. Men uning siyratini ko'rib, dardimni ozgina bo'lsa-da, yengillatar edim. Balki ozroq bo'lsa ham so'zlasharmidik. Bir o'zi bo'lsa men unga o'z ko'nglimni ocharmidim, deb xayol qildi. Bu uchrashuvning qanday o'tganini muhtaram o'quvchilarimiz yuqorida bilib olishgan.

Tursunoy chelagidagi suvlarini to'kib-sochib, uyga olib kirdi. Uyning to'rida ikki yildan buyon to'shakdan turmay yotgan onasi:

— To'polonlaring nimasi, qizim? Jin urdimi, seni? — dedi inqillab.

Ichi yonib, yuragi hapriqqan Tursunoy qaynab-toshgan qahr-g'azabini bosib javob berdi:

— Onajon, kunduz kuni jin bo'ladimi? Quduqning boshiga borsang, yo'lovchidan ko'pi yo'q. Barchasi otini sug'orish uchun

chelak so'raydi. Ularning otlari suvga qonguncha sovqotib turishga majbursan.

Umrining ko'pi ketib, ozi qolgan keksa ayol u dunyoni eslab, qiziga deydi:

— Qizim, ayb bo'ladi. Bunday dema. Yo'lovchiga suv bermoq — savob.

Tursunoy eshikka tomon yo'naldi. Lekin birdan hurkkan jayron singari to'xtadi.

— Ona, menga boshqa ishingiz bo'lmasa, yangamning yoniga boraman.

— Boraqol, qizim.

Tursunoy o'rtancha akasining xotini Oqqiz bilan sirdosh dugona edi. Ular o'rtalaridagi hech narsani yashirishmas edilar. Ikkalasi ham deyarli tengdosh edi. Tursunoy kelganida yangasi kashta tikib o'tirgandi. U darrov ishini bir chekkaga qo'ydi-da, o'rnidan turib qayinsinglisini qarshi oldi. Oqqiz turmushga chiqqandan keyin yanada ochilib, go'zallasha boshlagan yosh kelin edi. Tursunoy oldinlari kelganida yangasining qaddi-qomatiga havas bilan qarab, uni maqtar edi. Lekin bu safar uning ko'ziga hech narsa ko'rinmadi. U ichkariga kira solib, shahlo ko'zlaridan duv-duv yosh to'kib, Oqqizni quchoqlab oldi. Oqqiz qo'rqib ketdi. Qizni bag'riga bosib, uning boshini siladi.

— Voy, jonim, nima bo'ldi senga! Seni kim xafa qildi?

Tursunoy bir muddat gapirishga holi kelmadi. Chuqur xo'rsinar ekan, dardi biroz pasaygandan keyin, shunday dedi:

— U qishlog'iga o'tib ketdi.

Oqqiz ikki qo'li bilan Tursunoyning yanoqlarini ushlab, uni o'ziga qaratib dedi:

— Kim o'tib ketdi? Qanaqa qishloqqa ketdi? Men hech narsaga tushunolmayapman.

Tursunoy uyqudan turganday bo'lib, ko'zlarini katta ochdi. Hovliqib ketdi. Birdaniga qizargan yuzi oldingi ko'rinishga qaytdi.

— Voy, yangajon, men sizga hech nima demadimmi?..

Oqqizning esa nima voqea bo'lganini bilgisi kelardi.

— Yo'q, jonim, darrov ayt. Mening yuragim yorilay deyapti. Senga nima bo'ldi? Balki mening yordamim kerakdir?

Tursunoy barmog'ini tishlab, bir necha soniya jimgina yerga qarab turdi. Barcha bo'lib o'tgan voqealarni boshidan oxirigacha ko'z oldiga keltirdi-da, tovusday tovlanib, yangasi bilan gilam ustiga o'tirdi. Yana bir muddat jim qoldi. Shundan keyin sovuqqonlik bilan hammasini yangasiga gapirib berdi. Oqqizning ustiga sovuq suv quyilganday bo'ldi.

— E, voy! Baxtim qaytdi, mening! Hoy, shunaqasi ham bo'ladimi? Ota-onang, akalaring bunga aslo rozi bo'lishmaydi. Ular bilsalar janjalning kattasi ko'tariladi. Buning tagidan qonning isi kelyapti, jonim!

Tursunoy chiroyli mushtlarini tosh singari tugib, g'azab bilan qoshlarini kerib, dedi:

— Menga ularning roziligi ham, janjallari ham kerak emas. Menga Bola Baxshi kerak. Siz menga qanday yordam berishingiz mumkin? Hech bo'lmasa mening fikrimni Bola Baxshiga yetkaza olishga va'da berolasizmi? Yangajon, mening sizdan boshqa jonimni ishongan odamim yo'q. Shuni yaxshilab bilib oling. Yonib turgan yuragimni o'z qo'lingiz bilan ezmang.

Oqqiz Tursunoy uchun shu paytda qo'lidan kelsa kuchini ham, jonini ham ayamas edi. Uning ishini bitirib berolsa, quruqlikning tamom bo'lgan yerigacha hatto piyoda borishgacha rozi edi. Ammo...

— Men sening ahvolingga tushunaman, jonim. Senday boshiga ish tushgan qizlar hayotda bo'lgan. Biroq sen kimning, qanday odamning qizi ekanligingni unutma. Akalaringning kimligini esingdan chiqarma. Uni ham, seni ham ular domlariga tortarlar. Qadim zamonlarda ham oshiq-ma'shuqlarga yengilroq jazolar berilganligini bilasan. Esingdami, Tohirni sandiqqa solib, daryoga tashlashgan. Hozir o'zing ko'ryapsan, bunday ishlarga bosh og'ritib o'tirishmaydi. Borishadi-da, paq etib otib, orqalariga qayta qolishadi. Sen ana shularni esingdan chiqarma. Undan tashqari erta-indin to'ying bo'ladigan. Hozir sening bu kayfiyatingni bilsalar, seni ham, uni ham darhoi yo'qotishadi. Yaxshisi, sen boradigan eringga turmushga chiqqin-da, Bola Baxshini ko'nglingga tumor qilib osib ol. Shunday qilib yurganlar ham oz emas, dunyoda, — deb Oqqiz pastki lablarini tishlab, chekkaga qaradi. Bir narsalar yodiga tushib, uning bejirim ko'zlari yoshga to'ldi.

— Yangajon, ko'ryapman, sizning menga ko'magingiz yetmay diganga o'xshaydi.

Oqqiz keskin javob berdi:

— Yo'q, azizam, bu fikringni boshingdan butunlay chiqar. Peshonangga yozilganiga rozi bo'l. Men sening tanangga tig' tegishini xohlamayman.

Tursunoy umidlarining yarmi uzildi. Boltasining tig'i toshga tegdi. Boshini quyi solib, yangasining yonidan chiqar ekan, o'ylay boshladi: "Aytganlari to'g'ri. Boshqa yo'l topishim kerak. Umidni qo'ldan bermasligim darkor. Men boshqa yo'lni, albatta, topaman".

Tuni bilan qizning ko'ziga uyqu kelmadi. Eh, uni bugun ko'rmagan bo'lsam, shunchalik yonmas edim. Dardim hozirgisidan yengilroq bo'lardi. Endi men nima qilishim kerak? Qayerga borishim, kimdan yordam olishim mumkin? Eng zo'r tirgagim yangam edi. U bechora ham o'z ahvolini aytdi. Uning deganlari to'g'ri. Boshqa yo'l bo'lmasa, hozirgi yo'l bilan maqsadimga yetishim qiyin...

Yonboshida yotgan semiz onasi atrofni larzaga solib xurrak otardi. Ba'zan dardiga chiday olmay ingranib qo'yardi. Uni ko'rib Tursunoyning jahli chiqardi: Hoy, shunday ahvolda ham xurrak tortib uxlaydimi, kishi? Hoy, shu ahvolda ham ko'zga uyqu kelar ekan-a? Yosh, jo'sh urib turgan ko'ngilning hammani o'z holatida bo'lishi kerak, deb o'ylashi tushunarli edi.

Qiz kechani uyqusiz o'tkazdi. Erta bilan turdi-da, chelagini ko'tarib, yana qamishzor etagidagi quduqqa tomon ketdi. Tunda qor yog'magan edi. Shu sababli Bola Baxshining quduq atrofidagi yurgan izlari aniq, oq qog'ozga chizilgan suratday ko'rinib turardi. Qiz oldin u izlarni sanab chiqdi. Bola Baxshining otga minayotganda o'ng oyog'ining uchigacha bosilib qolgan izlari ham yaqqol ko'rinib turardi. Tursunoyning ko'zlari yoshga to'ldi. Badanlari qandaydir, yoqimli titrab ketdi. Shundan so'ng qo'rqinchli xo'rlik bahaybat to'qmoqday zalvori bilan qizning ustidan bosdi. U Bola Baxshi ketgan tomonga, uning qishlog'i tarafga yuzini o'girdi. Qizning ahvoli shundan keyin yana ham og'irlashdi. Birdaniga chelagini quduqning boshiga aylantirib urib, kunbotarga qarab qochib ketgisi keldi. Keyin yerga qo'ngan lochinday pastga egilib,

Qiz uning bosgan izlarining biriga to'rt barmog'ini tegizib, bir-pi... qildi, so'ng to'rt barmog'ini peshonasiga surtdi. Barmoq uchlaridagi sovuqlik uni sal o'ziga keltirdi. Shu payt yonboshidan ovoq tovushi eshitildi, qorning g'arch-g'urch bosilganini tuydi. Bola Baxshi paydo bo'ldimikin, degan umid bilan uyqusizlikdan qizargan ko'zlarini tovush kelgan tomonga tikdi. Ustiga engashgan holda qo'lida chelak ushlab turgan Oqqizni ko'rdi. Tursunoy go'yo yerning millionlarcha sirlaridan birini ochgan kabi tiniq va xotirjam ovozi bilan Oqqizga dedi:

— Mana, yangajon, uning bosgan izlari. Ha, kecha uning o'zi shu yerda edi. Bugun uning faqat izi bor. Bu dardga men qanday chiday, yangajon, qanday chiday?

Oqqizning ilk bor dami ichiga tushdi. Hovliqqani uchun zo'rg'a o'ziga keldi. Qizning qor ustidagi holatini ko'rib, Oqqiz qayinsinglisini aqlidan ozdimikin, deb taxmin qildi. Oqqizni nihoyatda qo'rqitgan holat uning yuqoridagi so'zlarni aytgandagi ovozi edi. Sababi bu tovush Tursunoyning o'sha holatdagi tovushiga mutlaqo o'xshamasdi. Bu tovush Oqqizning fikriga ko'ra, oh-u fig'oni va nochor ohangda bo'lishi kerak edi. Aksincha, tovush nihoyatda tiniq va ishonchli ohangda jaranglagan edi.

— Jonim, bu qanaqa o'tirish? — deb Oqqiz uning bilagidan ushlab, yuqori ko'tardi.

— Men uning bosgan izlarini kuzatdim, — deb Tursunoy yana nazarini kunbotarga qaratdi. — Yangajon, men kechasi bilan o'ylab chiqdim. Bu qiyin ahvoldan chiqadigan ilinj ko'zladim. Lekin topgan narsam, olgan qal'am yo'q. Ammo men yo'lini topaman. Yangajon, yo'lini topmasa bo'lmaydi...

— Azizam, o'ladigan tulki uyasiga qarab uvullar ekan. Hozirgi harakatlaring o'shanga o'xshaydi. Sen bu ketishingda ko'ngilsiz bir baloning ustidan chiqadiganga o'xshaysan... Men sening qo'lingga tikan kirishiga ham rozi emasman, axir...

Oqqizning bu so'zlari qanchalik to'g'riligini bilsa-da, qizga bu so'zlar ma'qul bo'lmadi.

— Yanga, bu yerda tulki, chiyabo'ri degan so'zlarning nima keragi bor? U so'zlar sevgi so'zining martabasini pastga tushiradi.

— Jonim, gunohimni o'zing kechir. Mavridi keldi, deb aytdim-qo'ydim-da. Baribir bu maqsadingdan voz kech, azizim. Uyni qonga bulg'ama. O'zingni xor etmagin.

Tursunoy shundan keyin yangasiga hech nima demadi. Bola Baxshi bosgan izlarning biri yoniga bordi, pastga engashib, undan bir chimdim qor oldi va manglayiga surtdi. Uning ketgan yo'nalishiga qarab chiroyli lablarini biroz qimtib, ichidan bir narsalar deb shivirladi. Keyin yuzini kunbotardan olmay:

— Bola Baxshi, bilib qo'y, o'lsam yernikiman, tirik bo'lsam faqat senikiman... — deb, chelagini suvga to'ldirdi va uylari tomon jo'nadi. Oqqiz ham uning iziga tushdi. Ikkalasi bir og'iz so'zlashmay, uyga kirib borishdi. Shu kundan boshlab, Tursunoy hech kim bilan gaplashmay qo'ydi, hatto Oqqiz bilan ham gaplashishni to'xtatdi. Qiz o'sha damdan boshlab quduq boshida ichgan qasamini bajarishga kirishdi.

O'n besh kun vaqt o'tdi. Bu kunlar Tursunoy uchun o't bilan olovga qorishib o'tdi. Ammo bu vaqt ichida hech qanday voqea sodir bo'lmadi. Agar kunbotarning ko'z ilg'aydigan qismi oq qog'oz, Tursunoyning nazari o'q bo'lgan bo'lsa, unda ko'z ilg'aydigan qismda butun joy qolmagan edi. O'n oltinchi kuni oftob o'z nurlarini socha-socha botishga yaqinlashib qolgandi. Shu payt kunbotardan oq eshak mingan, katta telpakli, yonboshi suvqovoqli bir qalandar ko'rindi. Uning kelishi juda g'alati edi. Yo'lning ikki tomonidagi uylarning hech biriga qayrilmay to'g'ri Qudratilla boynikiga qarab kelardi. Uyning oldiga chiqib, o'sha tomonga tikilib turgan Tursunoyning yuragi shig' etib ketdi. Bu qalandar go'yo qiz tarafga kelayotganday tuyuldi. Qalandar ham kelib, uyning oldida eshagini to'xtatdi.

— Yo, haq, balo daf! — deb eshagidan yerga tushdi. Qizning yuziga diqqat bilan tikildi.

Yigit yuragining bayoni

Qamishzor etagidagi quduq boshida Bola Baxshining yuragiga sanchilgan o'qning yarasi vaqt o'tishi bilan bitib ketishi kerak edi. Ammo bunday bo'lmadi. Yaraning dardi ortdi, ta'rifi kengay-

di. Bola Baxshini o'tdan olib, suvga tashladi. Odam nima uchun shunday yaratilgan ekan-a? Bir tomonga og'ilsa yoki bir tomonga yiqilsa, uni darrov hal qilsa bo'ladi. Aks holda bu yerda o'ziga xos hech nima bo'lgani ham yo'q. U menga mehr bilan qaradi. Men ham shunday qildim. Bu narsa "Assalomu alaykum", "Vaalaykum assalom" deyilganday, birpasdan keyin esdan chiqib ketishi kerak edi. Lekin u qarashlar ko'z o'ngimdan hanuz ketmayapti?.

Yo'rg'a otning ustidagi pahlavon kelbatli g'ijjakchi ko'p yillardan buyon birga ishlashib yurgan yosh do'stining ahvolini sezib kelardi. Shu quduqning boshiga yetgunlariga qadar Bola Baxshi butun yo'l davomida o'ynab-kulib, hazil-huzul so'zlarini aytib kelayotgan edi. O'zi ham kulardi, Oshiq Oydin pir kabi salobatli g'ijjakchini-da, kuldirardi. Lekin otlar sug'orilib, yo'lga tushganlaridan boshlab Bola Baxshining tili tutildi. U quduqning boshidan qo'zg'alishi bilan g'ijjakchidan o'zining savollariga javob olgach, og'ziga mum tishlaganday jim qoldi. Ko'pni ko'rgan g'ijjakchi Bola Baxshini bu yo'ldan qaytarishni yuragiga tugib, taqdirga tan berganicha yo'lida davom etib kelardi.

Ular yo'l yurib, yo'l yursa-da, mo'l yurib, qishloqlariga yetdilar. Bola Baxshi yo'lning bo'lingan joyida otining boshini tortdi. G'ijjakchi o'zi bilan tenglashgach, unga dedi:

— Baxshi og'a, uyga boraylik. Non yeb, choy ichib, so'ng qaytarsiz. Yo'lda ancha charchadik ham.

G'ijjakchi uning yuziga diqqat bilan tikildi-da:

— O'g'lim, ko'p rahmat. Sog' bo'l. Non-choyni hali ko'p baham ko'ramiz. O'zing bilasan, uydan ketganimizga ikki haftadan ortiq vaqt o'tdi. Men ham uydan xabar olay. Lekin, bolam, mendan ruxsatsiz qadam bosma! — dedi.

— Tushundim, yoshulli. Maslahatlashamiz...

O't-yem yeb yurgan uyiga yaqinlashgan ot baland ovozda kishnadi. Bu ovozga Bola Baxshining onasi yugurib tashqariga chiqdi. Uzun bo'yli, boshiga qizil gulli ro'mol o'ragan, ustida qizg'ish ko'ylak, istarasi issiq ayol otning jilovidan tutdi-da, uning bosh-ko'zlarini siladi.

— O'g'lim, sog'-omon keldingmi? Xudoga shukr, ko'rinishing joyida. Yo'lda qiynalmabsan. Xudoga ming bora shukur, o'g'lim.

Lekin shahding pastroq ko'rinyapti. Yoki birortasi ko'nglingga tegdimi? Onangdan yashirma, bolam, nima bo'lsa aytaver...

Bola Baxshi otdan yengillik bilan sakrab tushdi-da, onasining yuziga tikilib dedi:

— Yo'q, onajon, mening ko'nglimga tegmadilar. Aksincha, mening ko'nglimni ko'tardilar. Biroq... O'zingiz sog'-omon o'tirib-sizmi?

— Shukur, bolam, Xudoga behisob shukur. Avvalo Xudo, qolaversa, sening soyangda onang xor bo'layotgani yo'q. Ha, rizqing katta. To'rt tomondan tinmay kelib turibdi. Men esa sening qaytishingni kutaman. Ular esa seni mendan olib ketishga kelishadi. Baxshining qismati shu ekan, bolam. Nima bo'lsa ham so'ngi xayrli bo'lsin.

— Onajon, qayg'u qilmang. Hammasi yaxshi bo'ladi. Uyda odam bormi?

— Odamdan ko'pi yo'q, bolam. Mehmonxonaga boraver. Men otingni qantarib bog'layman. Tanasi sovigach, o'zing egarini olarsan.

Mehmonxonani to'ldirib o'tirgan odamlar Bola Baxshini yo'qotib topganday kutib olishdi. Keksa-yu, yosh uni kichik demasdan barchalari o'rinlaridan turishdi. Sog'liq-omonlik so'rashish, hol-ahvolni bilish yarim soatga yaqin vaqtni oldi. Shundan keyin ovqat tortildi. Uzoq o'tirib suhbatlashib, xotirjamlik bilan ovqat yeyishdi. So'ngra kelgan odamlar navbatma-navbat o'z chaqiriqlarini ayta boshladilar.

Bu takliflarning hech birini rad etish mumkin emas edi. Bola Baxshi ularning barchasini qabul qildi. Birdan uning yuragiga pichoq sanchilganday bo'lib, ko'z oldi qorong'ilashib ketdi. Baxshi o'zi boradigan bu to'ylarga Tursunoyning oyog'i yetmasligiga qattiq achindi. Hay, ziyoni yo'q. Men bu to'ylarni tez o'tkazib qaytaman. Keyin butunlay uning iziga tushaman.

Mehmonlar Bola Baxshiga minnatdorchilik bildirib, birin-ketin manzillariga jo'nashdi. So'ngra Baxshi uyda o'ziga bog'liq bo'lgan yumushlarni bajara boshladi. Oqshom choyini mehmonxonada onasi bilan birga o'tirib ichishdi.

— O'g'lim, qachon, qayerga boradigan bo'lding?

— Indinga erta bilan Axal tomonlarga ketishim kerak. Uzog'i bilan o'n besh kunlardan keyin qaytib kelaman. O'zim ham juda charchaganman.

— Voy, o'g'lim, yurtning dardiga yarab turganingga shukur qilgin.

— Unga ming bora shukur, onajon.

Onasi o'g'lining yuziga qarab, bir muddat o'tirgach, botinib so'radi:

— O'g'lim, kelganingda shahding pastroq edi. Onaning yuragi hamma narsani sezadi. Sen yo'lda nimalarga duch kelding, bolam?

Bola Baxshi biroz yerga qarab o'tirdi. Nimalarnidir eslaganday bo'lib, o'yga toldi. Keyin asta boshini ko'tardi.

— Aytaqol, bolam, aytaqol. Asl farzand onasidan sir tutmaydi.

— Aytsam, shunday gap, onajon. Mening boshimga ishq savdosi tushganga o'xshaydi.

— Tilingdan aylanay, o'g'lim, — deb onasi ro'molini qo'liga oldi va sevinch ko'z yoshlarini artdi. — Meni shu kunlarga yetkazgan Xudoyimga ming bor shukurlar bo'lsin. Dadang bechora bu so'zingni eshitib bilmadi. Zarari yo'q, farishtalar allaqachon bu xabarni unga yetkazgandirlar. Qani, bolam, ayt-chi, kimni yuragingga tugding. Harna oyog'i izli-qutli bo'lsin...

Bola Baxshi Tursunoy borasida, uning boshqalarga o'xshamagan go'zalligi to'g'risida to'lib-toshib gapirib berdi. Onasi o'g'lining so'zlarini yuzlarini o'zgartmay, quvonchli jilmayib tingladi. Lekin Tursunoyning nomi ilk bor tilga olinishi bilan bu sevgining oxiri voyligini, o'g'lini esa bu ishq savdosidan qaytarishning o'ziga nihoyatda og'ir tushishiga onaizor tushunib, unga nima desam ekan, deb aytadigan so'zini o'ylay boshladi. Bola Baxshi so'zini tamomladi. Umid bilan onasining yuziga boqdi.

Ana shunday masalalarda onaning o'z bolasi ko'nglini o'ksitmaslikka harakat qilishini hamma biladi. Bola Baxshining onasi ham hozir bolasini ranjitmaslikning ilojini topsa, o'zini baxtiyor deb hisoblagan bo'lardi. Ammo u qanchalik qiyin bo'lmasin, o'z istaganiga qarshi borishga majbur bo'ldi.

— Bolam, aytganlaringni jonim bilan tingladim. Shu vaqtgacha uylanish haqida ro'yxush bermasdan kelding. Bugun esa ko'ng-

lingni ochib o'tirishing meni juda quvontirdi. Ammo menga aytish qanchalik qiyin bo'lmasin, senga bir narsani aytmasam bo'lmaydi. O'g'lim, bu ishq savdongning oxiri bo'lmaydi.

— Nega, onajon? Nima sababdan oxiri bo'lmaydi?

— Mening yurak-bag'rimni poralama, o'g'lim. Qudratilla boy odam. Biz bo'lsak g'arib va yetimmiz. U qizini bizga bergandan ko'ra yerga tiqishni ma'qul biladi.

Bola Baxshining xo'rligi kelib, tomog'i to'ldi. Birdaniga Baxshini yetimlikning, g'ariblik va tengsizlikning achchiq haqiqati changaliga oldi. Biroq ozgina yutinib o'tirgandan so'ng, dadil-dadil gapira boshladi:

— Ona, boylik bilan kambag'allikdan tashqari, odamiylik, yurak amri degan narsalar ham bor, axir! Turmush, hayot degan tushunchalarning ma'nosi faqat kimning necha ming qo'yi borligi bilan belgilanmasa kerak. Tovushim va qo'limga ko'z tegmasa, Tursunoyni och-nahor qo'ymasman. Eski ko'ylak kiydirmayman. Nega shularni Qudratilla boyga tushuntirib bo'lmaydi. Kerak vaqti u meni uyi oldida uch kecha-kunduz ashula ayttirdi. Nima, endi Tursunoy bizga kerak bo'lganida, nahotki u bunga qarshilik qilsa?! Odamlar bir-birlari bilan suyanishib yashashsa, qaytanga yaxshi bo'lmaydimi?

O'g'lining haqiqat bilan yo'g'rilgan bu so'zlari onaizorning bag'ridan o'q bo'lib o'tardi. Chunki yosh yurakning hayot to'g'risida o'z ishonchi, o'z tushunchasi bor edi. To'g'risi, shunday bo'lishi ham kerak edi. Lekin turmush, hayot bu tushunchalarga osonlik bilan yo'l bermas. Onaizorni azobga qo'ygan narsa ham shu edi. O'g'lim hali bola. Hanuz turmushdagi ko'p achchiq-chuchuklarning ma'nosiga tushunavermaydi. Unga qarasang, barcha narsa o'z-o'zidan gullab ketaveradiganday...

— O'g'lim, — deb chuqur xo'rsinib gap boshladi ona, — bolajonim, sening ko'ngling uchun men qishloq oqsoqollarini jamlab, Qudratilla boyning huzuriga yuborib ko'raman. Lekin oldindan aytib qo'yay, bu ishimizdan biror narsa chiqishiga ko'zim yetmaydi. Boy oqsoqollarimizni behurmat qilib, Ularni itlariga talatib quvar. Men ularni kaftimda ko'rganday ko'rib turibman.

— Onajon, bunday niyat bilan odam yuborish nimaga kerak?

— Men bo'ladigan gapni aytdim. Niyatimning qandayligini Xudo biladi, sen ham bilasan.

— Oqsoqollarni qachon yubormoqchisiz?

— Sen va'da bergan joylaringdan qaytib kel. Men shunga qadar odamlarning boshini jamlayman. Ular ham osonlik bilan rozi bo'lishmaydi. Nima bo'lsa-da, men ularni sen kelgunga qadar rozi qilishga harakat qilaman.

Onasining ishonchsizligi baxshining shahdini qaytargan bo'lsada, yoshullilarning boshini bir joyga biriktirmoqchi bo'lgani ruhini ko'tardi. Oldidagi qorong'i kecha nurga to'lganday bo'ldi.

Yana bir kun uylarida bo'lishib, ikkinchi kun tong saharda Bola Baxshi sherigi bilan el xizmatiga otlanishdi. Keksa g'ijjakchi bilan u ko'p qishloqlarda bo'lib, bir qancha katta to'ylarni o'tkazishdi. Ming-minglab pul to'plab, ko'pdan ko'p duolar olib, o'n to'rt kun deganda qishloqlariga qaytib kelishdi.

Qishloq yoshullilari namozjuma kuni to'planishib, Qudratilla boynikiga borishga qaror qilishdi. Juma kunigacha yana uch kun bor edi.

Bola Baxshi goh uyga kirar, goh tashqariga chiqardi. O'tirishga qarori yetmasdi. Go'yo ichini it talaganga o'xshardi. U uzoq qishloqlarda bo'lgan ikki haftasini faqat Tursunoyni o'ylab o'tkazgan edi. Keksa g'ijjakchi Bola Baxshining bu galgi ashula aytishlarini ko'rib hayron qoldi. U ustozi Xidir Baxshini emas, balki eng Usta va manaman degan baxshilardan ham ashula aytishda o'zgan edi. Bu dardli qo'shiqni kuylaganda, buning darajasiga yetadigan baxshi bo'lmas-ov deb, keksa g'ijjakchi ham boshini chayqaganini bilmay qoldi.

U sevgi ta'sirida ochilgan gulday bo'lib yurar ekan, kunning botishiga yaqin uy to'riga o'tib, oldiga bir choynak choy oldi. Choyni ichib bo'lar-bo'lmas, shoshilib tashqariga chiqdi-da, janub tomondagi kanalga tomon tez-tez yurib ketdi. Ko'prikning ustiga chiqib, yashirincha ish qilayotgan odamday to'rt tomoniga qarab oldi. Keyin kichkina kulbaning oldiga bordi. Qo'lbola supaning ustida turgan belqovoqni ko'rib, sovg'a olgan boladay quvonib ketdi. Ichkaridan uzun oq soqolli, katta telpakli, baquvvat Qalandar chiqdi. U Bola Baxshini yo'qotib topganday xur-

sand bo'lib qarshi oldi. Sog'-omonlik so'rashganlaridan so'ng supaning ustiga o'tirishdi.

Qalandarning ovozi tegirmon tovushi singari yo'g'on edi.

— O'g'lim, choy qaynataman. Hozir senga alohida xizmat etolmayman. Yangang tug'ishganlarinikiga ketgan...

— Ko'p yashang, Qalandar og'a! Hozir menga choy ham, non ham kerak emas. Menga faqat sizning o'zingiz kerak edingiz. Yaxshi ham uyda ekansiz. Mening hol-ahvolimni so'rang.

— Hol-ahvolingni, albatta, so'raymiz, o'g'lim. Shoshiladigan joyimiz yo'q. Qalay, borgan joylaringdan sog'-omon qaytib keldingmi?

— Xudoga shukur, Qalandar og'a. Borgan joylarimizda obodonchilik ekan.

— Shunday bo'lgani yaxshi, bolam. El-yurtda obodonchilik bo'lsa, unga yana nima kerak? Lekin hozir seni boshqa bir narsa bezovta qilayotganga o'xshaydi. Juda bezovtasan. Dilingda nima bo'lsa, aytaver, o'g'lim. Eshitay, qo'limdan kelsa, senga yordam beraman.

Bola Baxshi butun diqqat-e'tiborini bir joyga jamladi.

— Yoshulli, men sizni Xudoning yerdagi sevgan bandasi, aziz avliyosifat odam hisoblab yoningizga keldim. Siz menga yordam bermasangiz, boshqa ko'maklashadigan odam yo'q,—deb Bola Baxshi boshidan o'tkazganlarini hayajonlana-hayajonlana bir boshidan aytib berdi. Qalandar og'iz ochmasdan, uning so'zlarini jimgina tingladi. Baxshi so'zini tamomlagandan keyin ham bir necha daqiqa yerga qarab o'tirdi. Baxshining yuragida bir g'ulg'ula paydo bo'ldi. U Qalandarning ko'ngliga tegdim, uni xafa qildim, deb o'ylay boshladi. Shu sababli yolvorgansimon quyidagi so'zlar bilan fikrini yakunladi:

— Qalandar og'a, men balki sarobga tushib, yo'q narsa bilan quvlashib yurgandirman. Balki Tursunoyning noz-karashmalari, menga boqishlari bo'yi yetgan ayrim qizlarning qilayotgan navbatdagi o'yinlaridan biri bo'lishi mumkin. Men ana shu noma'lum ahvolni bilishim kerak. Ana shu yumushni ko'nglingizga olmasangiz, sizdan boshqa odam bajara olmaydi. Mening aytadigan gap-so'zim ana shu. Qolgan ish sizga bog'liq.

Qalandar har bir so'zni yo'g'on bo'g'zidan siqib chiqarganday, xirillab javob berdi:

— Bo'ladi, o'g'lim, bo'ladi. Indinga men senga u qizning javobini olib kelaman.

Bola Baxshi qalandarni bag'riga bosdi. Keyin belqovoqning ichiga bir hovuch kumush tanga tashladi.

QALANDAR BILAN YUZMA-YUZ

Quyosh botayotgan bir paytda Qudratilla boyning uyi oldiga kelib, eshakdan tushgan Qalandarni Tursunoy iziga ergashtirib, beva-bechoralar uchun mo'ljallangan mehmonxonaga olib bordi. So'ngra onasining yoniga yugurdi:

— Ona, bir qalandar keldi. Unga qanday xizmat qilish kerak?

Uyning to'rida uzoq xastalikdan shishib ketgan onasi yotgan joyida ingrana-ingrana birozdan so'ng javob berdi:

— Qalandar Xudoning aziz odami bo'ladi. Balki, uning duo-tumorlari mening dardimni yengillatar. Unga non-choy ber. Tunab qolmoqchi bo'lsa, joy solib ber. Yotishdan oldin quyuq-suyuq ovqat beringlar. Ularga ma'qul bo'lsang, armoning qolmaydi, bolam.

Tursunoy choy damlab, dasturxon olib kirganda Qalandar og'a yerga qarab, o'yga cho'mib o'tirgandi. U qizning yuziga diqqat bilan tikildi-da:

— Qizim, uyingizda erkak odam ko'rinmayapti. Boy ota biror joyga ketdilarmi? — deb so'radi.

Qiz mehmondan qo'rqmadi, uyalmadi. U uyda shunday tarbiyalangan va o'rgatilgan edi.

— Otam akalarim bilan Xiva bozoriga qo'y olib ketishdi. Ular ikki kundan keyin kelishadi.

— Sen Qudratilla boyning kichik qizi Tursunoymisan?

— Shunday, Qalandar og'a.

— Hozir tashqarida bizning so'zimizni eshitib turgan bormi?

Qizning yuragi tez-tez ura boshladi. Uning butun vujudida til bilan tasvirlab bo'lmaydigan g'alati holat yuzaga keldi. Badani titradi, barmoqlarining uchiga tikan sanchilganday bo'ldi. Qiz

Qalandarning kunbotardan to‘g‘ri o‘zlarining uylariga kelishida qandaydir bir hayron qoladigan alomat bor-ov, deb fikr qilgan edi. Uning ko‘z o‘ngida darrov Bola Baxshi namoyon bo‘ldi. Lekin el ichida yurgan bu kishi bilan Bola Baxshi o‘rtasida qanday bog‘liqlik bo‘lishiga uning aqli yetmasdi. Baribir qiz Qalandarning xavotirlanib turishidan unda qandaydir sir borligini sezdi. Tezlik bilan tevarak-atrofiga qaradi.

— Yo‘q, Qalandar og‘a. Eshitib turgan odam yo‘q. — Siringni tezroq ayta qolsang-chi, — degan ma’noda Qalandarning yuziga umid bilan qaradi.

Qalandar qo‘zg‘alib qo‘ydi. Nigohini tizzasining pastiga qaratdi.

— Qizim, unda yaxshilab quloq sol. Men Xudoning bir bandasining yumushi bilan sening oldingga keldim.

— Ha, ha, Qalandar og‘a, — deb Tursunoy oldinga surildi. — Aytavering, so‘zingizni...

— Aytadigan bo‘lsam, bunday. Bu narsa turmushda bo‘ladigan urf-odat. Shu sababli mening aytganlarimni uyalmasdan, puxta eshit. Qishlog‘imizda Bola Baxshi degan bir yigit bor. Ana shu yigit meni sening yoningga yubordi. U sening ishqingda yonib, majnun bo‘lib yuribdi. Bir necha kun oldin Qudratilla boyning qamishli qudug‘ining boshida bir parizod ko‘rdim. Shundan beri tinchimni yo‘qotdim. Kechalari uxlay olmayman, kunduz kunlari odamday o‘tira olmayman, deydi. U qiz butunlay mening aql-u hushimni oldi, deydi. U yuragidagilarni yashirmay aytdi. U parivash menga kulib boqdi. O‘zining noz-karashmalari bilan yuragimni poraladi, deydi. Meni sening oldingga yuborishining sababi shundan. U sening o‘sha jilmayishlaringning chin yoki hazilligini bilishni istaydi. Ko‘nglingning kimdaligini bilmoqchi. U bechora ishqingda devona bo‘lib yuribdi.

Agar o‘tirgan uylarining shiftida tandirning og‘zicha yangi oftob paydo bo‘lsa-da, qiz bunchalik quvonmasdi. Eng oldin Tursunoy Qalandar og‘a ustiga o‘zini otib, uni quchoqlagisi, go‘shtdor betlaridan o‘pib olgisi keldi. Keyin katta telpagini olib, ko‘rpacha ustiga qo‘ygisi, oppoq sochlarini nozik barmoqlari bilan silagisi keldi. Qizning tili hech nima demasa-da, uning ko‘zlari, qarash-

lari uning yuragidagini yuzaga chiqarib turardi. Ammo uning qizlik sharm-hayosidan chiqishi aslo mumkin emasdi. Bunga Tursunoyning aqli, fahm-farosati yetardi.

Qizning ovozi ishonchli va qat'iy chiqdi:

— Qalandar og'a, uni yuragimga ishonmasligining sababi nima ekan?

— Qiz yuragini bilish, ayniqsa, bir ko'rganda bilish juda-juda mushkul, bolam. Bola Baxshi shu yo'l bilan ish ko'rib juda to'g'ri qilyapti. Sen bundan xafa bo'lma.

— Yo'q, Qalandar og'a, men undan xafa emasman. Biroq uning mening ahvolimdan bexabarligi qiynaydi meni. Siz, u sening ishqingda devona bo'lib yuribdi, dedingiz. Men ham uning holatidaman. Eng yomoni dardimni tushunadigan, unga darmon-u malham bo'ladigan yaqinim yo'q. Baxshi yoningizga borib, ichidagini sizga bayon qilgan bo'lsa, mening bunday odamim yo'q. Jonimni ishongan yolg'iz bir yangam bor. U bechoraning ham qo'lidan hech narsa kelmaydi. Qani, endi o'ylab ko'ring-chi, kimning ahvoli qiyin ekan?

Qalandar bu qizning dilovarligiga, aqlli fikr yuritishiga qoyil qoldi. U hech mahal qiz bola bilan o'tirib, bu tarzda suhbat qurmagan edi. Hozir uning uchun yangi bir dunyo ochilgandi.

— Unday bo'lsa, qizim, men unga Tursunoyning yuragi faqat senda, uning yuragida boshqa odam uchun bir barmoqcha ham joy yo'q ekan, deb aytaverayinmi?

— Shunday desangiz ham bo'ladi. Ammo men uchun u aytganlaringiz kam, Qalandar og'a. Siz unga Tursunoy faqat sening noming va xayoling bilan yashayapti. Sensiz unga bir dam ham kerak emas, deng. Tirik bo'lsam uniki, o'lsam qora yernikiman deb aytdi, deng unga.

Tursunoy Qalandarni butunlay, lol qoldirdi.

— Endi, bu ishlarning so'ngi nima bo'ladi? Bu to'g'rida ham qandaydir fikring bo'lsa kerak? Balki, o'zing biror yo'lini topgandirsan?

— Qalandar og'a, mening bu haqda o'ylashimga vaqtim yo'q. Men faqat uning to'g'risida o'ylayman. O'zi nima istasa, qanday yo'l topsa, shuni qilaversin. Men barchasiga roziman. O'l desa

o‘laman. Arava yuborib, o‘ligimni olib ketaversin. Yasha desa, yashayman. Qochaylik desa, unga ham tayyorman. Uning biror mayliga qarshi emasligimni yetkazing.

Qalandar ichidan ofarin deb, ikki qo‘lini ko‘ksiga qo‘ydi:

— Endi, qizim, men turay.

— Siz bugun mehmon bo‘lib qolasiz, — deb Tursunoy e’tiroz bildirdi. — Avvalo, o‘zingiz uchun ham qorong‘i kechada yiqilib, turtinib-surtinib yurish yaxshi emas. Keyin shunday xabar bilan kelganingiz uchun ham, sizni mehmon qilmasdan yubormayman.

Qiz shu so‘zlarni aytgandan keyin yelib-yugurib xizmat qila boshladi. Ketma-ket issiq choy olib keldi. Turli shirin taomlar tortdi. Xiva tuprog‘ida pishgan eng sara guruchlardan palov pishirdi. Yotishdan oldin Qalandar og‘aga jundan yangi to‘qilgan to‘n sovg‘a qildi.

— Qalandar og‘a, siz erta bilan yo‘lga tushasiz. Mendan unga ko‘p salom ayting. Ko‘zim doimo uning yo‘lida ekanligini Baxshiga tushuntiring. Endi esa menga oq fotiha bering. Deydilarki, Xudoning eng aziz odami duosi yaratgan Egamga tez yetar emish.

Qalandardan oq fotiha olib, qiz xayrlashib chiqib ketdi.

Uyning ichida bir o‘zi qolgan Qalandar hali ham Tursunoyning dadil harakatlariga, dono so‘zlariga lol qolardi. U xotin-qizlarda bunday xatti-harakatlarning borligiga aslo ishonmasdi. Uning o‘ylashicha, ayol sotib olingan buyum singari uyga olib kelinardi. Keyin u buyurilgan yumushlarni bajarish bilan shug‘ullanishi kerak edi. Ayolning ham so‘zlashishga, o‘ylashga uquvi bor, degan fikr Qalandarning miyasiga hech ham o‘rnashmas edi. Shuning uchun ham Tursunoyning qiyofasi ko‘z oldida juda balandlarga ko‘tarildi.

Qalandar ertalab tong yorishgach, yo‘lga tushdi. Quyosh chiqib, kun tikkaga kelganda Bola Baxshining uyi oldida:

— Yo, haq, balo daf! — degan tovush eshitildi. Bu ovozni eshitgan Baxshi dovdirab, oldidagi yeguliklarni sochib, yugurib tashqariga chiqdi.

Ular hurmat bilan salomlashdilar. Qalandar:

— O‘g‘lim, qani, mening yonboshimda yur-chi. Sen bilan bo‘ladigan gap-so‘zimiz ko‘p, — dedi.

Bola Baxshi:

— Balki, uyda so‘zlasharmiz. Onamning ishlari ko‘p. Ikkalamiz xotirjam o‘tirib so‘zlashaylik, — deb iltimos qildi.

Qalandar rozi bo‘lmagandan keyin ikkalasi janub tomondagi soy ko‘prigi tarafga yurib, suhbatlasha boshladilar. Qalandar bo‘lgan voqealarni birma-bir so‘zlab berdi. Yigitning xursandligini hech bir narsa bilan qiyoslab bo‘lmasdi. U hozir yetti qavat osmonning tepasida olg‘ir burgut kabi qanot qoqardi...

Shu kunning ertasi Bola Baxshi ertalabdan o‘z tengqurlarini uyiga chaqirdi. Qo‘y so‘yishdi. Issiq nonlar yopildi. Qozonlarda turli taomlar pishirildi. Peshinga yaqin yetti-sakkizta qishloq oqsoqoli viqor bilan savlat to‘kib, Baxshining uyiga kirib kelishdi.

Ovqat boshidagi suhbat faqat sovchilik to‘g‘risida bo‘ldi.

— Qudratilla boy qizini Baxshidan yaxshi odamga bermaydi. Shuning uchun u bizni noumid qiloḷmaydi.

— Hey, boy og‘ziga sig‘ganini aytsin. Baxshining kuchi yetmasa, ko‘plab ko‘maklasharmiz. Boyni rozi qilsak bo‘ldi-da.

— Baxshining otasi ham yurtdan narsasini ayamadi. Biz ham uning o‘g‘li uchun borimizni ayamaymiz.

— Hoy, odamlar, yaxshi niyat bilan boraylik. Balki, ishimiz shunday ham bitar.

— Ish bitishi kerak. Savdomiz baroridan kelsin. Bola Baxshi orqali nomi tillarga doston bo‘lgan qishlog‘imizning bu farzandi hech bir yigitdan kam emas.

Maslahat uzoqqa cho‘zildi. Yoshullilarning barchasi umidni qo‘ldan bermay, o‘z fikrlarini aytishdi. Bola Baxshining onasi ham qo‘lidan kelgan xizmatni ayamadi. Nihoyat, o‘rta bilan yo‘lga tushishga qaror qilishib, hammalari uy-uylariga tarqalishdi.

Odamlar ketgandan so‘ng Bola Baxshining yuragi siqilib, bezovtalana boshladi. U jimgina o‘tirib, bo‘lgan gap-so‘zlarning hammasini eshitdi. Yoshullilarning fikr-mulohazalari unga ma’qul bo‘ldi. Birdaniga u Qudratilla boy rozi bo‘lar, borgan bu keksalarning so‘zini qaytarolmas, degan xulosaga ham keldi. Ammo sekin-asta noma’lum bir g‘am uning yuragini g‘ijimlay boshladi. Agar boy rozi bo‘lmasa, borgan odamlarni iziga qaytarib yuborsa, unda nima qilish kerak? Qiz men nima desam shunga rozi ekan. Bu yaxshi narsa. Lekin bu ishni qanday qilib amalga oshirish kerak?

Olib qochish kerakmi? Qayerga olib borish kerak? Men Qudratilla boyning qizini olib qochib keldim, desam, kim meni uyiga kiritadi? Yoki vatanni butunlay tark etib, uzoq yurtlarga ketsammikin? Unda mening orqamda qolganlarning taqdiri qanday bo'ladi. Onamning sochidan sudrab, uni el-yurt ichida masxara qilishmaydimi? Yaxshisi, men yoshullilarning olib keladigan xabariga qaray-chi? Agar ular yaxshi xabar olib kelmasalar, unda oldin onamni Axalga ketayotgan karvonga qo'shib yuboraman. Keyin Tursunoyni olib, uning orqasidan boraman...

Bu, albatta, yoshlikning botirona o'y-fikrlari edi. Onani notanish yerlarga qanday yuborish kerak? Kimnikiga bor deb jo'natish kerak? Onasi u yerda kunini qanday ko'radi? Agar olib qochish o'ngidan kelmasa, so'ngi nima bo'ladi? Ham onasidan, ham qizdan ayrilib o'tiraveradimi? Bola Baxshi hozir bular to'g'risida o'ylamasdi. Uning miyasida Tursunoydan boshqa uchun joy yo'q edi. Ayniqsa, Qalandarning keltirgan xabaridan so'ng u nima olib, nima qo'yganini ham bilmasdi.

Bola Baxshi qosh qoraygandan keyin yo'lga tushdi. Hamma uyquga ketgan payt boyning uyi tevaragiga borib, hovlini uzoqroqdan kuzata boshladi. Atrofi daraxtzor bo'lgan katta hovli oy yorug'ida uzoqdan kunduzgiday ko'rinib turardi. Lekin uy oldida hech kim ko'rinmasdi. Milt etgan chiroq nuri ko'zga ilinmasdi. Bola Baxshi ancha vaqt uy atrofini kuzatgach: Voh, shu vaqt uni bir ko'rsam edi, uning bilan ozgina so'zlashib bilsam edi deb, tarvuzi qo'ltig'idan tushib, qishlog'iga qaytdi.

SOVCHILAR

Qudratilla boy o'g'illari bilan Xiva bozoridan qaytib keldi. Kelgan kunining ertasi hech qayerga bormadi. Bolalari ham o'z uylarida bo'lishdi. Boy peshin payti boshiga uchta, oyog'iga ikkita yostiq qo'yib, mehmonxonaning to'rida chalqancha yotardi. Shu vaqt katta o'g'li kirib:

— Ota, besh-o'nta otliq yoshulli biznikiga kelyapti. Ularga nima deb javob aytishim kerak? — dedi.

Boy tirsagiga suyandi-da:

— Otlimi, eshaklimi? — deb so'radi Otasi.

— Barchasi otli.

— Unday bo'lsa, kelaversinlar, — deb boy yotgan joyidan turdi.

Ey Xudo, bular kimlar ekan-a? Nima uchun bunday to'da bo'lib kelyaptilar. Yoki da'vo-janjal chiqdimikin, deb Qudratilla boy o'yga toldi. Sovchilikka kelishdimikin, degan o'y uning kallasiga kelmasdi. U yana o'ylay boshladi: odamlarning orasidagi urush-janjallar tugamaydi. Hammasi bir-birini yeyishga tayyor. Bularning boshqa joyga bormay, shu yerga kelib turganlariga ham shukur...

Xivada savdosi pishib, ko'ngli shod bo'lib qaytgan Qudratilla boy kelganlarni ochiq chehra bilan kutib oldi. Darrov dasturxon yozildi, qaynoq ko'k choylar keltirildi. Bola Baxshining qishlog'idan kelganlar boyning bu holatini ko'rib bemalol o'tirishdi. Boy bu kishilarni, bu kishilar ham boyni yaxshi tanishardi. Shu sababli choy boshida barchaga ma'lum bo'lgan narsalar to'g'risida, yer-suv, yerdan hosil olish, bahorgi ekin ekishga tayyorgarlik haqida gaplashishdi. Bir vaqt ovqat olib kelishdi. Shirin taomlardan qorinlari to'ygach, qo'llarini yuvishdi, tishlari orasiga kirgan ovqat qoldiqlarini tozalashib o'tirar ekanlar, kelgan yoshullilarning gapga chechanrog'i o'rtaga tushgan jimlikni buzdi:

— Qudratilla boy, kech kiryapti. Sen endi bizlarning xabarimizni olsang yaxshi bo'lardi.

Boy ochiq chehra bilan javob berdi:

— Nimaga shoshilyapsizlar? Bugun yotib ketarsizlar. Hozir qish vaqti bo'lsa, yotib qolgan shoshilinch ishlaringiz bo'lmasa.

—Ko'p rahmat, boy og'a, — deb boyagi so'zga chechan odam javob berdi. — Qilgan xizmatingizga rozi bo'ling. Biz ham ertaroq bola-chaqaning oldiga boraylik.

Boy yana dedi:

— Men quruq manzirat qilayotganim yo'q.

Bu so'zga hammalari birday javob berdilar:

— Xudo yorlaqasin, boy. Quruq manzirat emasligini bilib o'tiribmiz. Ko'p sog' bo'ling.

— Unda o'zlaringiz xabarlaringizni aytaveringlar.

Gapga chechan oqsoqol so'zni uzoqlardan boshlab, ancha yaxshi gaplarni aytdi. So'ng u muloyimlik bilan asosiy masalani bayon qila boshladi:

— Boy og'a, so'zimizni muxtasar qilib aytsak, biz siz bilan qarindosh bo'lish uchun keldik. O'zingizga ma'lum, bizning Bola Baxshimiz hunari bilan yurtga o'zini tanitgan yigit. Bo'y-bastda, obro'da, o'z ishiga ustalikda, Xudoga shukur, uning oldiga tushadigan odam yo'q. Odobi, ikromi undan yaxshi. Bizni sizning oldingizga yuborganda, boy og'aga borib ayting, eshigida qul bo'lish kerak bo'lsa, men tayyorman. Uning obro'sini doimo yurtga yoyish kerak bo'lsa, unga ham tayyorman. Qalin masalasida bo'lsa, ko'nglidagini aytsin. Bir qadam orqaga chekinsam, otamning o'g'li emasman, deydi. *O'zingiz bilasiz, uning otasi ham yurt ichida taniqli, obro'li inson edi.* Xullas, u faqirning umri qisqa ekan, yolg'iz o'g'lining shu darajaga yetganini ko'rib bilmadi... Ana, boy og'a, bizning bor bo'lgan yumushimiz shundan iborat. So'zimizni tinglaganingiz, izzat-hurmat qilganingiz uchun mingdan ming minnatdormiz.

Boy yerga qaraganicha, ovoz chiqarmay jimgina o'tirardi. Uy ichiga suv sepilganday bo'ldi.

Bu mahal Tursunoy orqa tarafdagi uylar o'rtasida suruvidan adashgan kiyikday bo'lib, aniq bir joyda o'tirolmay, ish qilganday kuymanib yurardi. U kunbotar tomondan kelgan yoshullilarning *nima maqsadda kelganliklarini* darrov fahmladi. Uning butun vujudi quloqqa aylanib, odamlar o'tirgan mehmonxonaga qaratildi. Qiz u tomondan kulgi yoki g'azabli qichqiriq tovushi eshitilarmikin, degan xavotirda edi. Lekin u kutgan narsalarning birortasi bo'lmasligi qizni hayron qoldirdi. Ayniqsa, g'azabli qichqiriqlarning eshitilmasligi uning yuragida umid uchqunlarini uyg'otdi. Xivadan savdosi pishib, ko'ngildagidek bo'lib kelgan otasining birdan rozi bo'lishi ham mumkin, degan o'y uni ozgina xotirjam qildi. Rozi bo'lishsa juda yaxshi, bo'lishmasa endi men orqaga qaytmayman. Bo'ladigan ish bo'lishi kerak, deb quduq boshida qilgan qasamini esladi. Bu orada ikki tomonga qatnab, mehmonlarga xizmat qilib yurgan eng kichik akasi qizning yoniga kelib to'xtadi.

— Nima qilib yuribsan?

— Ko'rmayapsizmi, idish-tovoqlarni yuvyapman.

— Ularni nima qilasan?

— It hursa, og'ziga qopqoq qilaman.

Tursunoy bilan kichik akasi o'rtasidagi gap-so'z doimo ana shunday mehrli hazil-huzul bilan, bir-biriga teskari javob berishlar bilan o'tardi.

Akasi aftini bujmaytirib, tirjaydi:

— Anovilarning nima uchun kelganini bilasanmi?

Akasining bunday tirjayishi qizning a'zoyi-badanini titratib yubordi. U Bola Baxshi odamlariga beriladigan javobning qanday bo'lishini fahmladi. Shunday bo'lsa-da, mardlik bilan o'zini tutib, javob berdi:

— Mening kelgan-ketgan bilan ishim yo'q!

Akasi o'sha holatini o'zgartirmay, bepisand gapirdi:

— Bola Baxshi degan bir sho'rtumshuq bu qari-qartanglarni yig'ib, uyalmasdan otamning huzuriga yuboribdi. Bilasanmi, nimaga? Qudachilikka... Ha, ha, ha...

Tursunoy kichik akasi bilan bir-biriga mehrli aka-singilligini yuqoriroqda eslatgandik. Hozir, shu paytda, qiz manman, boshqalarni nazar-pisand qilmaydigan olchoq akasining bo'yniga og'irroq bir narsa bilan urishdan o'zini zo'rg'a tiydi. U tishlarini qattiq qisib, tovushini ham chiqarmadi. Ish qilayotgan kishi bo'lib turdi. Akasi ish bilan o'z yo'liga ketdi. Qiz akasining orqasidan ko'zini olaytirib qaradi. Mayli, istaganlaringizni qiling. Yo'lingizdan qolmang. Biz ham o'z bilganimizdan qolmaymiz. Endi uning qo'li ishdan butunlay sovidi. Ustini oppoq qor bosib yotgan keng maydon ham hozir uning ko'ziga tor hujra bo'lib ko'rindi. Katta ola mushugi kelib, miyov dedi. Qizning qo'liga suykaldi. Tursunoyning ko'ziga yosh to'ldi. Mushukkinam, sovqotdingmi? Och qoldingmi, deb uning orqasini siladi... Sen qolasan. Tez vaqt ichida bir o'zing yakka qolasan. Meni ko'rishga zor bo'lasan. Sening holingdan kim xabar oladi? Kim seni mushukcham deb erkalaydi? Meni hech qachon yodingdan chiqarma. Meni doimo eslab turgin deganda, marjon-marjon ko'zyoshlar beixtiyor yuzidan dumalab tusha boshladi.

...Boyning yerga qarab o'tirishi uzoq davom etdi. Uyda o'tirganlar bu jimjitlikni buzishga jur'at qilolmadilar. Qudratilla boy

nihoyat, chala yo'talib, tevarak-atrofga ko'z yugurtirib chiqqach, keskin ohangda shunday dedi:

— Mening Baxshi-paxshiga uzatadigan farzandim yo'q. Agar bor yumushingiz shu bo'lsa, unda qanday kelgan bo'lsangiz, shunday qaytaveringlar. Baxshiga ikki narsani ayting: birinchidan, u qarindosh bo'lmoqchi bo'lgan odamini o'zi tengi odamlar orasidan qidirsin. Ikkinchi aytmoqchi bo'lgan so'zim, men kelgusi oyning o'rtalarida nabiramning soch to'yini o'tkazmoqchiman. Ana shu to'yda u uch kun ashula aytib berishi kerak. Kelgusi oyda u hech qanaqa to'yga bormasin. Yurt kezib, to'y o'tkazib topadigan daromadini o'zim beraman. Mening so'zim tamom, vassalom.

Butun bir katta qishloqning ishini to'g'ri yo'lga solib yurgan yoshullilar yuzlariga urilganday bo'lib, uydan chiqdilar. Otlariga minishdi. Ketib borishar ekan, ularning ishlari pishmaganligi uchun manglaylari egarning qoshiga tegay-tegay deb ketardi. Qishloqqa kelganlarida ular jonsiz odamga o'xshab qolgandilar.

O'shandan besh kun o'tgach, Bola Baxshi boshqa kunlarga nisbatan ertaroq uyg'ondi. Kechasi bir tanishidan olib kelgan ko'rimsiz cho'ltoq otni shoshib-pishib egarladi. Uch qavat to'n kiyib, uning ustidan esa eskiroq yupqa to'n kiydi. Rangini bilib bo'lmaydigan eski telpakni boshiga qo'ndirdi-da, onasining yoniga bordi.

— Onajon, qalay, bo'ladimi?

— Kam-ko'sti yo'q, bolam. Ehtiyot bo'lgin.

— G'am chekmang, onajon. Ammo meni so'rab kelganlarga ishonchliroq bahona topib, xafa qilmasdan orqasiga qaytaring.

— Xo'p, bolam, xo'p.

Tursunoy bilan ilk bor uchrashgan vaqtni mo'ljallab, Bola Baxshi qamishli quduq tarafga otini haydadi. U bugun Tursunoy bilan qamishli quduqning boshida uchrashishni, hech bo'lmaganda u bilan bir-ikki og'iz so'zlashmoqni yuragiga tukkan edi. Uning barcha harakatlari, o'zini tutishlari dadil edi.

U ayni vaqtda quduqning boshiga keldi. Nova bo'sh edi. Quduqning chelagi ham ko'rinmasdi. Bola Baxshi ko'zlarini Qudratilla boyning hovlisidan olmay, quduq atrofida aylana boshladi. Bu paytda tovuqlarga don berib yurgan qiz quduqqa tomon qaradi. Uning yuragi gursullab ura boshladi. Qiz bu otliqning kunbotardan ke-

lishini ko'rgan zahoti suvga borishni niyat qilgandi. U hozir suvga bemalol borishi mumkin edi. Chunki uyda otasi va akalari yo'q edi. Shuning uchun ham qiz qo'lidagi bir hovuch jo'xorini tovuqlari o'rtasiga shoshib sepaladi-da, chelagini olib, quduqqa tomon tez-tez yurdi. Yo'lning o'rtasiga kelganda, u Bola Baxshini tanidi. Qiz quduq boshiga kelganda, Bola Baxshi uni shunday so'zlar bilan qarshi oldi:

— Tursunoy, parilarning sultoni, ko'zimning quvonchi. Hozir uzoq turishga vaqt yo'q. Sen mening o'yimda-fikrimda, butun turish-turmushimdasan. Yaxshilab quloq sol. Men sensiz yashay olmayman. Seni olib qochishga ham, sen bilan qo'l ushlashib o'lishga ham roziman.

U qizning o'z yoniga qo'ygan chelagini oldi-da, suv tortishni boshladi. Bu harakatlari bilan hech kimning diqqatini o'ziga tortmay, otashin so'zlarini davom ettirdi.

— Otang meni o'ziga munosib ko'rmadi. Buni bilasan. Menga ish buyuribdi. Men bu xizmatni astoydil, sen uchun joyiga yetkazib bajaraman. Mendan yaxshilik qolsin. Endi gap bunday: onamni Axalga jo'nataman. Otangning to'yi tamom bo'lgach, Xudoning yaxshi bir kuni, tun yarimda bir joyda uchrashamiz. Shu joydan seni otimga mingashtirib, yurtdan qochib ketaman. Agar, Tursunoy, jonim, sen shunga rozi bo'lsang, menga aniq so'zingni ayt. Men sening shu so'zing bilan nafas olay.

Tursunoy Bola Baxshining so'zlarini eshitmasdi. Eski-tuski kiyimning ichida kulga ko'milgan gavharday bo'lib turgan bu yigit uning bor es-hushini olgandi. Qiz bir kosa sharob ichganday mast edi. U simobday titrab turishicha, Baxshining xushro'y barmoqlaridan, farishtaday chiroyli yuzidan, kelishgan qaddi-qomatidan ko'zini ololmasdi. Agar hozir undan oting kim deb so'ralsa, Tursunoy bunga to'g'ri javob berolmasdi. U hozir g'aflat uyqusida yotgan parizodga o'xshardi.

Baxshining: Men sening shu so'zing bilan nafas olay, deyishi uni hushiga keltirdi.

— Baxshi, siz uchun o'limga ham, yurtdan chiqib ketishga ham roziman. Men tufayli qo'lingiz bog'liq bo'lmasin. Mening so'zim so'zdir, ey yigit! — dedi qiz.

— Tilingga qurbon bo'lay,—deb Baxshi chelakni suvga to'ldirib, qizning oldiga qo'ydi. So'ngra uning ko'zlariga, olma kabi qizarib turgan yonoqlariga, bilakday yo'g'on soch o'rimlariga, qayrilma qoshlariga shunday mehr bilan tikildiki, qiz bu qarashlarga dosh berolmay yerga qaradi. Yigit bu fursatdan foydalanib:

— Oldingi safar chalaroq ko'rgan ekanman. Sening yer-u ko'kda tenging yo'q ekan. Xudoyim seni menga ko'p ko'rmasin! — U shu yerga kelganda bir to'xtadi-da, keyin yana yutina-yutina so'zini davom ettirdi. — Endi men ketay. Bundan ortiq turish xavfli.

Qiz sevinganidan gangib qolgan boshini zo'rg'a ko'tarib, Bola Baxshiga qaradi:

— Yana biroz turing... Uyda hech kim yo'q.

— Men sening oldingda itday yotishga ming marta roziman. Lekin hozir mumkin emas.

Bola Baxshi armon bilan o'kinar ekan:

Xitoyi barmoqli ul nozik qo'ldan,
Tutsam o'ldirarlar, tutmasam o'lam...—

Satrlarini qo'shiq qilib aytdi. Uning ovozi asta chiqsa ham, lekin temirga urilgan kumushday toza, sof va tiniq edi. Bu satrlar qizning bag'rini pora-pora qildi. Ko'zlariga yosh keldi. Tursunoy ko'zlarini artib, yana qarayman degunicha Bola Baxshi otiga minib, qishlog'i tomon ketdi. Tursunoy ertasiga o'rnidan turolmadi. Uning a'zoyi badani o't bilan olovday edi. Bir kechada lablarini yara bosdi. Hushi ham go'yo o'zida emasga o'xshardi...

HIKOYANING OXIRI

Soch to'yiga besh kun qolganda Tursunoy o'rnidan turdi. U nihoyatda qattiq xastalangan edi. Qiz o'zini go'yo yerga aylantirib urilganday his qilar edi. Boshi aylanar, ko'zlarining oldi qorong'ilashardi. Qulog'ida esa Bola Baxshining aytgan qo'shiq satrlari jaranglab turardi. It hursa, mushuk miyovlasa, hatto birortasi baland ovoz bilan gapirsa-da, Tursunoyning jahli chiqardi. U tovushlar

qo'shiq ohanglarini eshitishga, undan huzurlanishga xalaqit berardi. Uning qulog'iga begona tovushlar eshitilmagani sayin qizning ahvoli yaxshilanib borardi.

Bu uchrashuv qizda o'ziga xos bir taassurot qoldirdi. U bu uchrashuvda yigitni xohlagancha ko'zdan kechirdi. Bola Baxshining bo'y-bastida zig'ircha kamchilik topmadi. Aksincha, oldingi ilk bor ko'rishganidan ham Bola Baxshi qizga ming marta kelishgan, mehrli va qadrli ko'rindi. Undan tashqari qizga yoqqan narsa Bola Baxshining ochiq so'zligi, tiniq fikrliligi, Tursunoyni o'z tarafiga o'tkazib olgan odamday unga ishonib so'zlashlari bo'ldi. Ana shu narsalar qizning ko'z o'ngidan hech ketmasdi. Shular sababli Tursunoy doimo ho'ngrab yig'lashga tayyor turardi. Uning tomog'i hamisha yig'i-sig'iga lim-lim to'la edi.

Qiz ham o'z tarafidan to'yga tayyorgarlikni boshladi. U kunduz kuni odamlarning ko'z oldida baxshining ashulalarini eshitish uchun dugonalaridan ajralib oldinga chiqa olmaydi. Chunki minglarcha ko'z qizga tikilib tursa, uning qo'lidan nima ham kelardi, deysiz. Kechasi, qorong'i bo'lganda bu ishni amalga oshirish mumkin. U o'shanda baxshini qorong'i joyda turgancha uzoqdan ham, yaqindan ham tinglashi mumkin. Lekin buning uchun baxshi o'tiradigan joyni aniq belgilab olish kerak. Qo'ylar turadigan og'ilxona juda o'ng'ay joyda qurilgan edi. Qiz baxshining o'tiradigan joyini taxmin qilib, uni og'ilxonadan xotirjam ko'rib o'tiradigan qilib bir nechta teshik yasadi. Keyin bahorda o'tiradigan ayvonning chala suvalgan yupqa devorining bir nechta joyini teshdi. Qizning ko'ngli xotirjam bo'ldi. U endi baxshini og'ilxonadan ham, ayvondan ham bemalol ko'rib, uning mehrli qiyofasini kuzata oladi. Qizga kechqurungi to'ydan boshqa hech narsa kerak emas edi. Tursunoy bu yumushlarni bajarib bo'lgach, nimagadir tugunlarni, ulardagi ko'ylaklarini ko'zdan kechira boshladi. Yoqasiga bezakdor naqshlar berib, turli matolardan tikilgan xilma-xil ko'ylaklarini navbat bilan kiyib ko'rdi. Yangi yasalgan taqinchoqlarini bo'yniga, do'ppisiga taqdi. Lekin ikkita ko'ylakdan boshqasini tugunlab, joyiga qo'ydi. Tanlab olgan ikkita ko'ylagini alohida joyladi.

Qiz tevarak-atrofida bo'layotgan voqealarga, to'yga tayyorgarlik ko'rayotganlarga befarq va nihoyatda g'amgin edi. U o'zini

ojiz sezardi. Qiz go'yo butun dunyo bilan mangu xayrlashmoqchi bo'lgan insonga o'xshardi. Qo'li sira ishga bormasdi. Aslida undan ish talab qilayotgan odam ham yo'q edi. Qiz noxushlangandan beri Oqqiz qo'l bilan oyoqqa aylangandi. U Tursunoyning qo'lini issiq suvdan sovuq suvga urdirmaslikka harakat qilardi. Non yopish, kir yuvish, sigir sog'ish kabi ishlarni boyning boshqa kelinlari bajarishardi. Oqqiz ba'zan-ba'zan qizning nozik torlarini chertib ko'rishga harakat qilardi. Bu bilan u qizni so'zlatib, ozgina bo'lsa-da, dardini yengillatishga ko'maklasharman, deb o'ylardi. Lekin qiz muz qotgan toshday Bola Baxshi haqida emas, balki oddiy narsalar to'g'risida ham Oqqizning yonida gapirmasdi. Oqqiz ham hech kimga hech nima demagan bo'lsa-da, Tursunoyning o'zini tutishidan xavfsirardi. U aqldan ozdimikin? Kundan kunga yomonlashib borayotganga o'xshaydi. Nima qilsam ekan-a? Onasiga yoki erimga aytsammikin? Ular nega shu paytgacha indamay yurgan eding, deb meni azoblasalar nima qilaman? Ey Xudoyim, o'zing shu qizga mehribonlik qilgaysan. U bechorani yomon ishlarga boshlamagaysan...

To'y yaqinlashgan sayin Tursunoyning ahvoli og'irlasha boshladi. Ba'zi paytlar badanida bitmas-tuganmas kuch paydo bo'lib, o'zini qo'yishga joy topolmay qolsa, ba'zan esa tanasidagi quvvatni kimdir bir narsa bilan sug'urib olganday qo'l-oyog'ini ko'tarishga ham kuchi yetmay, sulayib qolardi. Kuch kelgan paytlari Bola Baxshini otining sirtiga olib, qizning o'zi uni yurtdan olib chiqishga ham tayyor bo'lardi. Kuchi qochgan paytlari barcha narsadan umidini uzardi. Yorug' jahon uning ko'ziga qorong'i makonga o'xshab ko'rinardi. Bunday holda uzoq yashash esa aslo mumkin emasdi...

1910-yilning 7-yanvar kuni havo qattiq sovuq bo'ldi. Hamma yerni qalin qor bosdi. Daraxtlar ustlaridagi qorlarni ko'tarolmay, egilib qolishdi. Daraxt shoxlaridagi qushlar muzlab, kesakday tizza bo'yi kelgan qorning ustiga dumalab tushardi. Qoramollar ilon ko'rganday junlarini dikkaytirib, devor yo uylarning yonboshlariga g'aram qilib qo'yilgan beda, yantoq, jo'xori g'aramlariga yonboshlarini tirab turishardi. Odamlar, bola-chaqa iloji boricha tashqariga chiqmaslikka harakat qilar edilar.

Biroq bugun to'yning *birinchi kuni edi. Hamma oyoq* ustida turishi, Qudratilla boyning xizmatini astoydil bajarishi kerak edi. Shunday ham bo'ldi. Oftob chiqishi bilan to'rt tarafdan otda, eshakda, piyoda odamlar, bola-chaqa—barchasi bizga tanish bo'lgan hovli tomon kela boshladilar. Ular non yopish, qo'y so'yish, o'choq o'rnatish, baxshi qo'shiq aytadigan keng maydonni tayyorlashga kirishdilar. Hovli oldidagi maydonga bir necha ming odam sig'ardi. Avval o'sha yerni tekislab chiqishdi. Keyin supurib-sidirib qordan tozalashdi. O'rtasini mo'ljallab yer o'choq qazdilar. Qiz esa baxshining o'tiradigan yerini bilganidan keyin o'zi yasagan teshiklarni tekshirib ko'rdi. Ixlos bilan qilingan ish joyiga tushgan edi.

Quyosh chiqib, daraxtlar bo'yidan baland ko'tarilgach, yaxshi bezatilgan saman otning ustida olg'ir lochinday bo'lib, Bola Baxshi ham yetib keldi. G'ijjakchisi ham yonida edi.

Baxshi bu fursatni har damgidan ham zo'r zoriqish bilan kutgan edi. U oldinlari qizning qishloqlariga yaqin yerlarda qo'shiq aytishni istagan bo'lsa, *endi Bola Baxshi Tursunoyning uyida ashula* aytishga kelgandi. Biroq baxshi Qudratilla boyning rad javobini esidan chiqarmagandi. Boyning yoqasidan tutib, uni yer bilan yakson qilishga ham tayyor edi. Ammo bu to'yda bor hunarini ayamay qo'shiq aytishni diliga tukkandi. Baxshi bugun uzoq qish kechasi bilan Tursunoyning yonida ashula aytishi, uning har bir so'zi esa qizning qulog'ida jaranglashi kerak edi. Bu baxshi uchun katta baxt edi. Ana shu baxt ham unga kuch-quvvat berardi. Bola Baxshi kelib, hech narsa bo'lmaganday Qudratilla boy bilan ixlos-la salomlashdi. To'y bilan boyni qutladi. Boy ham go'yo hech nima bo'lmaganday sog'lik-omonlik so'radi va uni baxshi uchun maxsus tayyorlab qo'yilgan uyga taklif etdi. Olov yoqilib, dasturxon yozildi. Dastyorlar darrov choy-non olib kelishdi.

Peshinga yaqin kutilgan mehmonlarning barchasi keldi. Uy oldidagi maydon odamga liq to'ldi. O'rtaga olov yoqilgandan so'ng u yerga baxshini chaqirishdi. Bola Baxshi burgutday to'rt tomonga qarab g'ijjakchisini ergashtirib, unga atalgan joyga borib o'tirdi. Qo'shiq aytish boshlandi. *Kunduzgi ashula shunchaki nomiga* aytilgan qo'shiqqa o'xshardi. Uni odamlar tinglashardi, lekin kech-

qurungi ashula singari diqqat bilan eshitishmasdi. Yig'ilganlar o'zaro suhbatlashardi, u-bu ishlari to'g'risida tashvish qilib yurishardi. Baxshi esa faqat uni diqqat bilan ko'rinmasdan tinglab o'tirgan aziz insoniga yetkazish uchun har bir so'ziga alohida ma'no yuklab kuylar edi. Bola Baxshi ikki soatcha ashula aytgach, pahlavonlar kurash tushishdi, ot choptirildi, mehmonlar mehmonxonalarga bo'lindi. Kechqurungi ashula kun botgandan sal keyin boshlandi.

Kunduz kuni mehmonxonalarda dam olgan mehmonlar o'zlari tushgan uy egalari bilan to'yxonaga kelib, oldindan belgilab qo'yilgan yerga joylashdilar. Quchoq-quchoq saksovul ko'tarib olgan yigitlar o'tinlarni lovullab turgan olovning ustiga tashlashardi. Kichkina choy idishlarning soni ellikdan oshdi. Ular birpasda qaynardi. Damlangan choylar ketma-ket mehmonlarga berilardi. Baxshi ham qo'shiq aytishni boshladi.

Avvalo past ohang soz bilan yo'g'rilib, odamlar orasiga suvning qumga singishi singari tarqala boshladi. Vaqt o'tishi bilan dutor va g'ijjakchining torlari baland yangrab, Bola Baxshining ovozi yana yuksakliklarga ko'tarila boshladi. Ikki soatcha ashula aytilgach, bir basavlat yoshulli o'rtaga chiqib, baxshining oldiga katta oy suratli ro'molini yoyib qo'ydi.

Baxshiga pul tashlash boshlandi:

— Omon o'g'li qoracha to'rt chervon!

— Qurbon burun bir bo'taloqli tuya!

— Ahmad sariq bir qo'zili qo'y!

— Safar yog'lining o'g'li o'n botmon bug'doy!

— Durdi alasha besh chervon! — deb aytilgan so'zlar ashula, qo'shiq satrlarining orasidan eshitilib turdi. Bola Baxshi jo'shib qo'shiq aytardi, yoshullining tovushi ham uzilmasdan davom etib turdi.

Tursunoy oldin og'ilxonaga bordi. O'zi yasagan teshiklardan Bola Baxshining dutor chalayotgan nozik, kelishgan barmoqlarini, suvday to'lqinlanib turgan telpagini, qizning nigohini o'ziga tortib turgan chiroyli qiyofasini uzoq kuzatdi. Qiz baxshini kuzatar ekan, yuragi tez-tez urardi. U goh o'tirar, goh o'rnidan turib ketardi. Keyin u bahorgi ayvonga chiqib, baxshini yaqinroq masofadan eshita boshladi. Tevarak-atrofidagi dugonalarining ayrimlari

qizning holatini ko'rib, hayron qolishardi. Lekin uning o'ziga hech narsa deyishmasdi. Uning atrofidagi boshqa qizlar esa Bola Baxshining kelishgan qomati va chiroyli qiyofasiga oshiq bo'lishib, Tursunoyni ham, boshqa narsalarni ham esidan chiqarishgan edi.

Baxshiga sovg'a-salom berayotganlarning nomini aytib yurgan gavdali oqsoqolning ovozi kamroq eshitila boshladi. Keyin butunlay eshitilmay qoldi. Shu vaqt baxshiga choy tutib, boshqa xizmatlarni ham bajarib yurgan yoshulli odamlarga qarab:

— Dostonga o'tilsa, qanday qaraysizlar? — dedi.

— Juda yaxshi taklif!

— Rozimiz, doston eshitaylik!

— Qaysi dostonni eshitishni istaysizlar?

— Baxshining o'zi aytaqolsin!

— Men xizmatingizdaman. Qanday dostonni xohlasangiz, o'shani aytaman.

Ko'pchilik orasidan:

— Najab o'g'lon! Najab o'g'lon!.. — degan tovushlar eshitildi.

— Odamlar, tinglang unda najab o'g'lonni! — deb Bola Baxshi dostonni boshladi.

Yig'ilgan xaloyiqning ko'zi, qulog'i, butun vujudi o'rtada yangi tug'ilgan oy singari tevaragiga go'zal qo'shiq, yoqimli ohanglar orqali nur tarqatayotgan Bola Baxshiga qaratildi. Shu atrofda Tursunoyning ham qo'shiq eshitib o'tirganini his qilgan baxshining kuylashini hech nima bilan qiyos qilib bo'lmasdi. Muxlislarning ko'pchiligi doimo tinglab yurgan baxshilarida qandaydir bir ko'tarilish paydo bo'lganini sezdilar. So'zlashmay bir-birlarining yuzlariga ma'noli qarab oldilar. Baxshi esa jo'shib kuylardi. U qizishib, baland ohanglarda qo'shiq aytardi.

Qizning tinchligi buzildi. U uyga kirdi-da, tugunlarning ichiga solmay, alohida qo'ygan ikki ko'ylagini olib, qo'ltig'iga qisdi. Keyin esa bahorgi ayvonga qaytib keldi. So'ngra kelin-qizlarning orasidan Oqqizni topib, bir chekkaga tortdi.

— Yangajon, yaxshi-yomon gap aytishgan bo'lsak, ko'nglingizga olmang.

Oqqiz ilon chaqqanday sakrab tushdi:

— Bu nima deganing, jonim?

— Eh, yuragim qisib boryapti. Yangamni bir ko'ray dedim-da.

Oqqiz bu javobga ishonmadi:

— To'g'risini gapir, jonim. Meni aldama.

Tursunoy g'amgin jilmaydi:

— Men sizni aldamayman, yangajon. Sizni yaxshi ko'raman. Mening aytganlarimga ishonavering. Mayli, endi siz ishlaringiz bilan bo'lavering. Men biroz baxshini tinglayman.

Oqqiz g'amgin ohangda dedi:

— Jonim, shu baxshi boshingga yetmasa bo'ldi, sening!

— Yetmaydi, yangajon. U yaxshi odam...

Qiz yana ayvonga keldi. Birpas baxshining kuylashiga quloq solib turdi. Birdan uning vujudi yengillashdi. Fikrlari oydinlashdi. Ruhi ko'tarildi.

Xuddi shu payt Bola Baxshi ham dostonning o'rtasidan o'tdi. U g'ijjakchiga imo qildi-da, uni qo'shiqqa jo'r etib, "Bu dardni" degan qo'shiqni aytishga kirishdi. Yig'ilganlarni yoqimli, ammo g'alati bir kayfiyat chulg'ab oldi. Lekin hech kimdan sado chiqmasdi. Hech kim gap nimadaligiga tushunmasdi.

Baxshi boshidanoq qiyoslab bo'lmaydigan baland, shirali ovoz bilan shu satrlarni muxlislariga baxsh eta boshladi:

Sayr ayladim, kezdim ishqing tog'idan,
Ne balodir, kim chekar, bas, bu dardni?
Ishq tog'in ossalar ko'kning bo'ynidan,
Ko'k titraydi, ko'tarolmas bu dardni.

Tursunoy bir-ikki qadam oldinga surildi. Dugonalarini qo'llari bilan bir chetga surib, yana uch-to'rt qadam oldinga yurdi.

Bola Baxshi qo'shiqning ikkinchi to'rtligiga o'tdi:

Ishq asar etmasa yonmas chiroqlar,
Ishqqa tushsa, bo'ri ingrar, qush yig'lar.
Egilar haybatli, quvvatli tog'lar,
Toshlar erir, cheka bilmas bu dardni.

Odamlar nima bo'lsa-da, biror hodisaning yuz berishidan xavotir qilganday sergak torta boshladilar. Chunki baxshining bu xildagi qo'shiq aytishi kutilmagan bir holat edi. Bola Baxshi bosh-

qarib bo'lmaydigan asov otning ustida o'tirgandek o'z ixtiyorini qo'ldan chiqazgan edi. Hech bo'lmasa, dostonning orasida o'z sevgimni yana bir bor anglatay degan maqsad bilan u yurt ichida asrlar davomida urf bo'lib kelayotgan chegaradan chiqdi. Uning maqsadi ushbu qo'shiqni aytib, o'z xayolida Tursunoy bilan gaplashib, so'ngra dostonni davom ettirmoqchi edi.

Baxshi shu choqqacha ko'rilmagan ko'tarinkilik bilan:

Kimdir ishqning yukin tortgan mardona! —

deb, qo'shiqning uchinchi bandini boshlaganda, bahorgi ayvon tarafdan:

— Men shu ishqning yukin tortgan mardona! — degan ayol kishining tiniq ovozi eshitildi. Bu tovush quloqlariga yetgan keng maydondagi odamlarning yelkalariga igna sanchilganday, jimirlab ketdi. Shu payt bahorgi ayvon tomondan qizil olov singari bir qiz o'rtaga chiqdi. U hech kimga va hech tarafga qaramasdan to'g'ri Bola Baxshining yoniga keldi:

— Men shu ishqning yukin tortgan mardona! — deb, qizil gulday yal-yal yashnab o'zini baxshining bag'riga tashladi. Kishilar duv etib o'rinlaridan turishib, baxshi tomonga surildilar. O'sha onning o'zida:

— Qo'llaringdan nima keldi, haromzodalar! — degan qichqiriq xaloyiqning tepasida yangradi.

Bu tovush Qudratilla boyning o'g'illariga qarata nafrat bilan barala aytilgan haqoratomuz sas edi. Ketma-ket uch marta o'q ovozi eshitildi. O'qlar Bola Baxshining oldidagi choynak-piyolani, qo'lidagi dutorini g'ijjakchining g'ijjagini tilka-pora qildi. Odamlar boyning o'g'illarini tutib, qo'llaridan miltiqlarini oldilar. Kunbotar tomondan eshitilgan miltiq ovozi ikki odamni yarador qildi. Uni ham darhol tutishdi. Kishilar baxshi bilan qiz halok bo'lgan bo'lsa kerak deb, afsus qilishib, bir-birlarini turtishib, oldinga intilishdi. Biroq Bola Baxshi bilan Tursunoy bir-birining qo'llarini tutishib, xaloyiq oldida bayroq kabi bo'y-bastida tikka turishardi.

Turkman tilidan Masharif Safarov tarjimasi

NOBATQULI REJEBOV

(1946)

1946-yili Mari viloyatining Yo'lo'tan tumanida tug'ilgan. Turkman davlat universitetining chet tillar fakultetida o'qigan. O'rta maktabda nemis tilidan saboq bergan.

"To'qmoq", "Sovet adabiyoti" jurnallari, "Turkmenistan" nashriyoti hamda O'g'izxon nomidagi "Turkmenfilm" uyushmasida ishlagan.

Adibning "Tuproq ta'mi", "Yulduz dog'i", "Ajoyib dunyo", "Yam — yashil qor", "Faqat sevgi haqida", "Jamshidning jomi", "Ko'p ismli bola" kabi kitoblari chop qilindi.

"Gadoy baxshi", "Chuval baxshi", "Bolli mulla", "Tushdagi qizni izlab" kabi dramalari, "Jahon jo'mardi", "Haqiqiy oshiqlar", "G'irot", "Och bo'ri" kabi komediyalari sahnaga qo'yilgan.

Adib ssenariylari asosida badiiy filmlar suratga olingan.

Nobatquli Rejebov M. Servantesning "Lamanchlik Don Kixot" romanini turkman tiliga tarjima qilgan.

OLISHUV

Qaydandir qalbiga kirgan g'alayonning dovli Maxtumqulini betoqat qilardi. Yog'maydigan qisir bulutlarning ko'k yuzini burkayishi kabi bu dovul kundan kun kuchayib, keng dunyosini torga aylantira boshladi. U kuni kechagina mushuk bolasini cho'l biyobonga eltib adashtirib kelgandek chekkadagi ekinzoriga borib yuragidagi bu xavotirni biroz bo'lsa-da unutgandi. Choponini yechib belini tang'ib peshonasiga ham qiyiq bog'lab, ketmon urib, palak orasida shivirlashib yotgan qovun jo'yalarini o'tab xumorini yozgan, achchiq terini chiqargandi. Bo'z tuproqli maydonda uning shahdi ochilib, ko'ksiga yel tegdi. Ammo kechqurun otiga mi-

nib qishloqqa qaytishi bilan adirlarni tuman bosgani kabi ko'ngli yana qorong'ulashgandi. U na o'qib, na yozib na bir joyda o'tirib bilardi.

U qalbidagi g'alayonning bekorga emasligini, qudrati kuchli Bir-u bor unga nimanidir oldindan tuydirmoqchi ekanini sezardi. U bu alomatning nima ekanini bilolmay hayron edi. Maxtumquli ichidan: "Qushlar to'fon turishini oldindan payqaydilar, chumolilar nogahon keluvchi seldan boxabar bo'lishadi, itlar o'z egasining boshiga balo kelishini sezishadi deya ey g'ofil banda nahotki sen odam bo'la turib seni kutayotgan xavf-xatarni oldindan sezmasang. Hayf senga jumla olamning toji degan balandparvoz nom", dedi. Dastavval u bu xijillikni Oynur onasi bilan bog'lamoqchi bo'lib ko'rdi. Bundan to'rt-besh kun burun Chondirdan Oynur onasining vafoti haqida xabar kelishi bilanoq Salim Maxtumquli, O'rozgul ona, O'g'ilshakar ona, Qinish beglar birgalashib Chondirga borgandilar. Maxtumquli o'tirib-turib bir joyda qaror topa olmayotgandi. Ulardan oldin Mammatsafo va Jonomonlar ham Oynur onadan xabar olishga ketdilar. Maxtumqulini Nurjahon enasi yubormagandi o'shanda. Oynur enasi uni barcha azizlardan azizroq, Maxtumquli ham uni shunchalik e'zozlasa, yaxshi ko'rsa-da Chondirga borgisi yo'q edi. To'g'risi, oyog'i tortmayotgandi. Shunday qilib yana ikki kun o'tdi. Uchinchi kuni xonasiga sig'magan Maxtumquli kun tushdan og'ganda tashqariga chiqdi. Yozning charog'on quyoshi ko'zini qamashtirganidan o'ng qo'lining panjasini ko'ziga soyabon qildi. Yozning issiq havosida ayron ichib "jon saqlayotgan" Nurjahon ena oq tolning quyuq soyasida o'tirgandi. Maxtumquli uni ko'rib bir jilmaydi-da:

— Ena, enajon Oynur onamni ko'rgim kelib yuragim depsinayotibdi. Men ham Chondirga borsam maylimi? — dedi.

— Oh bolam-a, men seni Mammatsafo bilan birga yubormoqchiydim.

— Ena, borayin, enajon yubora qoling!

— Bolam Salim dadang bilan onang biz kelgunimizcha Maxtumqulini hech yerga yubormang deb topshirib ketdilar, axir. Yoki sen qari enangga koyinchli gap eshittirmoqchimisan?

Maxtumquli yana jilmaydi.

— Enajon, naslimizning shohi ham o'zingiz, sultoni ham o'zingiz. Sizni koyish u yoqda tursin, qayrilib qarab bilar mard bormi?

— Salim dadang-chi, unga farqi yo'q kim bo'lishingning.

— Enajon, Salim dadamga ham bir xo'mraysangiz bir hafta ko'zingizga ko'rinmasdan yuradi! Yubora qoling.

Shu mahal bo'lmas ish bo'ldi. Tablaxonaning yaqinidagi qari tutga bog'langan Ajdar tumshug'ini ko'kka tutib ayanchli uvulladi. Maxtumquli yalt etib enasiga qaradi. Enasi esa ko'zlari bejo Maxtumquliga qaradi. Oraga jimlik cho'kdi. Nasldor itning ayanchli uvullashi quloqlaridan ketmadi. Ko'ppakning uvullashi yomonga yo'yildi. Buning ustiga tablada turgan Saqarqush uch marta ayanchli kishnadi. Bu ikkalasi bir bo'lib Maxtumquli va enasining yuraklarini larzonga keltirdi. Inson kabi sezgir bedov otning usti ustiga ayanchli kishnashi bir baloning alomati edi.

— Ena men borayin.

— Borsang boraqol, ammo yoningda Changli bilan Xoliqni ham ola ket. Yolg'iz ketuvchi bo'lmagin.

Maxtumquli "Xayr" deb yugurib uyga kirdi-yu, bir bo'lak nonni ro'molga o'radi, ertapishar olma bilan shaftolidan bir-ikki dona olib xurjunning bir ko'ziga soldi. Ajdar mung'aygan holda Maxtumqulining oldidan chiqib unga suykanmoqchi bo'ldi. Egasining unga qaramayotganidan jonivor nochor g'ingshidi. Maxtumquli Ajdarning bu bo'lishiga ajablanib uning yonida cho'kkaladi va yuzlaridan silab to'g'ri ko'zlariga boqdi. Ajdar bo'lsa bezovtalanib Maxtumquliga nimanidir tushuntirmoqchi bo'lib termilardi. Ammo qani uni tushunib biluvchi Sulaymon? Maxtumquli otiga minib enasi bilan yana bir marta xo'shlashdi va yo'liga ravona bo'ldi. Nurjahon ena bo'lsa uning orqasidan yana Changlini ham olib ket deya ta'kidlab qoldi. Maxtumquli bir nafas otini to'xtatib zanjirga tashlanib uni uzay deyayotgan itni ham o'zi bilan olib ketmoqchi bo'ldi. Ammo yot qishloqda yot itlar bilan talashishi ko'z oldiga kelib fikridan qaytdi. Changlinikiga borganida u Xoliq bilan birga ovga ketgan ekan. Maxtumquli Allohni yodlab "Yolg'izning yori Xudo" deya Chondir tarafga ot surdi. Ketgan tepaliklar go'yo yoz issig'iga chidamasdan hansirab, bir-birlariga suyanishib yotardilar. Ertalab o'zlarining daroz bo'ylariga kerilgan soyalar archalarning

oralariga berkindilar. Ko'kda uchib kelayotgan qop-qora bir qush shiddat bilan pastga qaytib o'z ko'lagasiga bekinmoqchidek edi go'yo. Bo'z to'rg'aylar bo'lsa ko'k yuzida qanot qoqib o'z tanasini yelpirdi. Maxtumquli yana bir-ikki soatdan so'ng bir necha kunlab o'ziga tinchlik bermagan ko'ngil bezovtaligiga ham, zanjirni uzay deb sakragan Ajdarning jovdiragan ko'zlari bilan nima demoqchi bo'lganiga ham, Saqarqushning nima uchun ayanchli kishnaganiga ham tushunib yetar. Ammo unda kech bo'ladi...

* * *

Bir haftadan buyon Hojigovshan qishlog'ining shimolidagi to'qayzorda goh Shonazar, goh O'rozali baland archa daraxtining tepasiga chiqib qishloqning shimoliy tarafini kuzatishardi. Goh Shonazar, goh O'rozali ov ovlab qonxo'r Mujavirning ko'nglini ham ovlardilar. Mujavir bo'lsa olisda, to'qayning qalin yerida yeb-ichib kuzatuvchilarning xabarini kutardi. Ayg'oqchilar Salim Maxtumquli guruhining o'tib ketganini ham, undan uch kun o'tganidan keyin esa Mammatsafo bilan Elomonning o'tib ketganini ham ko'rdilar.

Bir mahal Mujavir qornini to'yg'azib, usti-ustiga sharbat ko'targan, vaqti xush, taxtirni yel yetaklagan Sulaymonga do'nib o'tirgan mahali O'rozali ot choptirib kelib qoldi:

— Baxtimiz keldi, ishi qaytganning yolg'iz o'zi kelmoqda.

— Ajali yetgandir-da manglayi qoraning, oving og'zingga keldi desang-chi! Hoh-hoh-ha!

Maxtumquli tog'dan engan chashmaning bo'yiga kelib otidan tushdi va Saqarqushni suvga qo'yvordi. Ammo shunga o'rganib qolgan Saqarqush egasining hushtak chalishini kutdi. Baland tog' boshidan qaytgan chashma boshi tumanli tog'larning qo'shig'i, hayot qo'shig'i, jonli-jonzotning, o't o'lanlarning joni. Maxtumquli hali tog'larning uzun chashmasini arqon tortgandek sug'urib oladi, darg'azab bo'lib tog' so'qqilarini suradi, adirlarni ko'tarib tog'larga kiydiradi. Hozir esa u sevardi. U:

— Ey suv og'a! Haqning diydorini ko'rgan chashma! Men g'aribga Bir-u borning diydorini ko'rsat, — deb suvga nazarini tikdi. Ilohiy qudratni ko'r, suv yuzida Mangli qizning suvrati unga boqib

jilmayib turardi. Maxtumquli atrofiga qaradi. Hech kim yo'q. Faqat chashma yuzida Mangli qiz unga boqib noz qiladi.

— Manglixon, men chashmaga Haqning diydorini ko'rsat dedim, u esa seni ko'rsatdi.

— Dunyoning Xudosi ishqdir, buni bilmasmisan Maxtumquli?

Maxtumquli chashmaga boqib ko'p turdi. So'ngra ikki qo'lini chashma labiga tiragan holda yotib undan suv ichmoqchi bo'ldi.

— Manglixon, hozir men seni sharabi antahur kabi simirmoqchiman. U suvdan qonib o'rnidan turdi... U xayolida Mangli bilan gaplashib, Saqarqushga mindi-yu, yana yo'lga tushdi. Salgina yurib u Chondir qishlog'iga boradigan yo'lning boshiga yetdi. Katta yo'l qorong'i to'qayni yoqalab o'tgandi. Kichkina so'qmoq esa to'qay ichkarisidan o'tar. Maxtumquli so'qmoqdan yursa, qishloqqa bir-ikki soat ilgariroq yetib borishi mumkin. Ammo u so'qmoqdan deyarli odam qatnamas, xavf-xatarga to'la edi. U "Egri bo'lsa ham yo'l yaxshi" deb otining boshini yo'l tarafga burdi-yu kuppa-kunduz kuni to'qaydan o'tishga qo'rqayotgani uchun o'zidan uyalib ketdi. U so'qmoqqa tushib otining sag'risiga urib qo'ydi. Shu vaqt uning yodiga sakkiz-to'qqiz yoshlarida bo'lib kechgan bir voqea tushdi:

— Mammatsafo, Jonomon, Maxtumquli uchalasi qirda ekilgan qovun-tarvuzlar yetishgan mahali ekin boshida qolgandilar. Kechasi qovunchining chaylasida ertak aytishdilar, jin-arvohlik rivoyatlardan so'ylashdilar. Suhbatning oxiri qo'rqoq va botirlikka borib taqaldi. Shu yerga yaqinroq yerda eski qabriston bor edi. Qur'a tashlashib qur'ada qolgan bola o'sha qabristonni aylanib berisidagi yo'ldan yonlariga kelishi kerak edi. O'shanda qur'a Maxtumquliga tushgan. U esa qo'rqoq nomini olmaslik uchun tun qorong'usida qabriston taraf borarkan: "Nimaga qorong'udan qo'rqishim kerak? O'sha kunduz kuni ko'rgan yerlarim-ku", deya o'ylanib ketayotganida birdan oldida oppoq kiyimli bir narsa turganini ko'rib qo'rqib ketdi. Uning xayoliga o'liklardan birortasi kafanga o'ralib go'rdan chiqib turgandek tuyuldi. U xayolan: "Qichqirib ko'rayin, u qochmasa men o'zim qocharman", deb o'ylandi. U qichqirgan zahoti oldidagi narsa qo'rqqanidan shataloq otib qochib qoldi. Maxtumquli uning odam ekanini, uning qichqirig'idan qo'rqib qochganini

bilib "Qo'rqma, men Maxtumquliman!" deb izidan chaqirdi. Qabristondan kelgan yosh bola sasini eshitgan bechora oldingisidan ham chaqqonroq qochib ko'zdan yo'qoldi. Dunyoda birinchi bo'lib o'z ovozidan ham o'zib ketdi. Ertasiga Shixim Harpiqning qabriston yonida jin bilan to'qnashib tildan qolganini, ko'rpa-to'shak qilib yotib olganini aytishdilar. Bir-ikki hafta og'ziga uchuq toshib, qozon qorasidan ichib, Salim pirga ish bo'lib yotgan Shixim Harpiq o'rnidan turganidan keyin qabriston yonida jin bilan olishganini, undan ustun chiqqanini aytib maqtanib ham yurdi.

To'qay borgan sari qalinlashar, so'qmoq ham nari-beri bilinardi. Birdan Maxtumqulining qulog'iga qo'shiq ovozi eshitildi. Avvaliga ko'nglimgadir deb o'ylagan Maxtumquli bu sasning xayolda emasligiga amin bo'ldi. U izidan kelayotgan odam ovozini baland qo'yib qo'shiq aytib kelayotganini bilganidan keyin otining jilovini tortdi. Qo'shig'ini tamomlagan piyoda Maxtumqulining izidan yetdi. U Mujavirni sira ko'rmagandi. Ammo uning sifatlari odamlarning og'zida yurgan sifatlarga o'xshashligidan o'sha bo'lsa kerak deb o'yladi. Ammo shunday qonxo'r shunday ajoyib qo'shiq aytib biladimi, bu Mujavir bo'lmasa kerak deb o'ylagan holda unga salom berdi.

— Hoy o'g'lon, qaydan kelib qayga borasan? Maxtumqulining qoshlari chimirilib, yuzi o'zgardi. Shunda Mujavir o'z xatosini tushundi.

— Hoy bek yigit, qaydan kelib, qayga borasan?

— Hojigovshandan Chondirga borayotirman.

— Men ham Chondirga borayotirman, Hojigovshan deganing mavlono Davlatmammatning qishlog'i emasmi?

Maxtumquli bosh silkidi.

— Voh, unda sen Maxtumquli shoirni ham tanisang kerak?

— Taniyman.

— Maxtumquli necha yoshlarda?

— Men bilan teng.

— Sen bilan teng?

— Maxtumqulining qo'shiqlari yuraklarni pora-pora qilib, jigar-bag'ringni ezadi, dunyongni barbod qiladi. Yosh boshi bilan shunday she'rlar yozayotgan Maxtumquli katta bo'lganida nima qilar-

kan? Bunga bir quloq os, — deb Mujavir gurzisini dutor qilib qo'shiq boshladi. Maxtumquli uning shirali ovoziga hayron qoldi.

Odamzodga aslo achchiq so'z demang,
Miskinga faqirga dalolat yaxshi.
Baxilni maqtamang, yaxshi so'z demang,
Ishing bitirmakka kifoyat yaxshi.

Yigit udir-so'zga aylasa amal,
Qo'ldan kelmas ishga qilmasa jadal.
Allohning amriga qilmagil badal,
Bekka berim, shohga adolat yaxshi.

G'ariblik bir darddir odam o'ldirmas,
O'ldirmas ham tiriklikda kuldirmas.
It ham ozg'inligin qurtga bildirmas,
Albatta dushmanga siyosat yaxshi.

Maxtumquli shukur shirin til berdi,
Shajarlar ko'karib samar gul berdi.
Go'ro'g'li Rayhonga nechuk yolvordi,
Odamman deganga diyonat yaxshi.

Mujavur:

— Yosh bolaning aytib biladigan gaplarimi bu hikmatlar? — deya unga nazar tashlab yana, — Maxtumquli ham biz kabi odam bolasimi? Allohga qasamki uni valiy deganlari rost bo'lsa kerak. Mujavirning shirin ovoziga bandi bo'lgan Maxtumquli:

— Agar shu odam Mujavir bo'lsa, u haqdagi gap-so'zlar tuhmat. Agar haqiqatdan ham u bo'lsa, u o'z ichida shirin ovozli baxshini ham o'ldiribdir, o'zini ham o'ldiribdir, — deya o'yladi. Maxtumqulining yuragi gursullab urib ketdi. Buni qarang buyuk Bir-u bor necha kundan buyon uni kutayotgan xavf-xatarni tuydirmoqchi bo'lib qalbiga dovul soldi, alomat berdi. Xom sut emgan yigitcha esa buni bilmagan ekan. Mujavir bo'lsa ikkinchi qo'shiqning ichkari olamiga kirib Maxtumqulining she'rida bayon qilingan nar-

salarni o'z ko'zlari bilan ko'rgan kabi qo'shiqni avjiga chiqarardi. Maxtumquli uning badro'y basharasida qonxo'r bilan tuyg'ur baxshini ajratolmay qoldi. Bir gavdada ham qonxo'r, ham baxshi.

Shunga yetibdir aqlim,
Kesilar yetti iqlim.
Yer bo'lar buklam-buklam,
Eriydi, tog'lar qolmaslar.

Mujavir qo'shiqni tamomlab:

— Hay Maxtumquli, balli! Dunyoda ikkita dono bo'lsa, biri Maxtumqulidir. Agar dunyoda dono birgina bo'lsa o'sha Maxtumqulidir.

Bunga bir qara:

"Na yer qolar na yurtlar,
Na turk qolar na kurdlar".

Ha-ha-ha! Agar qiyomatda kurd ham qolmaydigan bo'lsa Xudoning odilligi ham, qiyomatning dahshati ham chin, — deb u yana qo'shiqning olamiga kirdi. Daraxtdan daraxtga panalab, Maxtumqulining o'ldirilishini tomosha qilish uchun izma-iz kelayotgan Shonazar:

— Mujavir Maxtumquliga qo'shiq bilan, unda ham o'z qo'shiqlari bilan janoza o'qimoqda, — deb sherigiga pichirladi. Mujavir qo'shiqni tamomlab yonidagi meshni olib sharob ichdi. Maxtumquli Mujavirga tikildi: u bu mesh kabi baqaloqning ko'zlariga tikildi. Uning cho'g'dek qa'rida esa xuddi qum qa'ridan kelayotgan ko'milgan ilon kabi ajalni ko'rdi. O'z o'zini o'ldirgan qonxo'rdan bundan boshqa nimaniyam kutish mumkin. Maxtumquli otasining soqoli bevaqt oqarganiga, Salim dadasining hamisha Jonomon yoki Changlini o'zi bilan olib yurishiga, Xoli Zamon pirning Mohinur xotinning: "Avvalo seni qudrati kuchli Alloh o'zi asrasin, ammo o'zing ham yakka-yolg'iz biron joyga chiqa ko'rma", deganlarining sababini endi angladi. Qalbidagi dovul bekorga shuncha kunlab azob bermagan ekan. Qarshisidagi odamsifat maxluq ajal edi.

Maxtumquli yashin tezligida fikrladi. U xuddi shu yerda Haqning hikmatiga uchrab tushida eranlarning qo'lidan kosa-kosa sharobi antahur ichgan. Xuddi shu yerda ham Mujavirga uchradi. Shularni o'ylab Maxtumquli biroz yengil tortdi. Qayerdadir bir yerda qudrati kuchli Parvardigor uni kuzatyapti, sinovdan o'tkazyapti. Mujavir:

— Maxtumquli, sen hayot bo'lib yurganingda balki Rumiy kabi, Hofiz kabi bo'larding. Afsus-afsus, umring tugay deb qoldi. Kuppa-kunduz kuni bulutsiz yerdan chaqmoq chaqib Maxtumqulining bor dunyosini larzaga keltirdi.

— Sen uni qayerdan bilasan? — deb Maxtumquli Mujavirning majnuntol bargidek qiyiq ko'zlariga tikildi.

— Sababi men Mujavir, o'sha qonxo'r Mujavirman!

Maxtumqulini ter bosdi. Dunyoga kelgandan buyon suyilib-siylanib kelgan yigitning g'ururiga bolta urildi. Uning qahri kelganida chakka tomirlari tortishib oviga otilajak ilon kabi sergaklanardi. Ammo farosatli yigit bu safar o'sha qahrni jilovladi. Shu fursat u hayotning naqadar shirin ta'mi borligini tuydi. U shum ajalga chap berish yo'llarini izladi. Maxtumquli qo'rquvning maskani ko'z, dovulning maskani quloq, obro'-siyosatning maskani til, urushning maskani musht, botirlikning maskani yurak, aqlning maskani bosh, xalos bo'lishning maskani oyoq ekanini yaxshi bilardi. Yollangan qotil Mujavir o'ldirishi lozim edi. Chunki bu uning kasbi-kori edi.

— Demak, sen qon borini to'kib yurgan o'sha Mujavirsan?! — uning qiyiq ko'zlariga tikildi Maxtumquli.

— Xafa qilyapsan Maxtumquli Mujavir faqat dushmanini o'ldiradi, faqat dushmanini!

— Maxtumquli senga qanaqasiga dushman bo'lsin?

— Ha-ha-ha! Maxtumquli. Sen kimgadir dushman bo'libsan. U ham mening oldimga bir xurjun pul keltirib qo'ydi. Bir xurjun tillo uchun o'g'il otasini, ota o'g'lini, og'a inisini, er ayolini, ayol erini o'ldiradi. Shunday bo'lgach, men qanaqasiga seni o'ldirmasdan bilaman?

Agar Bir-u bor uning ajalini shu maxluqning qo'lidan qilgan bo'lsa na iloj. Ammo o'ziga chaqnab turgan aql bergan Bir-u borning o'z ajalini mana shu anqovning qo'lidan qilganiga ishon-

madi. Shuning uchun yuragidagi qo'rquvni yengib mardlarcha gaplashishni, o'lsa ham mardlarcha o'lishni ma'qul bildi. Xudoga qalbi bilan inongan odam Xudodan qo'rqishi tayin. Xudoga inonmaydiganlar esa undan boshqa barcha narsadan qo'rqadilar. Umrida birinchi marta Maxtumqulining yuragiga gumon o'rladi... Shu karomatli tush ko'rgan yerimda shu maxluqning qo'lida o'lim topishim haq bo'lsa-chi? Bu g'alati fikr uning yuragidagi sinmas ishonchni, ruhidagi quvvatni larzaga soldi. Maxtumquli ko'ngliga kelgan bu gaplardan uyaldi. *Nomus qildi. Buning o'rniga ko'ksini* poralab hanjar kirsa bo'lmasmidi?

— Demak, dushmaniga qarshi chiqishdan qo'rqqan bir nomard seni yollabdi-da! Demak, sen bir nomardning qulisan-da?

— Nomardning emas pulning, tilloning quli!

— Bularning suhbatini eshitgan, ular bilan izma-iz panalab kelayotgan Shonazar bilan O'rozalining iymoni uchdi. Mujavir bularning nomlarini aytib qo'yishidan qo'rqdilar. Mastlikdan boshi aylangan Mujavirdan esa buni kutsa bo'lardi.

— Maxtumquli qani ayt qaysi ahmoq o'n ming tumandan yuz o'giradi? Ammo men adolatliman, — u orqasiga qarab ovozini pasaytirib gapira boshladi, — agar sen o'n bir ming tumanni oldimga qo'ysang men dushmanlaringning ikkalasini ham ko'z oldingda o'ldirib beraman.

— Menda dushman yo'q!

— Sening yovuz dushmanlaring bor, Maxtumquli. Uncha-muncha dushman o'n ming tuman qo'ymaydi. Mayli sen ham o'n ming tumanni qo'yaqol, men ularning ikkalasini ham oldingda bo'g'izlayman. U shum ajalning oldida Maxtumqulining, shoir Maxtumqulining past ketishini, yolvorishini istardi.

— U odamlar mening emas Xudoning dushmanlari, — Maxtumquli jilmaydi, — Mujavir sen mening boshimni olmasingdan oldin senga bir dono aql berayin. U o'n ming tumanni karmoningga ur-da, o'sha pulga odam o'ldirtiradiganlarni o'ldir. "Kasoving ko'karadi"mi bilmadim, ammo dunyoni ikkita xaromzodadan tozalaysan.

— Aqling ma'qul, ammo men oldin sening boshingni olib, seni dunyoning azobidan qutqarayin!

— Sen nima, Xudomidingki "o'ldiraman" deb takrorlayverasan!

— Ha! Hozir sening Xudoying ham, Azroyiling ham men!

— Mujavir, qani o'ng tarafingga boq-chi!

Mujavir uning niyatini bilish uchun o'ng va so'l tarafiga boqdi.

— Mujavir, o'ldir, o'ldiraver. Sen bu hayotda yashab, uylanib o'zing kabi maxluqlarni dunyoga keltirganingdan oldingga chiqqan odam bolasini o'ldirganing yaxshi!

Mujavir kinoyali kuldi:

— Gapir, gapiraver. Hukmdorlar dorga ostirayotgan odamiga ham so'nggi so'zini aytishga ruxsat beradilar. Maxtumquli, mening o'ldirgan odamlarim butun bir qabriston bo'lib yotibdi. Ularga sen kabi ot-obro'li yo'lboshchi ham kerak. "Maxtumquli qabristoni" yarashdimi? *Maxtumquli senga valiy deydilar.* Qani valiy bo'lsang, ayt-chi, men seni qanday o'ldiraman?

— Men valiylik qilib yurmaganman, — deb dushmanining ko'zlariga to'g'ri boqib ichini tingladi. — Ammo senga bir valiylik qilayin. Sening bor-yo'g'i to'rt-besh kunlik umring qolibdir. Inshoolloh o'sha qabristoningga o'zing bosh bo'lasan!

— Ha-ha-ha! Sen esa hozir o'lasan! Nasib qilsa, yetti xudoyingga Mujavirning o'zi bir qo'y yetaklab boradi. Karomatli otangning yonida o'tirib, undan yordam so'raydi. Uyingizni o'tlagan Mujavir yaxshi odam bo'ladi! Ko'rsang men erkakman!

— Erkak odam qizil o't, quroliga tayanib qurolsizga hamla qilmaydi. Erkak bo'lsang, tush otdan! Istasang, kurash tushamiz, istasang, yakkama-yakka jang qilamiz!

— Nomard dunyoning mardligi menga qolgan emas, Maxtumquli. Senga "Allohning orzulagani", "Haqning azizi", "Xudoyli yigit" deyishadi. Qani chaqir xudoyingni, payg'ambaring-u farishtalaringni, chaqir karomatli otangni.

Maxtumquli uning asta-sekin jangga tayyorlanayotganini ko'rdi. Jin kabi chaqqon Mujavir gurzisini olib Maxtumqulining boshi uzra aylantira boshladi. Yigit jon holatda engashib ulgurdi. Mujavir gurzisini qo'yib to'pponchasini olguncha Maxtumquli xurjun ichidan qo'liga ilgan bitta shaftolini oldi. "Ha-ha-ha! To'pponchaning o'qi senga gurzi emas", deya barmog'ining uchiga ildirib aylantirdi.

Maxtumquli esa fursatdan foydalanib iljirab pishgan shaftoli bilan uning lo'ppi yuziga soldi. Izli-iziga shaftoli, olmalar Mujavir tarafga uchdi. Qarshilikni kutmagan Mujavir yuziga teggan shaftolining shirasidan ko'zlarini ocholmay qoldi. To'pponcha otildi. O'qi kim biladi qay tarafga ravona bo'ldi. Maxtumquli esa qo'lidagi qamchi bilan hujumga o'tdi. Shu payt Mujavirning oti bir silkinib chorpoya turdi. O'zini qamchidan qo'rash uchun qo'lini ko'targan Mujavir esa ot ustidan chalqancha qaytdi. Maxtumquli otini orqaroqqa qaytardi. Mujavirning oti esa xuddi quturgandek o'zini to'rt tomonga tashlardi. Bu paytda ot jonivorning oldingi oyog'i sichqon uyasiga kirib ketdi. Bu yerdan chiqishga uringan ot urina-urina uzala tushdi. Otdan yiqilib borayotgan payti ot tuyog'ining tepkisini yegan Mujavir esa yerda uzala tushib yotardi. Maxtumquli osmonga boqib Allohga shukrona keltirdi. Bu voqealarni daraxtlar panasidan kuzatgan Shonazar bilan O'rozali anqayib qoldilar. O'rtalari yigirma qadamlar chamasi edi. O'rozali birdan yerga cho'kkalab:

— Aytmadimmi Maxtumquli karomatli deb. Ko'rgin, qonxo'rning yoniga ham bormasdan qoqib-silkib tashladi. Karomat, karomat. Yomon qildik, xato qildik! Ey Allohim, bizning gunohimizni o'zing kechir! — deya tavba qila boshladi.

Olim To'rayev tarjimasi

O'ROZQULI ONNAYEV

(1946)

1946-yilning 18-avgustida Mari viloyati Bayramali tumanining Gadiryop qishlog'ida tug'ilgan. Turkman davlat universitetida, so'ngra Toshkent oliy partiya maktabida o'qigan.

Yigirmadan ko'p she'riy, nasriy va tarjima kitoblarining muallifi. "Sinov", "Karvonboshi" she'riy to'plamlari, "Girdob" qissasi kitobxonlarda katta qiziqish uyg'otdi. "Shafaq", "Xalos qiling", "Rashkchi kelin" dramatik asarlari teatrlar sahnalarida namoyish etilgan.

O'. Onnayev M. Gorkiy (1978) va N. Ostrovskiy nomidagi (1982) Butunittifoq adabiy mukofotlar sohibi. Asarlari ko'pgina chet el tillariga tarjima qilingan.

BESABAB BUTANING BOSHI QIMIRLAMAS

Uning bor ekanini Omondurdi avvallari ham bilardi. Sezardi. Hatto gohida o'ziga duch kelgandek ham bo'lardi. Ammo yuzma-yuz kelmasang. Uzog'u yaqin bordi-keldi qilmasang, qo'shni bo'lib yashasang ham u haqda bir to'xtamga kelish oson ish emas. Uning ko'rinishi, tashqi sifati, qiliqlari qanaqa, uning niyatini oldindan bilib bo'ladimi, qo'shni bo'lib yashasa bo'ladimi yoki oyog'ingni qo'lingga olib, tovoningga tupurib qochaverish kerakmi? Xullas shu va shu kabi savollar seni bezovta qilmoqda. Ammo Omondurdi bu kabi qo'shnichilik aloqalarida eng to'g'ri yo'l bir-birovga oz bo'lsa ham duch kelish ekanini juda yaxshi biladi. Qaydan bilsin. To'g'ri yo'l uchrashgan mahalida ham ko'z-ko'zga tushmasdan burun chetga o'tib "sen sog'u men salomat"dan nari o'tmasdan har kim o'z yo'liga ketaverishmikin? O'pka-gina tanishishdan oldin paydo bo'ladigan narsa emas. U tanishilib bor-

di-keldiga yo'l ochilganidan keyin paydo bo'ladi. Shuning uchun qo'shning bor ekanini bilsang bo'ldi, undan nariga o'tish ham kerak emas.

Omondurdi qishloqdoshi do'sti Oqmurot bilan asalarichilik ishiga bosh qo'shganiga ham ancha yillar bo'ldi. Bu ishga shunday berilib ketdiki, u asalarilar dunyosiga kirib gohida o'zini ham asalaridek his qila boshladi.

Ular har yili yer qizib o't-o'lanlar ko'karganidan keyin Sariyozi suv omborining yaqiniga asalari qutilari bilan birga ko'chib kelishadi. Xuddi o'tgan yilgi joylariga tushmasdan ellik-oltmish qadamcha ilgarilab qo'sh tashlaydilar. Bu yerlarning chor tarafi ham bir xil, ko'zingga issiq bosiladi. O't-o'lanlar o'sib gullar ochilganda bu yerlarning bezanishini-chi. Ko'zingni qorachig'ini yeydigan darajada go'zallik. Miyangda to'fon turg'izishga qodir xushbo'y hid seni ham xuddi asalarilar kabi oyog'ingni yerdan uzib havolatib yuboradi.

Asalari degan o'zi bir bo'lakcha jonzot. Ulardagi tartib-tuzgun, mehnatsevarlik, orastachilikka hayron qolasan. Omondurdi bir qutining atrofida, eshigi oldida, ichida bo'lib kechayotgan voqealarni kuzatib kun bo'yi ham o'tira oladi. Hatto bu hasharotlarning ichida bir-ikkitasini taniydigandek ham. Bir nechalarida qishloqdoshlaridan ba'zilarining fe'l-atvorini ko'rgandek ham bo'ladi.

O'g'li eski qal'alarni qaziydiganlar bilan ishlaganidan keyin uning kitoblariga ko'milib tarix qatlariga kirish ham Omondurdining sevgan mashg'uloti. Avvalroq bir kuni "Oriy" so'zini o'qib shu Oriy so'zi ham ari so'zidan kelib chiqmaganmikin, deb o'ylanib qoldi.

U, umuman, hayvonlarni, jonzotlarni sevardi. Televizorda ko'rsatiladigan shunday ko'rsatuvlarni butun vujudi bilan ko'radi. Yo'lbars va arslonlarning ov qilishlari qiziq bo'lsa ham ularning ovlagan narsalarini yeb o'tirganini ko'rganda jahli chiqadi. Sirtlonlarni esa umuman yoqtirmaydi. Shoxlari bir metr keladigan ulkan sigirlarni ko'rganingda dilgir bo'lasan. Nima, ular bu shoxlarni go'zallik uchun ko'tarib yuribdilarmi? Sigir bo'lganingda nima? O'tkazib ol qornidan shoxingni. To'g'risi, bir ko'rsatuvda sigirlar podasiga hujum etgan arslonning poda tagida qolib oyoqlarini ma-

jaqlatib olgani, o'sha arslonga o'z qavmi qanday yordam etganini ko'rib ko'zlaridan yosh chiqib ketdi.

To'g'ri-da, dunyoda xayr ham, sharr ham bor.

Qo'shnisi haqda Oqmurot ham aytgandi. Ammo unga tegishli biron aniq narsa demadi. Asalchilarning tepasiga mato tutilgan kichkina ikki odamlik yog'och katlari bor. Omondurdi peshin vaqti uxlaydigan odat chiqardi. Salgina vaqt mizg'ib olsa dunyoga yangidan kelgandek tetiklashadi-qoladi.

Bugun Omondurdi negadir tinch uxlay olmadi. Asalarilarning ustidan to'da bo'lib aylanib uchishlariga ham tushunmadi. Buni oldinlari hech ko'rmagandi. Tushidami, hushidami qandaydir bir odamning yuziga chang solmoqchi bo'lib turgan holatini boshdan kechirdi. Uyg'ongan mahali esa kimdir birovning halloslab nafas olayotganini eshitgandek bo'ldi. Bu xayolmi, haqiqatmi bila olmasdan ancha vaqt ko'zlari ochiq holda yotdi. Ammo shitir-shitir aniq eshitilib turganidan tiklanib o'tirdi. Shu fursatda o'zidan sakkiz-to'qqiz qadam narida, kun botish tarafda o'sib turgan bir yulg'unga nazari tushdi. Oqmurot bu yulg'unni kelib tushgan kuni yo'q qilish uchun kovlagandi. Omondurdi: "Tegma, endi jon bitayotgan buta o'ssin", — dedi. Ana o'sha yulg'unning boshiga ikki marta o'ralgan ilon Omondurdini uyg'otib yuborib, o'z maqsadiga yetgandek boshini pastga osiltirdi. Ammo "Seni shunday qilib ezib tashlayman" degandek buta shoxlarini mahkam qisdi. Hatto singan shoxchalarning qisirlashi eshitildi.

Ha, qo'shni deganlari shu ekan-da! Omondurdi sehrlangandek bo'lib ilonga qarab o'tirib o'zining qayerdaligini ham unutdi. Qo'rqmasligi bilan nom chiqargan, quturgan itlarni ham bir nazar bilan joyida qoqqan qoziqdek qila oladigan Omondurdi o'z badanida "chumoli o'rmalashini" his qildi. U buni yaxshilikka yo'ymadi.

Sal o'ziga kelgach, Omondurdi ilonni yaqinroqdan kuzata boshladi. Ilon qora rangli, hatto qop-qoraligidan qandaydir ko'kimtir yonardi. Yulg'un atrofidan o'ralgan tanasiga qaraganda ikki metrlar chamasi edi. Ammo uning yo'g'onligi uzunligi bilan mos tushmagandek, go'yo haybat otish uchun ichini damga to'ldirgandek, yo'g'onligi bilak emas boldirdek kelardi. Xullas, yo'g'ondan ham yo'g'onroq desa to'g'ri bo'lardi. Omondurdi ilonning nima

qilayotganiga tushunmadi. Uning maqsadini bilish uchun Omondurdi o'rnidan qo'zg'aldi. Ammo shu payt ilon boshini ko'tarib tomog'ini qo'sha kapgirga o'xshatib kerdi. Xashshildisi ortdi. Zaharli nafas Omondurdi bilan ilonning orasidagi masofani ozaytirgandek bo'ldi. Demak, u harakat qilishga ruxsat bermayapti. Ilonlar necha metrga otilib sapchiy olar ekan? Eh, bir martada yetib oldi nima, ikki sakraganda yetdi nima! Ikkalasining ham natijasi bir xil. Yozilib kelish, mis tunchaning achchiq choyidan ichish Omondurdining yodidan chiqdi. Shu o'tirishda o'tirsa qo'shni ozor bermaydiganday. Ammo bundan battarroq azob ham bormi? Kunning tig'ida sal tanballashgan ilonning nima xayolga borishini bilib bo'lmaydi. Kech tushgach esa u bilan yolg'izlikda bu yerlarda qolishning o'zi o'lim bilan barobar. Hayt-huyt qilib, biron narsa otib bu maxluqni o'zimdan uzoqlashtiraman degan gapning o'zi kulgili. Qo'l yetar joyda yakkanil miltiq yotibdi. Uning bitta o'qi bo'lishi kerak...

Omondurdi bu holdan chiqish yo'llarini axtara boshladi. Aksiga olib Oqmurot ham bugun kelmaydi. O'rnimdan turib bu joydan nariroqda turgan mashinaga minishga ham qo'shni ruxsat bermaydi. Omondurdi bir qarorga keldi. Agar quyosh yerga iyagini tiraguncha ilon joyidan qo'zg'olmasa so'nggi chorani qo'llash kerak bo'ladi. Shu yerda Omondurdi hayvon sevuvchilarni ko'z oldiga keltirib ko'rdi. "Jonzotlarni o'ldirmaslik kerak" deyuvchilarni ikki soat mana shu "ajdarhoning" oldiga bog'lab qo'yilsa qanday sayrarkanlar. Ba'zida televideniyeda ko'ppaklarning xaloskorlarini ko'rsatadilar. Uch-to'rtta itni quchog'iga olib, bag'riga bosib, o'pib turgan ayollar xuddi shu itning kichkina bolani parcha-parcha qilib tashlaganini aytmaganiga jahling chiqadi odamning.

Omondurdi bu holatdan qurol ishlatib chiqqisi yo'q. Bunday harakatning natijasi qanaqa bo'lishi noma'lum. O'qing tegmay o'tsa yoki maxluqni yaralab battar g'azabga mindirsa bundan battariga sazovor bo'lishing ham mumkin.

Kun botishiga oz fursat qoldi. Ilon goh boshini ko'tarib, goh egib, goh yulg'unni qisib, goh bo'shatib haybat otishni bas qilmadi. Harakatsiz o'tirishdan qo'l-oyog'i uvushib qolgan Omondurdi ilon endi charchagandir, yomon niyatidan voz kechib endi o'z yo'liga

ketar deb xomtama bo'ldi. U bo'lsa avvaldan rejalashtirgan ishini aynan shu kun amalga oshirishga qaror qilgandek.

— Hov qora qayishim, bugun nima xayolga bording sen, — yaxshi so'z ilonni inidan chiqaradi degan maqolga ergashib Omondurdi qo'shnisi bilan suhbatini boshladi, — bizning nima gunohimiz bor, aytaver. Bilmasdan sening mulkingni egalladikmi? Iningni vayron qildikmi? Bolang bosilib mayib-majruh bo'ldimi? Seni behurmat qilgan joyimiz bo'ldimi? Aytaver...

Ilon Omondurdining gaplariga tushungandek yulg'unni qisishdan to'xtadi. Boshini egib birinchi marta yon tarafga qaradi, ayri tilini chiqarib havoni tekshirib ko'rdi.

Qora malagim, sening ko'nglingga teggan bo'lsak bizni kechirasan. Sherigimning nomidan ham kechirim so'rayman. Nima bo'lgan bo'lsa, bilmasdan bo'lgandir. Bila turib senga ozor yetkazamizmi? Undan keyin, qo'shnichilikda bunaqa bir-birining ustiga haybat otish judayam noma'qul ish.

Omondurdining so'nggi so'zlari ilonga xush kelmadi, shekilli, yulg'unni shunday qisdiki, quchoqqa sig'maydigan o'simlik bir siqimgina bo'lib qoldi. Omondurdi tilini tishladi. Sal turib yana bir chiroyli so'z aytishga chog'langanida ilonlarning butunlay kar bo'lishini, havo to'lqinlari, tebranish orqali natija chiqarishlari esiga tushdi.

Xullas, bu yerda bunaqa qo'shni bilan tunni o'tkazib bo'lmaydi. "Qo'ltig'ingda ilon yotgandek" emas, xuddi shuning o'zi bo'lib turibdi hozir. Omondurdi bundan keyin qilajak harakatlarini o'lchay boshladi. Salgina qayrilsa chap qo'li miltiqqa yetadi. O'qining qanaqaligini bilmasa ham, uning o'qlog'liq ekanini biladi. Ko'z ochib yumguncha bo'lgan qisqa vaqtda tez harakat qilish kerak, bo'lmasa kech bo'ladi.

Omondurdi avval kelgan qarorini yana takrorladi. Agar quyosh iyagini yerga tiraguncha ilon o'z yo'li bilan ketmasa, unda u yuragiga tukkanini amalga oshiradi. Undan keyin, bir boshga bir o'lim degan gapni ham esdan chiqarish kerak emas.

Quyosh iyagini yerga tiradi.

Bo'ladigan to'polonni oldidan sezgan kabi ilon ham vishshildisini, xisirdisini kuchaytirdi. Omondurdi tezlik bilan miltiqni

qo'liga olib ilonning kallasini mo'ljallab chaqmoqni bosdi. Shu damda yog'och katning oyog'i ostiga gursullab qulagan ilon ming harakat qilsa ham boshi unga yo'l ko'rsata olmadi.

Omondurdi ancha vaqt dunyoni unutib qotib o'tirdi. Yotgan ilonning dumi qimirlashdan to'xtaganidan keyin o'rnidan turdi. Oyoqlari aytganiga yurmadi. Biroz yurib o'ziga kelganidan keyin yerda yotgan kigiz bo'lagidan uzib olib kovushining ostiga sim bilan bog'ladi. Shundan keyin ilon jasadini dori solingan xaltalarning biriga joyladi. Jasadni bir chuqurga tashlarkan oyog'iga bog'langan kigiz bo'laklarini ham o'sha yerga tashladi. Qaytishda boshqa tarafdan yurib qo'shiga keldi.

O't olov, is, tutun bolarilarning yoqtirmagan narsasi bo'lsada, mashinasidan olgan yonilg'ini ilon yotgan, sudralgan yerlarga, o'sha qabohat yulg'unga ham sepib o'tlab yubordi.

Omondurdi bu tunni mashinasining ichida o'tkazdi.

Ertasiga qo'shga qaytib kelgan Oqmurot bu voqeani eshitib hayron qoldi. U bir haftacha burun tunda mashinasida kelayotganida ilonmi, bir narsani bosib o'tganini aytdi. Ko'zimga ko'ringandir deb bu voqeani sherigiga ham aytmagandi.

Bunday katta jonivorning juft bo'lib yurishini ular oldinlari ham ko'p eshitishgan. Haqiqatdan ham so'nggi kunlarda ilon ko'milgan chuqur atrofida, o'tlab yuborilgan yulg'un yonida ilonning izlariga duch kelishdi. Mavsum o'rtasida, asalarilar endi jon-tani bilan ishlab boshlagan vaqtida ko'chish naqadar yoqimsiz ish bo'lishiga qaramasdan ular juda uzoq yerlarga ko'chdilar.

Omondurdi bir-ikki yildan keyin bu sevimli kasbidan butunlay voz kechdi. Bunga o'sha voqeami yoki boshqa narsa sabab bo'ldimi, hech kim bilmaydi.

To'g'risi, Omondurdining o'zi ham ilonlarni xushlaydigan odam emas. Turmushda bo'lib o'tadigan barcha-voqea hodisalar ikki tarafdan bo'ladi...

Olim To'rayev tarjimasi

JUMA XUDAYGULI

(1946)

1946-yil 14-dekabrda Axal viloyatining Saraxs tumani Yalovoch qishlog'ida tug'ilgan. Avval rassomlik bilim yurtida, keyin Ukrainaning Lvov shahridagi poligarfiya institutida ta'lim oladi.

Faoliyati rassomlik san'ati, matbuot va nashriyotlar bilan bog'liq. Filmlar uchun ssenariylar yozgan.

Adibning "O'choqlar o'chmasin", "Oy qaytib kelar", "Sevgida sarhad yo'q", "Ayiq", "Zamon qissasi" kabi roman, qissa va hikoyalardan tarkib topgan qator kitoblari nashr etilgan.

GUDUMAN BAXSHI

Peshin namozini o'qishga shoshib kelayotgan karvonboshi o'zining tobora uzayib borayotgan soyasidan ko'zini uzib, sheriklariga yuzlandi:

— Gurbaniy shu ketishda Sarag't bobo qo'rg'onigacha yetib boramiz desak kechikib qolamiz, shuning uchun ana shu qishloqdan teparoqqa tusha qolaylik, hov anovi joyda quduq ham bor ekan.

Ular qishloqdan chekkaroqqa tushishdi. Karvonboshi oralaridagi o'smir bolaga choy-suvlar bilan shug'ullanishni topshirdi. Qolgan uchoviga esa: "Yuklarni tushiring!" deya buyruq berdi. O'zi esa yaqin joydagi xas-xashaksiz oq taqir yerda namoz o'qishga tutindi.

O'smir bola o't yoqib suv to'la choygumlarni olovga qo'ydi. O'z ishlari orasida vaqt topib yugurib borib yukchilarga ham ko'maklashib turdi. Qaytib yana o'z yumushi bilan mashg'ul bo'ldi. Karvonboshining uzun soyasining g'aroyib va g'alati harakatlariga qarab turib, zavqi keldi. Kulgisi qistadi.

Bir payt u qishloq tomondan daroz bo'yli, uzun bo'lishiga qaramay yag'rindor, yelkalari keng, semiz yuzidan sog'lomligi ko'rinib turgan, qisqa qilib aytganda ko'rinishi o'ta bahaybat bir kishining to'nini yelkasiga yelvagay tashlab, sekin-asta odimlagancha o'zlari tomonga kelayotganini ko'rib qoldi. Karvonboshiga qaradi. Mabodo o'zidan gap so'rab qolsa, nima deb javob berishini bilmay xavotirlana boshladi. Yukchilar esa o'z ishlari bilan band. Haligi odam judayam yaqin kelgach bu o'smir bola uning nurli yuziga, tig'iz soqoliga tikilib qararkan: "Yoshi qirqlar tevaragida bo'lsa kerak" deya ko'nglidan kechirdi. Salom berarkan ovozi g'o'ldirab chiqdi. Bahaybat odam kela solib olovga qo'yilgan choygumlarni oyog'i bilan turtib ag'dardi. Ustiga suv to'kilgan o'tning qizil tili so'nib "pash-sh, pasir-tasir" etib tovush chiqardi, izidan oq-ko'kish bug' ko'tarildi. So'ng esa tutay .boshladi. Yuzidan na bir jahli chiqqani, na bir darg'azabligi, hech nima sezilmayotgan bu odam, ko'zini yerdan uzmay oldiga yugurib kelgan yukchilarning salomiga alik oldi va xushchaqchaq ovozda:

— Oralaringda karvonboshi qaysi biringiz? — deb so'radi.

Unga qaddini egib va qayta rostlab namoz o'qib turgan joyida ko'z qiri bilan bu tomonni kuzatayotgan karvonboshini ko'rsatishdi. Bahaybat odam karvonboshi namozini o'qib bo'lguncha ovozini chiqarmay kutib turdi. Karvonboshining bu yoqqa yuzlanganini ko'rishi bilan unga qarab peshvoz yurdi. Karvonboshining o'zidan yoshi kattaligini ko'rib salom berdi. So'ng ginador ovozda gap boshladi.

— Nima, yoshulli qup-quruq cho'l-biyobonga keldingizmi?

Karvonboshi belbog'ini bog'lab, yoqalarini to'g'rilar ekan, bu savlat-sumbati xonlarga mengzash, hukmifarmo ovozli kishi oldida gaplarini yo'qotib, biroz hovliqib qoldi.

— Ha, nima?

— Tevarak-atrofda qora-qura uylar ko'rinyaptimi yo changi chiqib yotgan yalang cho'lmi?

— Atrofimizda-mi, Xudoga shukur, keta-ketgunicha to'la qishloq.

— Unday bo'lsa, bu qanaqa qiliq?!

— Ha, nima edi?

— Shu katta qishloqdan sizga bir piyola issiq choy beradigan bironta odam topilmasa kerak deb o'yladingizmi? Bu qanaqasi, bu nima qilganingiz bo'ldi? Qishloqqa kelib, uning bir chetida qum-changga botib yotish turkmanchilikka to'g'ri keladimi? Yoki sizning qishlog'ingizda shundayroqmi?

Karvonboshi noqulay ahvolda qoldi. O'zicha birnimalar degan bo'lib sheriklarining yuziga qaradi. Ular ham yerga qaradilar. Karvonboshi bo'lari bo'lib, nima deb javob berishini bilmay:

— Ha-a, shu desangiz, bir zarurat yuzasidan Mariga borayotuvdik, shoshibroq...

Barvasta odam o'zi kelgan tomonga qarab burildi. Xuddi tog' siljiganday savlat bilan ketib borarkan, e'tirozga o'rin qoldirmay buyruq ohangda gapirdi:

— Qayerdan kelib, qayerga borayapsiz, menga buning zig'ircha qizig'i yo'q. Darhol lash-lushlaringizni yig'ishtirib, mening izimdan hov anovi ko'rinib turgan yonma-yon tushgan ikki uyga tez yetib boringlar.

Karvon joyidan qo'zg'aldi. Karvonboshi borgan zahotiyoq ularga ko'maklashish uchun uydan jadal chiqib kelgan ikkita dastyorning biridan:

— Bu uy egasini kim deb aytishadi, — deya so'radi.

— Guduman Baxshi deyishadi!

— E-e — ha, him-ha — ha! — degancha yon-tevaragiga muloyimlik bilan ko'z kezdirgan karvonboshi ichidan pichirladi. — Aynan uning o'zi desang-a? Gap bu yoqda ekan-da, demak bundan chiqdi, him-mm... Chindan ham asl o'zi.

Mehmonlar choy ichib, ovqatlanishdi. Turli xil mavzularda: goh kalla, goh tuyoqdan degandek qiziq-qiziq gurunglar bo'ldi. Uy egasi ham sirtidan ko'ringani kabi qosh-qovog'i uyiq, badjahl odam emaskan. Har xil qiziqarli gurunglardan berib, mehmonlarni kuldirib o'tirdi.

Hatto Tejeng daryosiga Sarag't yonidan kalla tashlab Tejengning boshigacha suzib borganigacha gapirib berdi. Karvonboshi oraga biroz jimlik tushgan fursatdan foydalanib o'tirgan joyida bir qo'zg'alib olgach halidan buyon ko'nglida kechayotgan, biroq aytishga imkoni bo'lmay turgan gapini tiliga chiqardi.

— Baxshi! Biz-ku sizning ot-ovozangizni eshitib, uzoqdan quvonib yurgandik, buni qarang-ki, balki buyam bir nasibadir-da. Mana bugun bir sabab-bahona bilan uyingizda mehmon bo'lib o'tiribmiz. Agar beadablikka yo'ymasangiz, sizdan to'rt-beshta qo'shiq eshitsak deb umid qilgandik. Qishlog'ingizda tinchlikdir harna...

Xuddiki bir ulkan chinordek haybat bilan qo'r to'kib o'tirgan Baxshi ma'qul degandek jilmayib qo'ydi.

— "Koshki edi mehmon faqat suv so'rasa" deya bejiz aytilmagan, — dedi-da atrofga zimdan ko'z tashladi. Haligi dastyorlardan biriga "Falonchi-pistonchilarni ayt, kelsin" deya uni qishloq oralatib yubordi. Qaytib yana mehmonlarga yuzlandi, — Xudoga shukr, qishloqda anchadan beri o'lim-yitim bo'lgani yo'q.

...Soz va qo'shiq asta-asta ayjlanib, davra kengaya boshladi. Guduman Baxshining tovushi chiqa boshlaganidan eshikning ochilib yopilishi tezlashib ketdi. Ko'p o'tmay o'tirishga joy qolmadi. "O'zining hamqishloqlari ham uni xuddi shu bugun ko'rayotganday-a, tavba" deb og'ringanicha karvonboshi bir mahal tashqariga chiqsa, uyning orqa devoridan to molxonagacha bir-birining pinjiga kirguday tiqilib, tig'iz o'tirgan kelin-qizlarga ko'zi tushgach, qora (kigiz uy) uydan taralayotgan qo'shiqning mo'jizaviy qudratiga yana bir karra iqror bo'ldi. U qaytib uyga kirganida Baxshi eng mashhur qo'shiqlardan birini berilib, ovozi boricha kuylar edi. Baxshi avj pardaga ko'tarilarkan butun gavdasi bilan xuddi uchishga shaylangan qush singari oldinga qarab harakatlandi, izidan esa o'pkasini havoga to'ldirib bo'ynini ikki kifti orasiga tortdi. Shu damning o'zida ikki yelkasini qanotday tepaga ko'targanicha shunday bir avj bilan na'ra tortdiki, kallasi yo'qolib ikki yelkaning orasiga singib ketdi. Yelkalar usti tep-tekis bo'lib qoldi. Birozdan so'ng haligi bosh asta-sekin o'z o'rniga qayta boshladi. O'shanday holatda ham kekirdakdan shunday bir ajoyib nag'ma-ovozlar chiqardiki, va lekin, uni o'z ko'zing bilan ko'rib, qulog'ing bilan eshitmasang, bunga aql bovar qilib ishonib bo'lmasdi. Bahmaldek yumshoq bo'g'izdan chiqayotgan sakratma qichqiriq-nag'malar, turli maqom yo'lidagi jarangdor pardadagi sehrli ohanglar, usullar, shak-shubhasiz Guduman Baxshining shaxsan o'ziniki edi. U bir

erkin sayrayotgan bulbul kabi qo'shiqlarni shunday bir mast bo'lib kuylardiki, hatto ba'zi bir yuragi bo'sh, ko'ngli dard-hasratga to'la kishilarning qo'shiq tugashigacha sabri yetmay, oh-nola tortguncha gapirib yuborganlarini bilmay qolardilar. "Dard bu, tuganmas oh-nola!" "Qani bunga chidab bo'lsa!" "O-o-oh, voy-ey!"

Bittasi bor edi. Annaniyoz Ishqiy der edilar. U qo'shiq-sozga yuragini berib, har doim Baxshilar bilan birga yurgani uchun, u o'ziga "Ishqiy" degan laqab orttirgan edi. Mana u hozir ham olam-jahonni unutib, qo'shiqdan sel bo'lib ko'zlaridan munchoq-munchoq yosh to'kib o'tirardi.

— Oh zolim falak, mana shunday zotlarni ham qora yer bag'riga tortasan bir kun! Ana ko'rmaysizmi, vaqti kelib bir kun shuniyam ajal o'z to'riga ilintiradi. Mening birgina tilagim, sendan oldinroq o'lay, hoy, inim!

Guduman Baxshi esa yonidagi ko'zadan katta bir kosaga suv quyib ichganicha o'sha baland pardada qo'shiq kuylashda davom etardi. Karvonboshi uning egnidagi kiyim-boshi shilta suvligini ko'rib hayronligi yanada ortdi.

"Odam sozga ko'ngil berib, jununlik vos-vosida o'z ixtiyoridan bu qadar kechmasa-ya, yo tavba!"

Tongga yaqin qo'shiq tugadi. Ikki soatcha pinak qilib olishgach, yo'lovchilar ketmoqchi bo'lib uy egasidan ruxsat so'radilar. Guduman Baxshi gavdasini tiklagancha qo'llarini ikki yoniga tirab o'tirar ekan:

— Ruxsat Allohdandir, birodarlar, — dedi. — Mana uy, ana eshik. Meni uyda bor, yo'q demay yo'ldan o'tib qaytishda qo'noq bo'lib o'tsangizlar deyman. — U biroz gapirishdan to'xtab turdi-da kechagi voqeani esladi. — Faqat hech mahal qishloqqa yetib kelgach, uning yaqinidagi ochiq bir maydonga qo'nmang. Qishloq ahlini uyatga qoldirasiz.

Karvonboshi yana bir marta Baxshidan uzr so'radi. Keyin uni siylab mehmon qilgani uchun bu xonadonga Allohdan qut-baraka so'rab duo qildi. Xayrlashib, yo'lga otlanayotgan Baxshi bir zum to'xtab uy egasiga yuzlandi:

— Baxshim, siz ham so'ramadingiz, biz ham indamadik, bu karvon kimnikiligi bilan qiziqmadingiz ham.

— Tangrining hamma mehmonining darajasi teng bo'ladi, yoshulli. Kimniki bo'lsa, o'shaniki bo'lsin. O'zingizning ismingizni bildik, bo'ldi bizga shu kifoya. Manzilingizga sog'-omon boring! Kaminaning g'arib ismini so'raganlarga, bizni taniganlarga ko'pdan ko'p duoyi salom ayting.

— Yana sog'likda ko'rishaylik, Baxshim! Xush qolingiz, yaxshi odamlar!

— Xayr, omon bo'ling, Tangri mehmoni!

Baxshi to karvonning qorasi ko'rinmay qolgunicha ular izidan qarab turdi.

Bu odamning ismi ahli turkmanga ma'lum va taniqli, turkman xalqining bulbuli, mashhur Baxshi O'roz Salir edi.

Turkmanchadan Ochil Tohir tarjimasi

JUMA XUDAYGULI

QARG'ISH

Keyiker ena kabi so'kang'ich ayol oldin ham, keyin ham bizning qishloqda sira bo'lmagan va yana boshqa hech qayerda bo'lmaganiga ham aminman. Uning uchun sen begonami, yoki yaqin qarindoshmisan, yoshing kattami, kichikmi farqi yo'q. Jahlini chiqardingmi, tamom.

Qarg'ish qopining og'zi bir ochildimi bo'ldi, so'ng bir boshidan boshlab to oxiriga yetmagunicha uning jag'i tinmaydi, toyloqli tuya berib ham uni ko'ndirib bo'lmaydi.

Yana shu holiga u qishloqning eng hurmatli va siylangan odamlaridan. Sababi, qancha qarg'anib, so'kingani bilan ko'nglida tirnoqcha kiri yo'q, beozor. Yuragi toza. Ayniqsa, sandig'ining to'laligini aytmaysizmi! Qishloqda xoh to'y, xoh aza bo'lsin xuddi qoqilgan qoziqday tik oyoqda turib beradi, doim o'sha joyda — elning ko'z o'ngida, xizmatda. Unga alohida chorlov, taklif kerak emas. O'zi ham ayrim ayollarga o'xshab begonasirab, izzattalablik qilib o'tirmaydi.

Kayvonilik qoniga unga sut bilan kirgan. "To'y ko'pchilik bilan, uy egasiga qarab o'tirmang, nima yumush bo'lsa bajarib ketavering, ayol barisini eplay oladi!" Qo'shni qishloqda falonchi ko'rpa-to'shak qilib yotganmish, deyishsa bo'ldi. "Hastaning holini so'rash savobdir" deganicha dasturxon, tugun qilib zudlik bilan o'sha tomonga yo'l oladi. Uning bundan boshqa ham yaxshi fazilatlari talaygina.

U hadeb bo'lar-bo'lmasga qarg'anib, so'kinavermaydi. Tilining qichigan paytlariyam bo'lib turadi, albatta. Ignasiga ip o'tkazib bergan vaqtlarimiz ko'ngli yayrab, moydek erib ketadi: "Asalim, xonim, jonim, otamning o'g'li, otasining qo'chqor o'g'li, Keyiker

momosining nor o'g'li" deya suyib, erkalab ketadi. Boshimizni silaydi. Sen bu kampir shunaqa ayol ekan deya, hech narsaga qaramay, qavatida yalpayib o'tirib qolsang bo'ldi, qandaydir bir nimadan norozi bo'lib jini qo'zib ketadi: "Yo'q bo'l, harom to'ng'iz! Hoziroq ikki jag'ingni ayiraman!" deb tepangdan tesha tegmagan olam jahon qarg'ishlarini ag'daradi.

Bizlar-ku mayli, ba'zida nabiralaridan birontasi oldiga kelib "Buvi, qand bering, qand yemoqchiman" deb so'rab qolsa bormi... Bir og'iz "bor" yoki "yo'q" demaydi, "Hoy bola, namuncha qandsirab qolibsan, shirinlik yemay ket. Nima, mening qand zavodim bormi?!" deganicha qo'liga otashkurakni olib oldiga solib quvlab ketadi.

"Momo, non" deb borsalar ham: "Xah, nondoningiz teshilsin, nondoni teshilgurlar! Haligina yemadingizmi yarimta nonni? Har aylanib kelganingizda yarimta nonni men qayerdan olaman?" deb ularning o'takasini yorib qo'liga beradi.

Bu gaplarni endi shu yerda to'xtatib turaylik-da, men sizlarga o'sha mashhur Keyiker momo bilan bog'liq boshqa bir voqeani gapirib beray.

...O'tgan asrda elliginchi yillarning boshlari bo'lsa kerak, ariq-zovurlarni qazib tozalashga hozirlik ko'rilayotgan edi. Shaharga ketgan otam enamning buyurtmasi va bergan o'n so'miga qo'lda yasalgan, yuzi yaltirab turgan yangi kapcha belkurak (tepib pishirilgan paxsa loyni kesib olib tepaga paxsachi ustaga irg'itishga qulay) olib keldi. Yaltirab turgan belkurakning u yoq, bu yog'ini qo'llari bilan silab-siypar ekan supada o'tirgan momoning oldidagi "gunohini" yuvmoqchi bo'lganday otam:

— Toza temirdan yasalgan. Traktorga tirkaladigan plugning temiridan. Bor-yo'g'i ikki dona qolgan ekan, deya maqtovini qayta yana takrorladi. —Geldimurat ustaning oldiga borib yangidan sop-dasta soldirib keldim. — Buni ustaning o'ziyam maqtadi. "Haliyam arzon olibsan, bunday pulga har bozor chiqib ham bunaqa toza belkurak sotib olib bo'lmaydi" dedi, — deya yana momomizning yuziga qaradi. Uning bu gaplarga beparvo qarab kulimsirab turganini ko'rib: — Ishonaver, rostini aytsam, sen buyurgan

boyagi xilidan yo'q ekan, so'ng quruq qo'l bilan bormay, deb shuni olgandim-da, — dedi.

Momom yuziga sal-pal jiddiy tus berib o'rnidan qo'zg'aladi.

— Qazish-tozalashga... haligi... oldingi belkuragim ham unchalik yomon emasdi, to'g'risi... unchaligam yomon emas, hali foydalansa bo'ladi.

— Hoy, kelin oyi, bu belkurakni hadeb yerga urma. Esking bilan tenglashtirma. Bu belkurak vaqti kelib senga bergan choychaqaga teng o'n so'mingni ming so'm qilib qaytarib beradi. Xudo xohlasa, ariq qazishda odamlar horib-tolib bittasini qazguncha, sen bu yangi belkurak bilan uchtasini qaziysan.

Gaplari ta'sir qilmaganini ko'rgan otam o'zi keltirgan belkurakni eshigimiz oldidagi talor ustiga irg'itib yubordi-da, mengami, onamgami qay birimizga aytilgani noaniq holda:

— Kechroq qaytarman. Birontasi so'rasa meni idoraga ketdi deb qo'yarsan, — dedi.

U kishi ketgach onam ham yelkaog'ochga chelaklarni ilganicha, suv olib kelish uchun uyimiz yaqinidan oqadigan daryo tomonga yo'l oldi. Men ham birga ketdim. Qaytib kelishimiz bilan onam yelkaog'ochlarni kiftidan olib chelaklarni shaqir-shuqurlatib yerga qo'yarkanlar:

— Ibi-i, Sillijon! Qani, haligi otang keltirgan belkuragi yo'q-ku, qo'ygan joyida? Yo o'zlari qaytib kelib yig'ishtirib, boshqa joyga qo'yib ketdimikan-a? —deganicha bezovta bo'la boshladilar. — Rostdanam, hali ko'nglim bir nimani sezib notinch bo'la boshlagan edi, irim-sirim qilmay degandim...

Nima bo'lsa ham, u kishi otam kelgunlaricha qo'ni-qo'shni, birontaga bu haqda og'iz ochmadi. Belkurakning yo'qolganini eshitib, otam ham g'alati holga tushdi.

— Mana shu yergagina qo'ymadimmi men haligina? — deb tolarning ustiga ikki qo'lini birdan cho'zdi. — Sizlar uyda edingizlar-ku? Yo biron joyga chiqqanmidilaring?

Onamning ovozi g'amgin ohangda qaltirib chiqdi.

— Bor-yo'g'i qilgan ishim Sillijon bilan daryoga borib, ikki chelak suv keltirdim. Suv bo'yida ko'zimizni alvasti-palvasti al-

damagan bo'lsa, birov uyga kirib o'g'irlik qilishga ulguradigan fursat o'tgani yo'q.

Aynan shu vaqtda yon qo'shnimiz Tuvoq xola onamdan xamirturush so'rab kelib qoldi. Onam:

— Gaplarimni boshqacha tushunib, hayron bo'lib o'tirma, qizim, yana — deya xamirturishni yenglikka o'rab Tuvoq xolaning qo'liga tutqizdi-da, muloyimlik bilan: — Ay qizim, hali men suvga ketganimda biznikiga kirib-chiqqan birontaga ko'zing tushmadimi?

— So'rab-netib kelgan-ku yo'q-da. Faqat, hali Siylovberdining yalt-yult etib shu yerdan o'tib borayotgani ko'zimga bir chalingan edi. Undayam uyda birontangiz bor bo'lsangiz kerak, deb unchaligam jiddiy e'tiboram qilmagandim. Ha, nimaydi, tinchlikmi?

Onam undan ko'zini uzib yerga tikildi.

— Ha, yo'q. O'zim shunchaki bir so'radim, qo'ydim. — Tuvoq xola ketishi bilanoq onam hanuz tovushini chiqarmay chilim chekib o'tirgan otamning qarshisiga kelib, yuziga tikildi. — Ha, aniq o'sha. O'sha muttahamdan boshqa hech kim emas. Boring. Darhol yetib borib yoqasidan bo'g'ib oling. Yana yo'qotib yubormasin! Qo'ymay qistay boshlasangiz beradi. Bo'lmasa raisga aytaman deng. Xondurdining molini o'g'irlaganida raisning oldida qasam ichib, yig'lab-siqtab zo'rg'a qutulgan edi, "Boshqa qaytib bunaqa ishga qo'l urmayman" deb.

Biroq otam esa o'tirgan o'rnidan qo'zg'alay ham demadi, qaytangga:

—Hoy, qo'ysang-chi! E yo'q, be yo'q, bilib-bilmay birovning ustiga gumonsirab borib bo'ladimi? Gumon iymondan ayiradi. Ketgani bitta belkurak bo'lsin. O'zing haligina shu mashmashani qo'ya qoling, deganding. Ozgina harakat qilib u yoq, bu yog'ini tuzatsang, o'sha eski belkuragimiz ham hali ko'p ishimizga yaraydi, deb ombortomdan uni topib chiqdi-da, yana Geldimurat og'aning oldiga jo'nadi. — Sopini almashtirib, belkurakning yuzini bolg'alab tekislatsang bo'ldi, bu xuddi yangi belkurakka aylanadi, qoladi. Temir bo'lib Geldimurat og'aning qo'liga tushsang o'zing belkurakday bo'lib ketasan.

Onam esa otam ketgandan so'ng ancha vaqtgacha ko'zlari yoshlanib turdi. Birdan ko'zlarining yoshlarini artib menga yuzlandi-da: "Umrim davomida otangning ilk bor men bilan maslahatlashishi. Mayli men uning gunohini ko'tarsam ham, bu ishni aniq Siylovberdi qilgan deb bilaman. Sen nima deysan?" — dedi.

Men ham boshida tilimga erk berib sayray ketdim. Birdan otamning haligi aytgan gaplarini eslab, u kishining gaplarini to'tiday takrorladim.

— Axir, ko'z bilan ko'rib, qo'l bilan ushlamasang, bir nima deyish qiyin-da...

Onam ancha vaqtgacha indamay mening yuzimga tikilib o'tirdi.

Hali yaqindagina to'qqizni to'ldirib endigina o'n yoshga qadam qo'ygan bolaning javobi quvontirib yubordimi, chehrasi ochilib, birdan yuziga tabassum qalqdi.

Shundan so'ng, u chindan ham taskin topib, o'zini to'liq qo'lga oldi. Qaynatma sho'rva pishirish uchun hovlidagi o'choqqa qozon osdi. Boshda qozonni yaxshilab kuydirib olgach, so'ng suv quyib chayqab uni yaxshilab artdi. Keyin qovoq to'g'rashga kirishdi. "Aytaymi, aytmaymi" deganday bir muddat o'z ichini tingladi.

Kutilmaganda to'satdan tagida olov yonayotgan qozonni o'choqdan ko'tarib tushirdi-da, he yo'q, be yo'q qishloqning qibla tomoniga qarab jadal yurib keta boshladi. Men ham izidan ergashdim. Yosh tozi kuchukdek chopganimcha unga tenglasharkanman:

— Ona, qayoqqa borayapsiz? Siylovberdi og'alarnikigami? Bo'yniga qo'ya olmasangiz, oqibati yaxshilik bilan tugamas. Otamdan gap eshitib o'tirmang tag'in. O'zingiz yaxshi bilasiz qahri qattiqligini, — deb o'zimcha rosa vaysadim.

Ammo onam gaplarimga javob berish tugul, yuzimga bundoq bir qayrilib ham qaramadi. Faqat, bitta durust tomoni, u Siylovberdi og'alarnikiga bormadi-da, ularning hovlisining to'g'risida joylashgan devor-darmiyon qo'shnisi Keyiker enalarnikiga burildi. Eshigi oldi-da bir nimalar bilan kuymanayotganga o'xshab, yurgan joyidan bizga hadiksirab tez-tez qarab qo'ygan Siylovberdi og'aga ham eshittirib baland ovozda gapira boshladi:

— Keyiker ena, omonmisiz, bormisiz? Uyda bo'lsangiz, oldimizga chiqing-uv, — deya qichqirdi. Hovliqib uydan chiqqan Keyiker ena bilan chala-chulpa hol-ahvol so'rashgan bo'ldi-da, ovozini yanada ko'tardi. — Qaysi bir qo'li akashak bo'lgur bizning shu bugun bozordan olib kelgan yap-yangi belkuragimizni o'g'irlab ketibdi. Hozirgi ahvolimni to'g'ri tushunib, o'sha imonsizni yaxshilab qarg'ang. Yomon ko'nglim og'ridi.

Onam ahvolini tushundimi yoki o'zi bir nimani sezdimi, qo'shnisining fe'l-atvorini bizdan yaxshiroq bilgani uchunmi, bilmadim, Keyiker ena onamdan ham balandroq ovozda qarg'ashga tushdi. Ustiga ustak ikki ko'zini to'ppa-to'g'ri Siylovberdi og'aning eshigiga qadadi.

— Voh, jonim kelinim! Bevaqt kelding, ancha kechikding-da! Sal oldinroq kelsang bo'lmasmi-di? Kelmasingdan salgina oldin qarg'ishimni tugatib, endi bemalol biroz dam olay deb shundoq uyga kiruvdim-a... Men sizning belkuragingizni o'g'irlagan juvonmargni nima deb so'kib qarg'asam ekan-a? Mayiting qimirlab ketib tobuting teskari bog'lansin desammikan, uncha yaxshi chiqmayapti-da! Namozshom quyosh qizargan paytda jasading qizil tuyaning ustida qizarib sasib ketsin desammi, buyam uncha yaxshi o'xshamayapti. Hech nima demasam mendan sen ko'ngling qolib, xafsalang pir bo'ladi. Xo'p-xo'p, kelin, shuncha joydan ovora bo'lib kelganingga yarasha talabingni qondirmasam uyam odamning ishi emas. — Keyiker ena endi Siylovberdi og'alarniki tomonni barmog'i bilan ko'rsatganicha, — mana shu belkurakni kim olgan bo'lsa, senga soldim Xudoyim, nari-berisi ikki kundan o'tmay, uch kun ichida o'g'irlagan belkuragi bilan o'zining go'ri qazilsin!

Keyiker ena shu gaplarning barini bir damda aytgandan so'ng charchadimi, yo boshqa sababmi "hash-sh-hash-sh" etib hansirab nafas olganicha onamning yuziga tikildi.

— Ana, qizim, menda-ya hozircha shundan boshqa qarg'ish yo'q, ayni damda boshqasi kallamga kelmayapti. Oz ko'rmagin. Agar senga bu oz bo'lib ko'rinsa, ertaga vaqtlirioq kelgin, bu xudobexabarni men xazon urib, mezon chalgan tarrakday qilaman.

Onam alvasti chalgan kimsaday ikki tomoniga javdirab qarab yurgan Siylovberdi og'aga qarab bir "irshayib" qo'ydi.

— Bo'ladi, yetarli Keyiker ena, kami yo'q. Oz emas. Sog' bo'ling. Allohim sizni hamisha o'z panohida asrasin! — deganicha mening qo'limdan mahkam ushlab uyga tomon shoshildi.

...Ertasi ertalab uyg'onsak, belkuragimiz eshik oldidagi talorning ustida, otam qanday qo'ygan bo'lsa o'sha joyida turgan ekan.

Turkmanchadan Ochil Tohir tarjimasi

KO‘MEK KULIYEV

(1955)

1955-yilning 25-mayida Lebab viloyati Sayod tumani Eski qishlog‘ida tug‘ilgan. Maxtumquli nomidagi Turkman davlat universitetining turkman tili va adabiyoti fakultetida o‘qigan. Ko‘p yillar gazeta, jurnal va nashriyot tahririyatlarida ishlagan.

“Ikki beshik orasi”, “Qaldirg‘ochning parvozi”, “Oq uyli”, “Qumda”, “Yakshanba kuni tushdan keyin”, “Uch oylik baxt” kabi nasriy asarlar yozgan. Yozuvchining hikoya va qissalari jamlangan “Umr karvoni”(2010) kitobi chop etilgan.

Bir qancha ssenariylari asosida badiiy va hujjatli filmlar suratga olingan.

•

“KO‘KBO‘RI”

Turkmanda shunaqa zotdor otlar bor: qamishquloq, kumushrang xolli, olmos tuyoqli, yoli ipakday mayin, o‘ynoqiligi boladay, nozi qiznikiday, yurishi salobatli, sollanishi kelinga mengzash, sakrashi suv to‘lqiniday, sachrashi xuddi olov alangasi, chopishi shamoldan tez, yerni larzaga soluvchi...

Shunaqa dovruqli otlarni ko‘rganida Chamon (qirchang‘i) o‘zining ot ekanidan, ot nomini ko‘tarib yurganidan uyalib ketardi. Eng achinarlisi, ko‘z ochib ko‘rgan mehribon egasi, qachonlardan buyon kecha-kunduz atrofida girdikapalak bo‘lib yurgan Permandan qattiq xijil tortardi. Nainki, bitta bechoraning yolg‘iz o‘g‘li, bola chog‘idan otadan yetim qolgan Perman, sho‘rpeshona, bechora onasining ham shu otdan bo‘lak hech vaqosi yo‘q.

To‘g‘ri, bitta makiyon tovuqlariyam bor, hatto o‘shayam Perman kabi shu Chamonning xizmatida. Har kuni tug‘adigan bittagina tuxumni Perman shu zahotiyoq yengi ichiga yashirgancha

Chamonning oldiga chopadi. Odamlar "shunaqa qilarmish" degan gap qulog'iga o'rnashgan Perman darhol tuxumni chaqib otining yemiga qo'shib beradi.

Afsuski, na chora... Chamondan yomon ot yo'q. Tuxum ber, asal ichir, olma va sabzi to'g'rab yedir — foydasi yo'q, Chamon o'sha-o'sha. Ot emas, tirik tovon, mahluq. "Qanday bo'larkin", deb gohida bir poygaga ham solib ko'rarkan, biroq odamlarning otlari oldinga chopsa, senikiyam xuddi Murzavelning otiga o'xshab, orqaga qarab yurgan kabi. Faqat oldindagi otlar hov o'sha ko'z zo'rg'a ilg'aydagan manzilda telpagini silkitib turgan to'y vakilning atrofidan aylanib ortga — marra tomonga chopayotganlarida, shundagina ularga teskari holda sening oting go'yo boshqalardan oldinda ketayotgandek tuyuladi...

"Chopib ketayotib birdan ortga qayrilsa, orqada qolgan cho'loq birinchi bo'ladi" deganlariday, sen sho'rlik shungayam rozisan. Axiri bir kun kelib cho'loqniyam, chamonniyam omadi chopishi mumkin-a...

Eng yomoni, qishloqning ona suti og'zidan ketmagan so'tak bolalari o'zi kim, o'shalar ham eshaklarini dikirlatib, o'z yo'liga ketabermay:

— Hoy, Perman, yo men bilan poyga qo'ymochimisan? — deb kesatishlariga o'lasanmi?!

Chamon bo'lsa ham, eshakdan yaxshi. Ot nomi bor. Mayli, otlar changida qolib ketsin, eshigingda kishnab turganiga nima yetsin. Shuning uchun Perman ham, Chamon ham bu gap-so'zlarga e'tibor bermaydi.

Yetti yoshida otadan yetim qolgan Permanning bu umrimda otli yigit bo'laman, degan o'y-umid ko'nglidan ham kechmagan. Bunga sabab, bir kuni tog'asi Qo'shmurat og'a, Mahkamboyning otlar bo'yicha yakka-yagona bilimdon sinchisi Qo'shmurat sayis Permanni qoshiga chaqirdi-da:

— Jiyan, shugina toycha ma'qulmi? Shuni senga bersam, eplab parvarishlay olasanmi?! — deb qoldi.

Shu, shu bo'ldi-yu Perman bilan Chamon ikkisi tug'ishgan aka-ukaday, bir jon, bir tan bo'lib qoldi. Birining ismi aytilsa, ikkalasi birdan chopib kelishadi.

Qo'shmurat sayisning o'zi ham otning oxurida voyaga yetganlardan biri bo'lgach, jiyanginasining faqat shugina quvonchi uchun, ayol tug'ishganining gap-so'zlarini eshitmaganga olardi.

Qo'shmurat sayis! Uni qancha ko'tarib maqtamaylik, o'sha ko'rimsiz bir poyi piyoda... Yuz-ko'zi atrofi burishiq — tirishiq, peshonasi qat-qat ajin.

Bunaqa odamning yuzi g'am-g'ussaga ko'milib, ezilib turishi kerak, lekin u aksincha xushnud odamday qoshlarini uchirib jilmayganicha turaveradi. O'z boshida bir olam g'alva, yana judayam yordamga muhtoj yosh yetim jiyanining tashvishlari...

Shularga qaramay Qo'shmurat og'aning boshini changallab, javranib yolvorib o'tirganini yoxud yig'lamsirab Mahkamboyning qoshida tiz cho'kib "Jon og'a, o'zingiz ko'rib turibsiz-ku" deb yalinganini ko'rgan odam yo'q.

Umrida bir marta, o'shanda ham shu Chamon uchun, yanada to'g'rirog'i jiyani Perman uchun boyga iltimos qilgan.

"Bitta qo'ydan oq ham, qora ham tug'iladi" deganlariday, Mahkam boyning nasldor baytallaridan bittasi bir gal tozi itning kuchukchasiga o'xshash g'alati yaratiq tug'di. Kallasi bo'rining bolasiniki kabi — gavdasidan yirik, oyoqchalari ikki qarich, tizza chanoqlari qo'shaloq mushtday...

Rangi ham g'alati. Buni ko'rgan Qo'shmurat sayis boshini chayqab, yoqasini tutgancha "Hiq-q" etdi. Haligi toychoqcha to'rt oyog'ida turmoqchi bo'lib qancha urinmasin, o'rnidan qo'zg'alolmay, ko'zlarini pirpiratib Qo'shmurat og'aning yuziga javdirab tikilishi, keksa sayisning yuragiga xanjarday botardi.

— Boy og'a, bu ins-jinsdanmi, mo'jiza— qudratimi bilmadim, *anig'i shuki, bu chala-yarim yaratiqdan durust ot-ku chiqmaydi*, nasl olish haqida gapirmasayam bo'ladi, endi shu chala tug'ilgan toychoqni *menga berasizmi, deb keluvdim oldingizga!*

Mahkamboyning ham saxiyligi tutdi-da, Xunxor shohning[1] aytgani kabi, "Duldulning toychog'i bo'lsa-da, bor, shu seniki bo'lsin. Faqat bitta shart bilan: hech qachon bu toycha Mahkamboyning nasldor otlariga tegishli deya aytilmasligi kerak" deb ta'kidladi.

[1] **Xunxor shoh** — Go'ro'g'lining bobosiga juda ko'rimsiz majruhga o'xshash urg'ochi toychoqni xizmat haqing deb bergan Eron shohi.

Qo‘shmurat seyis ham bu chala yaratiqni biroz boqib-parvarishlab, tetapoya bo‘lib, oyoqqa turgach Permanga tortiq qilarkan:

— Jiyan, anovi toycha haqida fikring qanday? — dedi... Hov ana, uning bo‘lib turishi shu.

Otlarni sug‘orishga va bir joyga to‘plashga ketganlarida, “Tog‘a, tog‘ajon! Men ham qavatingizda dastyoringiz bo‘lib yugurib-yelayin!” deb yolvorib yurgan bolachaning o‘shanda yuragining qanchalik hapriqib, naqadar quvonganini faqat birgina uning o‘zi bilardi.

Otning havasiyam o‘z yo‘liga. Endigina yigit murti sabza urarurmas Perman ham bitta mohitobonga oshiq bo‘ldi, qoldi. U hurliqoni kim ekan deysizmi? Mahkamboyning kenja qizi Kiyik. Ol, senga kerak bo‘lsa!

U ham inson. Nima, siringni odam farzandiga aytmay, bir kun kezarsan, bir yil kezarsan, erta-kechda axiri, balogardon onangga aytasan...

— Voy o‘lmasam... — deb, Permanning onasi sho‘rlik ikki yoqasini changallab tutdi. “O‘lgin, sen ham endi yigit yetding. Sen ham endi... Hoy, bir, ko‘z ostingga olganing bordir, yo‘q esam...” deb so‘raganiga ming-ming pushaymonlar qildi. Bir kun koyib yurdi, ikki kun koyindi, uchinchi kun “Kiyikjonning onasi bir vaqtlar jonajon dugonam edi, axir!” deya o‘z-o‘ziga taskin berib, kichikroq tugunchani qo‘ltig‘iga qisganicha, Xudodan ko‘mak so‘rab Mahkamboyniki tomonga yo‘l soldi.

Yaxshi xabarmi yoki noxushi bo‘lsin — ayol qavmi ilk bor yelka osha qo‘l tashlashib ko‘rishmasa bo‘lmaydi. Mahkamboyning ayoli, Kiyik qizning onasi Hajarboyvuchchayam Permanning onasining maqsadini bilgach, yoqasini ushlab ancha vaqt o‘ylanib turdi. “O‘z holingga qaramay, qanday yuz bilan kelding, izingni shamol olmay, tur jo‘na” deb aytay desa, bolalikdan birga o‘sgan, o‘zaro sirlashib katta bo‘lgan eng yaqin dugonasi. “Mayli, qani bir otasidan so‘rab ko‘ray!” desa, so‘raydigan odami — Mahkamboy otning qashqasiday ma’lum.

So‘ngra Hojarboyvuchcha “Dugonajon, sen choy ichib tur, ko‘ray qani!” deb, yonidagi oq uyda nimalardir bilan kuymanib o‘tirgan qizining oldiga jo‘nadi.

"Shunday, shunday, qizim!" deyishi bilan, qizi yetti qat osmondan kelib, to'rsayganicha o'rnidan turib ketdi, shu bilan gap tugaganini tushundi. Murosa qayerda, Kiyik qiz ham yuzini ters burib, qizarib-bo'zarib yerga tikilgancha o'tiraverdi. Ikki o't orasida qolgan Hojarboyvuchcha "Voy, yuzing qursin!" dedi-da, erining huzuriga bordi.

... Nari yoqdan bo'lari bo'lib qaytgan Hojarboyvuchchani ko'rishi bilanoq Permanning onasi ahvolni gap-so'zsiz tushundi, Hojarboyvuchcha "Dugonajon, bizga hozircha..." deb gapini boshlar-boshlamas tugunchasini qo'ltig'iga qistirib o'rnidan qo'zg'aldi.

Hojarboyvuchcha dugonasini kuzatishga chiqarkan, birdan chuqur xo'rsindi-da, o'ziga o'zi gapirganday:

— Katta elda quruq savlat bo'lib yurgandan ko'ra, oddiygina bo'lganim yaxshimasmidi..., -- dedi.

Bitta so'tak bolaning gapiga kirib, o'z holini bilmay borgani va ishi bitmasligini tushunsa-da, Permanning onasi: "Ha, ona, bo'rimi, tulki?"— deb oldidan chiqqan o'g'liga, bo'lgan gaplarni aytmay ichida saqlay olmadi. Unda ham, faqat, shuni aytmoqchi...

— Oting qursin bolam, otginang qursin! — deganicha qo'ltig'idagi tugunchani uyning to'riga tomon irg'itib yubordi.

Perman bir zum muzlab qoldi. O'zining qo'l yetmas shoxga osilganiga miskin ko'ngli shu ondayoq tushundi. So'ngra Perman sas-tovushsiz eshik oldida mixga osig'liq turgan qamchisini bir siltab tortib oldi-da, yerto'la tomonga ketdi.

.... Yerto'laga jahl bilan kirgan, qo'lida qamchi, yuzi darg'azab Permanni ko'rgan zahotiyoq Chamon ko'ngilsiz bir voqeaning sodir bo'lganini anglab, pishqirganicha oyoqlarini yerga tap-tap urib depsingancha orqaga tisarildi. Ammo Perman uning oldiga bormadi. Perman... qamchisini dastasidan qattiq ushlaganicha u yoq-bu yoqqa yurgan bo'ldi-da, u Chamonni emas, aksincha o'zini qamchilashga tushdi. Boshiga, orqa kuraklariga, yelkalariga, oyoqlariga — to'g'ri kelgan joyini qamchi bilan savalay ketdi.

Qamchi har gal Permanning taniga shippillab tegganida, Chamon jonivor seskanib ketardi.

Betinim o'zini uraverib holdan toygan Perman o'z badaniga navbatdagi qamchini beayov tushirar ekan, nogahonda Chamon

tomonga nazar tashladi va uning olmaday ko'zlaridan yumalanib chiqayotgan ko'zyoshlarni ko'rib qoldi. Shunda u beixtiyor qamchisini irg'itib yuborib, otining bo'ynidan quchoqladi-da:

— Voh mening otim, jonim otim... — deb shivirladi. Kechaning allamahalida Chamonning oxurida cho'zilganicha uyquga ketdi. Chamon ham to tong otguncha to'rt oyoqda turganicha, egasining tepasida — boshi uzra qorovullik qildi. Gohida xotirlar qo'zg'alib qolardi-da, toychaga yordamlashib birga ulg'aygan, so'ngra qo'shni qishloqdan bir zotli mol so'rab kelganga sotilib ketgan Jiyron bir joylardan uchib kelib toyga uyqu bermadi....

Kunlar o'tib, oylar aylanib, yil ham surildi. Kiyik qizga ko'plab joydan, manaman degan yigitlardan sovchilar kelishsa-da, ular hech nimaga erisha olmadilar. To'g'ri-da, boyning aytgan gapi hukmday yangragan joyda, boy qizining, tag'in kenja qizning ko'ngliga qaramay bo'ladimi?

Faqat... to'y qadimdan qutlug' ma'raka! Yilda bir marta katta to'y bermasa, o'sha to'yga bir yillik daromadini sarflamasa ko'ngli joyiga tushmaydigan Mahkamboyga boshqa yoqdan, undan-da quvonchli bir to'yga bahona topildi: u o'g'il nabirali bo'ldi. Buni sira orqaga surib bo'masligini yaxshi bilgan boy, to'yga qat'iy bel bog'ladi:

— Ana, ho-ov, xaloyiq! Eshitmadim, demanglar-ov! Mahkam boy o'g'il nabirasiga yetti kecha-kunduz to'y qilmoqchi, ho-ov! Polvoning bormi, chopqir oting bormi, kelaveringlar, ho-ov! Uloq chopdi o'yiniyam bo'ladi, ho-ov! — deb tevarak-atrofga ketma-ket jar solindi. Uzoq-yaqinga chopar jo'natildi.

Bu yerlarda ba'zi birlarning "uloq chopish" o'yinini bilmaydigan kishilarning so'raganlariga "uloq chopdi"ning ma'nosini Qo'shmurat sayis erinmay bir-bir tushuntirdi:

— Bu o'yinning "Ko'kbo'ri" degan ham yana bir nomi bormish. Men sizlarga aytsam, bo'ri kabi, och qashqir singari bo'lmasang, boshqa hayvonning hech biri senga yaqinlasholmaydi... Bitta uloqni so'yib, ichak-chavog'ini olib tashlab, shuning og'irligiga teng miqdorda tuz solib, so'ngra kesilgan qorinni tikib haligi uloqni balandlikka chiqib ikki kishi old va orqa oyoqlaridan ushlab baland ko'targanicha chavandozlar to'dasining oraligiga — yerga tashla-

nadi. Devday-devday otliq chavandozlar "urho-ur" qilib uloqni olishga kirishadilar. Kim uloqni hech kimga oldirmay, tashqari olib chiqsa va marraga biriinchi bo'lib yetib kelsa o'sha g'olib bo'ladi. Bu haqda mening bilganlarim shu.

— Yo pirim-ey vallo, o'ziyam bir g'alati o'yin ekan... — deb so'raganlar o'yga botdilar. — Undan tashqari bizning qishloqlardan bu o'yinda qatnashishga yuragi uradigani topilarmikan? Mahkamboy shuni o'yladimikan-a?

Bu gal Qo'shmurat sayis chuqur o'yga cho'mdi. Sukunatni Permanning umidvor yangragan tovushi buzdi:

— Shu o'yinda... men bir o'zimni sinab ko'rsammikan?

Qo'shmurat sayisning yuzidagi chiziqlar bu gal yoyilib ketmasa-da, sekin gap boshladi. U:

— Xo'p, mayli, biron nima topa olasizmi, shunga ko'zim yetmayapti-da! — deb g'udrandi-da, Mahkamboygami, o'z jiyanigami yoxud "Ko'kbo'ri"ning talablarigami koyinib, etaklarini silkib o'rnidan turdi.

Kech oqshomda, sayis yana turolmay, jiyanining yerto'lasiga bordi. Pastga tushgan joyida o'tirdi-da, otini yemlab turgan jiyanining bolalikdan qora xizmatda qotgan bo'g'inlarini, tomirlari bo'rtib-bo'rtib chiqib turgan qo'llarini, yelkalariga tikilib qaradi. So'ngra:

— Nima u, otga berayotgan narsang? — deb tikilib jiddiy so'radi.

— Hay... topgan-tutganimni berayapman! — deb Perman mayin jilmaydi.

Qo'shmurat sayis qisib birdan qo'yib yuborilgan prujinaday sakrab o'rnidan turib, otning oldiga bordi. Chamon ham quturlatib yem yeyishdan to'xtab, o'z yemishini hidlab ko'rayotgan keksa sayisga ajablanib qaradi.

— Shuning bilanmi? — deb, sayis Chamonga tomon qo'lini uzatdi.

— Bundan boshqa tag'in nima qilsin!

Qo'shmurat sayis... "Hash-sh" etdi-da, Chamoning atrofida aylana boshladi, dastlab otning to'rt oyog'ini, tuyoqlarini, belini, biqinlarini, bo'ynini qo'llari bilan siypalab ko'rdi va birdan:

— Shu bilan degin-a! — deb otning sag'risiga qo'lining kafti bilan tarsillatib bir urdi. To'satdan, kutilmaganda teggan tarsakdan seskangan Chamon shataloq otib, ikki oyog'ini bir qilib juftak otgan edi, yerto'la eshigining oldi changib ketdi. Sayis orqaga tisarilib:

— Aha... aha, hov, — dedi-da, so'ngra esa qah-qah urib kuldi. — Buning bo'ladiganga o'xshaydi-yov!?

Tog'a-jiyan birpas sukut saqlab o'tirdilar.

— *Men-a-a, sizning bu o'yingizni yaxshi bilmayman!* — deb go'yoki, "Ko'kbo'ri"ni jiyani bilan Mahkamboy o'ylab topganday Qo'shmurat sayis javray ketdi. — Uzoq-yaqindan, ko'plab joylardan anchagina chavandozlar kelarmish degan ovozasi bor, ha endi bu yog'iga turib berolsangizlar! Uloq chopishda ustozga aylangan, tajribali yigitlar ekan o'ziyam. Men boygayam aytdim, siz mendan ko'mak kutmang deb...

Qo'shmurat og'a peshonasidagi qoshlari orasida yashirinib yotgan xotiralarini uyg'otmoqchi bo'lganday, hadeb peshonasini ishqalar edi:

— Bir vaqti zamonda, bolaligimda ko'rgandim... Og'adev laqabli bizning qishloqdan bittasi bu o'yinga qatnashar edi, u ham faqat shu o'yin tufayli mayib bo'ldi. Shunga nomus qilib, baland qumtepalar bag'riga bosh olib ketdi, qaytib kelmadi. Shu shag'al qumli cho'lning qayeridadir cho'ponlik qilib yurganmish, deb eshitib qolamiz...

Chamonning o'ziga qayrilib qarayotganini ko'rgan Qo'shmurat sayis unga ko'zini qisib qo'ydi:

— Hayot erkalatib qo'ymaydi, masxara qilayotgan bo'lmaginda tag'in?.. *Ha, shunday, jiyan,* mening qo'limdan keladigan yordamim-maslahat — dastlab u talato'p o'yinini ko'rsin, undan so'ng, to'da o'rtasiga choptirgancha bostirib kirib bor-da, uloqni chaqqonlik bilan ilib ol, otga qamchini bos! Sen hali yosh bir bola, bu o'yinlarda hech qanaqa tajribang ham, uquving ham yo'q, ular ham buni biladilar, sendan bunaqa harakatni kutmagani uchun ular senga beparvo qarashadi, sen aynan shu beparvolikdan foydalan! Faqat uloqni chaqqonlik bilan olganingdan so'ng, nima qilsang qil, uloqni qo'ldan chiqarma! Agar ular bir panja ursa nainki uloq, qo'l-

po'ling bilan sug'urib olishlari hech gapmas. Tep, tishlagin, itdek qopgin, aslo raqibingni yoningga yo'latma! Eshitdingmi? — deb Qo'shmurat og'a Chamonning ham biqiniga turtdi. — Eshitdingmi, jiyan?! — deb yana Permanga yuzlandi. — Qamchiniyam ishlataver, o'zingni bilmaganga olib! Bu o'yinda bunday ishlarga yo'l qo'yiladi deb eshitamiz... Bu chin erkaklarning o'yinidir, unaqa-bunaqa kamchiliklarga xafa bo'lib nolib o'tirilmaydi.

Qo'shmurat og'a "Yana nimalarni aytsam ekan?" deganday birpas o'ylanib o'tirdi-da:

— Hay, endi, qolganini Allohning o'zi o'nglasin! — dedi. O'rnidan turar ekan, Chamon tomonga imlab:

— Ertaga ertalab mening oldimga eltgin buni, tuyoq-to'ynoqlarini tekislab, nag'al qoqib berayin! — dedi. — To'ygacha tuyoqlari o'rganib — moslashsin...

O'sha kundan boshlab, Perman bilan Chamon ikkisi mayda toshli qumning ichida ertalabdan kechga qadar shilta-ho'l bo'lmagan, oqshom chog'ida qora ter, oq ko'pikka botmagan kunlari bo'lmadi hisob.

— Permanbek ham Chamoni bilan tovushqon quvib tutishni o'rganayotganga o'xshay-di?!

— Va-ay unaqa bo'lsa, bu tevarakda tovushqon zoti qolmas ekan-da, ha!

Shunday qilib, uni masxara qilib, ustidan kulishganicha to'y kuniga ham yetib kelishdi. Omadning kulgani, aynan shu kuni Perman Chamonini minib yo'lda kelarkan, nogahonda Kiyik qiz bilan yuzma-yuz kelib qoldi. Permanning ko'ngliga Kiyik qandaydir sog'inch bilanmi, ko'z ostidan bir qarab qo'yganday bo'ldi. So'ngra qiz tez-tez yurib, uzoqlashib ketdi.

Hanuz entikkancha orzular dengizida qulochlab suzayotgan Perman ko'kragini to'ldirib chuqur nafas olganiga Chamon jonivor ham nimagadir "hash-sh" etdi, yurishiyam qandaydir o'zgarganday bo'ldi.

Kiyik qizning o'sha ko'z zo'rg'a ilg'aydigan joyda bir zum to'xtab, iziga do'nib qaraganini nainki bu ikkisi, hech bir kimsa ko'rmadi. Kiyik qizning ko'ngliga esa, Perman ham emas, o'z xayolidagi kishining Chamonda otlanib ketib borayotgandek tuyuldi.

Shu damda u bir vaqtlar yozgi chaylaga ko'chib chiqilgan kezlardagi voqealarni, Permanning oyoqyalang holda yontoqlar, chaqirtikanaklar ustidan yelib borishini, katta odamlarniki kabi mushaklari o'ynab turgan kuchli qo'llari bilan qo'yni yiqib kullaklashini, hech kimga bosh bermayotgan qaysar qo'chqorning shoxidan burib gupullatib ag'darganlarini esladi.

Qiz qalbi — sirli sandiq. Shu yuragi nima uchun ipak yanglig' yumshoqlikning, o'zi singari noziklikni emas-da, Permanniki kabi chayirlik va kuch yog'ilib turgan baquvvatligi o'ziga tortishini, unga tushuntirib beradigan hoy bironta kimsa bormi? Yo "Kimdir kulgini, kimdir qayg'uni sevadi" deyilgani shumi? Yoxud dunyoning sirliligini saqlab turgan va saqlab kelayotgan o'sha noziklik bilan beg'uborligini o'zaro moslashuvi, qo'shilib-chatishib ketganidamikan?

* * *

"Ko'kbo'ri" o'yinining yetakchilaridan biri Qo'shmurat sayis bir chetda otining bo'ynidan quchoqlab turgan jiyanining yoniga keldi-da:

— Uyurga-o-ov?! — dedi. So'ngra, Chamonga-da eshittiribroq: — Bir qara-ya, dunyoning asl tulporlari mehmondorchilikka kelganday, go'yo! — dedi.

Sayis shunday degach, Chamon boshini silkib turgan joyidan qo'zg'aldi-da, olma ko'zlarini aylantirib tevarak-atrofiga qaray boshladi. Shu bir vaqtning o'zida Perman ham yaqinroq bir tepalik ustida yashil-qizil bo'lib sollanib turgan kelin-qizlar tomonga yalt etib qaraganini sezmay qoldi. Shu zahoti uning burgut nigohi o'sha ol-yashil tovlanib turgan to'da ichida to'lin oy yanglig' bo'lib turgan Kiyik qizni tezda topdi. Chamonning qulog'idayam o'sha yoshlikdagi inja va zarif bir kishnash qayta takrorlanganday bo'ldi.

Permanning ham, Chamonning ham yuraklari hapriqib, ikkisi ham o'z ko'ngillarida bir-biriga mos qat'iylik sezishdi.

Shu payt kutilmaganda "A-ha-hov" degan sas guldurakday yangradi.

Olis bir qishloqdan atayin chaqirilgan keksa mehmon silkma telpagini tepaga ko'tarib chavandozlarning barchasini qoshiga

to‘plab, dastavval bu bellashuvning muhim shartlarini yana bir marta takrorlab tushuntirdi, so‘ngra qavatida turgan jarchiga jar soldirib musobaqaning bosh bayrog‘i (sovrin)ni ham e’lon ettirdi:

— Bosh bayroq bitta bolali tuya! Hov xaloyiq, eshitdim-eshitmadim demanglar-ov, keyin armonda qoldim, demanglar-ho-ov!

“Boshlang!” Telpak pastga tushirildi.

Bu o‘yinning rostdan ham, sir-tilsimi ko‘p ekan. Boshida, o‘zini beparvoday tutayotgan “Ko‘kbo‘richi”larning har uch-to‘rttasi bir guruh bo‘lib, o‘yinga birga kirishar ekan. Bundaylari ham yerdan yakka bir o‘zi unib chiqqan emas. Bu o‘yinda yolg‘iz bo‘lsang, changing emas, kuling chiqishiyam mumkin ekan...

Undan so‘ng, haligi guruhdan bittasi saylanib, uloqqa tomon tashlanganida, uning hamrohlari boshqalarning yo‘lini to‘sib, oldinga boshqa otni o‘tkazmaslikka harakat qiladi. Hamrohi uloqni yerdan chaqqon ilib olib, tala-to‘pdan ayrilib chiqganidan so‘ng, uning atrofini o‘rab olib guruh a’zolari otlariga birgalikda qamchi bosishadi. Biroq boshqalariyam anoyi emas, ularning ham o‘z guruhi bor...

Faqatgina bu gal barisi tamomila boshqacha bo‘ldi. Har kim oldinga sapchiyotganlar atrofini o‘rash bilan bo‘lib, paqir odam panada deganday, bir chetda payt poylab turgan Perman bilan Chamonga hech kim ahamiyat bermadi. Ammo kutilmagan o‘yin-o‘t ham o‘shalardan chiqdi...

“Boshlang” deyilganidan, chavandozlarning bari uloqqa tashlanmay, bir-birini qisib, surishib, itarishib chopishib ketdi. Shu vaqt oralig‘ida Perman ham, Chamon ham o‘rtaga otilib kirib, uloqqa tomon tashlandilar.

Bu degani... bittagina boshingni etagingga solish, hech bo‘lmaganda bir-ikkita qovurg‘angdan voz kechishdir... Oldin ko‘rmagan o‘yining, atrofing ham himoyasiz!

Faqat “Bilmaganga balo yo‘q” degan bir gap bor, yana tavakkalchining ishini Xudo o‘nglaydi, deyishadi. Eng qizig‘i, chavandozlarni chalg‘itgan boshqa bir hodisa sodir bo‘ldi: Permandan oldin Chamon yerda yotgan uloq loshiga og‘iz soldi-da, tishlab uni bir silkitib bo‘yi baravar ko‘tardi. Perman uloqni chaqqonlik bilan ilib olib, oldiga ko‘ndalangiga bosdi. Ovning qo‘ldan chiqib ketishi

mumkinligini sezgan chavandozlar tezlik bilan Perman-u Chamonning atrofini o'ray ketishdi.

Tevarak-atrofi qamalayotganini ko'rgan Perman:

— Chuv, chuv... chuv, otim, chuv! — degancha qamchisini boshi ustida shuvullatib aylantirgaicha chopa ketdi. Bu "chuv-chuvning" hozircha haqiqiy "chuv" emasligini bilgan kabi, Chamon ham og'zini katta ochganicha turgan joyida varrakday aylanib, teskari burilganicha yela boshladi. Aslida bu ikkovining yaqin-qulayiga yaqinlashguday emasdi. Ko'raverib ko'zi pishgan otlar-u chavandozlar bu g'alati o'yinga angrayib qarashganicha, nima qilarini bilmay bir zum turib qoldilar.

Bu orada, Perman ustiga bostirib kelayotgan otlar galasi orasida ochiq qolgan kichikroq "teshik"ni ko'rib qoldi va Chamonning boshini o'sha tomonga burdi-da, otini qistab borarkan, bo'g'zini yirtguday baland tovushda:

— Bos, otim! — deb qichqirdi.

Perman bilan Chamon to'pponchaning nilidan chiqqan o'q kabi o'sha oraliqdan otilib chiqib ketdi. Boshqalar ham quv, ha, quv bo'lib ularning izidan ergashdi.

Endi ular ham o'zaro birlashishdi. Ikkiga bo'linib, ikki qanotdan qisib quvlashga tushdilar. Ammo ularga pand bergan bir jihat: Chamon to'g'riga emas, quyonning qochishiday qilib goh u yoq, goh bu yoqqa qayrilib chap bersa, goh kutilmaganda taqimdosh kelgan raqibni tepib yo tishlab olar, goh tez chopib ketayotib birdan ortga burilib, ularni dog'da qoldirar edi. Roviylar aytganiday, o'z vaqti zamonida Sapar ko'saning Bo'ztumani[1] otlar o'zaro taqimdosh kelganida shunaqa qilig'i bilan boshqalarga pand berar ekan...

Perman ham, Chamon ham qayoqqa qarab ketayotganini o'zlariyam bilmas, lekin o'sha tezlikda uchib borishardi. Orqadagi ot tuyoqlarining gupurlagan shovqini tobora yaqinlashayotganini eshitib borardilar. Yana-da, quvlayotgan otlarning eng oldindagilari bular bilan deyarli tenglashib qolgan edi. Permanning har tomonidan burgut panjasiday kuchli qo'llar uloqqa tomon cho'zila bosh-

[1] Go'ro'g'lining qirq yigiti orasidagi yoshi ulug'i va shumrog'i bo'lgan.

ladi. Aynan ana shu fursatda Chamonning qulog'iga ortdan-bir joylardan o'sha tanish, zarip bir kishnash eshitilganday bo'ldi. U birdan to'xtab, ortiga o'grildi. Shu ahvolda ot ustidan gupullab uchib tushmaslik uchun, yoxud chigirtka yoki Perman bo'lishi kerak... Quvlab kelayotganlarning bir to'dasi, o'zini to'xtata olmay tasir-tusur qilib oldinga o'tib ketishdi-da, ancha joydan ortga burilib, Perman bilan Chamon yana navbatdagi nayrangini boshlagan bo'lmasin degan xavotir bilan biroz ikkilanib turdilar.

Chamonning uzun quloqlariga haligi ovoz bu gal ochiq-ravshan eshitildi. Jiyronning sasimi? Jiyronning ovozi! Ketdikmi? Ketdik. Ortga burilib — o'ngga!

Hanuzgacha biron marta ayg'ir qorasini ko'rmagan baytal ham ot, jahl yuragini, butun bo'y-bastini shiddat bilan bosib kelayotgan qudratli kuch-quvvatiga bas kelolmay, havoga ko'tarilganday uchib borardi.

Chamonga bu kuch, bu g'ayrat qayerdan keldi — bilguvchi Allohdir! U, go'yo Alining oq maydondan oldingi va keyingi alamlarini chiqarib olmoqchi bo'lgani kabi yer bag'irlab uchib borardi. Uning shu qadar uchqurligiga ustida o'tirgan Perman emas, Chamonning o'zi ham shu vaqtda ishonmagan bo'lsa kerak.

Perman uloqni keltirdi-da, savlat to'kib turgan Mahkamboyning bosh aminining oyoqlari ostiga irg'itganda, oq-u qora kiyimli, qizil-yashil bezangan butun to'y ahli bitta odamday bo'lib guvullagancha o'rnidan turdi.

Murtlarini buragancha bir dam qavatidagi aminiga, bir dam Qo'shmurat sayisga, gohida Perman bilan Chamonga qararkan Mahkam boy barmog'i bilan ishora qilib o'g'illarining bittasini yoniga chaqirdi.

Bir fursatdan so'ng, Kiyik qiz o'z qo'llari bilan to'qigan cho'g'day yonib turgan gilam Chamonning sag'risiga yopildi. Qo'shmurat sayis Chamonning jilovidan ushlagancha:

— Jiyan, bor, tuyangga egalik qil, boy og'amiz yana gapidan tonib qolmasin! — deb, otni ergashtirib, o'ziyam yosh bola kabi birdan chopqillab ketdi.

Otlaridan tushib kelgan chavandozlarning bari Permanning tevaragini o'rab oldi, kimdir uning qo'lini siqsa, kimdir yelkasi-

ga qoqib qo‘yar, boshqa biri esa quchoqlab peshonasidan o‘par edi...

— Sen bolani galdagi bellashuvda qani bir ko‘raylik! — dedi bo‘yni yelkasiga botib ketgan bir polvonkelbat odam hazilaralash qilib...

— Falon oyning faloncha kunida qishlog‘imizda shunday katta bir to‘y bor, shunga borarsan! — dedi yana biri.

— Otingni sotish niyating-ku bo‘lmasa kerak?! — dedi boshqa bittasi. — Allakim, sen bilan otingning narxini kelishmoqchi bo‘lib turibdi.

Permanning esa shu damda qulog‘iga gap kirmas, ko‘zlari faqat Kiyik qizni qidirar edi.

* * *

To‘ylar ko‘ngildagidek o‘tgach, boshqa bir kun Qo‘shmurat sayis boshchiligida yana bitta keksaroq kishi Mahkamboynikiga tomon yo‘lga tushdi.

Qo‘shmurat sayis salom berib, ostonadan hatlarkan, yelkasidagi qizil cho‘g‘day holi gilamni yo‘g‘on bir narsani suyagandek devorga suyadi-da:

— “Boy-badavlatning moli o‘ziga qaytadi” deb bekorga aytilmagan, boy og‘a, biz ham shu holi gilamni chin egasiga topshiraylik deb keldik! — dedi.

— O‘rniga bizning ham bitta iltimosimiz bor, boy og‘a!

Birozdan so‘ng Qo‘shmurat sayisning “qahqaha”si bilan Mahkamboyning “xi-xi-xi”, “he-he-he”si qo‘shilib, o‘zaro uyg‘unlikda kuy-qo‘shiqday yangray boshladi...

Shunday qilib, yana bitta to‘yga bahona topildi-qoldi.

Turkman tilidan Ochil Tohir tarjimasi

QAQAMURAT ATOYEV

(1971)

1971-yil 2-noyabrda Mari viloyatining Vakilbozor tumanidagi Go'kcha qishlog'ida tug'ilgan. Turkman davlat universitetida o'qigan. Talabalik yillaridayoq gazeta va jurnallarda ishlay boshlagan. Uning "Omonat", "Gilsiyrat" kabi qissalari, "Dardisar", "Odamning iqboli", "Chilim" kabi qator hikoyalari e'lon qilingan.

Q. Atoyev yozgan asarlar rus, belorus, turk, o'zbek tillariga o'girilgan. Tarjimon sifatida jahon adabiyotidan ko'plab asarlarni turkman tiliga tarjima qilgan.

•

HALOKAT

Suv uchun iymoning ol yuzi qora,
Shayton suvga ani tobe ayladi.
Maxtumquli

Bizni Xudo urdi! Tong-saharlab, shirin uyquda yotarkanman, Azim og'a meni uyg'otdi:

— Ukajon, mashinangni o't oldir! — dedi. — Senga yomonam zo'r mijoz — kira bor. "Yelbo'zanga" borib, suruvga qo'y qo'shib qaytaylik. O'tgan oqshom Tog'on bilan qo'l tashlashdim. Birpasda molxonani bo'shataman-qo'yaman. Yigirma sakkizta qo'y. Qanday bo'larkin, sig'armikin moshinga? Sig'sa, ketaylik... Qo'ylar sal oriqrog'-u, lekin... Qari, tusoqlari... holdan toyib yiqilgani yo'q. Qo'ylar yosh bo'lgani uchun, tavakkal qilib qo'ya qoldim. Qani, hov tezlatgin. Issiqqa qolib ketmaylik!

Erta sahardan yo'lga tushganimizga kun og'gan mahalda "Yelbo'zan"ga yetdik. Kechqurun vaqtliroq yotib, ertasi tong bilan or-

timizga — qishloqqa qaytdik. Bir maromda yurib kelayotgandik, na Xudo urganiniyam bilganim yo'q, tushga yaqin sas-tovushsiz ingrab yotgan it topmas cho'l-sahroning o'rtasida ulovimiz buzulib turib qoldi. O'rta yo'lda qolishini oldindan sezdirmasdan, biron nima qilmasdan, binoyigina ishlab turgan "GAZ-53" bir-ikki bor siltandi-da, to'xtadi-qoldi. Kapotni ko'tarib, motorni qancha u yoq, bu yog'ini kovlashtirsam ham tuzatishning ilojini qilolmadim.

O'sha yerlarda sal chetroqqa ketib yengillanib kelgan Azim og'a qo'lini yuvayotib:

— Nima deyapti? — deb so'radi.

— Hech nima demayapti. Xuddi tili ortiga tortilganday jim.

— Yuradimi o'zi?

— Qaydam?

— Obbo!.. Bu nimasi? Oldinam shunaqa qilig'i bor edimi? — deganicha, u kepkasini olib yelim shishadagi suvni tikka boshidan quyib yubordi.

—Azim og'a! Bu nima qilganingiz-a, tavba! Bunday qilmang-da! O'rta yo'lda mashinaning buzilganini ko'ra bila turib ham, xuddi biz suvi serob katta ko'l bo'yida turganday tepangizdan suv quyib turishingizni qarang, — dedim og'rinib.

— Bor, ukam, bor. Hecham vahimaga tushma! Dovdirama! Rizqimiz tugamagan bo'lsa o'lmaymiz. Mashina yurmaganda-da, mashinasi yurib turgan bironta yo'lovchi kelib qolar. Kutib turaylik-chi!

Quyosh qaynab yotgan adoqsiz cho'l-sahroning o'rtasida qaysidir bir o'tkinchi mashinaning kelishini poylab kutib turish, o'z soyangni chopishga urinish emasmi? Tasodifan biron kimsaning yo'li tushib, kelib qolganida ham uning senga yordami tegadimi, yo'qmi, bu dargumon. Avvalo bu Xudodan, chindan mashinang yurmasligiga ko'zing yetdimi, vaqtni yo'qotma! Tepangdan olov purkab turgan bu sahroda vaqtni yo'qotmoq — ajalga qo'l ulgib oldingga chaqirishdan boshqa hech nima emas! Undan-da yomoni, yonimizdagi suv judayam oz.

— Azim og'a! Piyoda ketsak, qancha vaqtda manzilga yeta olamiz? — deb men bosiqlik bilan so'radim.

U esa osmon-u falakdan kelib :

— Kallang joyidami? — dedi. — Piyodalab qayerga ketmoqchisan? Mashinani tez haydaganingda bir kunlik yo'l bu. Tentak-ey!

— Unda nima qilamiz?

— Bir og'iz non yeylik-da, sabr qilaylik-chi. Sening mashinangni iziga tirkab torta oladigan traktormi, mashinami, o'tib qolar biron nima.

Mashinaning soyasiga kigiz to'shadik. Suvni tejash uchun, nonni mayda ushatib chaynadik. Ojiz umiddan ko'ngil uzmay, yonboshlab yotgan joyimizda pinakka ketib qolibmiz.

* * *

Hamma joyim terdan shilta suv bo'lib uyg'onsam, quyosh ancha ko'tarilgan ekan. Azim og'a hali dong qotgancha uxlab yotardi. Faqat, men uyquda paytim u uyg'onib, suvga durustgina qonibdi. Hali uxlamasimizdan oldin suvi og'zigacha lim-lim to'la turgan bir yarim litrlik yelim shisha hozir uning bosh uchida bo'sh yotardi. Mashina kabinasida eng so'nggi suv to'la yelim shisha qoldi. Agar uning bunaqa suv ichishi bo'lsa, o'sha qolgan bir shishagina suv ertalabgacha qolmay tugashi aniq. Qanday bo'lmasin tezroq qishloqqa yetib olish kerak. Hech bo'lmaganda biron suvli joyga yetib olishimiz kerak.

Azim og'ani uyg'otdim-da:

— Qolgan ozgina suvimizni olib yo'lga chiqaylik, og'a! — dedim. — Sabr qilib kutib ham ko'rdik. Keladigan narsa ko'rinmayapti. Izimizdan bironta ulovli yetsa — bu toleyimizning kulgani. Bo'lmasa, qimirlagan qir oshar deganlariday qilaylik.

— O'o'o'h! Piyodami? Bo'lmaydi, bo'lmaydi... Bosinriqab uyg'onganga o'xshaysan, nazarimda. Shu yerdan eng yaqin qishloqqacha piyodalar necha kunda bora olishini aytayinmi? — Azim og'a o'ng qo'lining ikki barmog'ini ko'tarib ko'rsatdi. — Kamida ikki kun! To'xtamay, dam olmay ketganda...

— Qo'ysangiz-chi, Azim og'a...

— Bo'pti, men to'xtadim. Unda sen ayta qol.

— Aytsam, hoziroq yursak, kechi bilan ertaga tong bilan yetib boramiz.

— Borasan, ha, borasan. Ko'nglingga shunday tuyulayotgandir. Ammo ... — deganicha u mashina kabinasidagi suvli shishaga yopishdi.

— Jon aka, eng so'nggi suvli shisha birgina shu. Siz haligina suv ichdingiz. Butun bir shishani haligina bo'shatdingiz. Men esa choshgohdan beri bir qultum ham ichganim yo'q. Mening ham og'zim qurib boryapti, — deb yalindim.

— Ukajon, men sendan ikki marta ko'p chanqayman. Qand kasalim bor, — deb u tikka turganicha qultullatib ikki qultum suv ichdi. Shishaning qopqog'ini burab yopdi-da, menga tomon irg'atdi. — Kun hammomday qizib borayapti-a. Hozir sen to'g'ri aytding, bu javzoda yo'lda qolsang, joningga oro kiruvchi narsa bu suv. Endi har gal menga ikki ho'plamdan ko'p suv berma. Chidashga urinaman.

— Azim og'a, suvni bir qultumdan ichsangiz bugina ertalabgacha yetmas. Ketaylik. Ketsak, adashmagan bo'lamiz.

— Oooh! Ukajonim, men chidayman. Xudo haqqi, rost aytyapman.

Qovrilib yotgan qumloq tubida poyi-piyoda qanday qilib yo'l oshayin? Yarim soat yurar-yurmay yiqilib qolarman-da, senga yuk bo'larman, yelkangga opichlab obketishingga to'g'ri keladi. Tushunayapsanmi? Yaxshisi, sen alahsirama. Sen meniyam sarsonimni chiqarasan. Bunday qilma, axir. Bir iloji bo'lib qolar.

Mashinani o't oldirmoqchi bo'lib, kun botguncha qancha harakat qilmay, baribir natija chiqmadi.

— Qaytgunimizcha u yoq-bu yog'ini ko'rsatib qo'yish kerak edi. Nima bo'lganda-yam uzoq yo'l, — degancha, Azim og'a norozi ohangda g'udrandi.

Indamadim. O'rta yo'lda chorasiz qolganimizga o'zimni aybdor hisoblardim.

* * *

Suvimiz tugadi. Bir-birimizga ba'zida bir-ikki og'iz gap tashlab, yulduz sanab yotibmiz. Qulog'ingni teshib yuborguday jimlik.

— Ajalimiz yetmagan bo'lsa, bir nima sabab bo'lar, — deb Azim og'a chalqancha yotgan joyidan yon tomoniga o'girildi.

— Xudo bor, aka. Agar shunaqa bo'lishini bilganimda, yo'lga chiqarmidim men? Ko'rdingiz-ku o'zingiz, qilt etmay, ravon yurib kelayotgan narsa, taqa-taq to'xtadi-qoldi.

— Sen ishonasanmi o'zi shunaqa har xil narsalarga?

— Qanaqa narsalarga?

— Xudo bor deganga-da...

— I-iye tavba, ishonmay bo'larkanmi? Ha, ishonaman, — deb ajablandim. — Siz nima, ishonmaysizmi?

U ancha vaqt jim yotgach:

— Bor, deb o'ylamayman, — dedi. — Sen ishonadigan bo'lsang, ayt, Xudo nima uchun bizning yo'limizni kesyapti?

— Xudo kesgani yo'q bizning yo'limizni.

— Unda kim? Agar kesmayotgan bo'lsa, qishloqqa yetib olishimizga imkon qilib berardi. Sen xolis turib ayt.

Azim og'aning go'daknikiga o'xshash bu arazli gaplariga kulgim keldi.

— Yoki bizni ko'rmayaptimikin? Yoki ko'rsa-da, bizni o'ldirmoqchi bo'lyaptimi?

— Ay, bilmadim men sababini, — deb bu jumboq savolga javob berishdan qochdim.

— O'vmat mulla aytgandi hov o'sha kun, boshga har qanday qiyin kulfat tushsa-da, bari Allohdandir deb. Alloh bandasini sinab ko'radi, — dedi. Qand kasalim bilan otash-olovning ichida bir ho'plam qora suvga zor bo'lib o'tirsam, nima qilishim kerak?

— Harakatimizni qilmasak, aka, boshqa nima deyman?!

— Ha, yo'q, sen ishonaman deganing uchun, shunga aytdim. Ishonaver, ishonma demoqchi emasman. Faqat men... Shunga jonim kuyadi...

— Men ham hayronman, Azim og'a...

* * *

Ertasi barvaqt Azim og'a:

— Qani, Xudoni yodlab, bismillo degin-da, bir harakat qilib ko'r, ajabmas, mashina o't olsa, — deya menga maslahat berdi.

Uning maslahatiga ko'ra ham ichimdan, ham tashimdan kalimamni qayta-qayta o'girib, jon kuydirsam ham mashina o't olmadi.

— Bilsam-bilmasam shuning tokida bir nuqson bor. Men Azim og'a, shuning elektr quvvat yo'lini bittama-bitta qo'lma-qo'l qilib ko'zdan kechiray, — deb yengimni shimardim.

— To'xta, to'xta... Avval Dovud payg'ambar yo'liga bir narsa atagin. Hazrat axir temirchilarning piridir.

— Aytdim, vah, o'zing qo'lla pirim, deb aytdim.

— Shundaymi-ya irimi? Ishonaman deganingdan so'ng. Eslatib qo'yay dedim. Aytgan bo'lsang, tuzatarsan.

— Kun isib ketguncha, aqlim yetsa-yetmasa, moshinning motorini to'liq ko'rib chiqdim. Aybini topolmadim.

— Sen cho'llamadingmi? — deb, Azim og'a quraqshab ketgan labini yaladi.

— Cho'lladim. Cho'llasam ham nima qila olardim?

— Suvning ilojini qilmasak bo'lmaydi. Qachon birontaning yo'li tushib kelib qolar ekan deb kutib o'tirsak, hech kim kelmasa... Kelmasmikan-a, kelib qolar-ey. Axiri o'tib qolar birontasi...

U umid bilan qarab turar ekan:

— Hoy shu atrofda bironta qush ko'rmadingmi? — deb, yetti uxlab tushga kirmaydigan g'alati savol berdi.

— Qanaqa qush?

— Farqi yo'q. Nomi qush bo'lsa bo'ldi. Qush ko'rinsa, shu yaqin atrofda suv bo'ladi demoqchi edim...

Shu yaqin tevarakda suv borligiga ko'zim yetmagani uchun:

— Esimgayam kelmabdi. Ko'rmadim deb o'ylayman, — dedim.

— Qani, unday bo'lsa, men shu tevaraklarga sin solib qaray-chi. Hoy, buragin-chi deydi, yana qaragin deydi, birontasi kelib qolar balkim... Mashinaning yonidan jilma, — deb Azim og'a suvdan bo'shagan yelim shishalarning ikkitasini qo'liga olib, u yoq-bu yoqqa qarashga ketdi.

Qancha tayinlab ketgan bo'lsa-da, men ham uzoq o'tira olmadim. "Old tomonni qarab ko'ray-chi, balki bironta cho'ponning qo'shxonasi ustidan chiqib qolarman", degan umidda qo'limga yelim shisha oldim. Ketishimdan oldin qumga Azim og'aning ko'ziga aniq-tiniq ko'rinadigan qilib, yirik harflar bilan "Oldinroqqa ketdim.Tezda qaytaman" deb yozdim. Ikki qir oshib, uchinchisi-

ga yetmay, bo'sh shisha bilan izimga qaytdim. Kelsam, Azim og'a hali qaytmagan ekan. Qumga yozgan xatimni o'chirib, mashinaning soyasiga cho'zildim.

* * *

Oftob qoq tikkaga kelib, burovga olib, olov purkayotgan pallada qarshimdagi balandlikdan patir-putur qilgancha, bitta tuya pastga qarab indi. Izida esa qo'lida saksovul chiviq tutgan Azim og'a.

Quvonganimdan ko'zimga yosh aylanib ketdi. Diydoriga zor qilgan mehribon onam ancha yillardan so'ng to'satdan oldimdan chiqib qolganday. Jadal chopib borib, tuyaning bo'ynidan quchoqlab oldim. Do'zaxga aylangan cho'lning o'rtasida chorasiz qolsang, bunday paytda tuyadan bo'lak najotkorni qayerdan topasan? Ikki kishi bo'lib mingashamizda, toki oldimizdan biron nima chiqquncha lapang-lapanglab yurib boraveramiz. Hech bo'lmaganda shu ulov bilan suvli joyga yetib olarmiz, axir.

— Tuya so'ya olasanmi? — deb, Azim og'a nariyoqdan kelarkan, guldurak ovoz bilan qichqirdi.

— Nima uchun so'yish kerak? — deb, men ajablandim. — Buni hecham so'ymaymiz, Azim og'a, tuyaga mingashib olamiz.

Bir fursat o'ylanib turgach u:

— Shu tuya bilan yo'l oshib, biron manzilga yetib olamiz demoqchimisan? — dedi. — Ichishga bir qultum suvi yo'q kishi bu olov — issiqda tuya bilan shuncha yo'lni bosib o'ta olashiga ishonasanmi?

— Nima bo'pti, o'ta olamiz. Nimaga o'ta olmas ekanmiz?! Asta-sekin qimirlayversak, yo'l unib boraveradi. Faqat bitta to'xtagan joyimizda harakat qilmay turaversak, so'ng kech bo'ladi.

— Ha-ay, ukaginam, es-hushingni yeb qo'yibsan. Oldingda necha kilometr cho'l yotganidan xabaring bormi? Senga bu mashina emas, unutma, bu tuya! Tuya minib ketding nima-yu, piyoda ketding nima, qanday tafovuti bor?

— Qimirlagan qir oshar...

— Esli-hushli yigit deb o'ylardim seni, tushunib turib ham yana...

— Buni so'yib nima qilmoqchisiz, aka?

Bu savolimga Azim og'a meni yanada dovdiratib:

— Suvini olmoqchiman, — deb javob berdi. — Qornida suv xaltasi bor. Eshitmaganmiding?

— Eshitgandayman.

— Necha litr chiqar deb o'ylaysan?

— Bilmadim anig'ini...

— Qani ipini ol unday bo'lsa, birinchi galda uni tushovlaylik. O'z boshiga cho'lga erkin haydab yuborilgan mol bu. Tamg'a bosib qo'yib yuboradilar, yil bo'yi sahroni emin-erkin kezib yuraveradi. Toki egasi izlab topgunicha...

Ip bilan uni bog'ladik.

— Mana, endi jonivor hech qayerga keta olmaydi. Nafasimizni rostlaylik. Sen boshini kesib ber, qolganini o'zim bir yoqlik qilarman, — deb, Azim og'a umrimda biron marta qilib ko'rmagan ishimni menga buyurdi. Ikki qo'lim qaltirab, o'rnimdan sakrab turgancha:

— Yo'q, yo'-o'q, Azim og'a, bu men eplaydigan ish emas. Men shu yoshimga kirib tovuq ham so'yib ko'rmaganman. Yaxshisi, aytganimni qilsangiz, so'ymaylik shu jonivorni. Siz minib tuyaning ustida o'tirsangiz bo'ldi, men no'xtasidan tutganimcha yetaklab piyoda ketaman. Ha, shunday qilaylik, birpasda boramiz. G'ayrat qilsak, — deb yalinib tavallo qilishga tushdim.

Azim og'aning jahli chiqib ketdi.

— Bor, pichoqni ol! — deb buyurdi baland ovozda. — Sen chanqagan emassan. Bu kishim tuya minib, manzil oshmoqchimish! Tur qani, oyoqlarini kullaklashga ko'maklash.

Tuyaning oldingi oyoqlarini tushovlab, arqon solib tortdik. Tapillatib ag'dardik-da, to'rtala oyog'ini birlashtirib kullakladik. Azim og'a pichoqni tuyaning bo'g'ziga ishqar, tig' tomog'ini kesayotgan paytda jonivor taqdiriga tan bermay, turqmoqchi bo'lib harakatga keldi, bo'kirdi...

Yarim soatga yetar-yetmas vaqtda Azim og'a tuyaning ichak-chavog'ini chiqarib tashladi. Ammo... ming afsuski! Uning ko'rgan bor azobi behuda havoga ketdi. Tuyaning ichida sassiq siydik qopidan bo'lak suv-ku u yoqda tursin, hatto suv xalta ham yo'q ekan.

Azim og'a g'azablandi, pushaymoni kech edi. Tuyani so'ygani uchun uning yuzida o'kinch sezilmadi.

— Och qolgan bo'lsang, go'shtidan kesib olgin-da, kabob qilgin, — deb, u men tomonga qaradi.

— Ochiqqan bo'lsak ham hech nima yemaymiz, Azim og'a. Yesak, battar chanqaymiz, — dedim xasta tovushda. Chanqoqlikdan hol-ahvolim yomonlashib, gapirgim kelmasdi.

* * *

Yaqinimizdagi yapasqi tepalik ustiga shu tevarakda sochilib yotgan quruq o'tin-cho'plarni terib bir yerga yig'dim.

— Nima qilmoqchi bo'lyapsan? — deya Azim og'a mashinaning soyasida yotgan joyida qichqirib so'radi:

— Tutun qilmoqchiman.

— Keyin-chi?

— Keyin esa shu tutun tikka balandlikka ko'tariladi, yaqin-atrofimizda odam qorasi bo'lsa, ko'rib qolar, axir. O'sha u yoq-bu yoqdan o'tib ketayotgan tutun tomonga kelishi mumkin. Ovchimi, sovchimi deganday... A?..

— U to'plagandan-a tutun bo'lmas, — deb Azim og'a mening xafsalamni pir qildi. Shugina yiqqan o'tining bunday issiqda bir zumda yonib kul bo'ladi.

Boshimni pastga egib yerga tikilganimcha o'tiraverdim.

— Faqat boshqa bir ish etsang bo'lar, — deb birozdan so'ng u menga ma'qul bir gap aytdi. — Guppingni tutatgin. U gupping (paxtali fufayka) ertalabgacha tutab turar, yonib tez tugamas. To'plagan o'tinlaringni tunda yoq. Kechasi olovning shu'lasi uzoq-uzoqlardan ko'rinadi.

— Yog' singib ketgan, ichi paxtali, eski guppim bor edi. Mashinaning tagiga kirib ta'mirlashga to'g'ri kelganida ostimga to'shar edim. Kichikroq gulxan yoqdim-da, guppini ustiga tashladim. Yon-tevarakka yongan eski kiyimning achimtiq hidi yayradi. Ingichka, oqish-qora tutun tikka yuqoriga ko'tarilib ko'k tomon yana balandlay ketdi.

Qorong'i tushgach to'plagan o'tinimni yoqib yubordim. Tash-tegrasiga yolqin — sochib shatirlab, bir soatga yaqin yondi.

Asta-sekin pasayib borib, eng oxirida ko‘zday kattalikda bir bo‘lak cho‘g‘ qoldi.

Na tutunga, na gurullab yongan olovga qora tortib hech kim kelmadi.

* * *

Tun oxirlab qolgan pallada bir joylarda shoqol uvladi.

— Oh! Ana! Shoqol uvlayapti. Siz ham eshitdingizmi? Shoqol bor joyda suv ham bor, — deb xayolimga kelgan fikrni aytdim.

Azim og‘a biroz quloq solib turgandan so‘ng:

— Shu uliyotgan shoqol seningcha hozir qayerlarda bo‘lishi mumkin? — deb so‘radi.

— Ovozi-ya, kunbotar tomondan kelayapti, — dedim.

— Kunbotar tomondan kelsa-da, baribiram shoqolni ko‘rolmaysan. Yaqindan kelayotganday bo‘lib tuyuladi. Lekin o‘zi, bizdan bir kunlik yo‘ldan uzoqda bo‘ladi. Kechasi sas uzoqqa ketadi-da.

— Shoqollar hali tuya etining hidini olgan-a emasdir? — deb, istihola bilan o‘zim gumon qilayotgan narsani aytdim.

— Qonning isini uzoqdan olgan ko‘rinadi, o‘zi chindan ham. Shoqol kelgan chog‘idayam o‘zimizga zarar yetkaza olmas. Agar qo‘rqayotgan bo‘lsang, damkranning ustini qum bilan yop. Ichak-chavog‘ini chuqurga ko‘mgin. Menda esa kuch-mador yo‘q, — deb u og‘rinib gapirdi.

Mador-u quvvat menda ham yo‘q. Salgina qimirlasam tashnaligim quturib ketadi. Shunday bo‘lsa-da, ko‘nglim joyiga tushmay, mashinadan belkurakchani olib tushdim. Muhimi, Azim og‘a tuyani uzoqroqda so‘ygan edi, yonida yopishga terisi bor edi. Shu uchun loshni qumda dumalatish qattiq toliqtirmadi.

Azim og‘a qo‘limdagi belkurakchaga tikilarkan:

— Shu yerdan suv chiqarmoqchi bo‘lsang, seningcha necha metr qazishga to‘g‘ri keladi? — deb so‘radi.

Birdan kallamga “Bu bir esi kirdi-chiqdi odam shu qum-barxanda quduq qazaylik deb qolsayam ajab emas” degan fikr keldi. Lekin men bosiqlik bilan:

— Chamasi yuz metrcha qazish kerak bo‘lar, — dedim.

* * *

Kechasi bilan ko'zimga uyqu kelmadi. "Haq" deb shunga quloq osmay, bir o'zim ketaverishim kerak edi. Bu vaqtgacha barcha azoblardan qutulib ketgan bo'lardim. Haliyam, kech emas. Ketay men. Tong oqargan paytda yo'lga tushaman. Azim og'a ham nima istasa shuni qilaversin" deb, dadillanib aniq bir maqsadga keldim.

— Xizr ota kelib suv bersa... — deb kutilmaganda Azim og'aning pichirlagan kabi ovozi zo'rg'a eshitildi. Men buni uyqudagi alahsirash degan xayolga borsam, chindan ham uyg'oq ekan. — Cho'l-sahroda qolib ketganga ko'mak berarmish deb eshitgandim.

— Xizr ota bo'lib yetishding deyiladi-ku. Uning istagida yo'liga chiqqanlarga aytilsa kerak-da. Mana, siz unaqa narsalarga ishonmayman, der edingiz-ku.

— Ishonmayman. Faqat aynan hozirning o'zida biron mo'jiza ko'rsatsagina, so'ngra ishonaman.

— Ko'rsatmasa-chi?

— Ko'rsatmasa, bo'lmaydi-da. Bitta sinoat ko'rmasang, so'ng qanday qilib ishonish mumkin?

— Biron sirli mo'jiza ko'rsatsa, so'ng bironta ishonmaydigan qolarmidi?

Biroz jimib, o'ylanib yotgandan so'ng, u horg'in sasda:

— Og'ir xasta yotgan odam o'limi yaqinlashib kelganda qanday holga tushishini bilasanmi? — deb qoldi.

— Bilmayman, — dedim.

— Bilmasang, bilib qo'y, odam o'lmasidan oldin qattiq chanqarmish. O'sha vaqtda shayton kelar ekan. Qo'lida muzday suvli ko'zasi bo'lib, suv ichishga taklif qilarmish. Tekin emas. Shaytondan muft narsa olib bo'larkanmi? Men eshitganimni aytayapman. O'vmat mullaning bergan gurungi bu. Birontayam so'zini o'zgartirganim yo'q... Undan so'ng shaytonning o'sha kelishi bu dunyoda shu odamni yo'ldan ozdirmoq uchun eng so'nggi sinov-imtihoni ekan. Eng oxirgi savdosi shu bo'lar ekan. Shu savdodan so'ng shaytonning ishi tugarmish. Faqatgina shu galdagisida shayton qo'lidan kelgan barcha nayrangini ishga solab ko'rarkan. Suv ko'rsatib aytarmish: "Dunyoga kelib qozongan savobingni bersang, suvga qondirayin" der ekan. Tushunayapsanmi?

"Tushunyapman" degan ma'noda bosh irg'adim.

— Demoqchimanki, aynan hozir shayton kelsa-da, chanqoqligimni qondirsa, men u dunyo degan narsaga ishonaman, Xudoga-da ishonaman.

— Bo'lmasa, ishonmaysizmi? — deb so'radim.

— Ko'zing bilan ko'rmagan narsangga qanday qilib ishonasan? — deb u mening savolimga savol bilan javob qaytardi.

"Bu-ku es-hushidan ayrilib, savdoyiga aylanib bo'libdi. Og'zidan nima chiqayotganini bilmaydi" degan fikrga bordim. Uning gaplariga javob bermadim. Sira gapirgim yo'q. Og'zim quruqshab, tilim tanglayimga yopishib borardi. Birozdan so'ng Azim og'aning uyquga ketib, uzun xurrak otib uxlayotganini eshitdim.

Borliqni dahshatli jimlik qoplab oldi.

* * *

Kechasi tush ko'ribman. Qo'lida ko'za tutgan Xizr ota ketib boryaptimikan deyman. Ko'zasida suv borligi bes-belli. Qancha yalinib iltimos qilmay, tuyaga minishga ko'nmayapti. Bir qarasam, u Xizr ota emas-da, Azim og'aning gurung bergan shaytonimikan deyman. O'zi ham, xayolimda bo'lmasa, Azim og'ani qidirayotgani kabi, qo'lidagi suvni ham go'yoki unga bermoqchimish. Azim og'a esa ko'rinmaydi. Ay, bir aralash-quralash tush...

* * *

Azim og'a meni uyg'otganida hali kun chiqmagan edi:

— Ukajon, kelgan, qaytgan tirik jon yo'q, — dedi. — Suvsiz— tashnalikdan o'lmaslik uchun nima qilamiz, deysan! Sen o'sha mening kechagi kun yurgan yo'limga o'tgin-da, izim bilan jo'nagin.

— Yurgin demang, akaginam! Suvsiz o'lib qolaman.

— O'lmaysan. G'ayrat qil. Ahvoling menikidan ancha durust. — U quruqshab ketgan lablarini yalab, quruq bir yutindi. — Mening izimni borlab ketaver. Narigi katta balandlikka chiqib, kuzat. Xudo qarg'agan bo'lmasak, nasibamizda yashash bor bo'lsa, oldingdan bironta tuya chiqib qolar.

— Tuya? Ay, akam-a sizning xolis qutqarishingizni qarang-a. Tuya deganingiz tuyani ham ko'rdik...

— Menga quloq solgin sen. Tutib bu yerga keltir. So'yamiz demayman. Mingashib olib, o'lib qolmasdan burun biron joyga oshaylik deyman. Yo'qsa, qotib qolamiz, tushundingmi? — dedi. U bu gal boshqacha ohangda gapirdi.

"Voh, men sizga necha marta yalinib-yolvordim. Quloq solmadingiz. Endi noiloj qolib, majbur bo'lgach..." deb yuziga gapirib tashlagim keldi. Lekin gapirmoqqa ham holim kelmasdi. Tilim shishib, og'zim zahar-zaqqum quyilgandek achchiq-taxir edi.

Bir og'iz:

— Xo'p, — dedim.

— Ipni ham olib ket har ehtimoldan. No'xtalab mingin-da qaytaver. Faqat bo'sh qo'l bilan so'ppayib kelib o'tirma tag'in.

Azim og'aning izini borlab yo'lga tushdim. Bittalab qadam bosib, qancha vaqt yurganimni bilmayman, axiri so'nggi kuchim bilan bir amallab katta barxanga chiqdim. Ortimga qarasam, mashina no'xat donasiday bo'lib, zo'rg'a ko'zga tashlanadi. O'tirib nafasimni rostladim, tuyaning yangiroq qumalog'ini izlab pastga tushdim. Oyoq izlariga tikilib, Azim og'aning tunov kungi haydab borgan tuyasiga shu yerlarda duch kelganini bildim.

Ko'ylagimni chiqarib qurigan saksovulning ustiga tashladim. Soyasida yonboshlab yotaverdim. Tag'in boshqa qiladigan ishning o'zi yo'q. Azim og'aning aytgani kabi, omadim kulib oldimdan bitta tuya chiqsa, o'ytib-bo'ytib uni no'xtalashga kuchim yetadiganga o'xshayman. Faqat o'sha tuya ko'rinmayapti. Yana bitta barxanni oshishimga quvvatim bor. Yarim soat yurib, navbatdagi barxanga chiqsam, u yerda ham tuya bo'lmasa, qolganiga qurbim yetmasdi. Undan so'ng, yana mashina turgan joygacha shu yo'lni qayta bosib borishim dargumon.

Kun tikka tepaga kelganida loxas tortib ortimga qaytdim. Chanqoqliklik tinka-madorimni quritayotgani ustiga boshim lorsillab og'riy boshladi. Ko'z oldim tinib qorong'ilasha boshladi. Yo'lda yiqilib qolmaslik uchun saksovulning qurigan shoxini qo'limga aso qilib oldim. "Bu yoqdan bo'sh, quruq borsam, Azim og'a ham

ming‘irlab boshlar, hamona, haligi joyga tuya bog‘lab qaytganday” deya yo‘lda g‘amgin o‘ylab borardim.

Zo‘rg‘a qimirlab, oyog‘imni sudrab, so‘nggi damimda yetib borarkanman, jazillab turgan kun tarafda pastlikda Azim og‘aning ikki bukilib yotganini ko‘rib seskanib ketdim. U mening ortimdan chamasi o‘ttiz qadamcha yurgan-u, holdan toyib yiqilib tushgan. Men dastlab uni chanqoqlikdan miyasi aynib, hushini yo‘qotgan deb o‘yladim. “Endi buni qanday qilib o‘ziga keltiraman?” deb qo‘rqib ketdim.

Oldiga borib, cho‘kkalab o‘tirdim-da, otini tutib ovozim boricha ikki marta chaqirdim. Ovozi chiqmadi. Qimirlatib ko‘rdim. Vujudim titrab ketdi. O‘libdi deb o‘yladim. Dam-xush yo‘q. Qo‘li issiq, faqat tomirlarida jon yo‘q, qilt etmaydi. Qota boshlabdi. Haliroq jon bergan bo‘lsa kerak, endi nima qilish kerak? Baxtim qaytdi!

Aljirganimcha, panoh istab tevaragimga tikildim. Mashinaning radiatoridan oqib, qumga singgan namga ko‘zim tushganida butun borlig‘im qaltirab ketdi. Deyarli emaklaganday mashinaning oldiga bordim. Radiatorning pastidagi rezina ichakcha qirqilibdi. Barchasini o‘sha zahotiyoq tushinib yetdim. Azim og‘a pichoq bilan rezina trubachani kesibdi va radiatorning zangli va sassiq suvidan ichib, zaharlanib o‘lgan edi.

Dovdiragancha qo‘rquvga tushib, talaygina vaqt o‘zimni qo‘lga ololmadim. Kun qibla tomonga og‘ib issiqning dami qaytgach, belkurakchani qo‘lga olib, Azim og‘aning yotgan joyining qabatidan qabrini qazdim. Suvday shirillab oqib yotgan shilg‘irt qumda joyini keng qilib qaziy olmadim. Faqat o‘zim bilganimcha barcha ishlarni qildim. O‘ng tomonga yotqizib, yuzini qiblaga o‘girdim. Mozori aniq-ma’lum bo‘lishi uchun bosh va oyoq uchiga qurigan saksovulning shoxlarini tiqib go‘rining tuprog‘ini balandroq qilib ko‘tardim. Ruh-arvohiga bag‘ishlab oyat o‘qib, duo fotiha qildim.

Tashnalikning zo‘ridan kuch-quvvatdan ayrilgan gavdam og‘irligini, ko‘nglim aynishini, boshim aylanib, miyamning lorsillab og‘riyotganini men faqat shundan keyingina anglab yetdim.

* * *

Qancha vaqt yotganimni, kechami yo kunduz, tushimmi yoxud hushim, o'likmanmi yo tirik, hech nimani aniq-tiniq ajrata olmayapman. Faqat qo'lida ko'za tutgan bir sharpaning sirli-sirli kulimsirab, atrofimda goh o'ng, goh teskari aylanib bir nimalar deyishga shaylanib, timirskilanib yurganini ko'raman. U xuddi ko'z-ko'z qilganday, ko'zasini egib, shaldiratib, suvini yerga to'kib ko'rsatadi.

Uni shu zahotiyoq tanidim. Tanidim-u, ichimdanmi, tashimdanmi, bilmadim ovozimning boricha baqirib:

— Yo'q bo'l! Yo'q bo'l deyapman senga! — deya qichqirdim.

Turkman tilidan Ochil Tohir tarjimasi

MUNDARIJA

Nazm-u nasr ko'rki *(Bahodir Karimov)*.....3

SHE'RLAR
(Olim To'rayev tarjimalari)

Ota Otajonov
Turkmanistonim mening.....9
Yakka bo'lib yo'l topgandan.....11
O'tinni yig'ganga yoqdir.....11
Choy boshida suhbat.....12
So'z qadri.....13
Soya.....13
Yoshlik yozi.....14
Olov yoqdim.....15
To'rg'ay qo'shig'i.....16

Qora Seyitliyev
Qardoshlik qo'shig'i.....18
Ashxobod.....19
Yuragim shunday deydi.....21
Sevgilim.....22
Senga.....23
Ilhom.....24

Berdinazar Xudoynazarov
Mustaqillik qo'shig'i.....26
Kech bo'lar.....27
"Jumla jahon boqdi bizga".....28
Sabr.....29
"Bu ajib kun bir qo'shiq".....30
"Ona tilim...".....32
"Bizni qo'llab...".....34
"Xaloyiqlar umr yo'li...".....36
"Sut sutga o'xshasin bola haqqiga...".....37
"O'zimning kimligim tanimoq bo'lib...".....38

"Egdirmoqchi bo'ldik tabiatni biz..." 38
"Yana nima ishonmay..." 39
"Suvga oyoq suqdim..." 40
"Yangicha bir ma'no oldi ko'p narsa..." 41
Eskinusxa she'rlar 42
"Bu umrimda ishim tushdi ko'plarga..." 43
Oddiy haqiqat....44
O'git 45
"Ko'nglim ochgan ajib olam..." 46
Maxtumquli....47

Karim Qurbonnafasov

Saboq....48
Umrimga pand....49
Qadr belgisi....52
Un oshi....53
Turkmanning....55
"Qum ham o'zi uchun hosil bermaydi..." 56
"Ko'chamizdan o'tib borar•odamlar..." 57
"Istagan manzilga yetmog'ing uchun..." 58
"Tenglashtirib ko'rdim ikki chanoqni..." 58
"Hayot haqda fikr qilsang..." 59
To'rt qiliq....60
Bosh aylanma....61
Shoirga....62
"Juda yaxshi narsa so'zni qizg'anmoq..." 63
Notanish tarjimonga xat....64
Sut 64
Gilamchi juvonga....65
Xudo bilsin....65
Adabiy formalar va janrlar haqidagi she'rlardan....66
Kenglik....68

Sapar O'rayev

Mening elim 70
Shoirmas....71

Haqqim yo‘q....72
To‘rtliklar....73

Nuri Bayramov
“Nuri Bayram, nima so‘zlaysan?...” 74
Tong shamolin ovozi....75
“O‘g‘limdan so‘rayman...” 75
Hamal chaqmoqlari 76
“Yana entiktirar bog‘larni javzo...”....77

Raimboy Sobirov
To‘rtliklar....79

Qaqaboy Ilyosov
Sakkizliklar....81
“Suv oqar. Yer qonar. ... ”....82
“Shamol og‘ochlarning shoxlarin ... ”....82
“Oqar yop ila yo‘l emakdosh, ... ”....83
“Toshdan sizib chiqqan chashma. ... ”....83
“Ariq qaz, Arnadan olib ... ”....84
Baxt....85

Nozik Onnatiyeva
Vatan 87
Keladi....88
Ajib 89
Yomg‘ir yog‘sa. 90

Qurbonnazar Ezizov
Seving meni... 92
So‘z....93
Tuprog‘im. 94
“Men o‘zimga do‘st izladim yoshlikdan”....95
Orzu....96
Ayriliq fasli....97
Kuz kechasi....98
“Sevdim kuz faslini”....99
Yurak....100

Shoir yuragi....101
Kuz ko'rki....102
Rassom bola....103
Sevgi *(Sonetlar guldastasi). Ochil Tohir tarjimasi*....104
Magistral. *Ochil Tohir tarjimasi*....112

Annageldi Og'aboyev
"Shoirni shoirga qarshi qo'ymanglar..." 113
Cho'plamalar turkumidan....114

Go'zal Shog'uliyeva
Kechirgin, yurak....116
Sog'indim....117
Yoz menga....118
Qo'ymagin dodga meni....119
"Sevgi yo'q" dedingmi?....120
Boqib kel....121

Omondurdi Annadurdiyev
"O'n kallali kungaboqar...". *(Matnazar Abdulhakim tarjimasi)* 122
"Dengiz ko'kka sapchir..." *(Matnazar Abdulhakim tarjimasi)* 123
"Kulardik..." *(Matnazar Abdulhakim tarjimasi)* 123
"Qog'oz suvga botsa..." *(Matnazar Abdulhakim tarjimasi)* 124
Olmaxon *(Matnazar Abdulhakim tarjimasi)* 124
"Sevgi yo'q deydilar..." *(Matnazar Abdulhakim tarjimasi)* 125
To'rtliklar *(Matnazar Abdulhakim tarjimasi)* 126
Munchoqlar tizimi *(Matnazar Abdulhakim tarjimasi)* 127
"Bir lo'li qiz..." *(Matnazar Abdulhakim tarjimasi)* 129
"Men yo'l o'g'li emas, men ..." *(Matnazar Abdulhakim tarjimasi)* 130
"Narigi sohildan qardosh ..." *(Matnazar Abdulhakim tarjimasi)* 132
"Kelsin dushman..." *(Yo'ldosh Eshbek tarjimasi)* 133
"Aldamaganim uchun ..." *(Yo'ldosh Eshbek tarjimasi)* 133
Balig'im *(Yo'ldosh Eshbek tarjimasi)* 134
Bu gullar orasida *(Yo'ldosh Eshbek tarjimasi)* 134
Bu dunyoda *(Yo'ldosh Eshbek tarjimasi)* 135
Ikki *(Yo'ldosh Eshbek tarjimasi)* 135
Hayotga muhabbat *(Yo'ldosh Eshbek tarjimasi)* 136

Xotira *(Yo'ldosh Eshbek tarjimasi)*.....136
"Oh, kimlarni ..." *(Yo'ldosh Eshbek tarjimasi)*.....137
Sen bahorim bo'lib kel *(Yo'ldosh Eshbek tarjimasi)*.....138

Ahmed Mammedov
Turkmaniston.....140
Bor.....141
Vatan debon.....142
Haqiqatmi?.....143
Deding — dedim.....144
Aylanay.....145
Inondim.....146
Sening ishqingmi?.....147

Qaqaboy Qurbonmurodov
Yashayman.....149
Dilbar.....150
To'rtliklar.....151

Bahorgul Karimova
Ulug'lik.....152
Tilga keldi.....153
Qiziman.....154
Davrona tushdi.....155

Qurbonniyoz Toshqin
"Ota, yaxshi ko'rar edingiz..." 156
Uch yuz oltmish avliyo.....158
"Erkka ega bo'ldim ..." 159
"Yaxshi ko'zlar uchun ..." 159

Tirkesh Sodiqov
Vatan.....161
Meros.....162
Ayollarga orzularim.....164
Sening xatlaring.....165

Otamurod Otaboyev
She'riyat....167
Bizning elda....168
Sen ne uchun....169
Xotira yozuvchiga qo'llanma....170
Turkmancha qo'shiq....171
Vatanni tushunmoq....172

Og'ageldi Ollonazarov
Sanoq *(Abdurahmon Akbar tarjimasi)* 173
Ukam tush ko'rgan emish *(Abdurahmon Akbar tarjimasi)* 174
Qarg'aning o'tinchi *(Abdurahmon Akbar tarjimasi)* 175

Ka'ba Sultonmurodova
Vatan....176
Mening elim edi....177
Yana bahor keldi....178
Navro'z kelganda....179
Olqish....180
Ilhom....181

Mive Tuvaqboyeva
Vatanim....182
Odamlar orasida....184
Subh yellari....185
Qalbimda bahor....186

Mamatnazar Bobonazarov
Iltimos....187
Ishlaylik....188
Shukur baxshi....189
Sevgi....189
Kuzgi tuyg'ular....190
Tol....191

Annatuvoq Qaqayeva
O'zga baxt istamam.... 192

Dalam.....193
Iskandarning vasiyati.....193
Nasihat.....194
Intizor bo'lar.....195
Yurak istar.....196
Vatan haqida ikki she'r.....197
O'zingdan boshla.....199

O'razmurot Murodov
Bahodir Karim tarjimalari
"Firog'iyning oyoq izi — bir marjon..." 200
Kitob dunyosi.....202
"Tagor"ga bosh qo'yib yotsang... 204

HIKOYALAR

Beki Saytaqov
Bola Baxshi. *Masharif Safarov tarjimasi*.....206

Nobatquli Rejebov
Olishuv. *Olim To'rayev tarjimasi*.....245

O'rozquli Onnayev
Besabab butaning boshi qimirlamas. *Olim To'rayev tarjimasi*.....257

Juma Xudayguli
Guduman Baxshi. *Ochil Tohir tarjimasi*.....263

Juma Xudayguli
Qarg'ish. *Ochil Tohir tarjimasi*.....269

Ko'mek Kuliyev
"Ko'kbo'ri". *Ochil Tohir tarjimasi*.....276

Qaqamurat Atoyev
Halokat. *Ochil Tohir tarjimasi*.....290

T 89 Turkman zamonaviy adabiyoti antologiyasi [Matn]: nasr va nazm/ to'plovchi va nashrga tayyorlovchi Bahodir Karim. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022. – 312 b.
ISBN 978-9943-8721-6-5

UO'K 821.512.164-3
KBK 84(5Tur)

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

TURKMAN ZAMONAVIY ADABIYOTI ANTOLOGIYASI

99-jild

Adabiy-badiiy nashr

Muharrir *Dildora Abduraimova*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Dildora Abduraimova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva, Islom Azamatov*

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$.
Ofset qog'ozi. "PT Astra Serif" garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 19,5. Nashriyot-hisob tabog'i 15,08
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 165-1/22 Buyurtma raqami № 22-382

Original maket O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining "O'zbekiston" nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

"O'zbekiston" NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

TURKMAN ZAMONAVIY ADABIYOTI ANTOLOGIYASI